


327.  
G-29.

G'afforov Ya.X.

# XALQARO TASHKILOTLAR HAMKORLIGI

## II-Qism



O'quv qo'llanma

327.

6-29.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

G'afforov Ya.X

XALQARO  
TASHKILOTLAR  
HAMKORLIGI

O'quv qo'llanma

II-Qism

Toshkent  
Shafoat Nur Fayz  
2021



**G'afforov Ya.X.**

Xalqaro tashkilotlar hamkorligi [Matn] : o'quv qo'llanma / Ya.X.  
G'afforov.- Toshkent: "Shafoat Nur Fayz".2021.-264 b.

Mazkur o'quv qo'llanma ikki qismdan iborat bo'lib, uning 2-qismida hozirgi zamor aloqalarida xalqaro tashkilotlar va davlatlararo hamkorlik yo'llari yoritilgan. Jumladan, hozirigi davrda ShHT, MOHT, MDH kabi xalqaro tashkilotlarning o'zaro iqtisodiy siyosiy va madaniy hamkorlik aloqalari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek dunyo mamlakatlarning bugungi taraqqiyoti va hamkorliklarini rivojlantirishda nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning o'rniaga alohida ahamiyat berilgan.

Данной учебной пособие освежайте сотрудничество международных организаций и государств на современном этапе.

Рассматривая также в период интеграционные ситуации история становления мирового сотрудничество, роль международных организаций в обеспечении регионального сотрудничество задачи на пути на осуществления.

The given text book is devoted to consideration of directions of international organizations and states in our days.

The forming of world community in conditions of integration, activity of international organization in the sphere of regional cooperation are also considered.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 05.10.2020 yil 522-soni buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan

**Tuzuvchi:** t.f.n.dots. G'afforov Ya.X.

**Taqrizchilar:** t.f.d. G'ulomov X.G'.

t.f.n dots. Xolliyev A.G.

t.f.n.dots. Alimova R.

**Ma'sul muharrir:** t.f.n.dots. O'roqov D

**ISBN 978-9943-6743-2-5**

© "Shafoat Nur Fayz" nashriyoti, 2021 y.

© G'afforov Ya.

**Mundarija**

Kirish.....	5
-------------	---

**I BOB. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti**

1.Tinchlik va xavfsizlik uchun kurash ShHT ning asosiy yo'li.....	9
2.Mintaqaviy va xalqaro muammolarni hal etishda ShHT ning roli .....	24
3.ShHT ga a'zo davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash vazifalari.....	33
4.Iqtisodiy va siyosiy hamkorlik hamda xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekiston - ShHT hamkorligi.....	45
5.Shanxay Hamkorligi Tashkilotining xalqaro terrorizmga qarshi kurashishdagi o'rni.....	59

**II BOB. Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti**

1.Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida yangi integratsion jarayonlarning boshlanishi.....	68
2.Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlarning kelajakdag'i istiqboli .....	85
3.MOIХ negizida yangi tuzilma (MOHT) ni tashkil etish to'g'risidagi meyoriy huquqiy asoslar .....	99
4.O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro hamkorlik masalalaridagi aloqalari .....	112
5.Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan holi zonaga aylantirishda O'zbekiston Respublikasining tashabbuslari .....	124

**III BOB. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi**

1.O'zbekiston va MDH hamkorligining boshlanishi .....	140
2.O'zbekistonning Rossiya, Qozog'iston va MDH ning boshqa davlatlar bilan har tomonlama aloqalari.....	145
3.O'zbekistonning Markaziy Osiyoda ekologik muammolar, diniy eksteremizm va giyoxvandlikni oldini olish borasida MDH doirasidagi faoliyati .....	165

4.O'zbekiston-MDH: madaniy, ilmiy-texnikaviy va ta'lim sohasidagi hamkorliklar.....	168
5.MDH faoliyatiga tahliliy nazar.....	180
6.MDH doirasida davlatlarning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari hamda kollektiv xavfsizlik tizimini yaratish istiqbollari.....	190
7.CCCR parchalangandan keyin MDHning o'rni hamda hozirgi bosqichda hamdo'stlikning rivojlanishi muammolari.....	205
8.O'zbekiston Respublikasining Xalqaro Tashkilotlar bilan hamkorlikda xalqaro maydondagi tinchlik va hamjihatlikka asoslangan tashqi siyosati.....	223
IV.Xulosa .....	252
V. Foydalanimagan adabiyotlar.....	254

## Kirish

XX asrning oxirlariga kelib davlatlar o'tasidagi muvozanatni saqlashda va o'zaro hamkorlik munosabatlarida-xalqaro tashkilotlarning roli katta ahamiyat kasb eta boshladi. Ayniqsa Shanxay Hamkorlik Tashkilotining o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ldi:

Birinchidan, ushbu tashkilot mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasini bino qilishda tizim yasovchi funksiyani bajaradi. Bunday funksiya mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan ShHT konsepsiyanining hadlarini yaratish va uzlusiz takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, ShHT katta geosiyosiy va geoiqtisodiy makonni qamrab olgan makromintakada yuzaga kelishi uning aynan shu makonda mavjud boshqa xalqaro tuzilmalar bilan xalqaro xavfsizlik masalalarida baham jihatlikka intilishi shart.

Mamlakatimizning yangi yo'nalishlaridan yana biri asrimizning so'nggi yillarida juda ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishidir. Albatta bu tashkilotlarga a'zo bo'lish yurtimizning xalqaro maydonda nufuzini yuksak darajada ko'tarish bilan birgalar bilan turli siyosiy anjumanlar o'tkazishga ham imkoniyat yaratadi. Har qanday mamlakatning jahondagi nufuzi uning iqtisodiy va intellektual salohiyati , dunyo sivilizatsiyasi ,fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi ayni chog'da umum e'tirof etilgan xalkaro me'yorlarga nechog'lik amal qilishi xalqning turmush darajasi bilan belgilanadi. Dunyo hamjamiyatida o'ziga xos o'rin egallab borayotgan O'zbekiston o'z ichki va tashqi siyosatida ana shu mezonlarga tayanadi. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligi davrida O'zbekistonning Xalqaro Tashkilotlar bilan siyosiy diplomatik, savdo-iqtisodiy, ilmiy-madaniy aloqalari nihoyatda keng rivojlandi va bu bir qator yangi yo'nalishlar bilan bog'likdir. Bu yangi yo'nalishlar zaminida Sho'ro hokimiyati yillaridagi aloqalarga nisbatan katta farqi bo'lgan siyosat turadi. Agar u davrdagi asosiy e'tibor faqat sotsialistik taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlarga qaratilgan bo'lib, kapitalistik mamlakatlar bilan "Ehtiyyotkorlik" tamoyiliga amal qilingan bo'lsa endi manzara butunlay o'zgardi va jahoning barcha davlatlari bilan teng huquqli aloqalar o'rnatishga harakat qilinmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizning ichki siyosati "Inson va uning manfaatlari har narsadan ulug'" degan

tamoyil asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoitini yaratib berish, uning haq-huquq va erkinliklarini kafolatlashi, ozchilikning ko'pchilik irodasiga bo'yusunishi, shu bilan birga, ozchilik fikrining ham ko'pchilik tomonidan hurmat etilishi kabi demokratik qoidalarni o'z ichiga oladi O'zbekiston o'z tashqi siyosatida va xalqaro tashkilotlar bilan xamkorligida barcha davlatlar bilan teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish. ularning ichki ishlariga aralashmaslik, umuminsoniy qadryatlarga sodiqlik, tinchlik va xavfsizlikni asrab-avaylash, xalqaro huquq me'yorlarining ustunligi kabi tamoyillarga amal qiladi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda mamlakatlarning siyosiy sohalaridagi yaqinlashuvi haqida gap borar ekan, yana bir obyektiv holatni unutmashimiz lozim. Bu mamlakatlarning, xususan Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizligini va siyosiy barqarorligini ta'minlashdan iborat. Eng avvalo, xavfsizlik deyilganda, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy xavfsizlikni tushunmoq kerak. Bu sohadagi Hamkorlik barcha mamlakatlarning tinchligi asosiga qurilmog'i, mamlakatlarning qaysi maskuraga amal qilishidan qat'iy nazар, bag'rikenglik, fikrlar xilma-xilligiga asosan qurilishi lozim. Bir paytdan qolgan dogmalar, har bir qo'shnida o'z dushmanini ko'rish odati bugungi kunda mamlakatlararo munosabatlarni o'rnatishga imkon bermaydi.

Respublikamizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi masalasi faqat uning milliy davlat mustaqilligiga erishgandan keyingina hal etilishi mumkin bo'lgan muammolar sirasiga kiradi. Chunki Respublikamiz sobiq ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan totalitar tuzum tarkibidagi rivojlanishi shu qadar cheklab qo'yilgan ediki, bunday sharoitda boshqa mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqalar o'rnatish xususida gapirish ham mumkin emasdi. Faqat milliy mustaqillikni qo'lga qiritgandan so'nggina O'zbekiston uchun dunyodagi turli davlatlar bilan, jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham xalqaro munosabatlarni o'rnatish imkoniyati paydo bo'ldi. Bunday munosabatlar endilikda tasodifiy va uzuq-

yuluq ravishda emas, balki doimiy hamda ijtimoiy hayotning bircha sohalarini qamrab oluvchi keng miqyosli aloqalar tarzida amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki MO davlatlarining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishi uzoq muddatga mo'ljallangan maqsaddir. Demak, mintaqaviy hamkorlik ikki yoki undan ortiq qatnashchilarni bir necha formatni qamrab olishi bilan shartlanganligi uchun u kun tartibida turgan masalalar va sherik davlatlar manfaatlari mutanosibligiga bog'lik. Shuning uchun Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkilotining Markaziy Osiyo davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Qиргизистон va Tojikiston) bilan tuzilgan sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi bitimlarga (ShHB) asoslanadi.

Bugungi kunda Sobiq Ittifoq davridagi Respublikalar Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkiloti safida faol ishtirok etib kelmoqda. MDH ning tarkibiy tuzilishi Sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davlatlardan iboratdir (Boltiqbo'yи davlatlari va Gruziyadan tashqari). Ushbu davlatlarning tarixi, madaniyati, iqtisodiy va xo'jalik tizimi umumiylikka ega. Bu davlatlar qariyb 70-yil davomida bitta siyosiy kuch tarkibida bo'lganligi ham ma'lum. Yana shunisi ham ma'lumki sotsializm imperiyasi deb atalmish bu ittifoq (sobiq SSSR) o'z kelajagiga ega emas edi. Ya'ni real hayotiylikka asoslanmagan maqsadlarni va'da qiluvchi bu tizim qachondir barbob bo'lishi o'z vaqtida ham aniq bo'lgan edi. Iqtisodiy, ho'jalik va ijtimoiy-siyosiy qo'yingki jamiyatni barcha sohalarini birlashtirib turuvchi bu tizimning rivojlanishi uchun hech qanday asoslar yo'q edi. Endilikda bo'lsa mustaqillikka erishgan bu mamlakatlar yangi tizim sharoitida rivojlanish yo'lida katta to'siqlarga duch kelayaptilar. Iqtisodiy hayot bir-biri bilan uzviy bog'langan bunday sharoitda ular taraqqiyot yo'lida bir qator muammolar bilan yuzlashayaptilar. Ana shunday sharoitda ushbu davlatlarning hamkorlik aloqalarin qayta tiklashi katta yutuq bo'ldi deb aytish mumkin. Bunday aloqalarning yo'lga qo'yilishi mintaqaviy hamkorlik sari muhim qadam sifatida baholanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarining ushbu integratsiya tarkibidagi faol siyosati bugungi kunda mazkur davlatlarning jahon hamjamiatidagi o'rnnini belgilab bermoqda. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizning MDH davlatlari bilan aloqalar

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar.T. "O'zbekiston" 2000 yil. 31-39 betlar

O'zbekiston tashqi siyosatining muhim ustuvor yo'nalashlaridan biridir. O'zbekistonning tashqi siyosiy yo'li barcha xalqaro tashkilotilar bilan har tomonlama hamkorlik qilishga yo'naltirilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek "Biz

O'zbekistonning MDH doirasidagi huquqiy bazasi va hamkorligi holatini tubdan qayta ko'rib chiqish va shu asosda uni kengaytirish uchun imkoniyatlar istiqbolini belgilab olish rejalashtirganimiz Bizning pirovard maqsadimiz-O'zbekistonning Hamdo'stlik doirasidagi hamkorligini faollashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"<sup>1</sup> ni ishlab chiqishdir.

Bularning barchasi munosabatlarimizda prinsipi jihatdan yangi sahifa ochishiga, keng ko'lamli va samarali sheriklikni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishiga ishonaman"<sup>2</sup>

Mazkur o'quv qo'llanmada tarixiy va madaniy jihatdan yaqin bo'lgan xalqlarning madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorligi hamda ularning xalqaro tashkilotlar va davlatlararo munosabatlardagi o'rni ko'rsatib o'tilgan.

## I BOB.

### SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.

#### 1.Tinchlik va xavfsizlik uchun kurash ShHT ning asosiy yo'li

Dunyo mamlakatlarining bugungi taraqqiyoti va hamkorliklarini rivojlantirishda nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. XX asr ohiri va XXI asr boshlariga kelib ana shunday yirik xalqaro tashkilotlardan biri sifatida shakllangan - Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) Jahon hamjamiyatidan alohida o'rin egalladi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) tuzilganiga ko'p bo'lgani yo'q. Lekin o'tgan qisqa vaqt davomida u o'zining samaradorligini to'la namoyon etdi va dunyo hamjamiyatining e'tiboriga tushdi. Jumladan 2003-yili Sankt - Peterburg shahrida tashkilotning asosiy ta'sis hujjati - Hartiyasi qabul qilindi. 2004-yilda Pekinda uning kotibiyyati, Toshkentda esa Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) doimiy faoliyat ko'rsata boshladi.

ShHT ning asosiy vazifalari xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash hamda savdo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdir. Shu yo'nalishlardagi hamkorlikni izchil rivojlantirilmoqda. 2020-yilgacha bo'lgan davrda ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilingan, terrorchilikqa, ekstremizm va ayirmachilikka qarshi birgalikda kurash to'g'risida bitim imzolangan.

ShHT faoliyatida asosiy e'tibor amaliy hamkorlikka qaratilmoqda. ShHT ning ishchi organlari ham, ularda ishlovchi xodimlar ham ko'p emas. Kotibiyyat va mintaqaviy aksilterror tuzilmasi tashkilotning uzluksiz faoliyatda bo'lishini ta'minlamoqda. ShHT sammitlari har yiliga bir marta bo'lib o'tadi.

ShHT ning oliy organi Davlat rahbarlari kengashidir. Hukumat rahbarlari, tashqi ishlari, iqtisodiyot va savdo ishlari vazirlarining kengashlari oliy darajadagi uchrashuvga puxta hozirlik ko'rilib shi ta'minlaydi va amaliy takliflarni ishlab chiqadi. Xavfsizlik kengashlari kotiblari va milliy muvofiqlashtiruvchilar o'rtasida muntazam maslahatlashuvlar yo'nga qo'yilgan.

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T. O'zbekiston. 2018 y. 2-jild. 328-bet.

Binobarin, bugungi kunda yetuk xalqaro tashkilotga aylanib, faoliyat doirasini kengaytirayotgan, o'zi qamragan ulkan mintaqadagi ko'plab muammolarni yechishga qodir bo'lgan ShHT xaqli ravishda xalqaro hamjamiyat e'tiborini tortmoqda. 2004-yilning deqabrida u BMT Bosh assambleyasida kuzatuvchi maqomini oldi. 2005-yil aprelida ShHT bilan ASYeAN hamda MDH o'tasida o'zaro anglashuv memorandumlari imzolandi. Bular tashkilotning xalqaro maydondagi faolligi, jahonda u bilan hamkorlikka qiziqish ortib borayotganligidan dalolatdir.

2007-yil, 15-16 avgust kunlari Qirg'izistonning Bishkek shahrida bo'lib o'tgan ShHT Davlat rahbarlari kengashida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov - "Men bu yerda Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan ShHT ning xavfsizlikning mintaqaviy va global modelini shakllantirishda nufuzli xalqaro tashkilot sifatidagi, strategik muhim va ulkan mintaqqa hisoblangan Yevroosiyo tinchlik va barqarorlikni saqlashning g'oyat muhim qafolati sifatidagi tobora o'sib borayotgan o'rni va ahamiyati to'g'risida bildirilgan fikrlarni qo'llab - quvvatlayman. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki. ShHT bugungi xalqaro terrorizm, ayirmachilik, ekstremizm va tobora avj olib borayotgan narkotiq tajovvuzga qarshi kurashning muhim markaziga aylanmoqda".<sup>1</sup> - degan edi.

Bugungi kunda ShHT va boshqa xalqaro tashkilotlar hamkorliklari birinchi navbatda ko'plab xalqaro siyosiy va iqtisodiy muammolarni hamjihatlikda yechish imkoniyatlarini, jumladan mamlakatdagi va umuman mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari bir qator boshqa muammolar ham mavjudki, ularni hal etish uchun albatta xalqaro munosabatlar taqazo etiladi. Hozirgi davrda ShHT va boshqa xalqaro tashkilotlarning o'zaro iqtisodiy va siyosiy hamkorliklar o'rnatish masalasi dolzarb masalalardan biridir. Chunki ShHT ning yangi asrdagi taraqqiyoti ko'p tomonlama ana shu vazifalarni aniq, va ravshan xal etilishiga bog'lik.

<sup>1</sup> I.A. Karimov ShHT ning Bishkek sammiti. "Xalq so'zi" gazetasi. 2007 yil. 17 avgust.

Ma'lumki, XXI asr boshlaridan boshlab barcha xalqaro tashkilotlar qatori ShHT da ham yangidan - yangi o'zgarishlar sodir bo'lmokda. Bir so'z bilan aytganda, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni, xavfsizlikni ta'minlash, jamiyat hayotida yuz berayotgan isloxtolarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha jiddiy ishlarni amalga oshirmoqda. Bu ishlar jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning muhim shartlaridan biri va asosiy omili sifatida baxolanmoqda. ShHT ning dunyo hamjamiyati bilan har tomonlama hamkorliklarini tarihiylik jihatidan o'rganish bugungi kun va kelajagimiz yoshlari uchun g'oyat muhimdir. "Biz Shanxay Hamkorlik Tashkilotini tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, birinchi galda, xalqaro terror, diniy ekstremizm, bosqinchi ayirmachilik va narkobiznes kabi mintaqaviy va dunyoviy xavfsizlikka tahdid soladigan xavf - xatarga qarshi kurashda ochiq, o'zaro foydali sheriklik va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmi, deb bilamiz"<sup>1</sup>, bunday hamkorlik hech bir mamlakatning manfaatlarini qamsitmaydi.

Hozirgi davrda dunyo va mintaqada katta nufuz va salohiyatga ega bo'lgan ushbu tashkilotning faoliyati jahon jamoatchiligining qiziqishi va e'tiborini o'ziga qaratmokda. Tabiiyki, bunday qiziqishning muayyan maqsad va vazifalari bor. Bu haqda gapirganda, avvalambor, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining tarixan qisqa bir muddatda nafaqat shakllanish va taraqqiyot jarayonini bosib o'tganini, balki bir yarim millardan ortiq aholi yashaydigan mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, siyosiy, iqtisodiy va sotsial - gumanitar sohalarda hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga har tomonlama qodir bo'lgan xalqaro tashkilot sifatida o'zini namoyon qilayotganini ta'kidlash lozim. ShHT ning ayni paytdagi maqsad va vazifasi aniq bo'lganligi uchun ham hozirgi paytda bu tashkilotning siyosiy nufuzi tobora mustahkamlanmokda, uning faoliyatida ishtirok etish istagini bildirayotgan mamlakatlar soni ortib bormokda. Chunki, ShHT ning tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi, ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy, inson huquqlari bilan maummolarni xal etishdagi ahamiyati kattadir.

<sup>1</sup> И.Л.Каримов. ШХТ га а'зо давлатлар раҳбарларининг саммитида сўзланган нутк. "Ватан равнаки учун хар биримиз маъсулмиз". Т. "Ўзбекистон" 2001 йил. 9-жилд. 375-376 бетлар.

Barchaga ma'lumki asrimiz boshlariga kelib butun sayyoramizdagi ijtimoiy - siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi Shanxay Hamkorlik Tashkilotining o'rni va nufuzi kundan - kunga ortib bormokda. Bugungi kunda dunyo va mintaqada katta nufuz va salohiyatga ega bir qator davlatlar a'zo bo'lgan ushbu tashkilotning faoliyati jahon jamoatchiligining qiziqliishi va e'tiborini o'ziga qaratmokda. 2006-yilning iyun oyidagi sammitida tashkilotga a'zo bo'lgan Xitoy Xalk Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat rahbarlari bilan birgalikda to'rtta kuzatuvchi mamlakat - Hindiston, Pokiston, Eron, Mo'g'iliston vakillari ishtirok etdi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda 15 ta hujjat imzolandi. Jumladan, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining besh yilligiga bagishlangan deklaratsiya, xalqaro informatsion xavfsizlik to'g'risida bayonet, tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil etish tartibi haqidagi bitim, ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risida shartnoma, ishbilarmonlar kengashining faoliyati, iqtisodiy, moliyaviy va bank tizimlari faoliyati haqidagi hujjatlar ham qabul qilingan. Ayniqsa, uchrashuvda mintaqamizda xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, tinch va osuda hayotimizga tahdid soladigan har qanday xavf -xatarlarga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiy va moliyaviy, jumladan, investitsion hamkorlikni yanada kengaytirish, transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish, tashkilotga a'zo davlatlar joylashgan mintaqaning boy suv - energetika zahiralaridan, yer usti va yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish bilan bog'lik hamda o'z yechimini ko'tayotgan masalalar muhokama qilindi. Kelgusida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi fikr va mulohazalar bildirishdi:

Birinchidan, boshqa barcha hayotiy masalalarning negizini belgilab beradigan mintaqamizda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash va mustahkamlash, xalqaro terrorizm va ekstremizm, separatizm, narkotrofiq kabi zamonaviy tahidlarga qarshi kurash masalasi bundan buyon ham ShHT ning o'ta muhim va ustivor vazifasi bo'lib qolishi lozim. Bu maqsadga erishish uchun, avvalambor, mazkur tashkilotga a'zo bo'lgan barcha davlatlarning mavjud xavf - xatarlarni yagona prinsiplar asosida bir so'z bilan qarashi va baholashi talab etiladi.

Ikkinchidan, mana shunday tahidlarni oldini olish mintaqamizga, millionlab odamlarning hayotiga zarar yetqazishi mumkin bo'lgan yovuz kuchlarning faoliyatini to'g'ri baholashgina emas, ularga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda kurashish, tashkilotga a'zo davlatlarning hech birida qo'poruvchilik harakatlarini sodir etishga yo'l qo'ymaslik. barcha kuch va imkoniyatlarni shu maqsad atrofida birlashtirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmokda. Eng muhimi, bunday terrorchilik xurujlari, aytaylik, bir davlat hududida sodir etilganda, ShHT ga a'zo boshqa bir davlatning bu ofat bizni chetlab o'tadi, biz faqat tranzit mamlakatmiz yoki xalifalik tuzumini o'rnatish da'vosi faqat Farg'on-a vodiysiga tegishli, degan mazmundagi soxta qarashlar bilan yondoshuvi mutlaqo nomaqbul bo'lib, bunday pozitsiyani umuman oqlab va qabul qilib bo'lmaydi. Ana shunday xavf - xatarlarga qarshi birgalikda izchillik va qat'yat bilan kurash olib borilgan taqdirdagina bunday hamkorlik ijobiy natija berishi mumkin. Uchinchidan, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan siyosiy iqtisodiy va boshqa muammolarni yechishda mazkur tashkilot va unga a'zo bo'lgan davlatlar orasida o'zaro xurmat va ishonch muhitini mavjud bo'lgandagina qabul qilinadigan qarorlarning samarasi va ta'sirini amalda sezish mumkin.

To'rtinchidan, ma'lumki Shanxay Hamkorlik Tashkiloti o'z safida hududi, aholisi va iqtisodiy salohiyati jihatidan turlicha mavqega ega bo'lgan davlatlarni birlashtiradi. Albatta ushbu davlatlarning barchasi ham bu tashkilot doirasida o'z milliy manfaatlarini ko'zlagan holda siyosat olib borishga intiladi. Mana shunday noziq vaziyatda o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlash uchun avvalo nima keraq degan savolga, men xalqaro diplomatiya tilida keng qo'llanadigan manfaatlar balansi, ta'bir joiz bo'lsa, manfaatlar muvozanati, degan mezoni doimo saqlash, unga rioya qilish va bu masalani e'tibor markazida tutish keraq deb javob bergen bo'lardim'!

Darhaqiqat, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti mintaqamizdagagi mustaqil davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmat muhitini

<sup>1</sup> "Халқ сўзи" газетаси. 2006 йил. 15ионь.

chuqurlashtirishga hizmat qiladi. xavfsizlikni ta'minlash masalalarini yechish, tinchlik va barqarorlikni saqlash. xalqlarimizning farovonligini oshirishda mustahkam poydevor yaratishga hizmat qiladi, desak xato bo'lmaydi<sup>2</sup>.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) - mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bo'lib. u Xitoyning Shanxay shahrida - Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston davlat rahbarlari uchrashuvida 2001-yil, 15-iyunda tuzilgan. Bu tashkilotning vujudga kelishi tarifi "Shanxay beshligi" deb atalgan uyushma faoliyati bilan bog'lidir. Dastlab Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston davlatlari rahbarlari ("Shanxay beshligi") uchrashuvi bo'lib o'tgan. Unda chegaradan mamlakatlar o'rtaсидаги ishonchni mustahkamlash (1996) va qo'shni chegarada qurolli kuchlar va qurol yarog'larni qisqartirish (1997) to'g'risida 2 ta bitim imzolangan edi. 1998-yildan "beshlik" mamlakatining o'zaro hamkorligi sobiq Sovet Ittifoqi Xitoy chegarasi bo'yab harbiy - siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish masalalaridan mintaqaviy xavfsizlik va ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni tamiłlash choralariga o'tishga qaratildi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Dushanbe sammitida (2000-yil) O'zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida qatnashdi. ShHT ta'sischilardan biri sifatida ishtirok etish haqidagi qarorni O'zbekiston o'z milliy manfaatlardan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy - siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda qabul qildi. Shanxay sammitida 2001-yil, iyunda yangi tashkilotning maqsad va prinsiplari, kelajak rejalarini e'lon qilgan Deklaratsiya, shuningdek terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. Tashkilotning Sankt -Peterburgda bo'lgan 2 - sammitida, 2002-yil iyunda ustav hujjati - ShHT Hartiyasiga imzo cheqildi. ShHT ning oliy organi Davlat boshliqlari kengashidir. Tashkilot tuzilishi hukumat boshliqlari (bosh vazirlar) kengashi. Tarmoq vazirliklari va idoralari rahbarlari kengashi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi va doimiy ishlovchi Kotibiyat hamda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasidan iborat<sup>1</sup>. Ushbu tuzilma 2004-yil

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T. 2007 yil. 213 bet.

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2005 yil. 9-jild. 692-bet

1-yanvardan faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur tuzilma zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus hizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklatilgan. Shu maqsadda tuzilma tarkibida kengash va ijroqo'm faoliyati yo'lga qo'yilgan Kengashga 6 davlat maxsus hizmatlari rahbarlarining vakillari kiritilgan.

ShHT ga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining 2004-yil, 17-iyunda Toshkentda bo'lgan majlisida tashkilotning shakllanish davri yakunlanganligi qayd etildi. Majlis yakunlari bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi, ShHT ning vakolotlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotiq vositalari va psixotron moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar imzolandi. O'zbekiston Respublikasining tashkilotga a'zo davlatlar xavfsizlik kengashlari kotiblarining tegishli milliy maxkamalarning yangi tahdid va xurujlariga qarshi turishdagi hamkorligini mustahkamlash maqsadiga qaratilgan doimiy uchrashuvlarni o'tqazib turish haqidagi tashabbusi qo'llab -quvvatlandi.

ShHT a'zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir. Iqtisodiy hamkorlik borasida oldinda transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xom ashyo zahiralarini o'zlashtirish suv energetika zahiralaridan unumli foydalanish, ekologiyaga oid va boshqa masalalar bor.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikqa erishganidan keyin xalqaro hamjamiyatga faol qo'shilib, dunyoning geosiyosiy kuchlari o'rtaсидаги muvozanatga ta'sir eta boshladи. Mintaqaning shu, jumladan, O'zbekistonning xalqaro siyosatdagи ahamiyati oshayotganligi uning tabiiy, energetiq va mineral - xom ashyo resurslariga boyligi, salmoqli ishlab chiqarish, ilmiy -texnikaviy salohiyatga egaligi, geosiyosat jihatdan muhim hududda joylashganligi tufaylidir. Keyingi yillarda Shanxay hamkorlik Tashkilotining nufuzi tobora ortib bormokda. Buning asosiy sabablaridan biri - ShHT ulkan geosiyosiy va geopolitiq, resurslar jihatidan katta imkoniyatlarga ega bo'lgan hamda xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimida tobora muhimroq ahamiyat qasb etib borayotgan tuzilma ekanligidadir.

2001-yilning 14-15-iyun kunlari Shanxayda olti davlat -Xitoy, Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekiston rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tgan uchrashuvda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) ni tuzish to'g'risida kelishilgan edi. Sammit davomida qabul qilingan deklaratsiyada Markaziy Osiyoda tinchlik xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, shuningdek siyosiy, iqtisodiy, ilmiy - texnikaviy, madaniy, ta'lim, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalarda hamkorlik qilish asosiy maqsad sifatida belgilab olindi. Ikkinci muhim hujjat - terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyada esa separatizm va ekstremizmning dunyo miqyosida birinchi marta jinoiy tartibda ta'qib qilinishi belgilandi.

ShHT tashkil topgan dastlabki vaqtlardanok uning ishtirokchilari o'rtaida o'zaro hurmat, bir - birini tushunish ruhi, yuqori darajadagi ishonch va o'zaro manfaatli qarorlar qabul qilinishga erishish qobiliyati shakllandi. Lekin shu bilan birga, davlatlarning ShHT ga birlashishi jarayoni uchun tashqi tahdidlarning mavjudligi, shuningdek dunyoda globallashuv jarayonini boshidan kechirayotgani iqtisodiy harakterdagi muammolar ham muhim rol uynaydi. ShHT ga kiruvchi davlatlarning umumiyligi yer maydoni Yevroosiyoning 61% ni tashkil qiladi. Uning demografiq potensiali yig'indisi - Yer shari aholisining to'rtdan bir qismiga teng, iqtisodiy qudrat jihatidan u AQSh dan keyingi o'rinda turadi. Rasmiy ishchi tillari rus va Xitoy tillaridir. Shtab kvartirasi Pekinda joylashgan.

ShHT ning ramzi sifatida tashkilot gerbining tasviri tushirilgan oq rangli bayrok alohida ajralib turadi. 2002-yilning 7-iyunida Sankt - Peterburg shahrida ShHT davlat rahbarlarining ikkinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Kengaytirilgan tarkibda o'tkazilgan yigelishda tomonlar ShHT mexanizmlarini shakllantirish masalalari, ShHT doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish va yagona rivojlantirish, shuningdek hozirgi zamon xalqaro maydonidagi dolzarb muammlarini muhokama qilishdi. Shanxay Hamkorlik Tashkilotining bu galgi sammitining ahamiyati eng avvalo, nihoyatda muhim hujjatlar - Hartiya, Deklaratsiya va Mintaqaviy aksilterror tuzilma to'g'risida bitin imzolanishi bilan belgilanadi. O'zbekiston ShHT ning Hartiya va Deklaratsiyada e'lon qilingan hamda mintaqada xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, xalqaro terrorchilik,

ayirmachilik va ekstremizmning barcha ko'rinishlariga, shuningdek narkotrafiq va ommaviy qirg'in quroli tarqalishiga qarshi kurashga yo'naltirilgan asosiy maqsadli vazifalarni; gumanitar sohada, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot sohalaridagi ko'p tomonlama, o'zaro foydali iqtisodiy hamkorlik rivojlantirilishini qo'llab - quvvatlaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek mazkur uchrashuvda davlat boshliqlari tomonidan uchta hujjat - ShHT ning hartiysi, ShHT ga a'zo davlatlarning terrorizmga qarshi regional tuzilma to'g'risidagi kelishivi va ShHT ga a'zo davlat boshliqlarining deklaratsiyasi imzolandi. Keyinchalik boshqa mamlakatlarning ham ixtiyoriy ravishda ShHT ga qo'shilishini e'tiborga olgan holda otillik davlatlarining uzyiy hamkorligi orqali hududiy hamkorliklarining yangi tizimi shakllantirildi.

2003-yilning may oyida Moskvada ShHT tarihida oliy darajadagi uchinchi uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda ShHT asosiy organlarining ishlash tartibi, budgetini shakllantirish mexanizmi va boshqa organlarning faoliyati bilan bog'lik, boshqa masalalarni belgilab beruvchi hujjatlar imzolandi. Tashkilotning gerbi va bayrogi qabul qilindi. Xitoyning Rossiyyadagi elchisi Chjan Deguan ShHT ning birinchi ijrochi kotibi etib saylandi. ShHT ning Moskva sammitida ushbu tashkilotni tashkiliy jihatidan shakllantirish ishlari yakuniga yetdi deb aytish mumkin. Ushbu uchrashuvning yakunida qabul qilingan siyosiy deklaratsiyada ham qayd etildi.

ShHT organlarining ishlash tartibi 2003-yil bo'lib o'tgan Moskva sammitida aniq, belgilab berildi. Unda ShHT ning barcha organlari 2004-yilning yanvar oyidan to'lik, ish boshlashiga qaror qilindi. Bu vaqtga qadar esa Pekinda shtab - kvartiraning qurilishini yakuniga yetqazish va a'zo davlatlarining Pekindagi elchixonalari tomonidan kotibiyat faoliyatini yo'lga qo'yish xususida olib borayotgan ishlarni tugallash rejalashtirildi.

Asosiy organlarga quyidagilar kiradi:

- davlat rahbarlarining kengashi - ShHT ning yillik sammitlari ishtirokchi davlatlar poytaxtlarida o'tkaziladi;
- hukumat boshliqlarining kengashi;
- tashqi ishlar vazirlari kengashi - birinchi yig'ilishi 2002-yilning noyabrida bo'lib o'tgan.

Oliy darajadagi uchrashuvlarni tashkil etadi. ishtirokchilarning pozitsiyalarini muvofiqlashtiradi va davlat boshliqlari imzolashi uchun asosiy hujjatlarni tayyorlaydi, shuningdek shaxsiy murojaatnomalar (Xalqaro terrorizmga qarshi kurashishi to'g'risidagi konvensiya va Yadroviy terrorizm aktlari bilan kurashish bo'yicha konvensiyaning tezroq qabul qilinishi xususida) qabul qiladi:

- vazirlik va idora rahbarlarining kengashi
- 2000-yili "beshlik" doirasida mudosaa vazirlarining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi shundan buyon bunday uchrashuvlar doimiy ravishda o'tkazilib kelinmokda. Xususan, 2003-yilning sentabr oyida ShHT mamlakatlari Bosh prokurorlarining yig'ilishi bo'lib o'tgan unda O'zbekiston Bosh prokurori R. Qodirov ham qatnashdi:

- Kotibiyat (Pekinda) - uning tarkibi 40 tagacha bo'lishi ko'zda utilgan. 2004-yildan boshlab ishga kirishishi lozim. Terrorizmga qarshi regional tuzilma (Toshkent). 2003-yilning avgust oyida ShHT ga a'zo mamlakatlari Qurollari kuchlarining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha "Hamkorlik - 2003" o'quv mashqlari o'tkazildi. Qozog'istonda bo'lib o'tgan birinchi o'quvda Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston vakillari (Tojikiston kuzatuvchi sifatida qatnashgan) ishtirok etdilar. Uning ikkinchi o'quvi Xitoyda bo'lib o'tdi. Terrorizmga qarshi kurashish tuzilmasining shtabi 2004-yilning yanvar oyidan boshlab O'zbekiston poytaxti Toshkentda to'laqonli faoliyat yurita boshladi.

ShHT Tinch okeani va Osiyo hududida kollektiv xavfsizlik tizimining qurilishida katta ahamiyat qasb etadi. Bu tashkilot mazkur hududda faoliyat yuritayotgan boshqa regional institut va mexanizmlar bilan bir qatorda ko'p tomonlama hamkorlik tizimidagi yangi bo'g'in hisoblanadi.

O'zbekiston ShHT ning ustivor vazifasi sifatida e'lon qilingan xalqaro terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va giyoxvandlik moddalari savdosiga qarshi mo'rosasiz kurashni so'zsiz qo'llab - kuvvatlashini ta'kidladi. Bugun ShHT ga a'zo davlatlar rahbarlari ishtirokida rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tgan Mintaqaviy antiterror tuzilmaning faoliyati ayni ana shu maqsad va vazifalarga qaratilgan, - dedi davlatimiz rahbari va ushbu tuzilma faoliyatini takomillashtirish hakida to'xtalib, jumladan, quyidagi amaliy taklif va mulohazalarni ilgari surdi.

2001-yilning 11-sentyabrida AQSh da sodir bo'lgan terroristik harakatlardan so'ng ShHT doirasida terrorizmga qarshi kurash choralarini kuchaytirildi. Bungacha ishtirokchi davlatlar Afg'oniston-da qo'nim topgan terroristik kuchlarning tahdidi bilan to'qnash kelgan edi. ShHT davlat boshliqlari avvaldan dunyo hamjamiyatini yuzaga kelayotgan xavfning miyosini to'g'ri baholashga chaqirib, milliy darajada, ko'p tomonlama va tashkilot doirasida tegishli chora - tadbirlarni ko'rayotgan edilar.

ShHT o'z xususiyatiga ko'ra harbiy tuzilma yoki alyans bo'lmay, balki o'z doirasini keyinchalik kengaytirishi mumkin bo'lgan, keng hamkorlikka mo'ljallangan ochiq tashkilotdir. Hozirgi paytga kelib Hindiston, Eron, Pokiston, Shri - Lanqa, Mo'g'uliston, AQSh, Yaponiya, ASYEAN, Yel kabi davlat va tashkilotlar ShHT faoliyatiga qiziqish bildirishmoqda.

Bizga ma'lumki tinchlik va doimiy hamkorlik barcha xalqaro tashkilotlarning, shu jumladan, ShHT ning ham asosiy dasturini tashkil etadi desak adashmagan bo'lamiz.

Biz har kuni ishlatadigan so'zlar orasida shunday tabarruq ilohiyulari borki, eshitgan zahotiyoy qalbingizga nur yog'iladi, ohamlarga, hayotda mehr - muhabbatizingiz, ertangi kunga bo'lgan umid va ishonechingiz yanada ortadi. Lekin shunday so'zlar ham borki, qulog'ingizga chalinishi bilan qalbingiz, butun vujudingiz larzaga keladi. Men "terrorizm" so'zini eshitganimda ana shunday noxush ahvolga tushaman. Sababi, terrorizm bu - bebaivo va go'zal hayotimizga tajovuz, vayronalik, vahshiylik, butun bashariyat yuragiga qarata uzilgan o'q demakdir. Shu baxona ham butun insoniyat, ilg'or davlatlar birlashib, bu balo - qazoga qarshi kurashga bel bog'ladi. 2004-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari Kengashining majlisida ushbu tuzilma doirasida iqtisodiy, ilmiy - madaniy aloqalarni kuchaytirish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish kabi bugun zamон oldimizga qo'yayotgan muhim va dolzarb muammolar qatorida terrorizmga qarshi kurash masalasiga alohida e'tibor qaratilgani ham bejiz emas.

Terrorizm ilgari o'z kirdiqorlarini jahon jamoatchiligidan yashirib kelgan bo'lsa, endilikda yovuz niyatlarini qo'poruvchilik ishlarini ochiqdan - ochiq, surbetlarcha ma'lum qilib, bu bilan

millionlab odamlar qalbiga qo'rquv solish yo'liga o'tdi. Dunyoning turli burchaklarida amalga oshirilgan qotillik va xunrezliklarni o'z zimmasiga olib bundan o'zicha mag'rurlanadigan ham bo'lib qoldi. Boshqacha aytganda yigirma birinchi asr ham millati, dini. Vatanining tayini yo'q vayron qiluvchi bu tajovuzkor kuch bilan yuzma - yuz keldi. 2001-yil 11-sentabr fojasi insoniyat xotirasidan hali - beri ko'tarilmaydi. Moskvadagi "Nord - Ost" kinokonsert zalida terrorchilar qasofati tufayli qancha begunoh oham qurban bo'ldi. Yoki Ispaniyada yo'lovchi poyezdining portlatilishi. Tokio metrossidagi terroristik xurujni eslaylik. Afsuski, bu ro'yxatni o'zoq davom ettirish mumkin. Har daqiqa ogoh bo'lishimiz kerakki, terrorizmning dahshatli xurujlari bosilgani yo'q. U dunyoning turli nuqtalarida jirqanch basharasini ko'rsatib turibdi. Filippinda "Abu Sayyof", Pokistonda va Afg'oniston oraligidagi tog'larda in qurban "Al - Qoya" ekstremistiq guruhlari<sup>1</sup> qo'poruvchilik faoliyatini davom ettirmokda. Falastin, Indoneziya, Pokiston, Misr, Sudan, Somali, Yaman, Iraq, Jazoir, Saudiya Arabiston, Livan kabi mamlakatlarda ham yovuz niyatli diniy ekstremistiq guruhlar bor. Mana shunday guruhlar yovuz kuchlar bizning tinch, osoyishta yurtimizga ham bot - bot hamla qilishga urinib ko'rmokda. Bunday urinishlardan eng so'nggisi 28 -30-mart (2004-yil) kunlari Toshkent shahri va viloyati, Buxoro viloyatining Romiton tumanida otishma portlashlar sodir etilgani yurtdoshlarimizning, butun jahon jamoatchiligining qahru g'azabini qo'zg'atdi. Terrorizm nima uchun O'zbekistonda jirqanch basharasini ko'rsatmokchi bo'ldi. Chunki O'zbekiston Markaziy Osiyodagi tinch, barqaror rivojlanayotgan mamlakat xalqimiz o'tish davri kiyinchiliklarini chidam sabr va matonat bilan yengib, tarakqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'liga chiqib oldi. Huquqiy demokratik davlat barpo etishga kirishdi. Iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy sohalarda rivojlanishning milliy modelini yaratdi.

2004-yilning yanvar oyidan buyon Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) juda samarali faoliyat ko'rsatmokda. Yanvar oyinining o'zida tashkilot faoliyatida ikkita diqqatga sazovar vokea

<sup>1</sup> "Terrorizm-tinchlik va tarqqiyot dushmani. "Xalq so'zi" gazetasi. 2004 yil. 15 iyun".

yuz berdi. Birinchisi Pekinda ShHT ning doimiy ishlaydigan ma'muriy organi - Kotibiyyat o'z faoliyatini boshlagan bo'lsa, ikkinchisi Toshkentda mintaqaviy antiterror markazi ishga tushganligidir. Kotibiyyat kabi antiterror tashkilot ham doimiy ishlaydi. Shuningdek oliy darajadagi sammit oldidan Toshkentda ShHT ga a'zo mamlakatlar savdo va iqtisod vazirlarining yig'ilishi ham bo'lib o'tdi.

Hozir jahonda Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga qiziqish ortib borayapti. Uni jaxondagi nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri sifatida e'tirof etilmokda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti .Bosh kotibi Kofe Annan kotibiyyatning ochilishi marosimidagi so'zida shunday dedi: "Bu tashkilotning katta istiqbollari bor va BMT shu mintaqada xavfsizlikni ta'minlash jarayonini birgalikda olga siljитish uchun ShHT bilan hamkorlik qilishga tayyor"<sup>1</sup>. Yevropa Ittifoqi vakili ham ShHT bilan yakin aloqa o'rnatishning axamiyati to'g'risida gapirdi. "ShHT tarkibiga kirgan oltita davlatdan bittasi Yevropada xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining a'zosi hisoblanadi. Bu bilan YeXHT o'rtasida samarali hamkorlik qilish uchun zamin yaratadi deb bayonet berdi Yan Ko'bish"<sup>1</sup>. Umuman, YeXHT doirasida ShHT bilan hamkorlikni izchil rivojlantirishga kiziqish katta Toshkentdag'i oliy darajadagi sammitga tayyorgarlik ShHT ga a'zo barcha davlatlarda olib borildi. Rossiyaning "Novosti" axborot agentligi tarqatgan xabarga ko'ra, Moskvada Rossiya tashqi ishlar vaziri o'rinosari Anatoliy Safonov Shanxay Hamkorlik Tashkiloti mintaqaviy antiterror markazining ijroiya ko'mitasi raisi Vyacheslav Kosimov va O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasidagi elchisi Baxtiyor Islomov bilan uchrashib, ShHT ga a'zo davlatlar rahbarlarining Toshkentdag'i uchrashuvga tayyorgarlikning borishini birgalikda muxokama qildilar. Uchrashuvdag'i asosiy e'tibor mintaqaviy antiterror markazining faoliyatiga qaratildi. Bu tizim Markaziy Osiyoda, umuman , jaxonda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash olib borishda katta ahamiyat qasb etadi. Toshkentdag'i sammitda mintaqaviy antiterror markazining dasturiy faoliyatini takomillashtirish istiqbollari ham ko'rib chiqiladi. Endi ShHT ning

<sup>1</sup> Xalqaro anjumanga peshvoz. "Qishloq hayoti" gazetasi. 2004 yil. 11 iyun.

<sup>1</sup> Xalqaro anjumanga peshvoz. "Qishloq hayoti" gazetasi. 2004 yil. 11 iyun..

kengashlari va doimiy ishlaydigan tizimlariga to'xtalib o'tsak. Davlat rahbarlari Kengashi ShHT ning oliy organi hisoblanadi. Kengash tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, ichki tizimlar va ularning faoliyatları bilan bog'liq jiddiy masalalarni xal qiladi, boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni muvofiqlashtiradi, shuningdek dolzarb xalqaro masalalarni ko'rib chiqadi. Kengash o'z majlisini bir yilda bir marta o'tqazadi. Majlisga tashkilotchi davlat vakili raislik qiladi. Ayni paytda Kengashga O'zbekiston raislik qilgan edi. Sammitning Toshkentda o'tkazilayotganligining boisi ham shunda. Bosh vazirlar kengashi boshqaruv tizimida ikkinchi o'rinda turadi. Unda tashkilotning budjeti qabul qilinadi, iqtisodiy tarmoklarga daxldor barcha asosiy masalalar ko'rib chiqiladi va xal qilinadi. Kengash majlisiga bir yilda bir marta to'planadi. Bundan tashqari Toshkentda tashqi ishlari vazirligi Kengashi ham faoliyat ko'rsatmokda. Unda ko'rildigan masalalar qamrovi keng. Tashkilot qabul qilgan qarorlarni hayotga tatbiq etish, davlat rahbarlari Kengashi majlisiga tayyorlarlik ko'rish, tashkilot doirasida xalqaro muammolar yuzasidan maslaxatlashuvlar o'tkazish va tashkilot faoliyati bilan bog'liq kundalik masalalar shular jumlasidandir. Odatda tashqi ishlari vazirlari davlat rahbarlari kengashi majlisiga bir oy kolganda uchrashadilar. Hay'atni o'z hududida davlat rahbarlari kengashini o'tkazadigan mamlakat tashqi ishlari vaziri boshqaradi. ShHT ning tashqi aloqalarini ham tashqi ishlari vazirlari kengashi raisi amalgalashuvlari shakllanib boryapti. Jumladan, keyingi paytda bosh prokurorlar, madaniyat, ichki ishlari, mudosaa, iqtisod va savdo vazirlari uchrashuvlarni o'tkazish yo'lga ko'yildi. ShHT ning kundalik faoliyatini boshqarib va yo'naltirib turuvchi milliy koordinatorlar Kengashi ham mavjud. Kengash uch yilda bir marta majlis o'tkazadi. Majlisga tashkilotchi davlat raislik qiladi. Kotibiyat esa ShHT ning doimiy ishlaydigan ma'muriy organi hisoblanadi. Bu organ tashkilot doirasida o'tkaziladigan barcha tadbirlarni tashkiliy texnikaviy jihatdan ta'minlaydi, barcha hujjatlarni tayyorlash va ularni hayotga tatbiq etishda qatnashadi, tashkilotning yillik budjeti to'grisida taklif kiritadi. Kotibiyatni ijrochi kotib boshqaradi. Uni

bu lavozimga davlat rahbarlari Kengashi tayinlaydi. Hozir birinchi ijrochi kotib vazifasida xitoylik diplomat Chjon Deguan ishlab turibdi. Yana bir domiy ishlaydigan tizim bu mintaqaviy antiterror markaz. Bu tizimning qarorgohi Toshkentda joylashgan. Vazifasi ShHT ga a'zo barcha davlatlarning terrorizmga, ayirmachilikka va ekstremizmga qarshi kurashdagi sa'y - harakatlarini yo'naltirib turishdan iborat. Tizimning tarkibida Kengash va Ijroiya ko'mita bor. Kengash rahbar organ sanaladi va qaror qabul qilish huquqiga ega. Ijroiya ko'mita raisini davlat rahbarlari Kengashi tayinlaydi. Hozir bu vazifada O'zbekiston vakili ishlayapti. Shanxayda mazkur tashkilotimiz ta'sis etilganidan buyon o'tgan bir yil mobaynida dunyo hamjamiyati o'z taraqqiyotining favqulodda murakkab va ma'suliyatli davrini boshdan kechirdi. Bu davr fundamental muammolar va xalqaro xavfsizlikka tahdid, birinchi galda, sayyoramizdag'i tinchlik va barqarorlikqa eng ko'p darajada xavf solayotgan xalqaro terrorchilik tahdidiga to'qnash kelayotgan sifat jihatdan yangi dunyo tartiboti bilan tavsiflanadi... ShHT ning ushbu barcha murakkab vazifalarni amalgalashuvlari o'shlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak uni o'z ishtirokchilarining xolati va imkoniyatlariga mos, mumkin qadar ochiq, omillar va samarali tashkilotga aylantirish nihoyatda muhimdir. Sa'y - harakatlarni sovurmay, aksincha hamkorlikning "Shanxay jarayoni" qatnashchilari manfaatlariga bir hilda mos bo'lgan asosiy masalalariga safarbar etish zarur.

"Biz ShHT doirasida ko'plab natijalariga erishdik. ShU bilan birga, Tashkilot doirasidagi sherikikni yanada rivojlapntirish uchun hali ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Shu munosabat bilan barchamiz quyidagi masalalarga e'tibor qaratishimiz lozim.

Birinchidan va eng asosiysi-aholi, ayniqsa, yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish.

Ikkinchidan, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va kooperatsiyani kuchaytirish.

Uchinchidan, ShHT makonining transport-tranzit salohiyatidan samarali foydalanish-strategik vazifamizdir.

To'rtinchidan, Innovatsiya dasturi va loyihamonlari hamkorlikda amalgalashuvlari shakllanishiga qatnashadi, tashkilotning yillik budjeti etamiz. Har yili ShHT mamlakatlari hukumatlari va ishbilarmon

doiralarini ishtirokida Axborot texnologiyalari va innovatsion rivojlanish forumini o'tkazishni taklif etamiz.

Beshinchidan, Jahon sayyohlik tashkiloti bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yishni maqsadga muvofiq va g'oyat dolzarb ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz<sup>1</sup>-dedi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisdagi nutqida.

## 2 § Mintaqaviy va xalqaro muammolarni hal etishda ShHT ning roli

O'tgan qisqa vaqt ichida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti o'zining samarali faoliyatini to'la namoyon eta oldi. Shuningdek jahon hamjamiyatining e'tiboriga sazovor bo'lmokda. 2002-yili Sankt - Peterburg shahrida bu xalqaro tashkilotning asosiy hujjati, ya'ni "ShHT ning Hartiyasi" qabul qilingan edi. 2004-yili Pekinda uning ijroiya Kotibiyyati, Toshkentda esa Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi doimiy faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi vaqtda ShHT ga Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi rasman a'zo. Bu mamlakatlardan hududi Yevroosiyoning 61 foizini tashkil etadi. 2004-yili 16-17-iyun kunlari ShXT ning Toshkentda bo'lib o'tgan Sammitida Mo'g'uliston Xalq Respublikasi ShHT doirasida kuzatuvchi maqomini olgan edi.

2005-yil 4-5-iyul kunlari Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tgan sammitda esa Hindiston, Pokiston, Eron davlatlari ShHT huzurida kuzatuvchi maqomini berish to'g'risidagi qarorga imzo cheqildi. Shuni ta'kidlash joizki, bu xalqaro tashkilotning olti a'zosi va to'rt kuzatuvchi mamlakatlardan aholisini ko'shib hisoblaydigan bo'lsaq dunyo xalqlarining qariyb yarmi (3 milliard)ni tashhil etadi.

Har qanday tashkilot yoki uyushmani tuzishda uning maqsad vazifalari belgilab olinadi. Shu jihatdan olganda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining ham bosh vazifalari bor. Ular:

- xavfsizlikni ta'minlash;

- mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash;
- Ekologiya muammolarini birgalikda hal etish;
- Savdo - iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish;
- Ilmiy - texnikaviy, madaniy - ma'rifiy sohalardagi munosabatlarni yanada kengaytirish va boshqa hayotiy muhim yo'nalishlardan iborat bu vazifalarni bajarish borasida davlatlar o'rtasida aloqalar yaxshi rivojlanib bormoqda. Masalan, 2020-yilgacha bo'lgan -davrda ko'p tomonlama savdo - iqtisodiy hamkorlikni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilingan.<sup>1</sup>

ShHT ga a'zo davlatlarni huquq - tartibotni muhofaza qilish, jumladan ichki ishlar idoralari o'rtasida o'zaro hamkorlikda xalkaro terrorizm, diniy ekstremizm va milliy separatizm (ayirmachilik)ka qarshi birgalikda samarali kurash olib borish hakida bitim imzolangan. Muhim jihat shundaki mamlakatimiz ShHT doirasida imzolangan barcha axdnomalarga, shu jumladan, Toshkent deklaratsiyasiga (2004-yil, 17-iyun) sodiq qolib ikki tomonlama munosabatlarda ham o'zaro xavfsizlik masalalariga katta e'tibor berib kelmoqda. Jumladan, 2005-yil mart oyining boshida Pokiston prezidenti Parvez Musharrafning O'zbekistonga rasmiy tashrifi chogida, Birinchi prezidentimiz Islom Karimovni 2005-yil aprel oyida Hindiston Respublikasiga, may oyida Xitoy Xalk Respublikasiga, 14-15-noyabr kunlari Rossiya Federatsiyasiga kilgan rasmiy safari paytida ham o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, mintaqaviy, shu jumladan, Yevroosiyon hududida umumiylar barqarorlikni ta'minlash bo'yicha bir qator bitimlarga erishildi. Bu jarayonda har bir davlat, ular qatorida Respublikamiz ham ichki ishlar idoralarining o'zaro samarali va do'stona hamkorligiga alohida e'tibor berib kelmoqda.

O'zbekiston - Rossiya alokdirining mustahkamlanishi, nafaqat mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi yoki Yevroosiyo Iqtisodiy Hamkorlik Kengashi faoliyatini chuqurlashtiradi, balki avvalo, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti miqyosidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarimizni yana ham samarali bo'lishiga olib keladi. 2005-yil 14-noyabr kuni Prezidentlar Islom Karimov va Vladimir Putin O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida 16

Sammitning ushbu qismida ShHT da kuzatuvchi maqomini olgan davlatlar vakillari-Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mahmud Ahmadinejad, Mo'g'iliston Prezidenti Nambarin Enxbayar, Pokiston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Xurshid Kasri va Hindiston Respublikasi neft va gaz vaziri Murli Doyera, shuningdek, Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Hamid Karzay, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov. BMT Bosh kotibining o'rinnbosari Linn Pasko tadbirning mehmonlari sifatida ishtirok etdi. Majlisda mazkur mamlakatlarning ShHT faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish masalasi ham ko'rib chiqildi. Masalan, ularni Ishbilarmonlar kengashi va Banklararo birlashmaning loyihamariga, narkobiznesga qarshi kurashga, terrorizmni moliyalashtirishning oldini olish maqsadida moliyaviy hamkorlikka va moliyaviy operatsiyalarning monitoringiga, Afg'onistondagi tiklanish ishlariga jalb qilish foydadan holi bo'lmaydi.

Kuzatuvchilarning faolligini oshirishning ahamiyati katta, albatta. A'zo kuzatuvchi davlatlarni qo'shib hisoblaganda, ShHT Yevroosiyoning uchdan ikki qismini, boshqacha aytganda, insaniyatning yarmini barlashtiradi.

O'zbekiston rahbari o'z nutqida ShHT doirasida samarali hamkorlik mehanizmlari yo'lga qo'yilganini, barcha sohalarda a'zo davlatlarning salohiyatini ishga solish uchun platforma yaratilganini ta'kidladi. Xavfsizlikka tahdid, jumladan, afg'on muammosi,

shuningdek, Markaziy Osiyo suv zahiralaridan oqilona foydalanish masalalariga e'tibor qaratdi. Majlis yakunida uzoq muddatli yaxshi ko'shnichilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, Bishkek deklaratsiyasi, Madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, Xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha harakat dasturi imzolandi.

Matbuot anjumanida Prezidentlar mazkur shartnoma ShHT mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ishonch va xurmatga asoslangan do'stona munosabatlarni, sheriklik ruhini yanada mustahkamlashga hizmat qilishini ta'kidladilar.

Sammit doirasida Ishbilarmonlar kengashi bilan Banklararo birlashma o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim ham imzolandi. Bu kelishuv ShHT doirasida savdo - iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar oehadi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida o'zaro ishonch mustahkamlanib borayotganini, bu o'zaro hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishda muhim omil bo'layotganini ta'kidladi.

Muloqot chogida ikki tomonlama munosabatlarning bugungi ahvoli va istiqbollariga, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi hamkorlikka oid masalalar yuzasidan fikr almashildi. Mamlakatlarimiz o'rtasida aloqalar 2005-yilda imzolangan Do'stlik hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi davlatlararo shartnoma ruhida rivojlanayotganligi ta'kidlandi.

#### **4. Iqtisodiy va siyosiy hamkorlik hamda xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekiston - ShHT hamkorligi**

XXI asr boshlariga kelib mamlakatimiz Shanxay Hamkorlik mamlakatlari iqtisodiy - siyosiy hamkorligini ta'minlashda alohida rol uynab kelmoqda. Buning isboti sifatida 2007-yil 2-noyabr kuni Toshkentda Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar xukumat rahbarlari kengashining majlisida bo'lib muzokaralarni ham aytish mumkin. O'zaro ishonch va ishchanlik ruhida o'tgan muloqot chogida ShHT o'z taraqqiyotining yangi boskichiga chiqayotgani, Bishkek sammitida imzolangan o'zok muddatli yaxshi qo'shnichilik do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma buning uchun huqukiy asos bo'lib hizmat qilishi ta'kidlandi. Tashkilotning xalqaro nufuzi

yuksalib, unga a'zo bo'lish istagini bildirgan davlatlar soni ortib bormokda.

ShHT mamlakatlari o'rtaida tovar ayirboshlash hajmi muttasil oshmoqda. Xususan, 2007-yili O'zbekistonning ushbu davlatlar bilan savdosi 40 foiz o'sdi. ShHT Davlat rahbarlari kengashining so'nggi majlisida hukumatlar oldiga qo'yilgan vazifalari - tashkilot qamiagan mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashda, a'zo davlatlar o'rtaida savdo - iqtisodiy va gumanitar aloqalarni rivojlantirishda hamkorlikka doyr keng ko'lAMDAGI masalalarini ko'rib chiqdilar. Ko'p tomonlama savdo - iqtisodiy hamkorlik dasturini amalga oshirishning chora - tadbirdari yuzasidan fikr almashildi.

Xavfsizlik muammolari. Afg'onistonni tiklash masalalari ShHT ning doimiy e'tiborida. Tomonlar terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik, narkobiznes kabi tahdidlarga karshi kurashda va axborot xavfsizligini ta'minlashda hamkorlik masalalarini muxokama qildilar.

ShHT Bosh kotibining Davlat rahbarlari kengashi va hukumat rahbarlari kengashining tashkilot doirasida savdo - iqtisodiy va madaniy gumanitar hamkorlikni kengaytirishga oid qarorlari ijroshning borishi xaqidagi hisoboti tinglandi. Tashqi savdo va tashqi iqtisodiy aloqalar rahbarlarining 2007-yil 24-oktabr kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan kengashida ko'p tomonlama savdo - iqtisodiy hamkorlik dasturini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan muayyan chora - tadbirdar ishlab chiqildi. 2007-yilning iyun oyida esa Moskva shahrida yoqilgi-energetika majmui uchun ma'sul vazirlik va idoralar rahbarlarining kengashi o'tkazilib, ushbu sohadagi hamkorlikka oid masalalar atroficha muxokama qilindi. Majlisda neft - gaz konlarini o'zlashtirish, yoqilgi - energetika majmuu infratuzilmalarni takomillashtirish, shuningdek yuqori texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni kengaytirish muhim va dolzarb vazifaga aylanib borayotgani qayd qilindi. Shuningdek mashinasozlik, kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, transport kommunikatsiyalari kabi sohalarda hamkorlik uchun keng imkoniyatlar mayjud. Majlisda ShHT Ishbilarmonlar kengashi bilan Banklararo birlashmasining hamkorligini yanada rivojlantirish, a'zo mamlakatlari ishbilarmon va moliyaviy doiralarni yirik mintaqaviy

sarmoyaviy loyihamalar ijrosiga kengroq jalb etish masalalari yuzasidan fikr almashdilar. Iqtisodiyotning asosiy tarmoklari va eksportga yo'naltirilgan sektorlarida, yuqori texnologiyalar sohasida ushbu ikki tuzilmaning hamkorligi rivojlanmokda.<sup>1</sup> Kengashning kengaytirilgan tarkibdagi majlisida ShHT doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlik masalalarining amaliy jihatlari ko'rib chiqildi. Muzokaralarning bu kismida kuzatuvchi davlatlar vakillari - Hindiston Respublikasi davlat tashqi ishlar vaziri Ye. Ahamed, Eron Islom Respublikasi birinchi vitse - prezidenti P. Dovudiy, Mo'g'uliston Bosh vazirining o'rinnbosari M. Enxsayxan va Pokiston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri X. Qasuri, shuningdek mexmon sifatida Afg'oniston Islom Respublikasi birinchi vitse - prezidenti A. Ma'sud qatnashdilar. Majlisda tashkilotga a'zo va kuzatuvchi davlatlar o'rtaida transport, yoqilgi - energetika majmui, kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, mashinasozlik, qishlok ho'jaligi yukori texnologiyalar borasidagi hamkorlik, gumanitar sohadagi aloqalarga doyr masalalar muhoqama qilindi. Mazkur mamlakatlarning bir - biriga bog'lik jihatlari anehagina, O'zbekiston misoldida oladigan bo'lsak mamlakatimizning transport kommunikatsiyalari qator davlatlari uchun tranzit vazifasini bajaradi va ayni paytda O'zbekistonga tegishli yuklar qator mamlakatlar hududi orqali o'tadi. Birgina "Andijon - O'sh" magistralinining salohiyati tahlil qilinsa, bu boradagi hamkorlikning imkoniyatlari ancha keng ekanligi ayon buladi. Shu bois transport sohasida xalqaro avtomobil harakati uchun qulay shart - sharoit yaratish bo'yicha bitim ishlab chiqish lozim. Energiya manbalarini uzatish borasida ham shunday fikr bildirish mumkin. Sanoatning ko'plab sohalarida ko'shma korxonalar tuzish, sarmoyaviy loyihamalar ishlab chiqish va amalga oshirish har tomonlama foydalidir. Majlisda tashqi savdo - madaniyat aloqalar, transport, neft - gaz sektori, kishloq xo'jaligi, sohalar uchun ma'sul bo'lgan vazirlilik va idoralarga ushbu yo'nalishlarda hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiish vazifasi topshirildi, mavjud reja va dasturlar

<sup>1</sup> ShHT Xukumat rahbarlari kengashining majlis, "Xalq so'zi" gazetasi, 2007 yil, 3 noyabr

ijrosini faollashtirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Ko'p tomonlama savdo - iqtisodiy hamkorlik dasturini bajarish choratadbirlari rejasiga kiritilgan loyihalarni tahlil qilish vazifasi topshirildi. Xullas, majlis yakunida ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda majlis samarali kechgani, imzolangan hujjatlar ShHT mamlakatlari o'ttasidagi do'stona munosabatlар va ko'p tomonlama amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishga hizmat qilishi ta'kidlandi.

O'zbekistonning "Shanxay Hamkorlik tashkiloti" bilan ham olib borayotgan aloqalari samaralidir. 1996-yilda bu tashkilot "Shanxay beshligi" deb nomlanar, uning tarkibiga Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari kirar edi. Ushbu "beshlilik" ning dastlabki asosiy vazifasi tashkilotga a'zo mamlakatlarning davlat chegaralarida qurolli kuchlarni kisqartirish hamda o'zaro davlat suverenitetiga ishonchni ta'minlashdan iborat edi. "Beshlik" doirasida chegara hududlaridagi harbiy kuchlarni qisqartirishdan iborat bitim imzolandi. Bu o'z navbatida, mamlakatlар o'ttasidagi o'zaro munosabatlarning, ishonch va do'stlilikning mustahkamlanishiga hizmat qildi. "Beshlik"ka a'zo mamlakatlarning munosabatlari rivojlanib, ular o'ttasidagi ishonch endi chegara hududlaridagina emas, balki undan ham kengrok miqyosda namoyon bo'la boshladi. Endilikda bu mamlakatlari o'zaro hamkorlik, siyosiy, diplomatik munosabatlar, harbiy ishlari, xavfsizlik va iqtisodiy masalalarida ham hamjihatlikda ish yuritadigan bo'lib bormokda. 2000-yilning yozida tashkilotning Dushanbe shahridagi sammitida u "Shanxay forumi" deb qayta nomlandi.<sup>1</sup>

Mazkur sammitda ilk bor Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. A. Karimov rahbarligidagi O'zbekiston delegatsiyasi kuzatuvchi sifatida ishtiroy etdi. O'shanda besh davlat rahbarlari "Shanxay forumi"ni turli soxalardagi hamkorlikni qamrab oluvchi mintaqaviy tuzilmaga aylantirish zarurligini e'tirof etdilar.

2001-yilning may oyida O'zbekiston ham mazkur "beshlik" tarkibiga kirish niyatida ekanligini ma'lum qildi. Xususan, o'shanda

<sup>1</sup> R. Usmonov. O'zbekistonning jahon hamjamiatiga integratsiyalashuvi. T. "Moliya", 2003 yil. 18-19 betlar.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi deyilganda - bu mintaqa hududida istiqomat qilayotgan 50 million kishi tushuniladi. Agar mana shu aholining teng yarmisi birgina O'zbekistonda istiqomat qilishini hisobga oladigan bo'lsak O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida eng muhim geopolitik o'rinn tutishi ayon bo'ladi, qolaversa u "Shanxay beshligi"ga a'zo davatlarning deyarli barchasi bilan chegaradoshdir. Agar mana shu omillarning o'zini ham "Shanxay beshligi" a'zolarining mansaatlari nuqtai nazaridan baholaydigan bo'lsak unda ularning o'zlariyoq birinchi galda O'zbekistonning mazkur tashkilotga a'zo bo'lib kirishidan manfaatdordirlar - deya alohida ta'kidlagan edi. O'shanda mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I. A. Karimov kelgusida ushbu birlashmani "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti" deya nomlashni taklif etgan edi. "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti"ning 2001-yil iyun oyida Shanxay shahrida bo'lib o'tgan sammitida so'zga chiqib, I. A. Karimov, O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lishiga birinchi galda mamlakatning xavfsizligini ta'minlash masalasi sabab bo'lganligini ta'kidladi. Mazkur masala bugun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun nihoyatda muhim va dolzarbdir. Ta'kidlab o'tmok kerakki, Shanxay Tashkiloti juda katta harbiy potensialga ega Rossiya va Xitoy kabi davlatlar ham a'zodir. Binobarin, ular BMT miqyosidagi muhim masalalarni ushbu ikki ulkan davatlarning ishtiroychisiz hal qilish mumkin emas. O'zbekistonning "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti"ga kirishiga yana bir sabab - Xitoyning ichki yalpi mahsulot o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda eng yetakchi o'rirlardan birini egallab turganligidir.

O'zbekiston rahbari sammit ishtiroychilari e'tiborini qo'yidagi eng muhim masalaga hamda tashkilot faoliyati davomida ularni hal etish zaruriyatiga qaratdi: Bu masala, birinchidan, Afg'onistonda tinchlikni o'rnatishga erishishdan iborat. Afg'onistondagi beqarorlik mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun xavf tug'diradi. Buning barchasi butun Markaziy Osiyo mintaqasining, jumladan, O'zbekistonning ham mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. Ikkinchidan, hozirgi zamon xalqaro terrorizmiga, diniy ekstremizm, separatizm va narkobiznesga qarshi kurashda barcha

kuch va imkoniyatlarni birlashtirish zarur. Faqatgina barcha kuch va imkoniyatlarni birlashtiribgina, juda puxta muvofiqlashtirilgan xalqaro terrorizm tizimiga qarshi kurashish mumkin bo'ladi. Shu sababli ham har tomonlama iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim. Uchinchidan, Markaziy Osiyo mintaqasida yadroviy quroldan holi zonani tashkil qilish va bu xakda BMT ning qarorini chiqarishga erishish zarur. Bu masalani hal etishda BMT xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari bo'lgan Rossiya va Xitoy katta ahamiyat kasb etishlari mumkin.

To'rtinchidan, xalqaro terrorizmga qarshi samarali kurash olib borishning muhim sharti sifatida har tomonlama iqtisodiy va gumanitar hamkorlik tizimini yanada chuqurlashtirish kerak bo'ladi.<sup>1</sup> Sammitda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya va terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha Shanxay konvensiyasi qabul qilindi.

Mazkur Deklaratsiyada tashkilotning asosiy maqsadi - o'zaro ishonch, do'stlik hamda tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtaсидаги yaxshi ko'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, ular orasida siyosat, savdo - sotiq, iqtisodiyot, fan va texnika, madaniyat va ma'orif, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalardagi samarali hamkorliklarni rag'batlantirishdan iborat ekanligi alohida e'tirof etilgan. Shuningdek unda Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik va barkdrorlikni ta'minlashda birlgiligidagi sa'y - harakatlarning muhimligi ham alohida ta'kidlangan.<sup>2</sup>

Shunday qilib, Shanxayda insoniyat ahlining to'rtadan bir qismi istiqomat qiladigan ulkan hududdagi xavfsizlik va hamkorlikni, iqtisodiy va madaniy hamjihatlikni ta'minlash imkoniyatini yaratuvchi tashkilotga asos solindi.

Keyingi yillarda ShHT ga a'zo davlatlar o'rtaaside iqtisodiy hamkorlik aloqalari bo'yicha muhim uchrashuvlar, tashriflar amalga oshirilmokda. Jumladan 2007-yil 2-noyabr kuni Oqsaroyda Xitoy Xalk Respublikasi Davlat Kengashi rahbari Ven Szyabaoni qabul qilindi. Davlatimiz rahbari HHR Davlat kengashi rahbarining

<sup>1</sup> Karimov I. A. Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining Sammitida so'zlagan nutqi. T. "O'zbekiston" 2002 yil, 9 - jild. 379 -382 betlar.

<sup>2</sup> Abdugaffor Kirgizboev. O'zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatllari bilan xalqaro hamkorligi. T. "Fan". 2004 yil. 83 - bet.

O'zbekistonga ilk rasmiy tashrifi ekanini, uchrashuv mamlakatlarimizning o'zaro munosabatlari doir masalalar yuzasidan fikr almashish uchun qulay imkoniyat yaratishni ta'kidladi. O'zbekiston ikki tomonlama aloqalarning bugungi xolatini, hamkorlikning sur'atini yuksak baholashi va qadrlashini, malakatlarimiz ShHT ning faol a'zolari ekanligi ham o'zaro ishonchni yanada mustahkamlashini qayd etdi.

O'zbekiston va Xitoyning an'anaviy do'stona, o'zaro manfaatli aloqalarida ikki davlat rahbarlari o'rtaaside qaror topgan ishonch va hurmat- e'tibor muhim ahamiyat qasb etmoqda.

Hamkorlikning barcha sohalarini qamragan O'zbekiston - Xitoy munosabatlari 2005-yilda Do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi davlatlararo shartnoma imzolanganidan keyin yangi boskichga ko'tarilib, mazmunan boyib bormokda.

Iqtisodiy sohada O'zbekiston bilan Xitoy o'rtaaside eng ko'p qulaylik yaratish tartibi amal qilmokda. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2006-yilda qariyb 600 million, joriy yilning yanvar avgust oylarida 477 million AQSh dollarini tashkil etdi. Mamlakatimiz rahbari 2005-yil may oyida HHR ga davlat tashrifi asnosida erishilgan kelishuvlar O'zbekiston iqtisodiyotiga 1,5 milliard dollar miqdorida sarmoya kiritilishini nazarda tutishi, shuningdek IIT ning 2004-yilgi Toshkent sammitida Xitoy mazkur tashkilotga a'zo davlatlar uchun 900 million dollar miqdorida kredit ajratgani va ushbu tashabbus doirasida O'zbekiston tomonidan taqdim etilgan 22 loyiha ko'rib chiqilayotgani mamlakatlarimiz o'rtaaside iqtisodiy hamkorlikning ko'lami kengligidan dalolatdir.

Davlatlarimiz o'rtaaside imzolangan terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurashda o'zaro hamkorlik, tashqi siyosat mahkamalarining hamkorligi va maslahatlashuvlari to'g'risidagi bitimlar o'zaro ishonch ruhini yanada mustahkamlashga hizmat qilmokda.<sup>1</sup>

Bir necha yil avval xalqaro siyosatda "Shanxay ruhi" degan yangi atama paydo bo'ldi. Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga (ShHT) a'zo davlatlarning salohiyati, iqtisodiy tarakdiyoti madaniyatini

<sup>1</sup> Strategik sheriklikning yuksak marralari. "Xalk so'zi" gazetasi. 2007 yil. 3 noyabr.

o'rtaida muayyan farqlar mavjud ekanligiga qaramay. o'zaro ishonch, xurmat va manfaatdorlik, muloqotlardagi tenglik, taraqqiyotga birgalikda intilish tashkilotni rivojlantirishda muhim asos bo'lib hizmat qilmoqda. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlari o'rtaсидаги гуманитар hamkorlikni kengaytirishda ham "Shanxay ruhi"ning ahamiyati katta. Mamlakatimiz siyosiy muloqotlarni izchil davom ettirish, iqtisodiy aloqalarga oid rejalarни amalga oshirish barobarida madaniyat, san'at va ta'lim yo'nalishlaridagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratmokda. ShHT sammitlarida a'zo va kuzatuvchi mamlakatlarning san'at ustalari bir saxnada konsert tashkil etishi an'anaga aylandi. ShHT davlatlarining madaniyatni va ta'lim sohalari uchun ma'sul vazirliklari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini, yillik san'at festivallarini o'tkazish yo'lga ko'yildi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Xitoy va Rossiya qadim urf - odat va an'analarga, boy tarixga ega ekanligini nazarda tutib, ularning gumanitar hamkorligi tashkilot qamragan mintaqalarda sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirishga yo'l ochmokda. ShHT maqomida "xalk diplomatiyasi"ni rivojlantirish maqsadida 2005-2006-yillarda ko'p tomonlama madaniy hamkorlik dasturi muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi. Ayni paytda 2007 - 2008-yillarga muljallangan shunday dastur ijrosi davom etmokda. U ShHT mamlakatlari madaniyat vazirlarining 2006-yil aprel oyida Toshkentda bo'lib o'tgan kengashida tasdilangan mazkur anjuman doirasida O'zbekiston Badiiy akademiyasining ko'rgazmalar zalida ShHT mamlakatlarining tasviriy va amaliy-dekorativ san'atiga bag'tishlangan "Bahor kamalagi" mavzuidagi ko'rgazma tashkil qilindi. Xitoyning Xuan - Chjou shahrida tashkil etilgan "Sixu ko'lini chizamiz" badiiy forumi, Kirgizistonning Cho'lpon ota shahrida o'tkazilgan Issiqko'l kinofestivali 2007-yilning madaniy tadbiralaridandir. Xuanchjou forumida ShHT mamlakatlaridan oltmishdan ziyod mo'yqalam ustasi ishtirok etdi. Issiqko'l kinofestivalida namoyish etilgan filmlar soni ham shunga yakin bo'ldi. Hamkorlikda o'tkazilayotgan madanii tadbirlar soni yildan - yilga ko'payib, boyib bormokda. Bunga davlat rahbarlarining gumanitar hamkorlik masalalariga e'tibori muhim ahamiyat qasb etayotir. Bugun ShHT ning nufuzi ortib, u faol siyosiy va iqtisodiy

hamkorlik tashkilotiga aylanib borayotgan ekan, shunga monand darajada madaniy aloqalarni qaror toptirish unga a'zo mamlakatlar xalklarini bir - biriga yanada yakinlashtirishga hizmat qilishi shubhasizdir. 2007-yil avgust oyida bo'lib o'tgan Bishkek sammiti kun tartibi yagona madanii makon barpo etish masalasi ham kiritilgani bejiz emas. Bu teatr, musiqa va san'at festivallarini o'tkazish tajriba almashish, malaka oshirishda hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolangan bu yo'nalishdagi aloqalar rivojlanish yo'lidan borayotganidan dalolatdir.

2006-yil iyun oyida imzolangan ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risidagi ushbu bitim muhim yo'nalishdagi aloqalarni rivojlantirish uchun huquqiy asos bo'lib hizmat qilmokda. Ta'lim sohasida ShHT davlatlari ikki tomonlama hamkorlikning boy tajribasiga ega ekanligi ko'p tomonlama aloqalarni kengaytirishga yordam bermokda. Masalan, Toshkentda "Roszarubejsentr" xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik markazining vakolatxonasi, G. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti hamda I. Gubkin nomidagi Rossiya Davlat neft va gaz universitetining filiallari faoliyat ko'rsatmokda. Pekindagi Millatlar markaziy universitetida o'zbek tili kafedrasi, O'zbekiston poytaxtida esa Xitoy tili va madaniyatini o'rganish bo'yicha Konfutsiy nomidagi institut ochilgani ham yaxshi misol bo'la oladi. Universitetlar qatorida akademik doiralar, sport va jamoat tashkilotlari, yoshlar tuzilmalari ham ko'plab hamkorlik loyihibarini taklif etmokdalar. Xususan, O'zbekiston va Xitoyning milliy olimpiya ko'mitalari o'rtaida hamkorlik to'g'risida hujjat imzolangan. Yosh avlod o'rtaida do'stlik rishtalarini mustahkamlashga e'tibor berilmokda. Davlat rahbarlari yoshlar tashkilotlarining ShHT doirasidagi muloqotlarini qo'llab-quvvatlash borasida kelishib olganlar. O'zbekiston, Xitoy va Qozog'istonda "Bolalar ertaklarni aks ettiradi" ko'rgazmalar bo'lib o'tdi va bu jarayon davom etmokda.

Iyulda Xitoyda Olimpiya uyinlari o'tkazilishini, Sochi shahri esa 2014-yilgi qishki Olimpiada mezboni deb e'lon kilinganini ta'kidlash joizdir. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlari bu tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda yaqindan hamkorlik qiladilar.

Gumanitar hamkorlikni rivojlantirishda ShHT Forumi ham muhim o'rin to'tadi. Uning 2006-yil may oyida Moskvada bo'lib o'tgan ta'sis majlisida Reglament va Ish rejası qabul qilingan. Reglamentga muvofiq ShHT forumi vazifalari sirasiga ilmiy - tadqiqot institutlari va siyosatshunoslik markazlari o'rtasidagi aloqa o'rnatish, tajriba va axborot almashish, qo'shma tadqiqotlar o'tkazish va tahliliy materiallar tayyorlash, ko'p tomonlama hamkorlik dasturlarini ekspertiza qilish, a'zo davlatlarni qiziqtirgan dolzarb masalalar bo'yicha xalqaro simpozium, seminar, ilmiy-amaliy konferensiylar tashkil qilish kabi tadbirlar kiradi.

O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligidan ma'lum qilishlaricha, Forum tarkibiga har bir a'zo davlatdan bittadan nufuzli ilmiy muassasaga o'rin berilgan. Bu muassasalar o'z davlatining Forumdagi Milliy tadqiqot markazi maqomida faoliyat yuritadi. Mamlakatimiz tomonidan bu vazifani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bajarmoqda.

Shunday qilib, Shanxay Hamkorlik Tashkilotida ulkan salohiyatga ega, jumladan, gumanitar aloqalarni kengaytirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Tashkilot doirasidagi hamkorlik jarayoni kuzatilganda, a'zo davlatlar tobora yangi imkoniyatlarni ishga solayotgani, yangilarini yuzaga chiqarayotgani namoyon bo'ldi. Demak gumanitar hamkorlik ham kelgusida kengayib, yangi mazmun qasb etib boraveradi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammitlarida ko'tarilgan masalalar siyosiy va jamoat arboblari, sharzovchilar va jurnalistlar e'tiborini o'ziga tortmokda. Uchrashuvda zamonamiz tahdidlariga qarshi kurash vazifalari muxokama qilingani alohida ta'kidlanmokda. Rossiyalik taxvilchilar va ekspertlarning aksariyati ShHT bugungi kunda kollektiv xavfsizlikning muhim vositasiga aylandi, degan yakdil fikrlarni bildirishmokda. "ShHT mintaqaviy hamkorlik asosida barpo etilgan xalqaro tashkilotdir, - deydi NATO bosh kotibining siyosat va xavfsizlik masalalari bo'yicha o'rinnbosari Gyunter Altenburg - Mintqa mamlakatlari umumiyligi xavfsizlik va barqarorlik yo'lida mintaqaviy hamkorlik tamoyiliga sodiq qolishlari kerak. NATO va ShHT o'rtasida iliq munosabatlar shakllanayapti. Ushbu tashkilot a'zolarining aksariyati bilan "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi

doirasida sheriklik munosabatlari o'rnatilgan Xitoy bilan ham aloqalarimiz ijobiy. Binobarin, ShHT ning istiqboldagi faoliyatidan samarali natijalar kutish mumkin". ShHT ga a'zo mamlakatlarning Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash jarayonida ishtirok etish niyati afg'on xalqi va xukumati uchun katta istiqbollar ochadi, deb ta'kidlaydi, ushbu mamlakat matbuoti. Qobulda nashr qilinadigan "Anis" va "Eslox" gazetalari Toshkent sammitida mintaqadagi barqarorlikni mustahkamlash afg'on xalqi turmush darajasini yaxshilash vazifalarini bajarish bilan bog'liq muhim masalalar muxokama qilinganiga e'tibor qaratgan. Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyoning to'rt mamlakati ko'rsatadigan yordam Afg'onistonda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda oldinga siljish uchun imkoniyat yaratdi. Gazetalar mamlakat o'tish xukumati rahbari Hamid Karzayning sammitdagagi ishtiroki, uning ShHT ga a'zo davlatlar rahbarlari, jumladan, O'zbekiston Prezidenti bilan o'tqazgan uchrashuvlari Afg'oniston siyosiy hayotida muhim voqeа bo'lganini qayd etgan.<sup>1</sup> ShHT ning bo'lajak prezidenti va parlament saylovlarini arafasida Afg'oniston muammolariga qaratayotgan e'tibori "Afg'oniston islam jamiyati" va Afg'oniston milliy assambleyasi tomonidan yuksak baxolandi. Toshkent sammiti ShHT faoliyatining yangi boskichini boshlab berdi, - desak hech mubolag'a bulmaydi, deydi Hindiston sobiq bosh vaziri K. Gujral. O'zbekiston tashhabbusi bilan xavfsizlik kengashi kotiblarining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. MAAT faoliyat ko'rsata boshladi, ilk marotaba Afg'oniston muammolari ushbu mamlakat rahbari ishtirokida atroflicha muxokama qilindi. O'zbekistonning terrorchilik, ekstremizm, ayirmachilik va boshqa tahdidlarga qarshi kurashdagi faoliyati mamlakatning mintaqadagi siyosiy markaz sifatida e'tirof etilishiga asos bo'lmokda. Bularning barchasi O'zbekiston nufuzi yuksalib borayotganidan dalolat beradi, deb ta'kidlaydi taniqli hind davlat arbobi.

- ShHT uch yillik faoliyat davomida o'zining yashovchanligini va katta salohiyatga ega ekanini namoyon etdi, turli mamlakatlarni zamonaning yangi xurujlariga qarshi kurash yo'lida birlashtirdi. -

<sup>1</sup> "ShHT - Xavfsizlikning muhim vositasи". "Toshkent oqshomi" gazetasи. 2004 yil. 24 iyun.

deya e'tirof etadi Italiya TIV bosh maxkamasi boshligi M. Mirsilli. - Tashkilotning rivojlanish sur'atlari shundan shaxodat beradiki, yakin kelajakda xalqaro maydonda butun jahon siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi tuzilma paydo bo'lishi mumkin, deb xulosa qiladi italiyalik diplomat, M. Mirsilli, shuningdek tashkilotga a'zo mamlakatlarning savdo - iqtisodiy, sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirish, trasport - kommunikatsiya dasturlarini amalga oshirish borasidagi intilishlariga yuqori baxo berdi. Uning fikricha, bu ShHT ga a'zo mamlakatlarning o'zaro yakinlashuviga, tashkilot xalqaro mavqeining yuksalishiga hizmat qiladi. Ko'plab Ozarbayjonlik sharxlovchilarning yakdil fikriga ko'ra, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, terrorchilikka qarshi kurashdagi hamkorlikka yo'naltirilgan qat'iy va sobitqadam siyosat yuritayotgan O'zbekiston bu xalqaro tuzilmada g'oyat muhim o'rinni egallaydi. Shuningdek mutaxassislar O'zbekistonning bu tashkilotdagi a'zoligi uning qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatishga asoslangan milliy xavfsizlik konsepsiyasiga to'la mos ekanini muhim omil sifatida e'tirof etishmokda. ShHT ga a'zo davlatlar rahbarlarining Toshkent Deklaratsiyasida "ShHT global va mintaqaviy barqarorlikqa xavf solayotgan yangi tahdidlar va xurujlarga qarshi kurashda xalqaro sa'y - harakatlarni jipslashtirishga qodir yangi xavfsizlik arhitekturasini mukammal shakllantirishda faol ishtirok etishga tayyor. Shu maqsadda ShHT boshqa davlatlar va xalqaro tuzilmalar, avvalambor, BMT bilan hamkorlik qiladi, nafaqat ShHT makonida, balki butun dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga o'z hissasini ko'shadi" - deyiladi.<sup>1</sup> ShHT ga a'zo davlatlar rahbarlarining Toshkentdagи uchrashuvi ushbu tashkilotning ochiqligidan va uning boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qilish xohishidan dalolat beradi. Xuddi shu ma'noda, ShHT ga a'zo davlatlarning rahbarlari xoxlovchi davatlarni ushbu tashkilotga kuzatuvchi makomida qabul qilishga ham qaror qilganliklari diqqatga loyiqidir. Xuddi shunday makom ilk marotaba Mo'g'uliston davlatiga berildi.

Xalqaro ekspertlar Toshkent sammiti tufayli ShHT hayotida shaklanish davri yakunlanib, endi amaliy ishlар davri

boshlanganligini ham alohida ta'kidlamoqdalar. Toshkentda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya ko'mitasi ishga tushirilganligi buning yaqqol dalilidir.

Tahlilchilarining fikricha, Toshkentdagи uchrashuv davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning mexanizmini aniq belgilab berdi. Jumladan, terrorizm, ekstremizm, separatizm va narkotrafikga qarshi kurashning aniq yo'llarini belgiladi. Bular esa, shak-shubhasiz, dunyo miqyosidagi va mintaqaviy muammolarni amalda samarali hal etishda muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy xalqaro terror, diniy ekstremizm ayirmachilik va narkobiznesning faoliyat ko'lami kengayib bormokda. Bunday kuchlar maqsadga erishishning o'ta qabix usul va vositalarini ishga solayapti. Bu tahdidlarga o'zaro bog'liq bo'lgan xodisalar sifatida qarash lozim. Chunki ular bir "tomirdan oziqlanmokda". Bu kuchlarning ortida turganlar esa o'z reja va hatti harakatlarining yuksak darajada muvofiqlashtirilganligini namoyon etmokda. Bugun aniq aytish mumkinki, agar diniy ekstremizm va aqidaparastlik ishoralari xalqaro terrorning g'oyaviy niqobi bo'lsa, narkobiznes va narkotrafiq, hech shubxasiz, xalqaro terrorning moliyaviy tayanchidir.

Ekstremizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terrorga qarshi yalpi kurash olib borilmas ekan, maqsadga erishib bulmaydi. Ayniqsa, yakqa-yolgiz, tarqoq holda va noizchil usullar bilan kurash olib borish istiqbolsiz ekani tobora ravshanlashmokda.

Terrorizm butun dunyoga xavf solib turgan hozirgi murakqab sharoitda, bu xalqaro muammoning yechimini topish maqsadida O'zbekistonning tashabbuskor mamlakat sifatida jahon maydoniga chiqishi, shubhasiz barchamizga g'urur va iftixon bag'ishlaydi. Ayniqsa 17-iyun kuni Toshkentda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining sammiti nihoyat darajada ulug'vorlik qasb etib, butun dunyo nigohini O'zbekistonga qaratgani mamlakatimiz jahon hamjamiyatidagi nufuzli o'rniqa ko'tarilganligining yana bir tasdig'i bo'ldi. Shanxay hamkorlik Tashkilotining avvalgi anjumanlari tashkiliy shakllanish va oyokda turib olish bilan bog'liq masalalarni muhokama etgan bo'lsa, Toshkent sammiti bu tuzilma faoliyatidagi yangi boskichni, butun insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolarni hal etish, aniq maqsadga yo'naltirilgan to'la qonli

<sup>1</sup> "Toshkent Deklaratsiyasi" "Xalq so'zi" gazetasi, 2004 yil, 22 - iyun.

yaratuvchilik ishlari jarayonida boshlab berdi. Buning uchun nima kerak? Bu mintaqalarda tinchlik, osoyishtalik barqaror bo'lishi kerak. Shu ma'noda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammitida xalqaro va mintaqaviy terrorizmga qarshi kurash o'tkir masala qilib qo'yilgan unga a'zo mamlakatlar xalqlarining xohish irodasiga to'la mos keladi. Davlat rahbarlari terrorizm va ekstremizmning yangi shiddatli faollashuvi munosabati bilan katta tashvish bildiradilar - deyiladi Sammit yakunida qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasida - Terrorchilar turli mamlakatlar va dunyo mintaqalarini nishonga olmoqadalar. Terrorizm vaziyatga tez moslashmoqda, zamonaviy texnika vositalarini qo'llamoqda, yechimi topilmagan har qanday nizolardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga tayyor. Global terrorizm tahdidiga qarshi mintaqaga submintaqa va milliy tizimlarga tayangan markaziy yadro sifatida BMT bilan hamkorlikdagi global aksil harakatlar tizimi ko'yilishi lozim. Shu bilan birga terrorchilarning amaliyotlariga nafaqat munosib javob berish, balki ularning oldini olishga qaratilgan sa'y - harakatlar muhimdir.<sup>1</sup> Sammitda terrorchilik, ayirmachilik, ekstremizm va narkobiznes kabi xavfsizlikka tahdid soluvchi illatlarga qarshi kurashda bugun Markaziy Osiyo davlatlarida ham mavjudligi, ularga qarshi birligida kurash olib borish dolzarb masala ekanligi hech kimga sir bo'lmay qoldi. ShHT ga a'zo davlatlar rahbarlari tashkilot diqqat markazida, eng avvalo ushbu muammoni bartaraf etish vazifasi turishi kerakligini haqli ravishda ta'kidlashmokda. Tajribadan ayonki, xavfsizlikni ta'minlamay turib, taraqqiyot sohasida uylash befoysa. ShHT ga a'zo barcha davlatlar rahbarlarining bir yoqadan bosh chiqarib, sinalgan tarhiy tajribani amalda qo'llab kelayotgani e'tiborga molikdir. Jaxon siyosiy maydoniga nazar solsak ba'zi xalqaro tuzilmalarning ayrim vaqtarda besamar tortishuvlar asosida ish yuritishga guvoh bo'lamiz. Biroq ochig'ini aytganda, maqsadlar mushtarak joyda turli hil bahslarga o'rinn qolmasligi tabiiy. O'zbekiston rahbari 2001-yil bo'lib o'tgan Shanxay sammitida shu haqda to'xtalib, "... boshqa tuzilmalarning tajribasidan kelib chiqqan holda tashkilotning "munozaralar klub'i" ga aylanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida tegishli tartibiy masalalarni puxta uylab

chiqish lozim"<sup>1</sup> - deya ta'kidlagan edi. Ya'ni bunday "Klub"ning paydo bo'lishi oqibatida asosiy masalalar quyi o'ringa tushib qolishi mumkin. Bunday holatda tomonlar na uyushadi, na yakdil qarorga keladi.

Xullas, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar yanada jipslashmokda. ShHT, shuningdek ko'p tomonlama xavfsizlik, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratayapti. Eng muhimi, yangi xalqaro tashkilotning samarali faoliyat yuritishi uchun yetarli zamin yaratildi. Bu esa butun dunyoda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash yo'lida tashlangan yana bir dadil qadamdir.

## **5. Shanxay Hamkorligi Tashkilotining xalqaro terrorizmga qarshi kurashishdagi o'rni**

Ma'lumki, ShHTning tashkil topishi tarihi amalda Xitoy va MDH davlatlari o'rtasidagi choralarни tartibga solish bo'yicha tashabbuslar tug'ilgan davrda boshlangan edi. 1996-yil 5 ta davlat Rossiya, Xitoy, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlat boshliqlari Shanxayda davlat chegaralari hududida havfsizlikni mustahkamlash to'g'risidagi tarixiy kelishuv imzolandi. Uning katta yutug'i Xitoy chegaralarida ziddiyatlarni kamayishi va havfsizlashtirilgan hudud tuzilganligi bo'ldi. Ushbu uchrashuvdan boshlab muntazam ravishda yuqoridagi davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama aloqalar o'rnataladigan bo'ldi. Davlat, hukumat boshliqlari, vazirlar hududiy havfsizlik va hamkorlik masalalarida sammitlar o'tkaziladigan bo'ldi. Shunday qilib, Shanxay beshligi davlatlari o'rtasida aloqalar boshlandi. A'zo davlatlar uchrashuvni 1997-yil 24-aprelda Moskvada bo'lib, unda a'zo davlatlar chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida kelishuvga imzo chekishdi.<sup>1</sup> 1997-yil 30-iyulda Almatadagi uchinchi sammitda hududda barqarorlik va o'zaro ishonchni mustahkamlash, savdo va iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish hamda faollashtirish masalalari muhokama etildi. 1999-yil 24 avgustda Bishkekda davlat

<sup>1</sup> "XXI asr gazetasi", "ShHT: Istibolli hamkorlik" 2004 yil. 18 mart.

<sup>1</sup> К вопросу о соместительное роли организации Центральноазиатского сотрудничества в рамках ШОС //Центральная Азия и Кавказа 2004-№3(33).- с.169-1806

boshliqlarining to'rtinchı uchrashuvi o'tkazilganda milliy separatizm, diniy ekstrimizm, va transchegaraviy jinoyatlar bilan kurashish bo'yicha qo'shma deklaratsiya imzolandi. Shunday qilib bu tashkilot yangi xalqaro hamkorlikka asos bo'ldi. Bu davrda Rossiya bilan Xitoy bir-biriga o'xshash muammolar bilan to'qnashdi: Rossiyada Checheniston, Xitoyda sharqiy Turkiston (Sinsiziyan Uyg'ur avtonom hududi). Markaziy Osiyo davlatlari uchun Rossiya va Xitoy bilan ushbu masala bo'yicha hamkorlik dolzarbdir. Tojikistonda bir necha yillar suqarolar urushi va islom ekstrimizmi bilan kurashda bo'ldi. O'zbekiston va Qirg'iziston o'za yo'chegegaralarda muammolarga duch keldi. Tashkilotning beshinchi sammiti 2000-yil 4-5-iyulda Dushanbe shahrida bo'lib, unda ishtirokchilar hududiy havfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalarini hal qilish borasida terrorizmga qarshi birgalikda kurashish, chegara muammolarini hal etish masalalarini muxokama etishdi. Sammitda Dushanba deklaratsiyasi imzolandi va "Shanxay Forumi" tashkiloti tuzish bo'yicha qaror qabul qilindi. Shanxay da ShHT ni tuzish to'g'risida deklaratsiya imzolandi. ShHT ga a'zo davlatlar hududi 30 mln kv km yoki Yevroosiyo hududini 5/3 qismini bu davlatlarning umumiy aholisi 1.455 mlrd bo'lib, dunyo aholisini chorak qismini tashkil etadi. Sammit ohririda Xitoy Halq Respublikasi raisi Szyan Szemin ShHT tuzilganligini e'lon qildi. ShHT yaqin qo'shnichilik, hamkorlik va do'stlikka asoslangan. ShHT davlatlari boshliqlarining yettinchi uchrashuvi 2002-yil 7-iyulda Sankt-Peterburgda bo'lib o'tdi<sup>1</sup>. "Mazkur sammitda ShHT hartiysi, a'zo davlatlar deklaratsiyasi, hududiy Antiterroristik tuzilma tuzish to'g'risida kelishuv imzolandi. Ushbu Antiterroristik markazning shtab kvartirasi Bishkek shahrida joylashgan bo'lib bu markaz MDH mamlakatlari hududi orqali o'tadigan noqonuniy quroq'lar, narkotik moddalar ya'ni mintaqada terrorizmni moliyaviy shakllantiradigan asoslarga qarshi kurashishdir. 2003-yil Moskvadagi 8-uchrashuvda ikkita muhim qaror Shanxayda Shanxay kotibiyatini tuzish to'g'risida va Antiterroristik Markaz shtab kvartirasini Bishkekdan Toshkentga ko'chirish to'g'risida qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Antiterroristik tashkilotining yangi raisi

bo'ldi. Tashkilotga kiruvchi davlatlar rahbarlari bir qator normativ hujjatlarni tasdiqladilar. Undan tashqari Moskva sammitida ShHT kotibiyati to'g'risida, idoralar rahbarlari Kengashi to'g'risida va bir qancha masalalarda qarorlar qabul qilindi. Shu yili ShHTga a'zo davlatlar hukumat rahbarlari 20 yil muddatga ko'p tomonlama savdo iqtisodiy hamkorlik dasturini imzoladilar. 2004-yil 17-iyulda Toshkentda ShHT davlatlari rahbarlarining navbatdagagi 9-yig'ilishi bo'ldi. Mazkur yig'ilishda Davlat boshliqlarining Toshkent deklaratsiyasi va bir qator muhim hujjatlar imzolandi. ShHT davlatlari o'rtasida narkotiq moddalarни noqonuniy aylanishiga qarshi hamkorlikda kurash to'g'risida, hududiy Antiterroristik tuzilma bankining tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.<sup>2</sup> 2004-yil 8-sentyabrida Bishkekda ShHT davlat boshliqlarining uchrashuvida iqtisodiy hamkorlikning aniq yo'nalishlari muhokama etildi. ShHT doirasida ko'p tomonlama savda-iqtisodiy hamkorlikni amalgam oshirish bo'yicha dastur rejasি qabul qilindi. Ushbu dasturda hamkorlik yo'nalishlarining 100 dan ortiq loyihalari taqdim etildi. Transport kommunikatsiyasi, telekommunikatsiya, energetika qishloq xo'jaligi, turizm, suv xo'jaligi, va tabiatni muhofaza etish doirasidagi masalalar muhokama etildi. 2005-yil 5-iyulida Astanada ShHT davlat boshliqlarining navbatdagagi 9-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Sammitda Astana deklaratsiyasi imzolandi. Deklaratsiyada xalqaro terrorizm, uni moddiy bazasini yo'qotish, noqonuniy quroq-yarog va narkotik savdosiga qarshi kurashish kabi masalalar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari Antiterroristik harakterga ega ikkita muhim hujjat: terrorizm, separatizm va ekstrimizm bilan qarshi kurashish bo'yicha a'zo davlatlar hamkorligi konsepsiysi hamda a'zo davlatlar rahbarlarining ShHT doirasida faoliyatini to'g'risida qaror qabul qilindi. 2005-yil 6-oktyabrda Moskvada ShHT Kengashining navbatdagagi majlisи bo'lib, uchrashuvda banklararo hamkorlik to'g'risida kelishuv favqulotda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha o'zaro hamkorlik to'g'risida kelishuvlar imzolandi. Shuningdek ShHT a'zo davlatlarining ishchi kengashi tuzilib, mazkur ishchi kengashning birinchi majlisи ish boshladi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> "ShHT faoliyat doirasi kengaymoqda", "Xalq so'zi" gazetasi, 2004 yil, 18 iyul 7 oktyabr.

<sup>2</sup> "ShHT xavfsizlik va barqarorlik kafolati" "Xalq so'zi" gazetasi, 2005 yil.

2006-yil 15-iyunda Shanxayda ShHTning yubiley sammiti bo'ldi. Unda a'zo davlatlar hududida hamkorlikda antiterroristik operatsiyalar o'tkazish to'g'risida kelishuv, 2007-2009-yillarda terrorizm, ekstrimizm va separatizmga qarshi kurashish dasturi qabul qilindi.Undan tashqari banklar o'rtaSIDA hududiy hamkorlikni qo'llab- quvvatlash dasturi, ta'lim sohasida hamkorlik va ShHT ta'sis majlisining natijalari to'g'risida protokollar imzolandi.Shuni ta'kidlash kerakki, ShHT doirasida keyingi yillarda hamkorlikning kengayishi va mustahkamlanishi kuzatiladi. Masalan, 2004-yilda Mongoliya ShHTga kuzatuvchi davlat bo'ldi. Hududdagi boshqa davlatlar Pokiston, Eron va Hindiston 2005-yil Astana sammitida kuzatuvchi davlat maqomini oldi. Belorussiya va Shri-lanka davlatlari kuzatuvchi maqomini olishga istagi borligini e'lon qildi. Janubiy Koreya, Nepal, MDH va Yevropa ittifoqining boshqa davlatlarining ShHT faoliyatiga qiziqishi ortmoqda. 2004-yil deqabrda ShHT, BMT, Birlashgan Arab Amirligi kuzatuvchi maqomini oldi. 2005 bahorida ShHT kotibiyati ASYeAN va MDH davlatlari kotibiyatlari bilan o'zaro aloqalar to'g'risida memorandum imzolandi. 2006-yil mayida YevrAzES integratsion qo'mitasi bilan aloqa o'rnatildi. Ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik, energetika va transport hamkorligi ShHTning yangi yo'nalishlari sifatida shakllanmoqda.

"Shanxay beshligi" ya'ni ShHT hozir "Shanxay otiligi" ga tarixda birinchi marta Rossiya va Xitoy Markaziy Osiyo davlatlari bilan birlashdi. Bu tashkilot ko'p tomonlama hududiy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikka asoslangan. 1996-yildan bu tizim Markaziy Osiyoda o'zaro ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi, o'zaio ziddiyatlar tarqalishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan, Afg'onistondagi fuqarolar urushi bir necha yil davomida Xitoy va uni hamkorlari ShHT doirasida bahsli hududiy muammolarni tartibga soladi.

2001-yil 11-sentyabr voqealari va antiterroristik kompaniya hududiy tashkilotlar uchun yangi imkoniyatlar ochdi va ular oldiga yangi vazifalar qo'ydi.

2002-yil Sank-Petrburgda ShHT davlatlari sammiti ishtirokchi davlatlar oldidagi muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega

bo'ldi. Bu uchrashuvda oltita davlat rahbarlari maqsadga erishishni strategik yo'nalishlarini ishlab chiqdilar.

AQShda terroristik akt sodir bo'lgandan keyin bir necha kun o'tgandan keyin ShHT ishtirokchi davlatlari bosh vazirlari Almata konferensiysi bo'ldi (14-sentyabr Qozog'iston). Uning ishtirokchilari hamkorlikda terroristlarga qarshi harakat yo'nalishlarini ishlab chiqdi. Undan tashqari, bu hujjatda bu tizimga qarshi kurashda a'zo-davlatlarni tayyorligini bildirdi, hamda global terrorizmni barcha shakllariga qarshi kurashish uchun tezda choralar ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Konferensiyyadagi bahs munozarada Xitoy bosh vaziri Chju Junszi 2 ta muhim taklif kiritdi: birinchi, ShHT nizomini qayta ko'rib chiqish, 2-si, Bishkekda tuzilgan antiterroristik faoliyatini yanada tezlashtirish. ShHT a'zo davlatlari odatda hamkorlikda hech qanday harakat uysushtirishmadı. Buning o'ziga xos bir necha sabablari bor: 1-dan, 11-sentyabrda terroristik harakatlar AQShga qarshi qaratilgan. Washington terrorizmiga qarshi kurashda muhim rol o'ynay boshladi. 2-dan, ShHT hech qachon harbiy blok bo'lmaydi va o'z a'zo- davlatlaridan bunday harakatlarni talab qilmaydi.<sup>1</sup> Undan tashqari, tashkilotni hech bir davlati Afg'oniston tomonidan bo'ladigan terroristik aktlarga qarshi urush olib bormaydi. Shanxay otiligi davlatlari boshqa xalqaro tuzilmalar: MDH Dushanba guruhi (Rossiya, Hindiston, Eron, Tojikiston, O'zbekiston va Afg'oniston) tarkibiga kiradi. NATO ning "tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturida ishtiroki tugadi. Bu shuni bildiradiki har bir ishtirokchi davlat boshqa tashkilot davlatlari a'zolari bilan hamkorlik qiladi. 3-dan, ShHT davlatlariga qo'shma shtatlarning iltimoslari turli hil. Masalan, O'zbekiston hududida AQSh o'z harbiy bazalarini joylashtirishni so'raydi. AQSh Xitoy va Rossiyadan axborot va diplomatiq darajadagi faoliyatini muvofiqlashtirishni so'raydi. ShHT davlatlarining antiterroristik kompaniyadagi faoliyatiga turlicha sabablar bor. Ta'kidlash kerakki, ShHT davlatlari nuqtai nazaridan 11-sentyabr voqealari bu tashkilotlar antiterroristik faoliyatiga to'g'ri kelmaydi. Masalan, Qirg'iziston 1-bo'lib, Antiterroristik markaz tuzishni taklif etdi. Afg'onistondan bo'ladigan

<sup>1</sup> Акмалов III. Шанхайская организация сотрудничества и проблемы региональной безопасности. Журн. "Центральная Азия и Кавказ". 2005г. №2. с 146-153.

terrorizm havfi nuqtai nazaridan O'zbekiston va Tojikiston uchun bu markazni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Qozog'iston ta'kidlaydi, ShHT ni asosiy vazifasi iqtisodiy hamkorlik bo'lishi kerak.

Rossiya ham Qozog'iston singari bu tashkilotga terrorizmga qarshi kurash vositasi deb qaramaydi. 11-sentyabr voqealaridan keyin ShHT davlatlarini ba'zilari AQSh bilan hamkorlikni mustahkamlay boshladi. Bu ShHT ni antiterroristik missiyadagi muvaffaqiyatiga ishonishni bildirmaydi. Rossiya Dushanba guruhi yordami bilan o'z ta'sirini mustahkamladi. Shu bilan birga AQSh va ShHT ba'zi davlatlar o'rtaida 2 tomonlama terrorizmga qarshi kurash boshlandi. Masalan, Rossiya va AQSh, Xitoy va AQSh. Natijada ikki tomonlama vaziyat murakkablashdi. Bir tomonдан ShHT ning barcha davlatlari Markaziy Osiyoda terrorizm bilan kurashda faol ishtirok eta boshladi. Ularni bu sohadagi hamkorligi ayniqsa Rossiya, O'zbekiston, Tojikiston va Xitoy antiterroristik kompaniya rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Boshqa tomonidan ShHT bu kompaniyada birlashtiruvchi rol o'ynamaydi. Bu tashkilotni har bir a'zosi AQSh bilan ikki tomonlama hamkorlikda faol ishtirok etadi.

ShHT hududda terrorizmga qarshi tuziladigan 1-xalqaro tizim bo'ldi. U tashkil topganidan boshlab Markaziy Osiyoda terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashga chaqirdi. 2001-yil 15 yunda ShHT ni oltita a'zosi Shanxay konvensiyasini imzoladi. Bu konvensiyada hududdagi davlatlarni terrorizmga qarshi kurashda hamkorligi zaruriyat haqida so'z boradi. Bu hujjat ushbu masalani hal etishda mustahkam haqiqiy ba'za bo'ldi.

11-sentyabrda AQShda yuz bergen terroristik harakatlardan so'ng, Markaziy Osiyoda kuchlar balansini ta'minlash masalasida yangi muammolarni qo'ymoqda:

Birinchidan, agar 11-sentyabrigacha ShHT Markaziy Osiyoda havfizlik, terrorizm bilan kurashda va hamkorlikni mustahkamlashda lider bo'lgan bo'lsa, hozir u bu muhim rol o'ynamaydi.

Ikkinchidan, ShHT ni ichidan uyushqoqligi buziladi. Ta'kidlanganidek antiterroristik urushda u birlashtiruvchi rol o'ynamaydi. Shuning uchun bu tashkilot a'zolari o'z hamkorligini AQSh va boshqa tashkilotlar bilan mustahkamlash yo'liga o'tadi.

Shubhasiz, bularni markazsizlik an'anasi kuchayishiga va birlikni kuchsizlanishiga olib keladi.

Uchinchidan, bu davrgacha ShHT davlatlarini iqtisodiy hamkorligi mustahkam emasdi. Markaziy Osiyoda Vashington ta'sirini o'sishi AQSh va boshqa davlatlarni hududda investitsiyalari o'sishiga olib keldi. Agar vaziyat shunday o'zgarmaganda, ShHTni a'zo davlatlar o'rtaida iqtisodiy hamkorligi rivojlanardi.

To'rtinchidan, bu davrdagi o'zgarishlar madaniyat sohasida ham ShHT davlatlari o'rtaida aloqalarni shakllantirdi. Markaziy Osiyo yagona hudud, bu yerda 4 ta sivilizatsiya-konfutsiylik, islam, slavyan va induizm jamlangan. Shanxay davlatlari doirasida madaniy hamkorlik va tsivilizatsion muloqotni mustahkamlash kerak.

Bugun ShHT davlatlari o'z oldilarida qanday jiddiy muammolar turganligini yaxshi tushunadi. 2001-yil 20-oktyabrida Shanxaydagi uchrashuvda Xitoy Prezidenti Szyan Szemin va Rossiya Prezidenti Vladimir Putin ta'kidladi. ShHT o'z masalasida pozitsiyasini mustahkamlashi kerak. Shuningdek Sharqiy Turkistondagi terroristik harakatlarga va chechen jangarilariga qarshi e'tiborni kuchaytirish kerakligi ta'kidlandi. Undan tashqari, Pekin va Moskva terrorizm bilan kurash bo'yicha ichki guruh tashkil etishga kelishildi. 2001-yil 28-29-noyabrida mazkur masalaga bag'ishlangan doirada birinchi uchrashuv bo'ldi. Tomonlar global kenglikdagi terrorizm bilan kurash muammosi to'g'risida fikr almashdi. Afg'onistondagi vaziyatni muhokama etishdi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlari ikki tomonlama va ko'p tomonlama darajada harakat qildilar. Shanxay Hamkorlik tashkiloti doirasida mintaqada terrorizinga qarshi tura boshlab faoliyat ko'rsata boshladi. Mazkur tuzilma zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus hizmatlarining hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orgali terror-chilikning oldini olish vazifasi yuklangan. Shu maqsadda tuzilma tarkibida kengash va ijroqo'm faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ijroqo'mda esa o'zaroo tasdiqlangan lavozim o'rinaligiga muvofiq ShHTga a'zo davlatlardan vakillar ishlaydi. ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining 2004-yil 17-iyunda Toshkentda bo'lgan majlisida Tashkilotning shakllanishi davri yakunlanganligi davri qayd etildi.

Majlis yakunlari bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi, ShHTning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning faoliyatiga doir hujjatlar imzolandi. Kengashga oltita davlat maxsus hizmatlarining vakillari kiritilgan. Ularni maqsadi o'zgarayotgan vaziyat natijasida kelib chiqayotgan yangi ziddiyatlarga qarshi turish, iqtisodiy hamkorlik borasida transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xom ashyo zahiralarini o'zlashtirish, suv energetika zahiralaridan unumli foydalanish, ekologiya va boshqa shu kabi masalalarni hal etish hisoblanadi.<sup>1</sup> ShHTga a'zo davlatlar mintaqaning barqaror rivojlanishi tarafdori bo'lган barcha davlatlar o'zaro aloqalarini kuchaytirishlari kerak. Binobarin bunda bizningcha ShHTning blok yoki yopiq alyansga aylanib qolmasligi, ochiqligi, BMT Nizomi maqsadlari va tamoyillariga, xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan amaliy muloqot va hamkorlik tamoyillariga rioya etishi juda muhim ahamiyatga ega. ShHTning o'tgan davrlardagi faoliyatini ko'rib chiqir ekanmiz, shu o'rinda shuni ta'kidlash kerak bo'ladi. Bugungi kunda ShHT xalqaro hamkorlikning qudratli institutiga, havfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning, xalqaro terrorchilik, separatizm va ekstremizm, narkotiq moddalar ishlab chiqarish va tashish kabi zamonnинг eng qaltis va tahlika va tahdidlariga qarshi kurashishda kuchli xalqaro tashkilotga aylanmoqda

### Tayanch so'zlar

Nufuzli tashkilot, ta'sis hujjati, aksilterror tuzilma, assambleya, memorandum, global model, strategiya, integratsiyalashuv, sammit, deklratsiya, investitsion hamkorlik, narkotrafik, tranzit mamlakat, pozitsiya, ustav hujjati, ijroqo'm, psixotron moddalar, infratuzilma, resurslar, regional tuzilma, shtab-kvartira, antiterror tuzilma, alyans, xunrezzlik, milliy koordinatorlar, savdo-sanoat palatalari, strategik hamkorlik, immunitet, vakolat, konsepsiya mineral xom-ashyo, nohukumat tashkilot, moliyaviy doiralar, agrosanoat aloqlar, loyihalarni moliyalashtirish, kredit bitimi, reglament, noyob

<sup>1</sup> S.Jo'sraev, O.Axmedov, M.Raximova. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. T. G.Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2008 yil.

mexanizm, tadrijiy rivojlanish, harbiy salohiyat, migratsiya, ekspertlar, transport kommunikatsiyalari, axborot xavfsizligi, gumanitar hamkorlik, sarmoyaviy loyihalar, yagona makon, mintaqa, submintaqa, kuchlar balansi

### Savol va topshiriqlar

1. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT)ning asosiy yo'li, maqsad va vazifalarini bilasizmi? Tashkil topish tarixini-chi?
2. Mintaqaviy va xalqaro muammolarni hal etishda ShHT qanday rol o'ynaydi?
3. ShHTga a'zo davlatlar o'rtaSIDAGI iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash vazifalarini nimalardan iborat deb bilasiz?
4. Mintaqamiz va xalqaro iqtisodiy-siyosiy hamkorligi hamda xavfsizligini ta'minlashda O'zbekiston-ShHT hamkorligining ahamiyatini tushuntirib bering?
5. Shanxay Hamkorlik Tashkilotining xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi o'rni va ahamiyati qanday?

## II BOB MARKAZIY OSIYO HAMKORLIK TASHKILOTI

### 1. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida yangi integratsion jarayonlarning boshlanishi

Hozirgi kunda xalqaro doirada shakllanayotgan siyosiy qarashlar Respublikamizning Markaziy Osiyoda tutgan o'rnini yuqori baholaydi. Darhaqiqat, mintaqadagi mavjud muammolarning konstruktiv yechimini topishda O'zbekiston ko'p qirrali tashqi siyosat olib bormoqda. Ushbu mintaqada xavfsizlikka tahdidlarning doimiyligi va kuchli davlatlarning manfaatlar to'qnashuvi sharoitida Mustaqillikni asrab qolish va yanada mustahkamlashni davrning o'zi talab etmoqda. Bunda, mintaqalarning barchasi yagona umumxavfsizlik tizimini yaratish zaruriyat ekanligini anglab yetgan holda, ushbu tizimda mintaqaviy integratsiya g'oyasi yetakchi o'rimi egallaydi. Bu g'oyaning tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lib, uning samarali sa'y-harakatlari natijasida bu geosiyosiy makonda qafolatlangan xavfsizlik tizilmalari yaratilmoqda.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida tuzilgan bitimlar, davlat rahbarlarining rasmiy o'zaro tashriflari chog'ida hamda Markaziy Osiyo hamkorligi doirasidagi uchrashuvlarda imzolangan siyosiy hujjatlar MO davlatlari hamkorligini yo'lga qo'yish uchun me'yoriy huquqiy asos bo'lib hizmat qiladi.

1992-yilning 22-iyunida O'zbekiston Respublikasi va Qog'og'iston Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida Shartnoma tuzilgan edi. Unda tomonlar o'z munosabatlarini bir-birlarining mustaqilligi va davlat severeniteti, teng huquqligini hurmat qilish, ichki ishlariga aralashmaslik, hududiy yaxlitligini hamda mavjud chegaralarining daxlsizligini tan olish va hurmat qilish; davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, xalqlar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek ikki tomonlarga siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, gumanitar va ekologiq hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish, tashqi siyosat sohasida, xalqaro tashkilotlar ishida o'zaro yordamlashish, tashqi iqtisodiy faoliyatning muvofiqlashtirishiga yordam berish; uyushgan

jinoymatchilikqa, terrorizmga qarshi kurashda, shuningdek narkotiq moddalarning, quro'l-aslahalarning noqonuniy sotilishiga, kontrabandaga qarshi kurashda hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish prinsiplariga amal qilishlari alohida ta'kidlab o'tildi.<sup>1</sup>

1993-yilning iyul' oyida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtaida 1994-2000-yillarga mo'ljallangan o'zaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Bitim imzolangan edi. 1994-yil yanvarida esa-Yagona iqtisodiy hudud tashkil etish haqidagi Sharhnomalar imzolandi (keyinchalik ushbu sharhnomalarga Qirg'iziston ham qo'shildi.)

Markaziy Osiyo Respublikalari hamda Qozog'iston rahbarlari o'rtaida 1991-yil 13 deqabr' Bitimiga, shuningdek O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'iston Respublikalararo Maslahat Kengashi Majlisining 1991-yil 17 deqabridagi Bayonnomasiga asosan Turkmaniston va O'zbekiston Respublikasi hukumati vakillari tomonidan 1992-yilning 3-martida Tejen-Seraxs temir yo'lining qurilishini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash to'g'risidagi Bitim imzolandi. O'zbekiston 1992-yil uchun 65 million rubl miqdorida mablag' ajratdi. Uning 48 million rubli qurilish-montaj ishlariga hamda zarur moddiy-texnik rusurslar uchun yo'naltirildi.

Turkmaniston esa O'zbekiston Respublikasining Tejen-Seraxs temir yo'l tarmog'i qurilishiga yo'naltirilgan mablag'larini, temir yo'l tarmog'i ishga tushirilgach, ushbu yo'ldan O'zbekistonning barcha yuklarini imtiyozli asoslarda tashib berish bilan qoplashni o'z zimmasiga oldi.

O'zbekiston o'zining tashqi siyosati bo'yicha faoliyatini izchil davom ettirib borar ekan. Tojikistondagi tartibsizliklar boshlangan ilk kunlardanoq, mazkur davlatga har tomonlama ko'mak berib kelmoqda.<sup>2</sup>

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy iqtisodiy-siyosiy integratsiya jarayoni rasman 90 yillarning birinchi yarmidan boshlandi. 1994-yil

<sup>1</sup> Международные договоры Республики Узбекистан. 1-книга. Т. 1998 г. с 128-138.

<sup>2</sup> A. Qirg'izboyev. O'zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. T. Fan. 2004 yil. 63-64 betlar.

O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Yagona iqtisodiy makon shartnomasi tuzishdi. 1998-yil Tojikiston ham bu shartnomaga qo'shildi. Yuzaga kelgan huquqiy asosni tashkiliy va moliyaviy jihatidan ta'minlash uchun Davlatlararo kengash va Markaziy Osiyo hamkorlik va rivojlanish banki barpo etildi. Ushbu shartnomaga muvofiq 1995-2000-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiya Dasturi qabul qilindi. Bu Dastur doirasida qo'shma korxonalar tuzulib, ishlab chiqarish kooperatsiyasi "Kurtak ota" boshladi.<sup>1</sup>

Suv-energetika, yonilg'i resurslaridan foydalanish sohasida hamkorlik yo'lga qo'yilib, davlatlararo gaz quvurlar yotqizildi. Natijada gaz-neft zahiralarini va suv resurslarini bir-biriga yetqazib berish infrastrukturasi yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida sobiq Ittifoq parchalangandan keyin buzilgan butun ittifoq iqtisodiy tizimdan kurilgan zararlarni oldini olishga olib keldi.

1999-yil Bishkek sammitida 25 ta katta hajmdagi loyiha ma'qullandi. Tomonlar mintaqaga davlatlari energetika tizimlarini yonma-yon ishlashni ta'minlash va Sirdaryo havzasini suv-energetiq resurslaridan tenglik prinsipi asosida foydalanishga kelishib olindi. Oqibatda mintaqadagi integratsion jarayon Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati degan nomni oldi.

XXI asr nafaqat o'zbek xalqi taqdirida, balki Yer yuzi aholisi hayotida tubdan burilishlar davri bo'lishini oldindan bashorat qilmoqda. Dunyoviy muammolar, urush va tinchlik masalalari va tazyiq o'tkazish siyosati davlatlararo xudbinlik singari illatlarni keskin fark qilish, ularni yuksak madaniy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan siyosatini qaror toptirish yo'li bilan bartarasf etish O'zbekiston xalqaro siyosatining bosh yo'lidir. U ijtimoiy tuzum g'oyasi va taraqqiyoti yo'lidan qat'i nazar tinch-totuv yashash, o'zaro manfaatli hamkorlik tarafidoridir. Shu yo'l bilan yer yuzi xavfsizligini ta'minlash, millati, irqi yashab turgan mamlakati, fuqaroligi va boshqa jihatlaridan qat'i nazar inson hayotini himoya qilishiga e'tibor bilan qaraydi.

1995-yil 5-mayda Oliy majlis II sessiyasida "Turkiston umumiy uyimiz" shiorini ilgari surilishi, uning mazmunidan ko'zlangan

<sup>1</sup> Жуков Р., Резников О. Россия-Центральная Азия: новая модель взаимодействия. "Россия и юг: возможности и пределы взаимодействия". Москва: Финстатинформ. 1996 год. с 203-206.

maqsad mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdir. Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari jahoning boshqa ittifoqdosh va mintaqaviy hamkorlik mamlakatlaridan farqli o'laroq ma'naviy va madaniy hamkorlikka qo'proq asoslanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda hududiy joylashishi jihatidan ham yer osti va yer usti boyliklariga egaligi, xullas, iqtisodiy ko'lam va madaniy darajasi jihatidan ham alohida mavqega ega. Respublikamizning tashqi siyosiy yo'li aniq. Bu yo'l mintaqada yaxlit iqtisodiy hududini vujudga keltirish va rivojlantirishdan iborat. Oliy majlisining 1995-yil 23-fevraldag'i I sessiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni belgilab, shunday deyilgan edi: Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biridir. Xalqlarimiz tarihi, madaniyati, an'analari, diniy e'tiqodning mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtaсидagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning muhim poydevori hisoblanadi. Bizning maqsadlarimiz bir, taqdirimiz bir. Bizda milliy munosabatlarda keskinliklar yo'q, hal qilib bo'lmaydigan voqealar ham yo'q. Haqiqatan ham mintaqadagi xavfsizlikni qaror toptirish O'zbekiston rahbari olib borayotgan siyosatning ushbu ustuvor yo'nalishi edi. Oddiy qilib aytganda iqtisodiy jihatidan to'lik oyoqqa turib olish uchun tinch muhit, tinch va osoyishta makon zarur edi. Markaziy Osyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston bugungi kunda Umumustivor jarayonlarning faol ishtirokchisi bo'lib qolgan. Biz Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti Xel'sinki g'oyalarini mustahkamlash uchun mintaqaviy markaz sifatida aynan davlatimiz poytaxti Toshkent tanlanganini yuksak baholaymiz. Mamlakatimiz NATOning tinchlik yo'lidagi sheriklik ishtiroti ham tobora kengayib bormoqda.

O'zbekistonning xalqaro maydonda siyosiy sahnada Markaziy Osiyodagi yetakchi hamda ko'zlangan maqsadlariga erisha olishi jihatidan imkoniyati keng, shu bilan birgalikda mazkur hududdagi tinchlik uchun javobgarlik yukini zimmasiga olgan davlat hamda ichki, beqiyos tabiiy resurslardan foydalanish uchun shart-sharoitlar yetakchi hamkor sifatida dunyoning peshqadam mamlakatlari tomonidan tan olindi.

2001-yil 28 deqabrdra Toshkent shahrida o'tkazilgan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, va O'zbekiston Respublikalari

davlat rahbarlarining Toshkent Bayonotida “Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning shakl va mexanizmlarini takomillashtirish, yagona xavfsiz hududini shakllantirish masalalari bo'yicha o'zaro tushunishini chuqurlashtirish, mintaqada tinchlik va barqororlikni saqlash bo'yicha birligidagi xatti harakatlarni ishlab chiqish maqsadida siyosiy, savdo iqtisodiy, ilmiy texnikaviy, madaniy gumanitar sohadagi munosabatlarda ko'p rejali, hamkorlikni jadallashtirish tarafdori ekanliklarini bildirdilar hamda Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (MOIX)ni “Markaziy Osiyo hamkorligi” Tashkiloti (MOX) deb qayta tuzishga kelishib oldilar”.<sup>1</sup>

Shuningdek Toshkent sammiti muzokalarida tomonlarning Afg'onistonidagi voqealarga munosabati bir ekanligi ta'kidlandi. Prezidentlarning Hamid Karzay boshchiligidagi muvaqqat hukumani qo'llab-quvatlanishini, mamlakatda to'la tinchlik va barqarorlik o'rnatishda urushdan keyingi tiqlanish davrida undan yordamini aymasligini bildirdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki “O'zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh mamlakatlardagi Harbiy-siyosiy mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga va ularni oldimi olishga qaratilgan har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo'llab-quvvatlab keldi va bundan buyon ham qo'llab-quvvatlayveradi. Bu yo'lda mamlakatimiz o'z davlat siyosati doirasida ham xalqaro tashkilotlar mexanizmlaridan foydalangan holda, mavjud imkoniyatlarni, aniq maqsadni ko'zlab ishga soladi. Bugun milliy strategiyamizning asosiy yo'nalishlaridan biri ana shunday mazmunga ega”.<sup>2</sup> Xullas, bugungi kunga qadar O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasining, balki butun dunyo Yer kurrasining eng xavfli hududi va imkoniyatiga so'ngsiz kulfatlar keltiruvchi asriniz vabosi terrorizmdan ham ogoh qilib keldi. Bundan tashqari 2000-yilning 19-oktyabrida Toshkentda “Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, narkotiq moddalar, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashga yondoshish” mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya qatnashchilari Toshkent Deklaratsiyasini qabul qildilar. Shuningdek 2000-yilning 1

deqabrida MDH davlatlari rahbarlari Kengashining Minskda bo'lib o'tgan O'zbekiston, Rossiya va Tojikiston Prezidentlari ishtirotida uch tomonlama muloqotda ham davlatimiz rahbari mintaqada tinchlikni saqlash borasida O'zbekistonning o'z qarash va yondashuvlarini bayon etdi.

O'zbekistonning Mintaqqa xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlashdagi harakatlarida MDH mamlakatlari bilan bo'lgan o'zaro aloqalar ham alohida o'rinn tutadi. Bu borada Yurtboshimiz “ne-ne bosqinlarni, qirg'inlarni ko'rgan bu tuproqni bobolarimiz yonmayon turib himoya qilganlar. Binobarin, bizning tarihimiz ham taqdirimiz ham birlashib ketgan va bu Allah taolo bergen azaliy va abadiy nasibamizdir”<sup>3</sup> -degan edi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan yangi hamkorligining muhim yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyoni yadro quroldan xoli zonaga aylantirishdan iboratdir.

Bugungi dunyo shunusi bilan harakterlanadiqi, unda davlatlar barcha sohalarda bir-birlari bilan izchilroq hamda mustahkamroq bormoqda. Bugungi kun muammolari o'ta globallashib bormoqda. Ayniqsa, harbiy-siyosiy muammolar xalqaro hamjamiyati a'zolaridan insoniyat yashab qolishini ta'minlash uchun kelsizligan kollektiv sa'y-harakatlarni talab etadi. Shu bois, bugungi kunda insoniyat sivilizatsiyasi oldida turgan eng dolzarb vazifa-iborat.

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan o'rnatilgan siyosiy o'rtaida milliy ayirmachilik, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmni avj oldirishga urinuvchi, butun mintaqaning, unda joylashgan davlatlarning musta qilligiga, severenitetiga, hududiy birligiga, xavfsizligi va barqarorligiga raxna solish maqsadlarida narkotiqlar savdosini qurol-yarog'lar kontrabandasini va jinoyatchilikni keng ham alohida o'rinn egallaydi.

<sup>1</sup> “Ўзбекистон овози” газетаси. 2001 йил. 29 декабрь.

<sup>2</sup> Ислом Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсагасида: хавфсизликка таҳтид барқорорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т. “Ўзбекистон”. 1997 йил. 33-бет.

<sup>3</sup> I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. “O'zbekiston”, 1996 yil. 2-jild, 233-bet.

Tarixdan ma'lumki, har qanday mamlakatlar, har qanday xalq o'z sarhadlarini, o'z xavfsizligini, o'z aholisini, oilasi ayoli va onalarining tinch va osoyishta hayotini himoya qilaolmas ekan, uning tom ma'noda davlat deb ham atab bo'lmaydi. Butun tarihiy o'tmishimiz, ajdodlarimiz o'gitlari shundan dalolat beradiqi. o'z hududiy yaxlitligi va mustaqilligini qafolatlay olgan mamlakatgina gullab-yashnaydi. Sobiq sovet bloki yemirilib, Varshava shartnomasi tugagandan keyin, 1949-yilning aprelida tashkil qilingan va Yevropadagi 14 ta mamlakatni, shuningdek AQSh va Qanadani Birlashtiruvchi Shimoliy Atlantika shartnomasi Tashkiloti-NATO ga a'zo davlatlar ana shunday operatsiyalarni amalga oshiruvchi eng real va qudratli harbiy siyosiy tashkilot bo'lib qoldi.

NATOning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi Yevropa Xavfsizligining yangi modelini yaratishga qaratilgan yo'nalishlardan biri bo'lib qoldi. U qo'shilmagan, betaraf mamlakatlarning hamda sobiq SSSR mamlakatlarining kuch-g'ayratini birlashtirdi. Ushbu dastur doirasida O'zbekistonning hamkorlik qilishi Markaziy Osiyo mintaqasida va umuman Yevroosiyo makonida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik ishiga ko'maklashadi, mamlakatlar o'rtaqidagi turli sohalardagi samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishga olib boradi va pirovard natijasida jahon hamjamiyatiga tezroq integratsiya-lashish imkonini beradi. Shuning uchun ham Birinchi Prezident I.A.Karimov "NATO bilan hamkorlik qilish harbiy siyosiy voqealardan xabardor bo'lib turishi, bu uyushma doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalardan bahramand bo'lish uchun imkon beradi"-deydi.

Asrimizning dastlabki o'n yilligining ilk damlaridayoq xalqaro terrorizm, quroq savdosi, narkobiznes kabi mudhish voqealar dunyoni larzaga soladi. Afg'onistonda 20 yildan ziyod vaqt davom etib kelayotgan urush yana kuchaydi. Markaziy Osiyo ayniqsa, O'zbekistonning biqinida joylashgan Afg'oniston xalqaro terrorizmnинг makoni, bospanasiga aylanib qoldi. Oqibati-Afg'onistondagi xalqaro terrorizmnинг qutqusi, zahri nafaqat Amudaryo ortidagi davlatlar, balki Okean ortidagi Amerikaga ham yetib bordi. Shu bilan birga terrorizmni asrimiz boshidanoq butun tinchliksevar xalqlar va davlatlarga qarshi urush qildi.

Yurtboshimiz Yyer sharining qaysi davlatida bo'lmasin, Afg'onistondagi tinchlik sayyoramiz osoyishtaligi ekanligini o'sha yillardayoq uqtirib o'tdi. Masalan, 1994-yilning 29-iyunida xorijiy mamlakatlar va Xalqaro tashkilotlarning Respublikamizdagи vakolatxonalari rahbarlari, mahalliy va xorijiy jurnalistlar bilan uchrashuvda Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti jahonda, jumladan, Markaziy Osiyoda tinchlik va osoyishtalik qaror topishi yo'lida qilayotgan ishlarning yuksak baholanishi, bu ishlar samarali yakunlanishi tarafdori ekanligini ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov YevroAtlantika hamkorlik kengashi sammitida so'zlagan nutqlarida (2002-yil, 22-noyabr') shunday degan edilar: "Birinchidan bizning mintaqadagi xavfsizlik bilan bog'lik ahvol haqidagi so'z ketganda, shuni alohida ta'kidlash kerakki, u bir yil avvalgi holatidan jiddiy farq qiladi. Mintaqamizdagи mamlakatlar Afg'oniston hududlaridagi bosqinchi va terrorchi kuchlar tomonidan har yili sodir etiladigan qo'poruvchilik hurujlaridan xalos bo'ldi. Eng muhimi, ularning ortida turgan, haddidan oshgan toliblarning hududimizga bostirib kirishi tahdidi bilan bog'lik doimiy xavf-xatardon qutuldi.

Ikkinchidan. Bugungi kunda xalqaro terrorchilik o'zi oziqlanib kelayotgan, tobora narko agressiya tusini olayotgan narkotrafiq bilan chambarchas bog'lanib ketmoqda... Afsuski, bugungi kunda turli xalqaro tashkilotlar shaf'eligidagi amalga oshirilayotgan ko'plab dasturlar va Markaziy Osiyo mintaqasida ushbu tahdidga qarshi qo'yishimiz mumkin bo'lgan chora-tadbirlar o'zaro yaxshi muvofiqlashtirilgan, moliyaviy hamda moddiy resurslar bilan yetarli darajada mustahkamlanmagan.

Uchinchidan. O'zbekiston NATog'a a'zo mamlakatlarning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro aloqalarni yanada faollashtirishga, birinchi navbatda, xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha hamkorligini kuchaytirishga alohida e'tibor berib kelmoqda."<sup>1</sup>

2001-yilning 11-sentyabr voqealaridan so'ng Markaziy Osiyo davlatlari darxol Yevro-Atlantika hamkorlik Kengashi a'zolari bilan

<sup>1</sup> "Xalq so'zi" gazetasi. 2002 yil. 23 noyabr.

birgalikda terrorizm balosini bartaraf etish bo'yicha barcha choralarни ishga solish masalasini muhokama qildi. Jumladan, O'zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurash boshlangan birinchi kunlardanoq bu kurashning muhim hayotiy ahamiyatini anglagan holda xalqaro qo'shiyaga yordam ko'rsatishni ma'lum qildi. 2001-yilning 5-oktyabrida O'zbekiston hukumati o'z havo hududini Amerika Qo'shma Shtatlari samolyotlari uchun ochishni, mamlakat hududidan qutqaruv-qidiruv va gumanitar maqsadlarda foydalishga ruxsat berishni bayon etdi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlarida asosan islom diniga e'tiqod qiluvchi aholi yashaydi. Shu ma'noda olib qaraganda, ularning koalitsiya missiyalarini qo'llab-quvatlashi terrorizmga qarshi boshlangan xalqaro kurash islomga qarshi salib yurishi yoxud sivilizatsiyalar to'qashuvi emas, balki terrorchilar va ularning rahnamosi Usama Bin Ladenga qarshi ekanligini namoyish etdi. Qolaversa, terrorizm Shimoliy Amerika, Yevropa yoki Markaziy Osiyoda joylashuvidan qat'iy nazar, barcha davlatlarga bir hil tahdid solib turgani ma'lum bo'ldi. Va yana ayni hurujlar va terrorizmga qarshi umumharakat Yevro-Atlantika xavfsizligi uchun naqadar zarurligini va bunga NATOning Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin hamkorlik qilishi nafaqat bugungi murakkab vaziyatda, balki undan keyin ham zaruwilagini ko'rsatdi.

Harxaqiqat, tinchlikni saqlash, uni mustahkamlash kundalik ishimiz, muqaddas burchimiz ekan, har qaysi fuqaro avvalo o'z vazifasini vijdonan ado etishi, shu bilan birga g'arazli maqsadda qilinayotgan informatsion hurujlarga, uydirma va mish-mishlarga berilmasdan, sodir bo'layotgan voqealarga ochiq ko'z bilan qarashi, o'z tyi, mahallasi, shahar, qishlog'ida osoyishtalik barqaror bo'lishi uchun jon ko'ydirishi, mana shu haqiqatni chuqur anglab, ogohlik va hushyorlikni o'z hayotining mezoniga aylantirishi zarur.

Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalarda vujudga kelgan keskin munosabatlarni, ziddiyatlarni juda ko'p sabablari borligini va bu sabablar tanqidiy tahlilga muxtoj ekanligini Islom Karimov o'zlarining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot qafolatlari." asarida ko'rsatib bergen edilar. Bular: "Bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtida demokratiya

asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish:

- Milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim elatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi;

- Etniq va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi;

- Qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy eksteremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi;

- Mamlakatlar, xalqaro o'rtaida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtaida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligi va avaylab munosabatda bo'lish talab qilayotganligidan dalolat beradi. Bizni qo'rshab turgan olam murakkab va muammoli bo'lib keldi, shunday bo'lib qolmoqda va yaqin istiqbolda ham shunday bo'lib qolajak."<sup>1</sup>

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyodagi tinchliksevar tashqi siyosatining konstitutsion tamoyillari tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; shu hududdagi davlatlarning suveren tinchligi va chegaralar daxlsizligini xurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini xurmatlashdan iboratdir. O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoda balki butun jahonda barcha umumbashariy muammolarni tinch yo'l bilan hal etish, katta va kichiq urushlarga barham berish, terrorchilik, qo'poruvchilik, giyohvandlikqa qarshi faol kurashni maqsad qilib qo'yemoqda. XX asrning so'nggi o'n yilligida o'z davlat mustaqilligini qo'liga kiritgan mamlakatlar jahon siyosiy haritasi, binobarin, xavfsizlik tizimida katta o'zgarishlar yasadi. Shunday bir sharoitda yer yuzidagi har bir davlat, ayniqsa yangi mustaqil Respublikalar uchun o'z xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash bosh masalaga aylandi. Shu jumladan, O'zbekiston bilan BMT, NATO, YeXHT hamda boshqa yirik tuzilmalar o'rtaсидаги hamkorlik ham avvalo mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Negaki,

<sup>1</sup> I.A Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot qafolatlari. T. "O'zbekiston", 1997 yil. 6-bet.

bugungi kunda O'zbekistonning taraqqiyoti uchun tinchlik va barqarorlik eng asosiy shart sanaladi.

Mustaqil Respublikamiz uchun qisqa bir davr mobaynida katta taraqqiyot yo'li bosib o'tildi. O'zbekistonning mintaqaviy mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish. Afg'onistonda birodarkushlik urushiga barham berish va xalqaro terrorizmga qarshi kurash. Markaziy Osiyoni yadro quroldidan xoli hudud deb e'lon qilish kabi tashabbuslari xalqaro jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Agar biz bugungi hayotimizga bunyodkorlik ishlarimizga, erishayotgan yutuqlarimizga, to'g'ri baho bermasaq o'z hushyorligimizni yo'qotib bizni har qadamda kutayotgan tahdidlarni, tinch turmushimizga rahna solayotgan, oyoq ostidan chiqayotgan har hil balo-qazolarni ham payqamay-sezmay qolishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib zamon talablarining o'zgarishi va uning talablariga munosib javob berayotgan mamlakatlar safida bo'lish, yangi tahdid va xavf-xatarlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etishda bu muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi o'zaro hamjihatlikni va hamkorlikni yanada mustahkamlashda, xavfsiz va barqaror dunyon shakkantirishda o'z hissasini qo'shib kelayotgani va uni dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganligi O'zbekistonning, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar orasida ham nufuzini yanada oshirish to'g'risida Birinchi prezidentimiz I.A Karimov Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammitida so'zlagan nutqida (2005-yil, 5-iyul') mintaqamizdag'i xavfsizlik va barqarorlikning mohiyatini yana bir marta ko'rsatib o'tdi.

Birinchi, Markaziy Osiyoning ayrim mamlakatlaridan va butun mintaqadagi mavjud ahvolning tez o'zgarib turishi hamda vaziyatni izdan chiqaradigan tahdidlarning saqlanib qolayotgani, bunday xavf-xatarlar ortida turgan kuchlarning imkoniyat va resurslari ayni mintaqada yashayotgan xalqlar taqdirini uylab qayg'uradigan barcha davlatlar va odamlarda tashvish va havotir uyg'otmasdan qolmaydi.

Ikkinci. Xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan yangi tahidlarning ko'lamigina emas, balki qo'yilgan geopolitiq maqsadlarga erishishning ma'no mazmuni, vosita va uslublari ham, har bir mamlakatning o'ziga xosligi va undagi mavjud vaziyatni hisobga olga holda, tubdan o'zgarib borayotganiga e'tirof qaratish joiz.

Uchinchidan. Narkotik moddalar ishlab chiqarish va tashish mintaqadagi vaziyatni izdan chiqaruvchi tajavvuzkor kuchga, xalqaro terrorizmning moddiy tayanchiga aylanib bormoqda.

Bularning barchasi mintaqaga xavfsizligi va barqarorligiga nisbatan kun sayin ortib borayotgan xatarli tahdidni bartaraf etish uchun kurashda ShHT ga a'zo bo'lgan mamlakatlarning sa'y harakatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish bilan bog'lik ishlar ahvolini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi.<sup>1</sup> Bularдан tashqari davlatimiz rahbari Markaziy Osiyodagi vaziyatga baho berar ekan, butun dunyoda xavfsizlik va barqarorlikqa tahdid va xavf xatar oshib borayotgan bir sharoitda bu mintaqada o'zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati hamda boy tabiiy-iqtisodiy, mineral xom-ashyo va birinchi navbatda uglevodorod zahiralari tufayli xalqaro hamjamiyatning diqqat markazida bo'lib kelayotganini qayd etdi. Mintaqaga mamlakatlaridagi vaziyatga xavf soladigan xalqaro terroristik, ekstremistik va ayirmachilik kuchlarning faollashayotgani ham qattiq tashvish uyg'otmay qolmaydi. Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ko'plab voqealarni tushunishining qaliti va mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni saqlash borasidagi murakkab muammolarning yechimi ko'p jihatdan ana shunday yondashuv zamirida mujassamligini yana bir bor ta'kidlab o'tdi.

Xullas, birinchidan O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda tinchlik va kollektiv xavfsizlikni saqlash shu mintaqadagi mamlakatlar salohiyatini birlashtirish, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi harakatlari jahonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish uchun o'ta muhimdir. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyodagi tinchliksevar tashqi siyosatining konstitutsion tamoyillari tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; shu hududdagi davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, nizolari tinch yo'l bilan hal etish, inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlashdan iboratdir.

Shunday qilib, MO davlatlari nafaqat butun jahonda barcha umumbashariy muammolarni tinch yo'l bilan hal etish, katta va

<sup>1</sup> Islom Karimov. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. "O'zbekiston", 2005 yil, 13-jild, 441-444 betlar.  
79

kichiq urushlarga barham berish, terrorchilik, qo'poruvechilik giyohvandlikqa qarshi faol kurashni maqsad qilib qo'yemoqda. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun mustaqil Respublikalar o'zining ichki va tashqi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga harakat qilmoqda.

Xalqaro xavfsizlik va barqarorlik muammosi yangi asr bo'sag'asida hamon jahon hamjamiyati oldida turgan eng asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqdi. Jumladan, xalqaro xavfsizlikni bir qismi bo'lgan mintaqaviy xavfsizlik muammosi ham. Mintaqaviy xavfsizlik bu mintaqani mavjud yaxlitligini ta'minlash, uni iqtisodiy munosabatlarda, tabiatni muxofaza qilishda, dunyo hamjamiyati bilan shu mintqa uchun qulay sharoit yaratish va chegaralar daxlsizligini ta'minlash hisoblanadi. Mintaqaviy xavfsizlikni makon nuqtai-nazaridan ikki guruhga ajratish mumkin. Tashqi mintaqaviy xavfsizlik: ichki mintaqaviy xavfsizlik.

Markaziy Osiyoda tashqi mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soladigan omillarga: Afg'onistondagi notinch vaziyat, mintqa atrofidagi davlatlar qurallanish poygasini kuchayayotganligi va Pokiston va Hindistonda yadro sinovlari o'tkazilishi. Markaziy Osiyoning geopolitiq markazlaridan biri hisoblinishi, dunyoda energiyaga talabni oshib borayotganligi va boshqalarni kiritishi mumkin.

I. Afg'onistonda tinchlik o'rnatmay turib, bu katta mintaqada xavfsizlikni ta'minlab va uzoq muddatli barqarorlik o'rnatib bo'lmaydi. Afg'onistonda 6 mln.ga yaqin tojiqlar, 1mln.ga yaqin turkmanlar, 2 mln.dan ortiq o'zbeklar yashaydi.<sup>1</sup> Bu mamlakat hududi xalqaro terrorning tayanch markazi, o'ta jangari va buzg'unchi kuchlarning mashq maydoni, jahon bozoriga narkotiq moddalarini yetqazib beradigan asosiy makon bo'lib qoldi.

2. Ma'lumki, Markaziy Osiyo yadro quroldan xoli hudud hisoblanadi. Bu 1995-yilda yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomalarni uzaytirishga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada rasmiy ravishda qayd etilgan. 1997-yilda Almata deklaratsiyasida Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar uni qo'llab-quvvatlaganlar.

Lekin Markaziy Osiyoga qo'shni davlatlar yadro quroliga ega bo'lishga harakat qilishi hudud xavfsizligiga tahdid solmoqda.

3. Markaziy Osiyo geosiyosiy markazlardan biri hisoblanadi. Taniqli

siyosatshunos va davlat arbobi Z. Bjezinskiy mintaqalarni, davlatlarni geosiyosiy nuqtai-nazaridan tahlil qilib ikki guruhga bo'ladi. Geosiyosiy markazlar: geostrategik harakatlantiruvchi kuch Markaziy Osiyo geostrategik harakatlantiruvchi kuchlarga Rossiya, Xitoy, AQSh. Eron davlatlarini kiritish mumkin.

Ichki mintaqaviy xavfsizlikka keladigan bo'lsak asosiy tahdid etuvchi omillar etnik munosabatlар, davlatlar o'rtasidagi chegara masalalarini hal qilinmaganligi suv resurslari bilan bog'lik muammolar terrorizm, diniy eksteremizm va boshqalar.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda O'zbekistonning roli beqiyos. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston hukumatining mintaqadagi xavfsizlikni ta'minlashda va tinchlikni saqlab turishda jonbozlik ko'rsatayotganligini alohida qayd etib o'tish lozim.

O'zbekiston bu hududda vujudga kelgan vaziyat to'g'risida har doim bong urib kelgani yaxshi ma'lum. O'zbekiston Prezidenti Afg'onistonda yuzaga kelgan mushkul vaziyatga 90-yillarning boshlaridayoq jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratib, uni hal etish uchun aniq takliflar krita boshlagan edi. 1993-yil mart oyida BMT bosh kotibi Butros G'oliya yo'llagan maktubida, 1993-yil 18-iyunda "Forum fond" (Shvetsariya) sessiyasidagi nutqida, 1993-yil 28-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 48 sessiyasidagi ma'rurasida, 1994-yil deqabrida Budapeshtda Yevropa xavfsizlik va hamkorlik kengashiga a'zo mamlakatlar davlat boshliqlarining anjumanida so'zlagan nutqida, 1995-yil 23-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'rurasida, 1995-yil 24-oktyabrida BMT 50 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida, 1997-yil 22-25-sentyabrida Toshkent YeXHT Parlamenti Assambleyasini tomonidan o'tkazilgan "Markaziy Osiyo va Kavkazda mintaqaviy xavfsizlik, siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy va insonparvarlik masalalari" mavzusidagi xalqaro seminarda, 1999-yil 18-noyabrdagi YeXHTning Istanbul sammitidagi nutqida va boshqa bir qator chiqishlarida mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash

<sup>1</sup> 10.Морозов. Перестройка политической карты. "Азия и Африка сегодня". 2002 год. №7. стр 9-14.

uchun Afg'onistonda tezroq barqaror vaziyatni qaror toptirish, terrorizm va qurollanish poygasiga chek qo'yish lozimligini qayta-qayta ta'kidlagan edi.

Respublikamizning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Xel'sinki yakunlovchi aktiga, EKO Qo'shilmaslik harakati, Islom Konferensiysi hamda NATOning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturiga qo'shilishi uning xalqaro maydondagi siyosiy mavqeining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda o'tkazilgan nufuzli xalqaro anjumanlar, Markaziy Osiyoni yadro quroldidan xoli hudud deb e'lon qilish, mintaqadagi kimyoviy, bakteriologiq qurollar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish yadro qurolini batamom yo'qotish, Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi kurash bo'yicha BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish, Orol muammosi bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tashkil etish va shu bilan birga mintaqaning eng muhim muammosi bilan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish borasida amaliy tashabbuslarning qo'llab-quvatlanishi mamlqatimizda YuNYeSKO homiyligida o'tkazilgan ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlar mustaqilligimiz sharofati millatimiz obro'sidir.

Ma'lumki, XX asrning tugallovchi o'n yilligi jahon sahnasida o'ziga xos jahonshumul voqealar bilan joy oldi. XX asrning ohrida jahon hamjamiyatida xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi maydonga chiqdi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk davrlardanoq nafaqat o'zining milliy hududiy barqarorligini ta'minlash balki Markaziy Osiyo mintaqasi

muammolari qolaversa, mintaqqa orqali jahon hamjamiyati tinchligiga raxna soluvchi muammolarni yechishda bir qancha ishlarni amalga oshirdi.

Bizga ma'lumki, sobiq Ittifoq tarqab ketgandan so'ng Markaziy Osiyo hududida zamonaviy diplomatiyaning yangi yo'nalishi shakllandi, ya'ni bu mintaqviy diplomatiya yo'nalishidir. Bu diplomatiyaning asosiy tamoyili butun mintaqqa uchun umum ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni hal qilishdan iborat. Buning asosiy shakli esa davlat rahbarlarining ham ikki tomonlama

ham ko'p tomonlama diplomatiyalarida o'zaro uchrashib bиргаликда мінтақа мұаммолосынан о'заро маңағатларның санынан табада яғни міншілікке ие болып табылады.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovechi xalqlarning xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovo'zlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash zarur. Ularning bu yo'ldagi sa'y harakatlari va salohiyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish ayniqsa muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgan ilk yillardan boshlab o'zining tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida Markaziy Osiyoda Xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lini tanladi. O'zbekiston Respublikasi ushbu mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlariga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

1. Markaziy Osiyo mintaqasiga qo'shni bo'lgan davlat Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "6+2" xalqaro uchrashuvi.

2. BMT ning 48.50 sessiyalari, BMTning ming yillik sammiti va boshqa bir qancha xalqaro anjumanlarda davlatimiz rahbarining so'zlagan nutqlarida nafaqat ushbu muammo nafaqat nazariy jihatidan asoslangan, balki amaliy ko'rsatmalar ham berilgan.

3. YeXHTning 1999-yil noyabr oyida o'tkazilgan Istanbul sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT tashkiloti tizimida terrorizmga qarshi Xalqaro Markaz tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi mintaqadagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi pozitsiyasi bundan buyon ham o'zgarmasdan qolmoqda. Buni biz mamlakatimiz parlamenti Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi chiqishlardan ham ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan: Markaziy Osiyoda tinchlik va tarqoqlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bo'lgan Markaziy Osiyoda yadro quroldidan xoli bo'lgan hududni birpo etish borasidagi tashabbuslarni amalga oshirish.

Ikkinchidan: Ko'p yillardan buyon davom etib kelayotgan Afg'oniston muammosini hal etishda, O'zbekistonning BMT va

boshqa xalqaro tashkilotlar bilan olib borayotgan muzokaralarni aniq natijalarga qaratish.

Respublikamiz mintaqaviy xavfsizlik tizimini, xususan Mraqaziy Osiyodagi xavfsizlik va barqarorlik tizimini tashkil etish zaruriyatiga alohida e'tibor berib, bu borada Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikning nechog'li muhim ekanligini e'tirof etmoqda. Mintaqaviy xavfsizlik mamlakatlar o'rtaсидаги keskinlikni yumshatishga ko'maklashib integratsiyalashuv jarayonlariga intilishni kuchaytiradi: u nafaqat harbiy tahdidlarga qarshi kurash vositasi sifatida, balki, ayni paytda ekologiq xavf-xatarlar, jinoyatchilik, narkabiznesga qarshi kurashda ham, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda ham nihoyatda qo'l keladi.

Mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi va ichki xatarlarning yoyilishiga yo'l qo'ymaslik ularning oldini olish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarining sa'y-harakatlari, salohiyat va imkoniyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash o'ta muhim ahamiyat qasb etadi. O'zbekiston rahbari BMT Bosh Assambleyaning 1993-yil 28-sentyabrida bo'lib o'tgan 48-sessiyasida so'zga chiqib, Markaziy Osiyoda Xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning doimiy ishlovchi seminarini chaqirishni taklif etdi va bunda manfaatdor mamlakatlar mintaqaviy xavfsizlikning ishonchli tizimini vujudga keltirish imkoniyatlarini muhokama qilish mumkinligini e'tirof etdi. Bunday tizim mojarolar va urushlar yuzaga kelgan xollarda tinchlikni saqlash va qayta tiqlash borasidagi chora-tadbirlarni, jumladan, tinchlik va chegaralarning yaxlitligini buzmoqchi bo'lganlar qarshi diplomatiq, moliyaviy, iqtisodiy hamda boshqa tusdagi kollektiv jazo choralarini ko'zda tutishi, ushbu mintaqada barqarorlik va mustahkam tinchlik o'rnatish bo'yicha BMT uchun tavsiyanomalar ishlab chiqishi mumkin bo'lur edi.

Prezidentning bu taklifi 1995-yilning sentyabrida Toshkentda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminarda qabul qilindi. Ushbu anjumanda 31 davlat va 6 ta xalqaro tashkilotning, shu jumladan Osiyo mamlakatlarining ham vakillari, Islom Konferensiyasi Tashkiloti (IQT) vakillari ishtirot etdi.

Seminarda Markaziy Osiyo mintaqasida vujudga kelgan siyosiy vaziyat tahlil qilindi, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida davlatlar o'rtaсидаги tinchlikni ta'minlash bo'yicha kollektiv chora-tadbirlarni ishlab chiqish,jamiyat hayotining barcha sohalarida islohatlarni amalga oshirishi, o'zaro mansaftli hamda teng sherikchilik asosida har tomonlama hamkorlik, mamlakatlar o'rtaсидаги integratsion jarayonlarni mustahkamlash masalalari muhokama etildi. Shu bilan birga, seminar kengash Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlash, xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikni ta'minlashga bevosita aloqador bo'lgan dolzarb muammolarni belgiladi, ularni batafsil tahlil qildi.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan hamkorligini mustahkamlash uchun mamlakat tashqi siyosatining Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta'rif berilgan yo'nalishi muhim ahamiyatga egadir.

"Bugun Markaziy Osiyo xalqlari o'rtaсидаги ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnilik,bir-birini qo'llab-quvvatlash va hamkorlik solnomasida yangi sahifa ochildi.

Biz mintaqqa rahbarlarining uehrashuvlarini muntazam o'tkazish haqidagi tashabbusni ilgari surar ekanmiz, hozirgi kunda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun butunlay yangi imkoniyatlar vujudga kelayotganiga asoslandik. Ayniqsa, keyingi bir yarim yilda bo'lib o'tgan va qator dolzarb muammolarning amaliy yechimini topish, yangi shartnoma va kelishuvlarni imzolash imkonini bergan o'zaro tashriflarimiz, muntazam uehrashuv va muzokaralarimiz prinsipal jihatdan yangi formatdagagi hamkorlik uchun mustahkam asos bo'ldi".<sup>1</sup>

## 2. Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlarning kelajakdag'i istiqboli

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlar-Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratildi. Mintaqadagi beshta davlat qo'shnichilik va hamkorlik solnomasida yangi sahifa oetgan uehrashuv. T. "O'zbekiston", 2018 yil, 2-jild, 347-3487 betlar.

o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p. Tarihimiz, madaniyatimiz, tilimiz, dilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakat xalqlarini bir-biriga yaqinlashtirishning zaminidir.

O'zbekiston rahbariyati bu mintaqadagi davlatlar, xalqlar o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatish va mustahkamlash choralarini qadam-baqadam ko'rib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining birinchi uchrashuv 1990-yil iyunda Almati shahrida bo'lib o'tdi. Uchrashuv sobiq Ittifoq hali mavjudligi sharoitida uning ahvoli tobora yomonlashib borayotgan, xalq xo'jaligining barcha sohalariga tanglik kuchayib borayotgan, pul qadrsizlangan, narh-navo qimmatlashib borayotgan sharoitda bo'lgan edi. 1993-yilning yanvarida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvini tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari do'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintqa xalqlari zo'r mammuniyat bilan qarshi oldilar va qo'llab-quvvatladilar. Shu tariqa jahon siyosiy so'zligiga "Markaziy Osiyo" degan yangi atama paydo bo'ldi. Albatta, bu hodisaga turli toifa va qarashdagi siyosatchilar, huquqshunoslar, iqtisodchilar turlicha baho berdilar. Birinchi Prezident Islom Karimov Markaziy Osiyo Hamdo'stligini vujudga keltirish tashabbuskori sifatida uning maqsad va mohiyatini aniq-ravshan ko'rsatib berdi: "Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama o'zaro hamkorlik milliy xavfizlikning asosiy shartlaridan biridir. Xalqimiz tarihi, madaniyati an'analarini, diniy e'tiqodning mushtarakligi mamlakatimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va hamjihatlikning muhim poydevori hisoblanadi. Bizning maqsadlarimiz bir, taqdirimiz bir. Bizda milliy munosabatlarda keskinliklar yo'q, xal qilib bo'lmaydigan voqealar ham yo'q".<sup>1</sup>

1994-yil 30-aprelida Cho'lonota shahrida O'zbekiston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnomasi imzolandi. Uch qardosh mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik yangi pog'ona ko'tarildi.

1994-yil iyun<sup>1</sup> oyi boshida Almati shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi ham bu uch qardosh mamlakatlar xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda yana bir yangi qadam bo'ldi. Unda o'zaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tuzish to'g'risida bitimlar imzolangandi. Tomonlar davlatlararo kengash hamda uning doimiy ijroiya organini, shuningdek Bosh Vazirlar Kengashi, tashqi ishlar vazirlari kengashi, Mudofaa vazirlari kengashini ta'sis etdilar, bunday yagona muvofiqlashtiruvchi boshqaruva organlarining paydo bo'lishi O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida integratsiya uchun huquqiy zamanni yanada mustahkamladi. Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etildi. Shu tariqa Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (MOIH) tashkil topdi.

1995-yil 3-martda Toshhovuzda, 1995 14-aprel kuni Chimkentda, 1997-yil 9-10-yanvar<sup>2</sup> kunlari Bishkekda, 1997-yil deqabrida Ostonada, 2000-yil, 20-21-aprel kunlari Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Uchrashuvlarda Prezidentlar xalqaro konsorsiumlar tuzish bo'yicha uch mamlakat hamkorligi tamoyillari konsepsiyasini ma'qulladilar.

1998-yilda Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lib kirdi. 2000-yil, 14-iyulda Dushanbeda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati davlat boshliqlarining kengashida prezidentlar iqtisodiy hamorlikning bugungi ahvoli iqtisodiy integratsiyasini yanada chuqurlashtirish tadbirlari, Sirdaryo va Amudaryoning suv energetika zahiralaridan umumiy foydalananish masalalari yuzasidan fikr almashdilar. Kengashda MOIHning 2002-yilgacha bo'lgan muddatda yagona iqtisodiy makkoni yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi sa'y-harakatlar dasturi to'g'risida, 2005-yilgacha bo'lgan integratsiyani rivojlantirish strategiyasi haqida qarorlar qabul qilindi.

2001-yil 28 deqabr<sup>3</sup> kuni Toshkentda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'lib o'tdi. Mazkur kengashda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyatini to'xtatishga qaror qilindi. Islom Karimov taklifiga binoan MOIH negizida Markaziy Osiyo Hamkorligi

<sup>1</sup> "Xalq so'zi" gazetası. 1995 yil. 24 fevral.

(MOH) tashkilotini tuzishga kelishib olindi.<sup>1</sup> 2002-yil 28-fevral kuni Almata shahrida Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining uchrashuvni bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida Prezidentlar Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomani imzolandi. Shu tariqa MOH tashkiloti huquqiy jihatdan rasmiylashdi. MOHning raisi etib Islom Karimov saylandi. Mazkur Tashkilot endi nafaqat iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, shuningdek siyosiy, ijtimoiy madaniy va boshqa turdag'i aloqalar ko'lамини kengaytirish masalalari bilan shug'ullanadi.

MOH tashkilotiga a'zo davlat boshliqlarning 2002-yil 6-7-iyul kunlari Oqtov (Qozog'iston), 5-6-oktyabr' kunlari Dushanbe sammitlari bo'lib o'tdi. Toshkentda 2002-yil noyabr' oyida MOH tashkilotiga a'zo davlatlar parlamentlari rahbarlari hamda ishbilarmon doiralari vakillarining forumlari bo'lib o'tdi.

2002-yil 27 deqabrda Ostona shahrida bo'lib o'tgan MOH tashkilotiga a'zo davlatlar boshliqlarining to'rtinchı sammitida mintaqaviy xavfsizlik, orol inqirozi, noqonuniy migratsiya, uyushgan jinoyatchilik, narkotiq kontrabandası kabi masalalar muxokama etildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida yangicha shaklda tashkil etilgan "Markaziy Osiyo Hamkorligi" demokratik tuzilmadir. U a'zo davlatlar o'ttasida o'zaio hurmat va ishonch tamoyillariga tayangan holda keng ko'lamlı muloqotlar o'tkazish, umumiyy muammolarga kelishuv va maslahatlar orqali umumiyy yechim topishi imkonini yaratdi. Ilgari Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati faoliyati faqat iqtisodiyotiga oid masalalar bilan cheklangan bo'lsa, uning zaminida tuzilgan yangi tashkilot oldiga barcha sohalarda hamkorlikni rivojlantirish maqsadi qo'yilgan.

"Markaziy Osiyo Hamkorligi" demokratiq tuzilmalar ekanligini hisobga olib, tashkilotning nufuzi va samaradorligini oshirish uchun mintaqaviy hamjamiyat doirasida qabul qilingan hujjatlarni tanqidiy nuqtai-nazardan ko'rib chiqish va ish berayotganlarini bekor etish taklifini ilgari surildi. Ma'lumotlarga ko'ra, shu choqqacha

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati tizimida. Respublika ilmiy-nazardan anjumanning ilmiy to'plami. T. 2004 yil. 258-bet.

Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatiga va uning merosho'ri bo'lmish "Markaziy Osiyo hamkorligi" doirasida jami 243 hujjat imzolangan. Sammit qatnashchilari ularning hammasini qayta ko'rib chiqishga kelishishdi.<sup>1</sup>

2002-yil 28-29-noyabrdagi MOH tashkilotiga a'zo davlatlar ishbilarmon doiralari va tadbirkorlarining Markaziy Osiyo hamkorligi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish mavzusida biznes forum o'tkazildi. MOH tashkiloti doirasida Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki (MOHTB) tashkil etildi. Ushbu bank Markaziy Osiyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlantirishga yordam ko'rsatuvchi xalqaro bank. 1994-yil 8-iyulda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalari o'ttasida "Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot bankini tashkil etish to'g'risida"gi ko'shma kelishuviga asosan ta'sis etilgan. Ta'sischilar O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston hukumatlari. 1998-yildagi davlatlararo kengashning qarori bilan Tojikiston Respublikasi ham bank ta'sischilarini sifatida a'zo qilib olindi. Bankning ustav qapitali 12 mln. AQSh dollarasi Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti qatnashchilari bo'lgan mamlakatlar Bosh vazirlari kengashining 1997-yil 14-martdagagi qarori asosida 1997-yil oktyabr oyida Toshkentda MOHTB ning sho'ba banki ochildi. Bank zimmasiga O'zbekiston Respublikasi hududida Respublika hukumati tomonidan qafolatlangan loyihalari ham ko'shilib, investitsiya loyihalarini moliyalash vazifasi yuklatildi.<sup>1</sup>

Bizga ma'lumki Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar o'ta murakkab va ko'p qirrali islam dunyosining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois ham ular islam dinini siyosiy maqsadlarda foydalanishga harakat qiluvchi, islam dinining mumtozligi g'oyasini targ'ib qiluvchi boshqa dinlarga nisbatan adovat ruhida munosabatda bo'lish siyosatini yurituvchi, islam aqidalaridan tor milliy manfaatlarini qondirish uchun foydalanish niyatida bo'lgan turli salbiy oqimlarga qarshi kurashish borasida kuch va imkoniyatlarini birlashtirishlari lozim. So'nggi paytlarda diniy eksteremizm, fanatizm va xalqaro terrorizmning tahdidi tobora kuchayib

<sup>1</sup> Hamkorlik va o'zaro anglashuv-umumiyy muammolarni yechimining yagona yo'li. "O'zbekiston ovozi" gazetasи. 2002 yil. 80ktyabr.

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 2003 yil. 5-jild. 477-bet.

boryotganligi sababli Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash alohida ahamiyat qasb etadi.

Xalqaro tajrib shuni ko'rsatadiki, davlatlararo integratsiya juda murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon hisoblanadi. Unda ishtirok etgan davlatlar umumiy manfaatlari tizimini yaratish orqali xalq xo'jaliklarining o'yg'unlashuvi va jahon bozorida raqobatbardoshlikqa erishishi mumkin.

Integratsiya tushunchasini ilmiy-tahlil qilingandagina uning asl mohiyatini anglab yetish mumkin bo'ladi. Integratsiya nazariyasi-xalqaro munosabatlari fanining ajralmas qismi sifatida ma'lum mintaqalardagi integratsion jarayonlar to'g'risida ilmiy mulohazaga yuritishda va ularning amaliy mohiyatini keng yoritishda muhim ahamiyat qasb etadi.

Xalqaro siyosiy integratsiya deganda, mustaqil davlatlarning hamjamiyat tarzida birlashuvga olib keluvchi jarayon nazarda tutiladi. Siyosiy integratsiya bir vaqtning o'zida iqtisodiy integratsiyasiz kelmaydi.

Iqtisodiy integratsiya o'z navbtida ikki bosqichda namoyon bo'ladi:

1) Integratsiyalashuvchi davlatlar o'rtaida xalqaro mexnat taqsimoti va umumiy bozorning shakllanishi;

2) Xalq xo'jligi faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonun-qoidalar va superanatsional darajadagi iqtisodiy tashkilotlarning barpo etilishi. Siyosiy va iqtisodiy integratsiyalashuv zamirida esa huquqiy integratsiya mavjud. Integratsiyaning ushbu shakli konseptual qarama-qarshiliklarga boy bo'lib, erishiladigan umumiy huquqiy tizimda integratsiyalashuvchi barcha davlatlarning fuqarolari, jamiyat va davlat manfaatlari uyg'unlashuvi asosida yuzaga keladi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Markaziy Osyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning Xavfsizligiga daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatlikning mustahkamlash zarur. Ularning bu yo'ldagi sa'y-haraqalari, imkoniyatlari va salohiyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish ayniqsa muhimligi alohida ta'kidlab o'tilgan edi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do'stlik, tinchlik va xavfsizlik aloqalarini mustahkamlashga qaratildi. Bu beshta davlatlar tarihi, madaniyati, tili va dilining birligidan, tomlirlarning tutashib ketganligidan kelib chiquvchi jiddiy siyosat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'li edi.

Markaziy Osyo xalqlari ruhiyati asrlar mabaynida bir-biriga tutashib, ma'naviy, diniy va ahloqiy munosabatlarini o'yg'unlashib ketgan, yashash tarzları va urf-odatlari mushtarak bo'lib, yagona ulkan va jonli vujudga aylangan edi. Shuning natijasida qondoshu-jondoshlik, bir butunlik an'analari tarkib topgan. Kishilik tarihida bunday ma'naviy, ruhiy va fikriy yaqinlik bu dunyoda hamisha hamma narsadan ustun kelgan. Mustaqillik sharoitida millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarining madaniy merosi, etniq muammolari, jug'rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlar o'zgardi. Yangi tarihiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarihi o'ziga xos turmush tarzları va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq kurashni hayot taqazo eta boshladи.

Markaziy Osyo mintaqadagi, ayniqsa keyingi o'n yilliklarda o'zbek xalqi, O'zbekiston rahbariyati besfarq qarashmadи. Tinchligi berib kelmoqda. O'zbekiston rahbari bir qator xalqaro minbarlarda jumladan BMT, YeXHT va MDH davlat rahbarlari bilan bo'lган uchrashuvlarda Tojikistondagi vaziyatni normallashtirishga, uni tinch siyosiy yo'l bilan hal qilishga qaratilgan takliflarni o'rtaga tashladи. Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMT ning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, Tojikiston va Afg'oniston mojarolari narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rtaga qo'ydi. "Bizlar tojiq afg'on chegarasiga ikki davlat o'rtaсидаги chegara emas, balki Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi chegarasi

sifatida qaraqalpaqlar alpi Xavfsizlik shartnomasiga imzo chekqan  
mamlakatlar chegarani mustahkamlashga ko'maklashishi kerak.  
“Biz har bir davlat, eng avvalo, o'zining ham moddiy, ham  
maviy, ham siyosiy va ham diplomatiq kuchlariga tayanib,  
muammoni hal etishga harakat qilgani ma'qul”<sup>1</sup>. “Biz  
arzandlarimizni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligiga  
erishishdek oliv maqsadlarimiz, ularni ana shu maqsadlar sari  
yetaklashimiz kerak. Barchamiz yana bir haqiqatni yaxshi anglab  
olishimiz kerakki, biz davlatimiz kelajagini o'z chegaralarimiz, o'z  
qobiz'imizga o'ralib qolgan emas, balki umumbashariy va  
demokratiq qadriyatlarni chuqur o'zlashtirilgan holda tasavvur  
etamiz”<sup>2</sup> -deb aytgan edi I.A.Karimov Shu bois jahon tajribasiga  
tayanish, O'zbekiston tashqi siyosat konsepsiyasini o'rganish,  
ayniqsa mustaqil davlatimizning Markaziy Osiyoda tinchlik va  
xavfsizlikni ta'minlashdagi siyosatini o'rganish ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatida Markaziy Osyo  
mintaqasidagi mamlakatlar bilan hamkorlik ham juda katta o'rinn  
tutadi. Bunda O'zbekiston Markaziy Osyo mamlakatlarining milliy  
madaniyati, tili, urf-odati va an'analariga ko'ra o'zaro yaqin  
ekanligiga katta ahamiyat beradi.

Markaziy Osyo respubliklari o'rtasidagi hamkorlikni  
mustahkamlash zaruriyati Orol dengizi muammolari tufayli yanada  
keskinlik qasb etmoqda. Orol atrosida sodir bo'layotgan ekologiq  
haloqatni bartaraf etish uchun nafaqat Markaziy Osyo  
davlatlarining, balki butun dunyo hamjamiyati kuchlarini safarbar  
etish talab qilinadi.

Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p  
jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan  
borishlariga bog'lik. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan  
yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotganlar buni  
e'tirof etmasliklari mumkin emas. Hech shubxa yo'qki, bu  
davlatlarning tanlab olgan yo'li islom dunyosida yuz berayotgan

<sup>1</sup> “O'zbekiston ovozi” gazetasи, 2001 yil, 29 noyabr.  
<sup>2</sup> “Kamolot” yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin: “Xalq  
so'zi” gazetasи, 2001 yil, 25 yanvar.

sifatida qaraymiz. Yalpi Xavfsizlik shartnomasiga imzo chekqan mamlakatlar chegarani mustahkamlashga ko'maklashishi kerak. Lekin har bir davlat, eng avvalo, o'zining ham moddiy, ham ma'naviy, ham siyosiy va ham diplomatiq kuchlariga tayanib, muammoni hal etishga harakat qilgani ma'qul<sup>1</sup>. "Biz farzandlarimizni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligiga erishishdek oliy maqsadlarimiz, ularni ana shu maqsadlar sari yetaklashimiz kerak. Barchamiz yana bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz kerakki, biz davlatimiz kelajagini o'z chegaralarimiz, o'z qobig'imizga o'ralib qolgan emas, balki umumbasharly va demokratiq qadriyatlarni chuqur o'zlashtirilgan holda tasavvur etamiz"<sup>2</sup> -deb aytgan edi I.A.Karimov Shu bois jahon tajribasiga tayanish. O'zbekiston tashqi siyosat konsepsiyasini o'rganish, ayniqsa mustaqil davlatimizning Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi siyosatini o'rganish ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatida Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan hamkorlik ham juda katta o'rinn tutadi. Bunda O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy madaniyati, tili, urf-odati va an'analariga ko'ra o'zaro yaqin ekanligiga katta ahamiyat beradi.

Markaziy Osiyo respubliklari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zaruriyati Orol dengizi muammolari tufayli yanada keskinlik qasb etmoqda. Orol atrofida sodir bo'layotgan ekologiq haloqatni bartaraf etish uchun nafaqat Markaziy Osiyo davlatlarining, balki butun dunyo hamjamiyati kuchlarini safarbar etish talab qilinadi.

Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'lik. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirot etayotganlar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas. Hech shubxa yo'qliki, bu davlatlarning tanlab olgan yo'li islom dunyosida yuz berayotgan

murakkab jarayonlarning rivojlanishi qanday natajalarda olib kelishiga va umuman jahon hamjamiyati uchun kelib chiqadigan barcha oqibatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bunday sharoitda biror davlatning yolg'iz o'zi, haqiqiy ma'nodagi mustaqillikni, barqaror rivojlanishini ta'minlashi, yagona iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy muhitni yaratishni va shu orqali asrlar davomida xukm surib kelgan tarhiy, ma'naviy, madaniy va diniy yaqinlikni qayta tiqlash mumkin emas.

Tomonlar o'rtasida tuzilgan bitimlar, davlat rahbarlarining rasmiy o'zaro tashriflari chog'ida Markaziy Osiyo hamkorligi doirasidagi uchrashuvlarda imzolangan siyosiy hujjatlarni O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik uchun me'yoriy-huquqiy asos bo'lib hizmat qiladi.

1993-yilning yanvar oyida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari rahbarlarining uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvda tabiiy boyliklardan, ilmiy-texnik va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalananish, har bir mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholi turmush darajasini yaxshilash uchun barcha davlatlarning kuch va imkoniyatlarini birlashtirish zarurligi haqida gapirildi. Markaziy Osiyo mamlatlari o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni kuchaytirish mazkur mamlakatlar tashqi siyosatining ustuvor siyosiy masalasi sifatida e'tirof etildi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasida mamlakatlar o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni huquqiy jihatdan tartibga solish Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (MOIH) tomonidan amalga oshirildi. 2001-yilning deqabrida Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvda I.A.Karimov mazkur tashkilotni qayta tuzish tashabbusi bilan chiqdi. "Toshkent Bayonoti" imzolани, unda siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada takomillashtirishni, xalqaro siyosat borasidagi kuch va imkoniyatlarni birlashtirish zaruriyati alohida ta'kidlandi.

2002-yilning 28 deqabrida Almati shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qирғизистон davlatlari Prezidentlarining uchrashuvni bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvda mintaqaviy xavfsizlik, Afg'onistondagi ahvol, noqonuniy migratsiya jarayoni, iqtisodiy integratsiya istiqbollari-erkin savdo hududini tashkil etish, transport,

<sup>1</sup> "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 2001 yil, 29 noyabr.

<sup>2</sup> "Kamolot" yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin: "Xalq so'zi" gazetasi. 2001 yil, 25 yanvar.

infrastrukturasiini takomillashtirish, suv resurslaridan oqilona foydalanishga oid ko'plab masalalar muhokama qilindi.

Uchrashuv jarayonida "Markaziy Osiyo Hamkorligi" tashkilotini ta'sis etish to'g'risida shartnomma imzolandi. Mazkur tashkilotning asosiy vazifasi iqtisodiy integratsiyani chugurlashtirish, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va madaniy-ma'rifiy munosabatlarning shakl va mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat. Hamkorlik doirasida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash va boshqa masalalar hal etildi. Uchrashuvda I.A.Karimov xalqlarining bir-biriga yaqinlashuvda, qo'shni mamlakatlar hayotidan doimiy xabardor bo'lishda, davlatlar o'rtaсидagi ochiq muloqotlarni qaror toptirishda mintaqadagi mamlakatlar teleko'rsatuvlarning o'zaro translyatsiya qilinishi lozimligini ta'kidlab o'tdi.<sup>1</sup>

O'zbekiston o'z tashqi siyosatida dunyodagi kollektiv xavfsizlik tizimini, xususan Markaziy Osiyodagi xavfsizlikni tizimini tashkil etish zaruriyatiga alohida e'tibor berib, bu borada Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikning nechog'li muhim ekanligini e'tirof etmoqda. Kollektiv xavfsizlik mamlakatlar o'rtaсидagi keskinlikni yumshatishga ko'maklashib, integratsiyalashuv jarayonlariga intilishni kuchaytiradi.

Birinchidan, tinchlikqa nisbatan tashqi tahdidlarga yo'l qo'ymaslik, ularni bartaraf etish, ushbu mintaqada yashovchi xalqlarning barqarorligini hamda xavfsizligini ta'minlash. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun kishilar ogohligini oshirish, jamaotchilikning xavf-xatar va tahdidlarning oldini olish bo'yicha faoliyklarini oshirish, xalqlar o'rtaсидagi ma'naviy va madaniy aloqalarni mustahkamlash zarur bo'ladi.

Ikkinchidan, Markaziy osiyo mintaqasida boy tabiiy resurslardan, energetika, transport kommunikatsiyalari va hoqazolardan foydalanish bo'yicha aniq iqtisodiy loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish kerak.

Uchinchidan, armiyani, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlarini qayta tashkil qilishning yagona davlat siyosati asosida

mamlakatlarning tinchligi va osoyishtaligini ishonchli darajada qo'riqlash qobiliyatiga ega bo'lishiga erishish zarur.

To'rtinchidan, mamlakatning hududiy yaxlitligini, chegaralaridan qo'poruvechi terroristik guruhlarning va qo'poruvechi unsunlarning o'tib ketmasligini ta'minlash. Davlat chegaralarini yanada mustahkamlash va qayta jihozlash. O'zbekistonning iqtisodiy va boshqa manfaatlarini himoya qilish lozim.

Beshinchidan, O'zbekistonning terrorizmga qarshi Xalqaro Markaz tashkil etish bo'yicha tashabbusini amalga oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlarini davom ettirish.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hal etishi lozim bo'lgan muhim muammolardan biri-Afg'oniston muammosi, qariyb 60 million kishining hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalasidir. O'zbekiston hamisha ushbu masalalarni hal etish uchun BMT, Islom Konferensiyasi Tashkiloti va boshqa nufuzi xalqaro tashkilotlarning o'zaro muvoysiqlashtirilgan va kelishilgan sa'y-harakatlarini faollashtirish zarurligini ta'kidlab kelmoqda. O'zbekiston Afg'onistonga qurol-yarog' yetqazib berishga embargo tayinlash tashabbusi bilan chiqdi. ushbu tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvatlanib, BMT xavfsizlik Kengashi, YeXHT, Yevropalament, Islom Konferensiyasi Tashkiloti tomonidan qabul qilingan qarorlarda o'z ifodasini topdi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan siyosiy hamkorlikning muhim yo'nalişlaridan biri Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirishdan iboratdir.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1993-yilda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zona deb e'lon qilish qurollarning tarqatilishini xalqaro miqyosda nazorat qilishni yo'nga qo'yish talabi bilan chiqqan edi.

I.A.Karimov 1997-yilning 15-sentyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli zona" mavzusidagi Xalqaro Konferensiyada so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoni yadroviy qurollardan xoli zona deb e'lon etilishining dolzarb tashabbus ekanligini isbotlab beruvchi bir qator konseptual qoida va omillarni bayon qilib berdi. Ular quyidagilardan iborat:

<sup>1</sup> Q. Usmonov. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi T. "Moliya", 2003 yil, 48-49 betlar.

- Markaziy Osiyo dunyo aholisi eng zinch joylashgan mintaqaga bo'lib, bu yerda aholi tabiiy shart-sharoitlarga ko'ra, shusiz ham turli-tuman tabiiy faloqatlar, xavf-xatarlar sharoitida yashayotganiqli: - Boy tabiiy, mineral, energetiq, aholi va boshqa resurslarga ega Markaziy Osiyoning o'ziga hos geostrategik mavqega egaligidan tashqari, bu yerda jahondagi ko'plab yirik mamlakatlarning geosiyosiylarini strategik manfaatlari to'qnash kelishidagi o'ziga xoslik;

- Markaziy Osiyo mintaqasining dunyoviy xo'jalik aloqalari tizimiga, dunyoviy iqtisodiy va informatsion makonga faol kirib borishi, jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro institutlar bilan siyosiy hamkorlikning mustahkamlanishi mintaqada davlatlarining xalqaro xavfsizlik global tizimiga integratsiyalashuvining zarurligi.

O'zbekistonning bu tashabbusi Qozog'iston Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari tomonidan to'la qo'llab-quvvatlandi hamda 1997-yilning fevral oyida qabul qilingan Almati Deklaratsiyasida o'z ifodasini topdi. BMTda mazkur Deklaratsiyaning taqdimoti bo'lib o'tdi. I.A.Karimov ta'kidlab ko'rsatayotganidek yadroviy xavfsizlik masalasiga umumiy xavfsizlik, insoniyatning yashab qolishi masalasining ajralmas bir qismi sifatida qaratishi kerak. Bunda zonaning butunlay yadroviy qurollardan xoli etilishi va bunda ishtirokchi davlatlarnigina emas, balki manfaatdor mamlakatlarning ishtirokini ta'minlash prinsiplariga amal qilish kerak. Shuningdek yadro quroldan xoli zonaning barpo etilishi haqidagi bitinmlar kelishilgan majburiyatlarga rioxay qilishni ta'minlovchi samarali nazorat tizimini o'z ichiga olishi lozim. Nazorat MAGATE va BMTning Xavfsizlik Kengashi qafolati ostida olib borilishi lozim. Markaziy Osiyoda yadro quroldan xoli zonaning barpo etilishi va uning faoliyat ko'rsatilishi yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnoma doirasida belgilab berilgan dunyo miqyosidagi yadro xavfsizligi tuzilishining ajralmas qismidir. Ushbu tartibga yangi mustaqil davlatlar orasida birinchi bo'lib O'zbekiston qo'shildi. Markaziy Osiyoni yadroviy quroldan xoli zona deb e'lon etishning o'zigina asosiy vazifa emas, balki xavfsizlikni va izchil barqaror rivojlanishni ta'minlashning bir vositasidir.

Mamlakatning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2000-yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan va "Ming yillik sammiti" deb

nomlangan BMT Bosh Assambleyasining anjumanida so'zga chiqib, e'tirofni yana bir qarra Markaziy Osiyo mintaqasini demokratiq va dunyoviy taraqqiyot yo'lidan chalg'itish, bu yerda kleriqlar demokratiq tartiblar o'rnatishdek kabib niyatlarini ko'zlovechi xalqaro terrorizm va eksteremizm aggressiv kuchlarining ekspansiyasi obyektiga aylanib borayotganligiga qaratdi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlarning siyosiy hamkorligini yanada rivojlantirish borasida Markaziy Osiyo va Kavkazorti mamlakatlari uchun yalpi qirg'in qurolini eksport nazoratiga olish va tarqatmaslik bo'yicha VI Xalqaro forum nihoyatda katta ahamiyat qasb etadi.<sup>1</sup> Forum "Eksport nazorati-yalpi qirg'in quroli va terrorizmning tarqalishiga mustahkam to'siqdir" mavzusida o'tkazildi. Forum qatnashchilari yalpi qirg'in xavfiga qarshi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb muammolari yuzasidan fikr almashdilar.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hozirgi zamonning eng muhim va dolzarb muammoi bo'lgan Orol muammoi borasidagi hamkorligi ham yildan-yilga chuqurlashib va kengayib bormoqda. Orol fojasi mintaqaviygina bo'lib qolmay, tarhidagi eng yirik ekologiq va gumanitar fojealardan biridir. Orol muammoi birgina O'zbekistonning sa'y-harakati bilangina hal etilishi mumkin emas. U Markaziy Osiyo davlatlari kuch va imkoniyatlarini birlashtirishni hamda ularning xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligini taqazo etadi. 1993-yilning mart oyida Qizil O'rda shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Orol dengizi fojeasini hal etish bo'yicha hamorlikda faoliyat yuritish to'g'risidagi Bitim imzolandi. Bundan tashqari, ayni uchrashuvda Orol dengizi muammolari bo'yicha Xalqaro Kengash, tashkil etildi.

1994-yilning yanvar oyida Nukus shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo'lib, unda "Mintaqaning yaqin uch-besh yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda "Orol dengizi xavzasidagi ekologiq ahvolni yaxshilay bo'yicha aniq hatti-harakatlar dasturi" tasdiqlandi. 1994-yilning mart

<sup>1</sup> "Xalq so'zi" gazetasasi, 2002 yil, 16 aprel.

oyida Toshhovuzda uchinchi bor uchrashuv o'tkazilib, unda mazkur Dasturni amalga oshirish bo'yicha Davlatlararo Kengashning hisoboti eshitildi.

1995-yili Toshkentda Markaziy Osiyo mintaqasidagi besh davlat rahbarlarining navbatdagi uchrashuvni bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvga BMT ga 1995-yilda Nukus shahrida Orol dengizi muammolari bo'yicha Xalqaro anjuman o'tkazish taklifini bildirish g'oyasi ilgari surildi. Yana mazkur uchrashuv chog'ida Markaziy Osiyo va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish Deklaratsiya qabul qilindi.

1997-yilning fevralida Markaziy Osiyoning besh davlati rahbarlari BMT vakili ishtirokida Almati shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda Orolni qutqarish Xalqaro fondining yanada faolroq tarkibini va Ijroiya qo'mitasini tashkil etdi.

1995-yilning 18-sentyabridan 20-sentyabrigacha Nukus shahrida BMTning homiyligi ostida Orol dengizi barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazildi. Ushbu anjuman Orol dengizi muammolarini amalda hal etish borasida o'ta muhim hal qiluvchi qadam bo'ldi. Konferensiya kunlari Xalqaro "Ekasan" fondining Qoraqalpog'iston bo'limi va Germaniya Federativ Respublikasining "Mersedes-bens", "Filipp Myuller", "Stendes Ostens" kompaniyalari, Fransyaning "Degremont" va Shvetsianing "Azoniya" kompaniyalari vakillari o'rtaida bu borada uzoq muddatli hamkorlik to'g'risidagi protokollar imzolandi.

Orol muammosi masalasi 2002-yilning 5-6-oktyabrida Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo Hamkorligi" tashkiloti sammitida muhokama etilgan eng muhim masalalardan biri bo'ldi. Mazkur sammit davomida hamkorlikka a'zo davlatlarning prezidentlari Orol bo'yida vujudga kelgan ekologiq va ijtimoiy inqirozni bartaraf etish, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatiga doir muhim masalalarni muhoqami qildilar. Shuningdek BMT tomonidan 2003-yilning "Ichimlik suvi yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tashkil etilganligining 10 yilligi munosabati bilan 2003-yilning sentyabrida Dushanbe shahrida Orolni qutqarish muammolari bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazilishi belgilab olindi.

### 3. MOIX negizida yangi tuzilma (MOXT) ni tashkil etish to'g'risidagi me'yoriy huquqiy asoslar

Mustaqillik yillarda mintaqamizdag'i tarihi, qadriyatları va madaniyati bir-biriga mushtarak xalqlarining ertangi taqdiri ham ko'p jihatdan bir-biriga bog'lik bo'lib bormoqda. Prezidentlarning muntazam uchrashuvlari dolzarb masalalarga bamaslahat yechim topish, integratsiya muammolarini muhokama qilish, dunyo siyosiy sahnasida va iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlar yuzasidan fikr almashish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Bunday muloqotlar "Markaziy Osiyo hamkorligi" tashkiloti doirasida ham amalga oshirildi. Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida tuzilgan bu tashkilot mintqa mamlakatlari o'rtasidagi ko'p tomonlama munosabatlarga oid barcha masalalarni muvofiqlashtirivchi vosita bo'lib qolmoqda.

2002-yilning fevralida MOHTga rasman asos solingandan keyin hamkorlik ko'lami yangi pog'onaga ko'tarildi. MOHTning bu galgi majlisi (2004-yil, 28-may)da mintaqaviy integratsiya jarayonlarining bugungi ahvoli va istiqboli, Markaziy Osiyoda xavfsizlikni mustahkamlash haqida, xalqaro terrorchilik va ekstremizmga, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, narkotiq moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga, shuningdek Afg'onistonidagi vaziyat yuzasidan fikr almashdilar. Mamlakatimiz rahbari MOXTni rivojlantirish jarayonlarida Rossianing ishtirok etish muhimligini ta'kidladi. Chunki integratsiya va hamkorlikni chuqurlashtirishga bu davlatning imkoniyat va salohiyatini jalb etish har tomonlama foydalidir. Xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda ham Rossiya muhim o'rincutadi. Sammit qatnashchilari Rossiya Federatsiyasining

MOXT faoliyatida to'la huqq bilan ishtirok etish bo'yicha yahlit qarorga keldilar. MOXT oldiga mintaqada iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishning, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy-teknikaviy, mada-niy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishning shakl va mexanizmlarini takomillashtirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.<sup>1</sup>

Ma'lumki, O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati hozirgi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya jarayonini jadallash-

<sup>1</sup> Anvar Boboyev. Integratsiyani mustahkamlash yo'lida. "Xalq so'zi" gazetasi 2004 yil, 29 may.

tirish va xalqaro tashkilotlar imkoniyatlarini bu jarayonga yo'naltirishdan iborat. O'zbekiston davlat rahbari Markaziy Osiyoda jug'rofiy-siyosiy jihatidan markaziy o'rinn tutgan O'zbekiston kuchlari tengiligi va muvozanatini ta'minlash, strategik muhim bo'lgan ushbu mintaqada hamkorlikka mustahkam zamin yaratish jarayonida sezilarli rol uynash uchun hamma imkoniyatlarga ega ekanligini bir necha bor ta'kidlagan edilar.

Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyat barqarorligi va mintaqaviy xavfsizlik aynan Rossiya ishtirok etadigan xalqaro tuzilmalar doirasida olib borilishi ta'minlanadi. YevrAzES, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) va Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXShT) va MDH shular jumlasidandir. Garchand ushbu xalqaro tuzilmalar ancha katta bo'lgan geosiyosiy makonni qamrab olsada, Markaziy osiyo geosiyosiy makonni ushbu tashkilot doirasidagi siyosatda hal qiluvchi o'rinn tutadi. Shu o'rinda mintaqaga xavfsizligiga tahdid soladigan muammolar talaygina ekanligini ta'kidlash lozim. Jumladan:

- terrorizm, ayirmachilik va eksteremizm,
- milliy-etniq mojarolar,
- narkotrafiq,
- qurollarning noqonuniy savdosi,
- mahsulotlar kontrabandası,
- mintaqaga tabiiy boyliklaridan foydalanishdagi o'zaro kelishmovchiliklar va boshqalar.

Mintaqa davlatlari bu muammolarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama munosabatlar harajalarida hal etishga intiladilar. Bu mintaqadagi geosiyosiy vaziyat ancha murakkab va chigallashgan ekanligidan dalolat beradi.

YevrAzES va ShHT doirasida ishlab chiqarilgan xavfsizlik konsepsiylari Rossiya, Xitoy hamda Markaziy Osiyo davlatlari uchun xavfsizlik bo'linmasi degan tushuncha asosida shakllanib bormoqda. Mintaqa davlatlari o'tish davrida ekanligi va jamiyatni demokratiyalashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mazkur konsepsiya mohiyatini ochib beradi. Mintaqa davlatlari ShHT doirasida yaratilgan mintaqaviy aksiterror tuzilmasi, MDH aksiterror markaziy mintaqada xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan

bo'lib, NATO ning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi bilan o'ziga xos raqobatga kirishadi.<sup>1</sup>

Ma'lumki "Markaziy Osiyo hamkorligi" tishqilotining 2005-yil 6-7-oktyabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan sammitda MOXT bilan Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining birlashtirishga kelishib olingen edi. Mazkur ikki tashkilotning maqsad va vazifalari ko'p jihatdan o'xhash va bir-biriga yaqin. Tuzilmalarning huquqiy birlashishi to'g'risidagi kelishuv esa mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati safidan joy olishiga olib keladi.

Bugungi voqelik shundan guvohlik beradiqi, yakqa-yolg'iz rivoj topgan yoki taraqqiy topayotgan mamlakatni topish qiyin. Kuch qudrati, imkoniyatu salohiyati, mavqeい qanday bo'lishdan qat'y nazar, har bir davlat horij bilan hamkorlik qilishga majbo'r. Binobarin, bugungi kunda iqtisodiy aloqalar siyosiy hamkorlikni belgilovchi asosiy omil bo'lib qolmoqda. Ana shunday sharoitda MOXT bilan Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatning birlashtirilishi zamon talablariga mos harakati sifatida namoyon bo'ladi.

Bu jarayonda O'zbekiston manfaatlarini nimalardan iborat ekanligini aniq ifodalab berildi. Dastlab shuni qayd etish kerakki, istiqlolga erishgandan keyin mamlakatimizning tashqi siyosatida, avvalo, qo'shnilar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga ustivor masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Boshqacha aytganda, biz qo'shni sifatida bir-birimizga yelqadosh bo'lib, bir-birimizni qo'llab-quvvatlab, hamkorlikni kengaytirish yo'lini tutmog'imiz zarur. Ta'bir joiz bo'lsa, o'zaro hamkorlik bir-birimiz uchun ham umumiyy maqsad, ham umumiyy burch sanaladi.

Ikkinci tomondan, hozirgi kunda Markaziy Osiyoda vaziyat shu qadar shiddat bilan o'zgarmoqdaki bunday sharoitda bamaslahat ish yuritilmasa, mintaqadagi barqarorlik xavf ostida qolishi hech gap emas. Bu yerda katta geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlar to'qnash kelayotir. Mana shu sharoitdan o'z g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqchi bo'layotgan ayrim yovuz kuchlar ekstremistiq tashkilotlarni fitna quroli sifatida ishga solishdan ham qaytmayotir.

<sup>1</sup> Ch. Ko'charov. Markaziy Osiyoning mintaqaviy integrasjoni jarayoni muammolari. T.Fan. 2008 yil. 48-bet.

Demak MOHT bilan Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining birlashishi orqali Yevroosiyodagi olti mamlakat bexavotir hayotni ta'minlash uchun bahamjihat harakat qiladi. Sankt-Peterburg sammiti yakunida "Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotining Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish to'g'risida"gi qarorlar imzolandi.<sup>1</sup>

Mustaqillik mafkurasining Markaziy Osiyo davlatlarida kuchli o'rIN egallaganligi YevrAzES doirasidagi integratsion jarayonlarga o'z ta'sirini o'tqazmoqda. Mintaqa davlatlari hamjamiyati ularni xalqaro huquq doirasidagi huquq va erkinliklarini cheklamasligini istagan holda asta-sekinlik bilan makromintaqaviy integratsiyani amalga oshirish istagidadir.

2005-yil 6-oktyabrda Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo hamkorlik tashkilotining sammitida Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Prezidentlari Markaziy Osiyo hamkorlik tashkilotining (MOHT) YevrAzES ga integratsiyasi ko'rsatilgan MO davlatlari rahbarlari "Yevroosiyo makonida integratsion jarayonlarini yanada rivojlantirish to'g'risida" qaror qabul qildi. MOHT va YevrAzES maqsadlari va vazifalarini o'xshash bo'lganigi sababli: har iqqala mintaqaviy tashkilotlar salohiyatlarini biriqishidan sezilarli darajada ijobjiy natijalar kutildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Sankt-Peterburgda YevrAzES kengashida nutq so'zlab, shunday dedi: "MOHT va YevrAzES ning biriqishi umumiyl rivojlanish mahsulidir. Ishonchim komilki, bu qadam funksiyalarni takrorlanishiha yo'l qo'ymaydi va hamjamiyat doirasidagi integratsion jarayonlarga kuchli turki beradi."

YevrAzES Davlatlararo kengashning mazkur yig'ilishi 267-sonli qaroriga muvofiq MOHTni YevrAzES integratsiya qilish masalalari bo'yicha ko'shma ishchi guruhga integratsiyani huquqiylik tomonlarini ta'minlovchi hujjatlarni tayyorlash vazifasi topshirildi. Ko'rsatilgan qaror ijrosi o'laroq YevrAzES Integratsiya qo'mitasi MOHTning shartnomasi huquqiy bazasini tahlil qilib chiqdi.

<sup>1</sup> A.Boboev. Mushtarak maqsadlar yo'lida muhim qadam. "XXI ASR" gazetasi. 2006 yil, 26 yanvar.

<sup>1</sup> Ch.Ko'charov. Markaziy Osyoning mintaqaviy integratsion jarayoni muammolari. T. Fan. 2008 yil, 129-bet.

Ushbu jarayon davomida MOHTning YevrAzES doirasidagi ijrosi davom ettiriladigan xalqaro shartnomalar belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi 2005-yil oktyabrda bo'lib o'tgan MOHT a'zo-davlatlari kengashida YevrAzES a'zosi bo'lishi haqida ma'lum qildi. 2006-yil 25-yanvarda Sankt-Peterburgda YevrAzES Davlatlararo kengashida O'zbekistonni 2000-yil 10-oktyabrda imzolangan Yevroosiyo iqtisodiy hamkorlik hamjamiyatini tuzish to'g'risidagi Shartnomaga qo'shilishi to'g'risida Protokol qabul qilindi. Bu hujjat O'zbekistonning rasman a'zolikqa kirishini ta'minladi.

Uchinchi ming yillik jahon taraqqiyotida globallashuv, mintaqaviylik, fan-texnika takomili, milliy davlatchilik va xalqaro munosabatlardagi qator muammolar hamda bir qadar yangi dunyoviy o'zgarishlar bilan uzviylikda kechmoqda. Buni bir jihatdan, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, globallashuv sari intilayotgan davlatlar, ikkinchi tomonдан esa milliy davlatchilik asosani mustahkamlashga intilayotgan hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan davlatlar misolida yaqqolroq ko'rish mumkin.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo davlatlar ham xalqaro munosabatlar subyekti sifatida mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashi, milliy va mintaqaviy manfaatlar birligiga erishish hamda xavfsizlik choralarini ko'rishi eng dolzarb masalalardan biridir. Bunda mintaqada davlatlari, avvalo o'zaro integratsiyalashuv va yagona hududiy makonni vujudga keltirish orqali o'z geosiyosiy va geoijtisodiy mavqeini oshirib borishi zarur bo'ladi.

Hozirgi mintaqada davlatlari integratsiyasi tarhiy zaruriyat sifatida qaralayotganligi va unga monelik qiluvchi ichki va tashqi omillar ta'siri ma'lum muammolarni keltirib chiqarayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bunday holatda mintaqadagi ichki masalalarni konseptual o'rganish bilan bir qatorda uning atrofida shakllangan geosiyosiy jarayonni tahlil qilish masala yechimiga oydinlik qiritadi.

Bugungi globallashuv asrida integratsiya masalalari sayyoramizning turli burchaklarida yashayotgan xalqlar uchun tobora muhim ahamiyat qasb etmoqda. Zotan integratsiya tushunchasi quruq safsatabozlikdan iborat emas. Uning haqiqiy iqtisodiy sa'y-harakatlar, aniq odimlarga bog'lik ekani keng e'tirof

etilmoqda. Ko‘p asrlar davomida mamlakatimiz o‘zining muhim jug‘rofiy va siyosiy o‘rni tufayli Sharq bilan G‘arb o‘rtasida o‘ziga xos bog‘lovchi ko‘priq vazifasini o‘tagan. Davlatimiz hududi orqali o‘tgan qadimgi Qarvon yo‘llari Buyuk Ipak yo‘li xalqlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarning uzluksiz rivojiga hizmat qilgan.

“Markaziy Osiyo mamlakatlari darajasidagi integratsiyaga kelsaq u o‘zining alohida xususiyatlari balan ajralib turadi. Bu integratsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra hamisha xalq integratsiyasi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Butun tarix davomida bu mintaqqa xalqlari ajnabi bosqinchilari hukmronligiga qarshi yelqama-elqa turib kurashib kelganlar. Bu xalqlarning vakillarini mustaqillikqa ko‘lga kiritish va mustaqil davlatlar tuzish g‘oyalari birlashtirilgan. Bu xalqlar Turkiston deb nom olgan ulkan hududida asrlar davomida yashab kelganlar. Avvalo shuni ta‘kidlamoqchimizki Markaziy Osiyo xalqlarining integratsion orzu yoki kelajakqa mo‘ljallangan loyiha emas, bu-bor narsa, bu-mavjud voqelik bo‘lib, faqat tashkiliy, huquqiy va siyosiy shakkarga muxtojdir”<sup>1</sup> degan edi I.A.Karimov.

Madaniy va tarihiy ildizlari mushtarak bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari, ayniqsa boy madaniy rishtalar bilan bir-biriga bog‘langan. Shu bois ham mazkur mintaqada yashovchi xalqlar o‘za o‘zaro integratsiyalashuvga intilishayotgani tabiiy hol. Butun mintaqaning kelajak taraqqiyoti ana shu integratsiyalashuv jarayonining muqarrarligi va uzluksiz rivojiga bog‘lik.

Ushbu tarihiy zaruratni to‘la anglagan O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e‘lon qilgan kundan boshlab butun Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan izchil siyosatni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, ta‘kidlash lozim, O‘zbekistonning ushbu tashabbuslari oddiy tashviqot namoyish emas, balki hozirgi zamon talablari chuqur anglagan holda mamlakat rahbariyatining intilishlaridan dalolatdir. Bu sa‘y-harakatlar Markaziy Osiyo halqlarining uзвиy tarihiy

rishtalariga asoslangan ko‘p tomonlama hamkorlik va sheriklikning keng siyosiy platformasini yaratishga qaratilgan.

O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiyalashuv yo‘lidagi izchil va faol qadamlari xususida qator dalilar shahodat beradi. 1993-yilning iyun oyidayoq O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasida 1994-2000-yillarda iqtisodiy integratsiyalashuvni chuqurlashtirish choralari to‘g‘risida shartnomaga imzolangan edi. Integratsiyalashuv jarayonlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida ikki mamlakat 1994-yilning yanvarida Yagona iqtisodiy makon barpo etish to‘g‘risidagi shartnomaga imzo chekdi va keyinroq Qirg‘iziston Respublikasi unga qo‘shildi. O‘sha yilning 30-aprelida O‘zbekiston tashabbusi bilan Cho‘lpon ota shahrida Yagona iqtisodiy makon barpo etish to‘g‘risida uch tomonlama shartnomaga imzolandi. Keyinchalik 1998-yili martida mazkur shartnomaga Tojikiston Respublikasi ham qo‘shildi. O‘sha yilning iyulida ushbu mamlakatlardan tashkil topgan Markaziy Osiyo mintaqaviy uyushmasi atamasining “Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati” (MOIH) deb tasdiqlanishi mintaqaviy integratsiyalashuvni kengaytirish yo‘lidagi navbatdagi qadam bo‘ldi. Shu o‘rinda ta‘kidlamoq o‘rinli bo‘ladiqi sovet imperiyasi parchalangan kundan boshlab O‘zbekiston Respublikasi mintaqaga doirasida iqtisodiy integratsiyalashuv siyosatini izchil amalga oshirildi va o‘z sa‘y-harakatlari bilan boshqa mamlakatlarni ham o‘zaro hamkorlikni kengaytirishga chorladi.

Shubhasiz, MOIHning MOHT ga o‘zgartirilishi xalqlarimiz hayotida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan muhim voqealari bo‘ldi. Mintaqadagi integratsiyalashuv jarayonlari xususida so‘z borar ekan, ularni, shubxasiz, umumjahon globalashuv muhiti doirasida baholash kerak. Zero, davlatlar tez sur’atlarda yangi munosabatlarda shakllanayotgan davrda Markaziy Osiyoning jug‘rofiy-siyosiy va iqtisodiy ahamiyati, umumbashariyat xavfsizligi tizimidagi roli ortmoqda. Boshqa mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan amaliy hamkorlik qilishga tayyorgarlik o‘z faoliyatining o‘zga mamlakatlari va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalarga qarshi qaratilmaganligi MOHT ning ajralmas tamoyillariga aylandi. MOIH ning MOHT ga o‘zgartirilishining muhim natijalaridan biri-bu faqat iqtisodiyot bilan cheklanib qolmagan masalalar doirasining kengayishi ham bo‘ldi.

<sup>1</sup> Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid. barqarorlik shartlari va taraqqiyot qasolatlari. T. “O‘zbekiston”, 1997 yil, 320-bet.

Tashkilot doirasida Markaziy Osiyoda dolzarb ahamiyat qasb etayotgan muammolar, jumladan mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Afg'onistonni qayta tiqlash hamda gumanitar sohadagi hamkorlik kabi mavzular yuzasidan ochiq siyosiy muloqotlar o'tkazilmoqda. Mintaqaning ajralmas qismi bo'lgan Afg'onistonda hamjihatlikda ish olib borishi uchun mustahkam asos yaratildi.<sup>1</sup>

Aytish joizki, MOHT faoliyatini o'zining demokratiya va xurfiylilik tamoyillariga asoslangan, jo'shqin hamda moslashuvchan tabiati bilan ajralib turadi. Shu o'rinda uning qandaydir siyosiy tashviqotlarni tayyorlash hamda uni amalga oshirish uchun yaratilgan tuzilma emasligini yana bir bor ta'kidlash joiz. Aksincha, MOHT mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash hamda rivojlantirishga qaratilgan, uzoqni ko'zlovchi rejalarni hayotga tatbiq etish uchun yuksak salohiyatga ega bo'lgan xalqaro tashkilotdir.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning MOHT raisi etib saylanishi tashkilot faoliyatini sezilarli darajada jadallashtirdi. Xususan bir yildan qo'proq vaqt mobaynida tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari Almati, Oqtov, Dushanbe, Ostana hamda Toshkent shaharlarida olti marta uchrashdilar. A'zo mamlakatlarning parlamentlararo aloqalarining jadallahushi mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash yo'lida hamkorlikning yangi qirralarini qashf etish, davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish, MOHT doirasida integratsiyalashuv jarayonnining rivojlanishi hamda istiqboli uchun katta ahamiyat qasb etadi. Shu ma'noda, O'zbekiston tashabbusi bilan 2002-yilning noyabr' oyida MOHTga a'zo mamlakatlar parlamentlari vakillarining Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashushi davomida parlamentlararo hamkorlik institutini joriy etish a'zo mamlakatlar parlament vakillarining kengashini tuzish xususida qarorining qabul qilinishi dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimizning MOHTga raislik qilishi bilan birga, O'zbekiston zimmasiga yuklangan ma'suliyatni his etgan holda, hukumatimiz tomonidan tashkilot faoliyatini jadallashtirishga

qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Hususan 2002-yilning avgust oyida poytaxtimiz Toshkentda MOHTga a'zo mamlakatlar huquqni muhofaza qilish hamda xavfsizlik hizmatlari rahbarlarining diniy eksteremizm va fanatizm ekspansiyasining oldini olish borasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kengash bo'lib o'tdi.

Mamlakatimiz tashabbusi bilan MOHT doirasida a'zo mamlakatlarning iqtisodiy doiralari hamkorligi sezilarli darajada faollashdi. 2002-yilning noyabr' oyida Toshkentda, 2003-yilning iyul' oyida Qirg'izistonning O'sh shahrida MOHT ga a'zo davlatlar tadbirkor hamda ishbilarmon doiralarning biznes anjumani bo'lib o'tdi. Uchrashuvlar chog'ida iqtisodiy hamkorlikning ahvoli hamda istiqbollarli qo'shma loyihalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, korxonalar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotiga chet el sarmoyalari jalb qilish masalalari muhokama etildi. Aytish joizki, bo'lib o'tgan biznes anjumanlarda mintaqamiz mamlakatlari hamda xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlars tarihinining yangi sahifasini ochib berdi.

Anjumanlarida ayon bo'ldiqi, MOHTga a'zo mamlakatlar doiralari vakillari mintaqada o'zaro iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda qo'shma loyihalarni amalga oshirishga katta qiziqish bilan qaraydilar. Tadbirlar davomida MOHT doirasida integratsiya jarayonlariga iqtisodiyotining muhim tarmoqlari kiritilishi o'zaro mustahkamlash vositasi bo'lib hizmat qilishi e'tirof etildi. MOHT tashkil topgandan buyon xalqlarimiz o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlash va yalpi rivojlanish, ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmi va vositalarini shakkantirish borasida muhim qadamlar tashlandi. Ayni chog'da, davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganideq ushbu jarayon integratsiyani sekinlashtirishga olib keladigan navbatdagi byuroqatiq tuzilmalarining barpo etish emas, balki ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish hamda xalqlarimizning tarhiy qon-qarindoshlik rishtalariga asoslangan keng siyosiy makonning yaratilishi sifatida tushunmog'i darkor. Muhibi, mamlakatimizning MOHTdoirasidagi tashabbuslari jahoning ilg'or siyosiy hamda moliyaviy tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xususan, Osiyo Taraqqiyot banki, Yevropa Tiqlanish va Taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom Taraqqiyot banki hamda BMT taraqqiyot dasturi

<sup>1</sup> Z Muzaffarov. Mintaqaviy integratsiya rosmana iqtisodiy sa'y-i-harakatlarni taqazo etadi. "Xalq so'zi", gazetasи. 2003 yil. 27 sentyabr.

tomonidan olqishlandi. Mazkur tashkilot vakillari dasturiy hujjatlarni tayyorlashda o'z maslahatlari bilan yordam berishga tayyor ekanliklarini. Markaziy Osiyodagi suv-energetika zahiralari transport savdosi sohalarida olib borgan o'z tadqiqotlari natijalari bilan o'rtoqlashishlarini bildirishdi. Nufuzli moliyaviy tashkilot - YETTB o'zining shu yil may oyida Toshkentda o'tgan direktorlar kengashining yillik-yig'ilishida Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatladidi.<sup>1</sup> MOHT doirasidagi integratsiyalashuv jarayonlari rivojini Amerika Qo'shma Shtatlarning yetakchi siyosiy va ishbilarmon doiralari vakillari ham quvvatlashmoqda. MOHT faoliyatining iqtisodiy istiqbollari haqida fikr bildirib, Qarnegi Fondining yetakchi mutahassisi A. Liven "Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillik yillaridagi iqtisodi turli yo'llar va sur'atlar bilan rivojlandi va ayni paytda xususiy lashtirish, xorijiy qapitalni jalg qilish, bank tizimi va don bozori kabi sohalarda turli rivojlanish bosqichlarida turibdi. Boshqa tomondan olib qaralganda, MOHTga a'zo davlatlar bugungi kunda o'z iqtisodiyotlarining ustivor yo'nalishlarini aniq belgilab olganlar"- dedi. Amerika mutahassislarining fikricha, Afg'onistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligiga qo'shilishi MOHT faoliyatini rivojlantirish omillaridan biri bo'lishi mumkin. J. Hopkins universitetining Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti direktori F. Starming fikricha, "MOHT ning samaradorligi va davomiyligi, eng avvalo, a'zo davlatlar prezidentlarining siyosiy irodasi va samimiy intilishlariga, mamlakatlardagi ichki barqarorlik, shuningdek ushbu davlatlar milliy manfaatlarini imkon qadar hisobga olgan holda bunday ittifoq ularga qanday ustunlik va imtiyozlar ato etishga bog'lik bo'ladi". Aksariyat Yevropalik mutaxassislar MOHTni Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga hizmat qilayotgan tashkilot sifatida uning faoliyatini qo'llab-quvvatlashmoqda. O'zbekistonning MOHT doirasidagi roli va o'rniga yuqori baho berishmoqda.

Yevropalik mutaxassislar MOHTga a'zo davlatlarning Markaziy Osiyo integratsiyalashuvini mustahkamlash borasida olib borayotgan uyg'un hamkorligini alohida ta'kidlamoqdalar. Yevropa

hamjamiyati shu 2003-yilning yanvar oyida Bryusselda o'tgan "O'zbekiston-Yel" hamkorlik kengashining to'rtinchi majlisи davomida MOHTni barpo etish to'g'risidagi shartnomani olqishladi.

2004-yil 28-may kuni Ostona shahrida MOH tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston rahbari o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Birinchidan, mintaqamizdagи hozirgi ahvolga xolisona baho beradigan bo'lsak shuni ta'kidlash joizki, "Markaziy Osiyo Hamkorligi"-ga a'zo davlatlar izchil rivojlantirish va mamlakatni tiqlash jarayonlari davom etayotgan bo'lishiga qaramay, umuman olganda, Markaziy Osiyo mintaqasida, ta'bir joiz bo'lsa, strategik noaniqlik vaziyat saqlanib qolmoqda. Bugungi kunda mintaqamiz jahon siyosatida, boy tabiiy zahiralari, mineral-xomashyo va birinchi navbatda, uglevodorod resurslaridan foydalanishda o'zining muhim geosiyosiy va geostrategik ahamiyati va mavqeini saqlab kelmoqda. Bu yerda dunyoning eng qudratli davlatlari va bizga qo'shni mamlakatlarning manfaatlari uyg'unlashayotgani, ba'zan esa to'qnash kelayotgani ham hech kimga sir emas.<sup>1</sup>

"Markaziy Osiyo Hamkorligi" tashkilotining mintaqada ko'ptomonlama hamkorlikni amalga oshirishning muhim institutlaridan biri sifatidaga ahamiyatni keskin oshmoqda. Bugungi kunda unga dunyoning yetakchi davlatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlarining qiziqishi ortayotgant bejiz emas. So'nggi yillarda dunyodagi yirik mamlakatlarning Markaziy Osiyoga jiddiy e'tibor qaratayotgani ko'pchilik uchun, ayniqsa, davlat rahbarlari uchun sir emas. O'zbekiston rahbari Markaziy Osiyoda umumiy bozorini yaratish maqsadlari haqida gapirar ekan, bu boradagi eng asosiy vazifalarni ta'kidlab o'tdi:

Markaziy Osiyo mintaqasi behad boy bo'lgan tabiiy, suv-energetika, mineral-xomashyo resurslari va inson salohiyatidan mazkur bozorga kiruvchi har bir mamlakat manfaati yo'lida oqilona foydalanish va bu ishni takomillashtirish;

<sup>1</sup> Hamkorlik va mintaqaviy integratsiya xalqlarimiz manfaatiga hizmat qiladi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2004 yil, 5 iyun.

- qulay investitsiya muhiti va mintaqaga xorijiy investitsiyalarni jalg etish uchun sharoit yaratish borasida yagona yondashuv va strategiyani shakllantirish;

Bir so'z bilan aytganda, Markaziy umumiy bozorini tashkil etishdan asosiy maqsad.

- MOH tashkilotiga a'zo davlatlarning jahon va mintaqaga bozorlaridagi yalpi raqobatbardoshligini oshirish hisobiga ushbu mamlakatlar aholisi turmush darajasini yuksaltirish va iqtisodiyotini jadal rivojlantirishdan iborat. Chunki har bir mamlakat jahon bozoriga o'z tovarlarini olib chiqish jarayonida jiddiy muammolar va ta'siqlarga uchraydi. Umumiy bozorni yaratsaq bozorlarimizning ham, tovarlarimizning ham dunyo va mintaqaga bozorlaridagi yalpi raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi. Davlatimiz rahbarlari, umumiy bozorni joriy etish uchun uchta asosiy bosqichdan o'tish zarutligini

ta'kidladi.

Birinchi bosqichda tariflarning yagona, o'zaro moslashtirilgan va maqbul tizimni nazarda tutuvechi Bojxona ittifoqini shakllantirishga hamda transport-tranzit masalalarini hal etishga kirishish mumkin.

Ikkinci bosqichda muayyan choralarini qabul qilish asosida Erkin savdo zonasini yaratish mazmuni bilan to'ldirish imkoniyati vujudga keladi. Shu tariqa bu hujjat, nihoyat, ishga tushishi va amaliy natija berishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Va nihoyat, uchinchi bosqichda biz Markaziy Osiyoning to'mma'rodagi umumiy bozorini ta'sis etishimiz mumkin. Unda sarmoya va ish kuchining erkin harakatlanishi uchun sharoit yaratiladi. Sog'lon raqobatni rag'batlantirishning antimonopol boshqaruvini vujudga keltirishning yagona mexanizmi yaratiladi. Bu murakkab yo'lga ko'plab obyektiv va subyektiv, aytish mumkinki, turli ambitsiyalar bilan bog'lik qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkinligini tan olishimiz kerak. Boy imkoniyatlarga ega mintaqamizning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash yo'lida vazifalarni yechish uchun bu muammolarni yengib o'tishimizga to'g'ri keladi. Shunday qilib, XXI asrda mintaqaviy xavfsilik muammolari umumbashariy xavfsizlikni keltirib chiqarish

mumkinligi va Markaziy Osiyo davlatlari siyosat, iqtisodiy hamda ekologiq xavfsizligi mintaqaga barqarorligini muhim shartidir.

Markaziy Osiyo davlatlari (jumladan O'zbekiston) tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar, mintaqaviy muammolar yechimi orqali globallashuvni ta'minlash borasidagi g'oyalari atroficha asoslangandir. Bunda mintaqqa siyosiy, iqtisodiy va ekologiq xavfsizlik muammolarini kompleks o'rganish, uning muhim jihatlarini tahlil qilish, O'zbekistonni xalqaro huquqning subyekti sifatidagi global va regional muammolardandir.

2008-yil 11-12-mart kunlari Toshkentda "Orol muammolari ularning, mintaqqa aholi genafondi, o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri hamda oqibatlarini yengillashtirish uchun xalqaro hamkorlik chora-tadbirlari" mavzusiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unga O'zbekistonning Birinchi Prezidenti o'z tabrigini yo'llab "O'tgan so'nggi yillarda mintaqqa davlatlari xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda Orol dengizi xavzasidagi ekologiq hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yengib o'tish va mintaqadagi vaziyatni yaxshilash bo'yicha sezilarli sa'y-harakatlarni amalga oshirishdi.

Ishonchim komilki, global ijtimoiy muammolar, jumladan Ming yillik rivojlanish maqsadlari doirasida, "regionalizm orqali globalizm sari" formulasi bo'yicha, samarali mintaqaviy mexanizmlar yaratish yo'li bilan hal etilishi lozim<sup>1</sup> -degan fikri bildirdi. Mazkur xalqaro nufuzga ega bo'lgan konferensiyaning asosiy maqsadi Orol bo'yи hududida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va ekologiq muammoni yumshatishda kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Markaziy osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta'minlashda xavf Afg'oniston tomonidan jiddiy ekanligini alohida e'tiborni talab etadi. Afg'onistonda yetishtirilayotgan narkotiq moddalarining Markaziy Osiyo orqali Yevropaga tarqalayotganligi tabiiy ravishda xalqaro xavfsizlikni ta'minlashni talab qiladi. Mintaqaviy nizolar ko'pgina terrorizm va zo'ravonlik, narkobiznes va qurol-yarog' bilan

<sup>1</sup> Islom Karimov. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. "O'zbekiston", 2008 yil, 16-jild, 286-bet.

noqonuniy savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy suratda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda.

#### **4. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro hamkorlik masalalaridagi aloqalari**

Hozirgi geosiyosiy tizimlar uchun jahondagi globallashuv jarayonlarining yanada rivojlantirish, siyosat tamoyillarining ustivor darajaga ko'tarilishida O'zbekistonning MO davlatlari ichida ahamiyati g'oyatda yuksak. Dunyodagi 170 dan ziyod davlat bilan rasmiy diplomatiq munosabatlar o'rnatilgani bejiz emas. Albatta, O'zbekiston Respublikasi Rossiya, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar bilan ko'p tomonlama xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish barobarida BMT, YuNYeSKO, YeXHT, MDH, ShHT, NATO kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ham amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo dunyodagi ekologiq faloqatga uchrangan mintaqalardan hisoblanadi. Yurtboshimiz BMT dasturiga kirgan Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishishda ekologiq va atrof-muhitni muhofaza qilish katta ahamiyat qasb etishishi alohida ta'kidladi. Mintaqamiz Orol fojiasidek ulkan ekologiq muammolarga duch kelib turibdi. O'tgan qirq yil mobaynida Orol dengizi ekvotoriyasi yetti barobar qisqarib, suv miqdori o'n uch marta qamaygani va uning minerallanish darajasi o'nlab barobar ortgani uchun yaroqsiz ahvolga kelgan. Ana shunday bir sharoitda Amudaryo va Sirdaryoning yuqori qismida ulkan gidroinshootlarni qurish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan urinishlar ekologiyaga jiddiy zarar yetqazib, xavfli texnogen falokatlarni keltiuib chiqishi mumkin. Shu bois bu masalada O'zbekistonning pozitsiyasi qat'iy: sobiq tuzum davrida yaratilgan loyihalar asosida transhegaraviy harylarda xalqaro ekspertizadan o'tmag'an va mintaqaning boshqa davlatlari manfaatlari hisobga olinmagan yirik gidreinshootlar qurish, birinchidan, mintaqaga aholisi hayotini xavf ostiga qo'yadi, ikkinchidan, esa shusiz ham niroyatda murakkab bo'lgan ekologiq vaziyatni butunlay izdan chiqaradi.

O'zbekiston o'zi ishtirok etayotgan barcha xalqaro tuzilmalardan, xususan Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti ham milliy manfaatlarimizga mos siyosat yuritishga harakat

qilayapti. Voqealar rivoji faqat mustaqil siyosat va milliy manfaatlarni faol himoya qilish amaliyoti mintaqada tinchlik-barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashini ko'rsatib turibdi.

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasini yangi ko'rinishida namoyish etishda Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXShT) muhim hisoblanadi. 1992-yil 15-mayda Toshkent shahrida Kollektiv xavfsizlik shartnomasining imzolanishi ushbu tashkilotning huquqiy poydevorini yaratdi. Uning yuzaga kelishi Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik tizimini yaratishga bo'lgan izlanishlar hosilasi deb aytish mumkin. KXShT ga O'zbekiston, Qирг'изистон, Тоҷикистон, Rossiya va Armaniston davlatlari asos solishdi. Shartnomma 1994-yil 20-aprelda kuchga kirgan bo'lsada, biroq uning amalga oshirilishi mintaqadagi real vaziyatga to'la javob bera olmasdi. Buning asosiy sababi a'zo davlatlari o'rtasidagi munosabatlardagi manfaatlар qarama-qarshiligi tashkilot doirasida jamoaviy faoliyatga to'sqinlik qilardi. Qolaversa, endilikda parchalangan sobiq Sovet Ittifoqi Respublikalari tashkilot doirasida o'zaro bog'lik tayyor emasliklarini namoyish etdilar. Buni Tojikistondagi fuqarolar urushi va Afg'onistondagi qurolli mojarolar mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solgan bir vaziyatda tashkilotning shartnomaviy mexanizmidan o'zaro bahamjihatlik bilan foydalilaniganidan ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston Prezidenti Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotining xavfsizlik kengashida so'zlagan nutqida Tezkor harakatlanuvchi kollektiv kuchlar to'g'risidagi bitimni O'zbekiston imzolamaganligini sabablarini chuqur tahlil qilib berdi. "Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotining vazifasi bu-o'zaro davlatlar o'rtasidagi va MDH makonidagi turli qarama-qarshiliklar va mojarolarni hal etishda qatnishish emas, balki, avvalo, tashkilotga a'zo mamlakatlarni tashqi tahdidlardan himoya qilishdan iborat", - deb alohida uqtirib o'tdi. Chunki zo'ravonlik yoki notinchlik yuzaga kelgan hollarda mustaqil davlatning ichki ishiga Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotining harbiy yo'l bilan aralashuvi muammolarning yanada keskinlashib va chuqurlashib ketishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, 2010-yil iyun' oyida Qирг'изистон janubida

<sup>1</sup> "Tafakkur" jurnali, 2011 yil, № 3, 16-bet.

sodir bo'lgan fojiali voqealar haqida to'xtalar ekan, davlatimiz rahbari, jumladan bunday dedi: "10-14-iyun kunlari Qиргизистон janubida ro'y bergan voqealar barchamiz uchun ko'p jihatidan saboq bo'lishi kerak. Ushbu voqealar mamlakat ichidagi qaramaqarshiliklar va mojaroli vaziyatlarning haqiqiy sababini sinchkovlik bilan o'rjanmasdan, bu jarayonlarga aralashish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini har tomonlama o'yamasdan, ularni hal etish uchun tashkilotning aralashuviga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmasligini yana bir bor ko'rsatdi".<sup>1</sup> O'zbekistonning qat'iy pozitsiyasi tufayli fojiali voqealar alangasi keng yoyilib ketishining oldi olindi. O'zbekiston va Qиргизистон hududlarida sodir etilgan terroristik hatti-harakatlar KXShTning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash qafolati bo'la olmasligini isbotladi. Aynan shu xususda O'zbekistonlik ekspert F.Tolipov tashkilot mintaqaviy beqarorlikni oldiri oladigan aniq tizimga ega emasligini ta'kidlaydi.<sup>2</sup> O'zbekiston Prezidentining shu masala bo'yicha bayon qilgan fikrlari va O'zbekistonning bu boradagi pozitsiyasini bugungi kunda qo'plab xalqaro tashkilotlar vakillari, siyosat va jamoat arboblari ma'qullamoqda va qo'llab-quvvatlamoqda. Ma'lumki, O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar o'ta murakkab va ko'p qirrali islam dunyosining ajralmas qismi hisoblanadi. So'nggi yillarda diniy ekstremizm, fanatizm va xalqaro terrorizmning tahdidi toba'a quchayib borayotganligi sababli Markaziy Osiyo tinchlik va barqarorlikni saqlash xavfsizlikni ta'minlash alohida ahamiyat qasb etadi.

O'zbekistonning huquqiy demokratiq davlat, erkin suqorolikjamiyati qo'rish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan teng, manfaatli hamkorlik olib borish, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, bu yerda yashayotgan xalqlar o'rtaida do'stlik va qardoshlik aloqalarini mustahkamlash, ushbu hududda joylashgan mamlakatlararo integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, global

tahdidlarga qarshi birgalikda, hamjihatlik bilan kurashish singari masalalar milliy manfaatlarimizni belgilashda yetakechi omil hisoblanadi.

Bugungi kunda mintaqaviy xavfsizlikning, siyosiy jihatlariga to'htalib o'tadigan bo'lsaq avvalo, xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda davlatlararo munosabatlar o'zaro tenglik, davlatlar suvereniteti, xalqlarning o'z taraqqiyoti yo'lini o'zi belgilashligi va millat hamda xalqlarning o'z taqdirini o'zi xal qilishligi alohida o'rinn tutadi. Shuningdek mintaqada yuzaga keladigan siyosiy iqtisodiy va harbiy inqirozlarni hamda kelishmovchiliklarni tinch muzokaralar yo'li bilan yoki diplomatiq aloqalarni rivojlantirish yordamida o'z yechimini topishi alohida ahamiyatga molik. Mamlakatlararo munosabatlarda xavfsizlikni ta'minlash mamlakatlarning xalqaro huquqiy prinsiplari va normalarga qat'iy amal qilishi ularning har tomonlama hamkorligiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Markaziy Osiyo xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha Toshkent kengash-seminarida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyo davlatlarining maqsadlari Tinchlik, Barqarorlik va Hamkorlikdan iborat ekanligini ta'kidlash bilan birga uning muhim yo'nalishlarini ko'rsatib bergen edi. Bu: Birinchidan-davlatlar va xalqlar o'rtaсидаги тинчлик, о'заро hurmat va ishonch, suverenitet va mustaqillikni so'zsiz tan olish, kuch ishlatishdangina emas, kuch ishlatish bilan qo'rqitishdan ham to'la voz kechishdir.

Ikkinchidan-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, islohatlar olg'a siljishi va amalga oshishini, inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida taraqqiyotga erishishining muhim sharti bo'lgan barqarorlikdir.

Uchinchidan-davlat va jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatlarini rag'batlantiruvchi o'zaro soydali va teng huquqli sheriklik asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy integratsiya jarayonidan iborat hamkorlikdir. Bu o'rinda Markaziy Osiyo Respublikalarining yagona iqtisodiy makonda joylashganligi va uning umumiyligi tarihiy jihatlarini hisobga oladigan bo'lsaq yuqoridagi maqsadlarning taraqqiyot yo'nalishida ekanligini ta'kidlash joizdir.

<sup>1</sup> "Tafakkur" jurnali, 2011 yil, № 3, 16-bet.

<sup>2</sup> Толипов Ф. Многообразие интересов и "Большая стратегия" для Центральной Азии Центральная Азия в XXI веке: сотрудничество, партнерство диалог. Материалы-Ташкент. 2003 г. с 112.

Darhaqiqat, mintaqaviy xavfsizlik ko'pgina mamlakatlarda amalga oshirilayotganligi va ularning tarihiy tajribalarini hisobga olingani holda. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun ham huquqiy asoslar yaratishi tarihiy zaruriyat hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro normalari va prinsiplaridan foydalangan holda, o'zaro munosabatlarda xalqaro huquq ustivorligini ta'minlashlari tom ma'noda davlatlararo iqtisodiy integratsiya rivojiga katta hissa qo'shish bilan bir qatorda uning takomilini ta'minlaydi. Xususan, tashqi qarzlarni adolatli rivishda hal qilish masalasining xalqaro miqyosida huquqiy normalari ishlab chiqilmaganligi ham xalqaro munosabatlarda, jumladan, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.<sup>1</sup>

Ma'lumki, asrimiz boshlariiga kelib O'zbekistonning mintaqasi va xalqaro miqyosida tutgan o'rni hamda obro'-e'tibori tobora ortib bormoqda. Bu darajaga yetish uchun esa qanday murakkab jarayonlar, qarama-qarshilik va chigalliklar, og'ir sinovlardan o'tganimiz barchaga ma'lum. Avvalo davlatimiz rahbarlarining pragmatiq,chuqur uylangan siyosiy yo'li va irodasi tufayli O'zbekiston endi xalqaro siyosiy hamda geosiyosiy jarayonlarning oddiy ishtirokchisigina bo'lib qolmay, uning asosiy yo'nalish va mazmunini belgilashda hal qiluvchi o'rinni tutadigan davlatlar sañidan joy oldi.

Ma'lumki, XXI asrda insoniyat ba'zi global muammolarga duch kelmoqda, bugungi murakkab zamonda dunyo ahli xalqaro terrorizm, ekstremizm, millatchilik, giyoxvand moddalar, qurolyarog'larining noqonuniy tarqalishi, yirik ekologiq va texnologiq tahididlarga qarshi kurash olib bormoqda. Davlatimiz rahbari nufuzli xalqaro anjumanlarda, xususan, BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida so'zlagan nutqida jahon hamjamiyati tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan ana shunday dolzarb masalalar bo'yicha muhim amaliy taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlash, xususan yon qo'shnimiz Afg'onistonda 30 yildan ziyod vaqt mobaynida davom etib kelayotgan urushga chek qo'yish, ushu mamlakatni iqtisodiy

<sup>1</sup> Ch.Sh. Ko'charov, Markaziy Osiyoning mintaqaviy integrasiyon muammolari. T.Fan. 2008 yil. 58-59 betlar.

jihatidan tiqlash, ijtimoiy-gumanitar infratuzilmalarni shakllantirish, ohamlarni tinch mexnatga qaytarish bo'yicha yurtboshimiz bayon etgan tashabbuslarga xalqaro jamoatchilik alohida e'tibor bilan yondashmoqda. BMT Bosh Assambleyasining 1993-yildagi 48-sessiyasida, 2000 va 2010-yil sentyabr' oyida bo'lgan Mingyllik sammitida dunyo ahli e'tibori yana bir bor Afg'oniston muammosiga qaratildi. Albatta,biz Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik bo'lishidan manfaatdormiz. Bu bizning milliy manfaatlарimizga bevosita daxldor bo'lgan strategik masala. Lekin ayni masalaning muhimligi faqat bizning davlatimiz va xalqimiz manfaatlari bilan cheklanib qolmaydi. Uning ijobiy hal qilinishidan butun Markaziy Osiyo mintaqasi qolaversa xalqaro hamjamiyat ham manfaatdordir.

Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekistonning o'rni haqida so'z borganda, Prezidentimizning Markaziy Osiyoniy qadro qurolidan xoli hududga aylantirish haqidagi tashabbusni esga olmasdan o'tolmaymiz. Chunki bu tashabbus hozirgi vaqtida o'zining amaliy tatbig'ini topmoqda. Masalan, Qozog'istonning Semipolatinsk shahrida Markaziy Osiyoning beshta davlati tashqi siyosat mahqamalari rahbarlari Markaziy Osiyoniy qadro qurolidan xoli hududga aylantirish to'g'risidagi shartnomani imzolangani bu boradagi muhim qadam bo'ldi. Shu haqda fikr yuriganda 1997-yili Toshkentda o'tkazilgan "Markaziy Osiyo-yadro qurolidan xoli hudud" mavzusidagi xalqaro konferensiya ana shu anjuman uchun poydevor bo'lganini ta'kidlash lozim. Ushbu shartnomani tayyorlash yuzasidan Mintaqaviy ekspertlar guruhi aynan bizning poytaxtimizda tuzilgani ham bu fikri isbotlab turibdi. Shartnomani imzolash marosimida bu faktni ko'pchilik alohida hurmat va e'tibor bilan esga olgani ham shundan dalolat beradi. Xususan, Qozog'iston tashqi ishlar vazirining "Shartnomani uni imzolash tashabbusini birinchi bo'lib ilgari surgan O'zbekiston poytahtida tasdiqlangan", deb e'tirof etganini esga olaylik.

Davlatimiz rahbarlarining mazkur tashabbusi va imzolangan bu shartnomani xalqaro miqyosdagi ahamiyatini qo'yidagi misollar ko'rsatib turibdi. Mazkur jarayonni BMT Bosh kotibi MAGATE va

<sup>1</sup> Jaloliddin Safo. Milliy manfaatlari masalasiga yangicha yondoshuvlar. "Tafakkur" jurnali. 2011 yil. №3. 13-14betlar.

“yadroviy beshlik”qa a’zo mamlakatlar diqqat bilan kuzatib borgani va ushbu masalaga bag’ishlab BMT qarorgohida bir necha bor uchrashuv va maslahatlashuvlar o’tkazilgani. BMT Bosh kotibi shartnomani imzolash marosimi qatnashchilariga murojatnoma jo’natgani hamda boshqa misollar shular jumlasidandir. Biz uchun eng muhim, Markaziy Osiyoning yadro qurolidan xoli hududga aylanishi, yurtimiz, mintaqamiz uzra tinchlik, osoy ishtalik muhitini doimo barqaror bo’lib turishidir.

Mustaqil vatanimizning milliy manfaatlarini himoya qilishda Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan jarayonlar muhim o’rin tutadi. Shu bois mintaqaga muammolariga, yon atrofimizdagi voqealarga mamlakatimizda doimo alohida e’tibor bilan qarab kelimoqda. Chunki hozirgi vaqtida mintaqaviy muammolar nainki bir hudud hayoti, balki butun dunyo taqdirliga daxldordir. Xalqaro terrorizm, narkotrafik va global ekologiq muammolar ana shunday yalpi xatardir. Shu o’rinda ayrim siyosatchi va sayosatshunoslarning Markaziy Osiyo mintaqasini Bolqonga taqqoslashi xususida qisqa bir mulohazani aytib o’tmoqchimiz. Xususan, mashxur siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy “Buyuk shaxmat taxtasi” asarida Markaziy Osiyon “Yevroсиyo Bolqonlari” deb ataydi. Bunday qarash asossiz ekanini isbotlovchi omillar niroyatda ko’p. Birinchedan Markaziy Osiyoda tarihiy ildizlari, tili, dini, urf-odati va an’analari mushtarak va nixoyat yaqin xalqlar ming yillar davomida tinch-totuv yashab kelmoqda. Ikkinchidan, mintaqaga xalqlarining milliy tabiatni va harakteridagi bag’riqenglik, o’zaro hurmat ehtirom, mehi-oqibat fazilatlari chuqur ildiz otgan. Uchinchedan, sobiq ittifoqning yemirilishi arafasida qizil imperiyaning qo’li va 2010-yil iyun oyida uchinchi bir tomonning ig’osi bilan uyushtirilgan ayrim mojarolarni hisobga olmaganda, mintaqamiz xalqlari o’rtasida asrlar davomida nizo-janjallarning o’zi bo’lmagan. Bjezinskiy globallashuv jarayonlarida O’rta Osiyo xalqlarini endigina millat sifatida shakllanayotgan xalqlar deb ta’riflaydiqi, bu hatto izoh berishga ham arzimaydigan noto’g’ri fikr.<sup>1</sup>

O’tgan yillarga nazar tashlar ekanmiz, ushbu davr jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini bartaraf etish yo’lidagi chora-tadbirlar va yutuqlar bilan bir qatorda mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid soluvchi jug’rofiy siyosiy, mafkuraviy va etniq niqoblar ostida kechgan turli qarama-qarshiliklar, ziddiyat va mojarolarga ham boy bo’lganini ta’kidlash joiz. Ko’p qutbli dunyo, xalqaro xavfsizlikka doimiy ravishda bo’layotgan tahdidlar sharoitida O’zbekiston xalqaro siyosat, iqtisodiy va xavfsizlik borasida ilgari surgan tashabbuslar mintaqaviy va global strategik muvozanat hamda tinchlik osoyishtalik saqlab qolinishida muhim ahamiyat qasb etdi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Albatta, O’zbekistonning e’tirofga sazovor bo’layotgan sa’y-harakatlari shu bilan cheklanib qolmaydi. Bunga nufuzli xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlari va ekspert doiralari Afg’onistonda tinchlik va barqarorlikni o’rnatish, mintaqaviy xavfsizlik va osoyishtalikni ta’milash, terrorizm, narkoagressiya va diniy eksteremizm kabi tahidlarga qarshi kurash yo’lida mamlakatimiz rahbariyati olib borayotgan siyosat ham kiradi.

Sir emaski, O’zbekiston Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va strategik muvozanatni saqlash, uning manfaatlar to’qnashuvi va ziddiyatlar makoniga aylanishi oldini olishda turli mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar imkoniyatidan foydalanishga intilmoqda. Shu ma’noda, O’zbekistonning ShHT dagi raisligi doirasida ushbu mintaqaviy tashkilot va BMT o’rtasida 2010-yilning 5-aprel’ kuni “O’zaro hamkorlik to’g’risida”gi bitimning aynan Toshkent shahrida imzolanganiga alohida to’htalib o’tish joiz. Mamlakatimiz tashabbusi bilan imzolangan ushbu hujjat ShHTning xalqaro nufuzi yanada ortayotgani, uning global mojarolar, ommaviy qirg’in qurollari tarqalishining oldini olish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot va atrof-muhit muhofazasi muammolarini hal etishda alohida ahamiyat qasb etib borayotganidan dalolat beradi.

Siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik masalalarida O’zbekiston rahbariyati ilgari surayotgan tashabbuslar va amalga oshirilgan ishlari Respublikamizning mintaqaga va jahon miqyosidagi obro’-e’tiborini yanada orttirishi shubhasiz. Singapur moliya vazirining o’ribbosari Lim Xyu Xua 2010-yili Osiyo taraqqiyot banki boshqaruvchilari kengashi yillik majlisining MDH hududida birinchi bo’lib

<sup>1</sup> Ialoliddin Safo. Milliy manfaatlar masalasiga yangicha yondashuvlar. “Tafsikur” jurnali, 2011 yil, №3, 17-bet.

O'zbekistonda o'tkazilganini xalqaro moliya institutlarining mamlakatimizga ishonchi tobora ortib borayotgani belgisi deb atadi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog'lik hech qanday muammo O'zbekiston ishtirokisiz xal bo'lmasligini hamma biladi. Shu ma'noda, 2011-yil 24-yanvar<sup>1</sup> kuni Birinchi Prezidentmiz Islom Karimov Yevropa Ittifoqi (Yel) komissiyasi prezidenti J. Barrozo taklifiga binoan mintaqaviy xavfsizlik va ikki tomonlama hamkorlik masalalarini muhokama etish uchun Brysselga tashrif buyurgani hamda Yel va NATO rahbariyati bilan muzokaralar o'tqazgani diqqatiga sazovor. Yevropaning nufuzli ekspert doiralari O'zbekiston bilan Yel munobatlarida sifat jihatdan yangi hamkorlik bosqichi boshlanganiga alohida urg'u berdi.<sup>1</sup>

Umuman olganda O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda xalqaro hamjamiyatining to'laqonli a'zosi sifatida muvofsaqiyatlari tashqi siyosat olib bormoqda. Hozirgi kunda Xalqaro doirada shakllanayotgan siyosiy qarashlar O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tutgan o'mnini yuqori baholaydi. Darhaqiqat, mintaqadagi mavjud muammolarning konstruktiv yechimini topishda O'zbekiston ko'p qirrali tashqi siyosat olib bormoqda. Ushbu mintaqada xavfsizlikka tahdidlarning doimiyligi va kuchli davlatlarning manfaatlar to'qnashuvi sharoitida mustaqillikni asrab qolish va yanada mustahkamlashni davrning o'zi talab etmoqda. Bunda, Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi yagona umumxavfsizlik tizimini yaratish zaruriyat ekanligini anglab yetgan holda, ushbu tizimda mintaqaviy integratsiya g'oyasi yetakchi o'tin egallaydi. Bug'oyanining tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lib, uning samarali sa'y-harakatlari natijasida bu geosiyosiy makonda qafolatlangan xavfsizlik tizilmalari yaratilmoqda.

Kullas, O'zbekiston Markaziy Osiyo global siyosatning rivojlanish istiqbollarini ta'minlash, har tomonlama samarali xalqaro aloqalarni kuchaytirish bo'yicha g'oyatda qulay geostrategik mavqega ega ekanini ta'kidlash lozim. Yurtimiz qadim-qadimdan Yevropa hamda yaqin Sharqiy Janubiy-Sharqiy Osiyo bilan, Tinch okeani mintaqasi bilan bog'lovchi o'ziga xos chorraha vazifasini

o'tab kelmoqda. Shuningdek O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy etgan davlatlar bo'lish bilan birga nihoyatda boy, rang-barang tabiiy, iqtisodiy, ilmiy-intellektual, ma'rifiy-madaniy salohiyatga ham egadir. Ana shulardan kelib chiqadigan bo'lsaq turli yo'nalishlar bo'yicha xalqaro munosabatlarna yanada kuchaytirish mamlaktlararo va millatlararo munosabatlarni yangicha sharoitlarda rivojlantirish O'zbekiston uchun ham, Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham, dunyodagi boshqa davlatlar uchun ham har tomonlama manfaatlidir.

MOHT ning muhim vazifalari Markaziy Osiyoda xavfsizlik tizimlarini shakllantirish va integratsiya jarayonlarining rivojlanishi masalasida esa xalqlarimizni, ushbu mintaqada yashayotgan barcha odamlarni tashvishlantirayotgan muammolar, eng avvalo, ularning xavfsizligi, tinch va barqaror kelajagini ta'minlash masalalarini, jumladan transport-kommunikatsiya, suv-energetika, ekologiya va mamlakatimiz hamda xalqlarimizning manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa muammolarni hal etishni nazarda tutadigan umumiyy siyosiy platformani birgalikda ishlab chiqish lozim. Hammamiz bir narsani chuqur anglab olishimiz keraq-dedi Prezidentimiz, mintaqqa xavfsizligi muammolari har bir mamlakatda iqtisodiyotning, barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini ta'minlash bularning barchasi bizning kelajagimizga daxldor bir-biri bilan uzviy bog'lik bo'lgan masalalardir. Shu ma'noda "Markaziy Osiyo Hamkorligi" tashkilotining mintaqada ko'p tomonlama hamkorlikni amalga oshirishning muhim institutlaridan biri sifatidagi ahamiyati keskin oshmoqda. Bugungi kunda unga dunyoning yetakchi davlatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlarning qiziqishi ortayotgani bejiz emas. Xullas, davlatimiz rahbari, umumiyy bozorni joriy etish uchun uchta asosiy bosqichdan o'tish zarurligini ta'kidladi:

Birinchi bosqichda tariflarning yagona o'zaro moslashtirilgan va maqbul tizimini nazarda tutuvchi Bojxona ittifoqini shakllantirishga hamda transport-tranzit masalalarini hal etishga kirishish mumkin.

Ikkinci bosqichda muayyan choralarни qabul qilish asosida Erkin savdo zonasini yaratish to'g'risidagi mavjud bitimni real mazmun bilan to'ldirish imkoniyati vujudga keladi. Shu tariqa bu hujjat, nihoyat ishga tushishi va amaliy natijada berishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

<sup>1</sup> R.Nizomova. "Uchinchi sektor" va "Beshinchi hokimiyat", "Tafakkur" jurnali, 2011 yil, №2. 4-6 betlar.

Va nihoyat, uchinchi bosqichda biz Markaziy Osiyoning tom ma'nodagi umumiy bozorni ta'sis etishimiz mumkin. Ishonchim komilki, faqat "Markaziy Osiyo Hamkorligi" tashkilotigina Umumiy bozorni tashkil etishining asosi sifatida hizmat qilishi mumkin va hizmat qilishi shart, degan fikriga hamma qo'shiladi. Lekin buning uchun mavjud tuzilmalardan foydalanish imkoniyatlarini chuqur o'rganib chiqish ularning vakolatlarini belgilash va qarorlar qabul qilish tartibini aniqlash talab qilinadi.<sup>1</sup>

Ana shu tuzilmalar negizida yangi muvofiqlashtirish va boshqaruv organlarini shakllantirish mumkin. Biz Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda ishtirot etishni amalda intilayotgan davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining mexanizmini ishlab chiqishni tavsiya etamiz.

Umuman olganda Markaziy Osiyo Hamkorligi nafaqat bugungi o'tish davri mahsuli, balki jug'rosiy, tarihiy etniq va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojdir. Chunonchi, bu mamlakatlar jug'rosiy jihatidan bir-biriga yaqin va zinch joylashgan. Suv, elektr energetikasi va boshqa tabiiy omillar ham ularni bog'lab turadi. Qariyb 50 millionli aholi tarixan yagona uyg'unlashib ketgan dunyoqarash va an'analarga ega. Ularning har qanday siyosiy va iqtisodiy hamdo'stlikdan ham baland to'radigan qadimiy qadriyatlar bor. Ming yilliklar mobaynida shakllangan ma'naviy, madaniy ahloqiy, diniy va isoniy mushtarakligi ham mavjud.

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari o'rtaсидаги siyosiy hamkorlikning rivojlanishi va mustahkamlanishi haqida gapirilar ekan, bu borada O'zbekistonning alohida o'rin tutishini ta'kidlamoq kerak. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ushbu mintaqada rivojlangan, katta va boy ma'naviy va madaniy potensialga ega mamlakat hisoblanadi, shuning uchun ham u Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston o'rtaida, shuningdek butun Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlikning o'rnatilishida bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajarishi mumkin.

Agar Markaziy Osiyo mintaqasi haqida gapiriladigan bo'lsa, bu hududda yashovchi jami 50 million aholining teng yarmi O'zbekistonda istiqomat qiladi. Shu bois, O'zbekiston Markaziy

Osiyo mamlakatlari bilan qilinadigan hamkorliklarga yetakchi mavqega egadir.

Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorligining asosini iqtisodiy sohada xususan, tabiiy resurslardan foydalanishda xalqlarning umumiy sa'y-harakatlarini birlashtirish, ularning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, texnologiq salohiyatini yaqinlashtirish va shu orqali, har bir mamlakatning izchil rivojlanishiga, barcha xalqlarning moddiy farovonligi va madaniy darajasini oshirishga erishish kabi maqsadlar tashkil etadi. Ushbu vazifalarni hal etishning muhim sharti esa Markaziy Osiyo mintaqasida va boshqa Osiyo mamlakatlarida tinchlik va osoyishtalik, barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Tinchlik va osoyishtalikni ta'minlamay turib, barqarorlikqa erishmay turib, hech qanday islohatni amalga oshirib bo'lmaydi. Ana shu ma'noda Markaziy Osiyonidagi qurolidan xoli zona deb e'lon qilish to'g'risidagi tashabbus Osiyo mamlakatlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. Markaziy Osiyo davlatlari o'zining tashqi siyosiy hamkorliklari davomida Orol muammosini hal etish uchun mamlakatlar sa'y-harakatlarini umumlashtirishni ustivor yo'nalish deb hisoblaydi. Bu muammo bugungi kunda nafaqat Markaziy Osiyo uchun, balki butun insoniyat boshiga ham jiddiy xavf solib turibdi.

Xullas, birinchidan Markaziy Osiyo davlatlari Markaziy Osiyoda tinchlik va kollektiv xavfsizlikni, saqlash shu mintaqadagi mamlakatlar salohiyatini birlashtirish, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi harakatlari jahonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish uchun o'ta muhimdir.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlarining Markaziy Osiyodagi tinchliksevar tashqi siyosatining konstitutsion tamoyillari tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiq: shu hududdagi davlatlarning suveren tinchligi va chegaralar daxlsizligini xurmat qilish boshqa davlatlarning ichki ishlari aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini xurmatlashdan iboratdir.

Uchinchidan, Markaziy Osiyoning geosiyosiy holati undagi davlatlarning bir-biriga qarama-qarshi tashqi siyosati yuritilishidan zarar ko'radi. Buning oldini olish uchun mintaqaga davlatlari xalqaro muammolarga bo'lga yagona tizimli yechimlarni ishlab chiqishlari

<sup>1</sup> "Xalq so'zi" gazetasi. 2004 yil, 5 iyun.

va bu yechimlar tashqi siyosiy izchillik va ustivorlik tamoyili asosida qo'llab-quvvatlanishi zarur.

To'rtinchidan, Xalqaro munosabatlardagi, xususan Markaziy Osiyoga tegishli masalalarda tashkilotning a'zo davlatlari ShHTning mintaqaviy barqarorlik va rivojlanishga qo'shadigan hissasini yuqori baholaydilar.

Beshinchidan, KXShT ning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratishdagi ahamiyatini, hamda mintaqadavlatlari o'rtaida o'zaro uyg'un tashqi-siyosiy hamda harbiy-siyosiy munosabatlarning shakllanishi va barqaror qafolatlarning yaratilishi amaliy jihatidan samarali xavfsizlik tizimini barpo etishda hal qiluvchi rol o'ynashi shubhasizdir. Xullas, Markaziy Osiyo davlatlarining salohiyatini uyg'unlashtirish va mustahkamlash borasidagi harakatlari, jahonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish uchun o'ta muhimdir.

##### **5. Markaziy Osiyo Mintaqasini Yadro qurolidan holi zonaga aylantirishda O'zbekiston Respublikasining tashabbuslari**

Yadrosiz zonaning vujudga kelishi va rivojlanishi ba'zi davlatlarning tinchliksevar kuchlarining militarizmga qarshiligidir. Yadrosiz zona tuzish muammosi vujudga kelgandan hozirgi kungacha aniq evolyutsion yo'lini bosib o'tdi. Dastlabki yadrosiz zona tushunchasi asosan yadro qurollarining hududiy tarqalishini oldimi olishning vositasi bo'ldi. Keyinchalik 70-yillar boshiga kelib bunday qurollar harbiy harakatlarda ishlatalidigan bo'ldi. Hozirgi sharoitda bunday zona davlatlar o'rtaida o'zaro ishonchni mustahkamlashning muhim vositasi sifatida qaraladi:

Yadrosiz hudud qurollarning cheklanganligi, yadro ziddiyatlari vujudga kelishining havfsizlikning kamayishi vositasi bo'ldi. 1968-yilda yadro qurollarni tarqatmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi. Yadrosiz zona shunday hududki unda yadro qurollarini ishlab chiqarish, sinovdan o'tkazish va tarqatish taqiqlanadi.<sup>1</sup>

BMT Bosh Assambeliyasi yadro qurolidan xoli zonasini bu BMT tomonidan tan olingen istalgan zonadir. 1995-yil BMT Bosh Assambeliyasi yadrosiz zona tuzish bo'yicha masalalarni hal etish

uchun yer yuzining turli hududlariga bu muammoni kelib chiqishini o'rghanuvchi ekspertlar guruhini jo'natdi. Ular 3 ta guruhga mansub davlatlardir:

1-zonaga kiruvchi davlat;

2-yadro quroliga ega bo'lgan davlat;

3-boshqa davlatlar;

Yadrosiz hududdagi davlatlarning ba'zilari shartnomaga ko'ra ba'zi mulklaridan mahrum bo'ladi:

1-ularda yadrosiz maqomi to'lik o'rnatiladi;

2-bu zonadagilar yadro davlatlari bilan havfsizlik qafolatlarini oladilar;

Tahminiy hisob-kitoblarga ko'ra hozirgi kunda yadro qurolidan xoli zona yyer sharining 2/3 qismni tashkil etadi. Ularni yagona maqsad birlashtiradi. Bu maqsad yadro va eqalogiq haloqatlar tarqalishini to'xtatish. Yadro qurolining sinovdan o'tkazishning taqiqlashdir. Yadrosiz zona yaratish bo'yicha ilk bor BMT ni jalb etilishi ham ahamiyatlidir.<sup>1</sup>

Yadrosiz zona tuzishning shartnomaviy prinsiplari mavjud, shu bilan birga turli darajada ishlab chiqilgan tashabbuslar ham bor. Shartnomaga kirayotgan tomonlar quyidagi majburiyatlarni zimmasiga oladi:

1-yadro materiallari va vositalaridan tinchlik maqsadlarida foydalanadi;

2-o'z hududida yadro qurollarini sinovdan o'tkazishni, ishlab chiqarishni va foydalanishni taqiqlaydi;

3-o'z hududida yadro qurollarini olish, saqlash, o'rnatish va joylashni taqiqlaydi;

4-o'z hududida yadro qurollarini sinovini nazorat etadi;

5-yadro va yadrosiz davlatlar majburiyatları va javobgarligini, tengligini ta'minlaydi;

6-umumiyl qurollanish yutuqlariga qaratilgan o'zaro chora tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi;

<sup>1</sup> S.Jo'raev, O.Ahmedov, M.Rahimova. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. T. G'afur G'ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi. 2008 yil. 415-bet.

7-havfsizlikni yagonaligiga va tengligiga asoslangan prinsipga jiddiy bo'ysunadi;

8-yadrosiz hududga kiruvchi davlatlar yadro energiyasidan iqtisodiy- ijtimoiy maqsadlarda manfaat va ehtiyojlarda foydalanish dasturini ishlab chiqadi.

9-MAGATE doirasida yadrosiz hududdan yadro materiallarini, texnologiya va asbob-uskunalarni yetqazib berish;

10-aratashmaslik shartnomasini so'zsiz bajarish;

11-xalqaro transportirovqa jarayonida yadro materiallarining fiziq himoyasini ta'minlash (bu 1980-yilda yadro materiallarini fiziq himoya qilish to'g'risida konvensiya imzolangandan keyin boshlanadi).

O'zbekiston Respublikasi havfsizlikning ichki hududiy va global o'zaro munosabatlari va bo'linmaslik prinsipini qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston mustaqil davlatlardan birinchi bo'lib yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaga qo'shildi. 1993-yil sentyabrda BMT Bosh Assambeliyasining 48-sessiyasida Birinchi Prezident I.Karimov Markaziy Osiyoda yadro quroldidan xoli zona tuzish tashabbusi bilan chiqdi. prezidentning bu tashabbusi xalqaro jamoatchilikda ijobji qabul qilindi.

1996-yil 3 deqabrdagi Lissabondagi YeXHT davlatlari uchrashuvida shu tashabbus yana ko'tarib chiqildi. Uchrashuvda asosiy e'tiborni XXI asrda havfsizlikni yangi modellarini ishlab chiqishga, xalqaro va davlatlar barqarorligini ta'minlash uchun yangi yo'nalishlar ishlab chiqishga qaratdi. Markaziy Osiyoda YeXHT faoliyatini faollashtirish va Yevropa ittifoqi bilan aloqalarni kengaytirishga e'tibor qaratiladi. 1997-yil 15-sentyabrdagi Toshkentda "Markaziy Osiyo yadro quroldidan holi zona" mavzusida xalqaro konferensiya bo'ldi. Bunda ishtirokchilar e'tiborini Markaziy Osiyoda yadro quroldidan xoli zona tuzish dolzarb va muhim bo'lib qolganligiga qaratildi. Undagi barcha davlatlar ham yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaga qo'shilmagan edi. Ba'zi davlatlar bunga o'z e'tirozlarini bildirdi. Uchrashuvda ta'kidlandiqi Markaziy Osiyo, Lotin Ameriqasi, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Tinch Okeani hududi va Afriqadan keyingi 5-yadro quroldidan xoli zona hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining yadro quroliga munosabati O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasida ham o'z aksini topgan. Hususan uning birinchi bo'limida ta'kidlanganidek O'zbekiston yadrosiz prinsiplarni qo'llab-quvvatlaydi. Unga ko'ra O'zbekiston yadro qurollarini ishlab chiqarmaydi, joylashtirmaydi va tarqatmaydi. O'zbekiston hududida yadro qurolli sinovlarni o'tkazishni ta'qiqdaydi. O'zbekiston himiq, bakteriologiq va boshqa ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarmaydi. O'zbekiston Respublikasi kimyoviy qurollarni ta'qiqlovchi konvensiyaga qo'shiladi. Bakteriologiq qurollarni ta'qiqlovchi muammolar bo'yicha muzokaralar olib boradi. O'z qurolli kuchlari va harbiy bazalarini boshqa davlatlar hududiga joylashtirmaydi.

1997-yil 28-fevralda Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlari Almata uchrashuvida Almata deklaratsiyasini qabul qilishda unda yadro quroldidan xoli zona tuzish g'oyalari bir ovozdan maqullandi. Toshkent konferensiyasida 56 ta davlat va 16 ta xalqaro tashkilotlari va vakillari Markaziy Osiyoni yadrosiz hududga aylantirish g'oyalarni to'lik qo'llab-quvvatladи. Qirg'iziston vakillari Bishkekda bu masala bo'yicha xalqaro ekspertlar guruhi uchrashuvni o'tkazish taklifi bilan chiqdilar. Bu tashabbus konferensiya ishtirokchilari tomonidan ma'qullandi.<sup>1</sup>

1998-yil 9-10-iyunda Bishkekda Markaziy Osiyo davlatlari ekspertlarining konsultativ uchrashivi bo'ldi. Bu uchrashuv tarixga "5+5+ BMT" nomi bilan kirdi. Unda Markaziy Osiyoni 5 ta davlat vakillari "Markaziy Osiyo yadro quroldidan xoli zona" to'g'risidagi shartnomani asosiy loyihalari hujjati qabul qilindi. Markaziy Osiyoda yadro quroldidan xoli zona tuzish masalasi BMT ni Bosh Assambeliyasida bu rezolyutsiya loyihasi muhokama qilindi. Xalqaro shartnomaning imzolanishi yadrosiz zona maqomini rasmiylashtirdi. Bu shartnomada Markaziy Osiyoni yadrosiz hududga aylanishini mantiqiy yakuni bo'ldi. Shartnomaning asosiy maqsadi Markaziy Osiyoga yadro qurolini kirib kelishini har qanday shakllarini ta'qilashdir. Shartnomaga ko'ra davlatlar quyidagi majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar va ta'qilaydilar:

<sup>1</sup> "Markaziy Osiyo yadro quroldidan holi zona". Xalq so'zi gazetasi. 1997 yil.16-sentyabr, 1-bet.

- o‘z hududida yadro quroli sinovini ta’qiqlash;
- harbiy maqsadlarda yadro texnologiyalaridan foydalanish;
- yadro qurolini ishlab chiqarish va unga ega bo‘lish;
- yadro qurolini saqlash, joylashtirish va o‘z hududidan olib o’tish.

Markaziy Osiyoda yadrosiz hudud maqomining samarasi yadro davlatlarining bunga munosabatiga bog‘lik. Shu maqsadda bu shartnomaga qo‘shimcha sifatida 2 ta protokol tayyorlandi. Ularning birinchingisa ko‘ra Markaziy Osiyoga chegara davlatlar: Rossiya, Xitoy, Pokiston va Hindiston unga qo‘shildi. Ikkinci protokolda ta‘kidlanganki "yadro klub“ a‘zolari: Rossiya, Xitoy, AQSh, Angliya va Fransiya yadrosiz zona maqomini e‘tiborga olib bu hududda faoliyat olib bormaydi.

Bu protokollar yadrosiz hudud maqomining qafolati bo‘ldi. Markaziy Osiyoda yadrosiz hudud tuzishning foydasi shundaki, bu yadro qurollari tarqalish muammosini hal qiladi.

Yadro qurolini tarqatmaslik muammosi ommaviy qirg‘in qurolining yaratilishi bilan global muammo sifatida ko‘tarila boshlandi. Tarqatmaslik - yadro quroliga ega bo‘lgan yangi davlatni paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va uni oldini olishdan iborat. Yadro quroliga ega bo‘lgan yangi davlatni paydo bo‘lishini oldini olishning muhimligi 60-yillarda AQSh, SSSR, Angliya va Fransiyaning Yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlar sifatida shakllanishi bilan anglashila boshlandi. Bu masalada Xitoy ham ular safiga qo‘shilishga tayyor edi. Bu davrda Irlandiya yadro qurolini tarqatmaslikning xalqaro huquqiy hujjatini ishlab chiqish tashabbusi bilan chiqli. SSSR, AQSh, shuningdek Angliya yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomani (YaQTSh) ishlab chiqarishga kirishi va uning saqlovchilari bo‘lishdi. Xitoy va Fransiya bir necha o‘n yildan keyin bu shartnomaga qo‘shildi. YaQTSh beshta yadroviy davlatga quyidagi majburiyatlarni berdi:

- Yadro quroliga ega bo‘limgan hech bir davlatga buni bermaslik va ular ustidan qattiq nazorat o‘rnatish;
- Yadro quroliga ega bo‘limgan davlatga uni yaratishga yordam bermaslik.

- Yadro quroliga ega bo‘limgan hech bir davlatga MAGATE ning qafolatisiz yadro qurolini yaratishga asos bo‘ladigan materiallarni bermaslik.

- Atom energiyasidan tinchlik yo‘lida foydalanish bo‘yicha xalqaro hamkorlikka qo‘maklashish va yadroviy qurolsizlanish bo‘yicha muzokaralarni muntazam olib borish.

Yadro quroliga ega bo‘limgan YaQTSh ga a‘zo bo‘lgan tahminan 180 ta davlatga ushbu shartnomaga yadro quroliga ega bo‘lmaslik, uni qo‘lga kiritmaslik va qayta ishlamaslik, hamda atom energiyasidan faqat tinchlik yo‘lida foydalanishlik bo‘yicha MAGATE ning qafolatini majburiy qildi. Dunyoda yuqoridagi Shartnomaga a‘zo bo‘limgan, biroq yadroviy faoliyat olib boruvchi to‘rtta davlat mavjud.<sup>1</sup> Bular Isroil, Hindiston, Pokiston va Kubadir.

1991-yilning ohiriga kelib Sovet Ittifoqining parchalanib ketishi bilan xalqaro munosabatlardan tarihida, shuningdek yadro qurolini tarqatmaslik sohasida ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. BMT Havfsizlik Kengashining doimiy a‘zosi va katta hajmdagi yadro quroliga ega bo‘lgan davlat parchalandi. Ma‘lum vaqtidan keyin Rossiya Federatsiyasi yadroviy huquqiy xolat yuzasidan SSSRning qonuniy vorisiga aylandi va yadro qurolini tarqatmaslik bo‘yicha xalqaro tuzumning asosiy hujjati bo‘lgan -YaQTX bo‘yicha barcha huquq va majbo‘riyatlarni o‘z bo‘yniga oldi. Shu bilan birga, SSSRning parchalanishi tarqatmaslik borasida yangi jiddiy havflarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Iqtisodiy inqiroz, boshqaruv tizimining zaiflashuvi, jinoyatchilikpiig avj olib ketishi, jamiyatdagि ruhiy tushkunlik va shu kabi biologiq, himiyaviy va yadroviy qurolsizlanishning davom ettirishni majbur qiluvchi xodisalar AQSh Mudofaa Vaziri Donald Ramsfeldning ta‘kidlashicha, Rossianing Ommaviy qirg‘in quroli va uning tayyorlanishi uchun kerakli bo‘lgan materiallarni dunyoga tarqatuvchi davlatga aylanishiga olib keldi. Bugungi kunda Rossianing tarqatmaslik masalasidagi G‘arb tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Yadro va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslik tizimining muhim tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

<sup>1</sup> WWW.nti.org.

Quroq-aslaha materiallarining himoya qilinishi va ular eksportini doimiy ravishda nazorat qilish tizimi:

Akd-idroqli insonlarning kamayishini oldini olish tizimi;

OQQ va materiallarining saqlashda havfsizlikning ta'minlanishi;

Yadro va boshqa OQQ hamda ularning materiallarining sotilishini va noqonuniy aylanmasini oldini olish.

Tarqatmaslik tizimining mustahkamlashning muhim elementi, bu sohada g'arbning MDH davlatlariga mashhur Nanna-Lugara dasturi misolida ko'rsatayotgan yordamidir.<sup>1</sup> 2002-yil iyunda Qanadada bo'lib o'tgan yirik sakkizlik a'zo davlatlarning sammitida OQQ va xalqaro terrorizmdan kelib chiquvchi bir-biriga qarshi o'zaro havflarga qarshi kurash bo'yicha muhim qarorlar qabul qilindi. Shuningdek OQQ va ularning materiallarini tarqatishga qarshi saqkizlikning global hamkorligini tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. A'zo davlatlar OQQ ni terroristlarning qo'liga tushib kolishini oldini olish tashabbusini ilgari surdi. «sakkizlik» liderlarinish qo'shma bayonotida «terroristlar yoki ularni yashirayotganlarning yadroviy, himiyaviy, yoki biologiq ommaviy quroliga ega bo'lislilarini» oldini olishga tayyor ekanliklarini ta'kidladilar.

Yuqoridagi maqsad yuzasidan boshqa davlatlar ham qo'shilishi mumkin bo'lgan quyidagi oltita tamoyil qabul etildi: 1) quroq, material, texnologiyalarning tarqalishini oldini olishga qaratilgan ko'p tomonli shartnomalarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishiga ko'maklashish;

2.Yuqorida ko'rsatilgan materiallar va texnologiyalarning havfsizligini va ro'yhatga olinishini ta'minlash;

3.Obyektlarning himoya qilinishida tashkilotlarga yordam berish;

4.Yuqorida ko'rsatilgan predmetlarning noqonuniy aylanmasini ta'qilash borasida davlatlarga yordam berish;

5.milliy eksport va yuklarni tushirishda kuchli nazoratni amalga oshirishiga qo'maklashish;

6.yadroviy, himiyaviy va biologiq qurollarga zarur bo'lgan materiallar zahirasini boshqarish va ularni yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilish.

Global hamkorlikning muhim jihatlari tajribalaridan foydalanish va mayjud dasturlarni, hususan, Havflarni birgalikda qamaytirish bo'yicha dasturni kengaytirish. AQSh yuqoridagi dastur bo'yicha 1992-yildan e'tiboran, Rossiya va sobiq SSJI davlatlariga 7 milliard dollar ajratdi. 90-yillar boshlarida Markaziy Osiyodagi beshta yangi davlat o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritganlardan keyin, ular oldida, ularga meros bo'lib o'tgan OQQ taqdirini hal etish uchun dastur va yo'nalishlarni ishlab chiqarish vazifasi to'rar edi. Hozirgi paytgacha ular tomonidan olib borilayotgan qurolsizlanish va tarqatmaslik sohasidagi faoliyatlar AQSh ning havflarni birgalikda qamaytirish dasturi asosida moliyalashtirilmoqda. Ohirgi o'n yil mobaynida mintaqqa davatlari bu sohada muayyan yutuqlarni qo'lga kiritdi. 2004-yil yozida O'zbekiston Respublikasida «Eksport nazorati to'g'risida» gi qonunni qabul qildi. Bunda mamlakat OQQ ni tarqatmaslik bo'yicha ilgari qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarilishini ta'minlashga chaqirilgan. Davlatlar tomonidan qonunga muvofiq amalga oshiriladigan eksport nazorati ushbu mamlakatlardan chiqayotgan yadroviy, biologiq, himiyaviy qurollarni yaratish uchun ishlatiladigan hom ashyolar, asbob-uskunalarga, ilmiy-tehnikaviy axborotlarga va intellektual faoliyatlarning natijalariga tatbiq qilinadi. Ohirgi paytlarda bunga o'xshash qonunlar barcha Markaziy Osiyo davlatlarida qabul qilingan.O'tgan davrda Markaziy Osiyo davlatlari OQQ uchun kerakli bo'lgan materiallarning havfsizligini ta'minlashda ulkan yutuqlarga erishdilar. Biroq bu materiallarning o'g'irlanishidan va ko'chirilishidan himoya qilish borasidagi havf hali hanuz saqlanib qolmoqda. Bu tashvishlar ayniqsa 2001-yil 11-sentyabr AQSh gi voqealardan keyin, Markaziy Osiyo davlatlarining terroristik tashkilotlar («Al-Qaida») bilan aloqalikda gumon qilinayotgan davlatlarga yaqin bo'lgan terroristik guruhlarning mavjudligi sababli yanada ortdi. OQQ ga ega bo'lislarga intilganlarning maqsadi yuqori darajada boyitilgan uran va plutoniyni qo'lga kiritishdan iborat bo'lgan. Mintaqada OQQ uchun materiallarning mavjudligidan ko'ra havfliroq bo'lgan omil boshqa mamlakatlardan keltirilayotgan

havfli materiallarni olib o'tishda Markaziy Osiyodan koridor sifatida foydalanishga urinishlardir. Bunday materiallarning katta zahirasi Markaziy Osiyo davlatlarining shimoliy qo'shinlarida-Rossiya va Ukrainada mavjud ayni paytda ayrim janubiy qo'shinlari OQQ ni qo'lga kiritishga intilmoqda. Moliyaviy vositalarning va kerakli asbob-uskunalarining yetishmasligi, shuningdek malakaviy qadrlarning ozligi tashkilotlarning davlatlar hududi orqali materiallarni olib o'tishda eksport va chegara nazoratini amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining hukumatlari eksport ustidan nazorat o'rnatish tizimini mustahkamlashning muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunib yetmoqda. AQSh mintaqada chegara va eksport nazoratini amalga oshirish hizmatlariga radioaktiv ko'rsatkichlar, transport vositalari, kompyuterlar yetqazib berish, shuningdek qadrlarni tayyorlash borasida ko'mak bermoqda. Mintaqaga ichida va uning tashqarisida ommaviy qirg'in qurollarini tarqalishini samarali shaklda oldini olish chegara va eksport nazorati tizimi masalalari davomli shaklda diqqat markazida bo'lqandagina mumkin bo'ladi. Diplomatik lug'atda yadrosiz zona haqida qo'yidagi ta'rifni keltiriladi. "Yadro qurolini joylashtirishdan xoli bo'lgan zonalarni tashkil etish yadroviy ziddiyatlarni paydo bo'lish imkoniyatini ozaytiradi, unga kiruvchi mamlakatlarning havfsizligini mustahkamlaydi. 1968-yilgi yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomalarni amalga oshirish uchun hizmat qiladi". Yadrosiz zona, manfaatdor davlatlar tomonidan yadro qurolini ishlab chiqarish, sinash va joylashtirishni man etuvchi xalqaro hujjatni imzolanishi bilan rasmiy shaklda e'lon qilingan hamda bu hududda va bu hududga qarshi yadro qurolini qo'llash ta'qiqlangan va BMT tarafidan e'tirof etilgan hududdir. Hozirgi davr sharoitida yadro qurolidan xoli zona, xalqaro havfsizlikni va davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashning muhim elementlaridan biri deb hisoblanmoqda. BMT Bosh Assambleyasini tomonidan yadro qurolidan xoli zonaning belgilanishi va mustaqil davlatlarning unga erkin kirishi BMT Bosh Assambleyasini tomonidan chiqarilgan "Bitim va konvensiya" asosida amalga oshiriladi Bunday bitim «yadro qurolini butunlay

Aytib o'tish mumkinki 2008-yil aprel oyidagi O'zbekiston rahbarining Olmotaga tashrifi davomidagi ikki davlat rahbarlarining uchrashuvi ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uchrashuv davomida hech qanday muhim bir hujjatlar imzolanmagan bo'lsada, unda har iqqala tomonni qiziqitradigan muhim masalalar bo'yicha muzokaralar bo'lib o'tdi. Jumladan unda Prezidentimiz Markaziy Osiyo Hamkorligini mustahkamlash yuzasidan o'z fikrlarini bildirdi va albatta bu mulohazalar Qozog'iston Prezidenti tomonidan ham qo'llab quvvatlandi.

Shuningdek uchrashuvda kunning ikkinchi masasi, Markaziy Osiyo suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha hukumatlararo Konsorsium faoliyatini tashkil etish masalasi muhoqama etildi. Ma'lumki O'rta Osiyo xalqlari azaldan o'troq dexqonchilik bilan shug'ullanib keladilar. Hozirgi kunda ham mintaqada suv resurslaridan oqilona foydalanish muhim hayotiy ahamiyat qasb etadi. Shuni hisobga olgan holda har ikki davlat bu g'oyani qo'llab-quvvatladilar.

Mustaqilligimizning ilk yillarda vujudga kelgan sharoitga asoslanib Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan 1994-yil 10-yanvarb kuni Toshkentda bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtafidagi yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish o'rtafidagi shartnoma imzolangan edi. Fan va maorif, sog'likni saqlash, madaniyat, sayohatchilik va sport sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish to'g'risidagi hukumatlararo bitimlar ham imzolandı. Yuqorida qayd etilgan shartnoma O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtafidagi tovarlar hizmatlari, qapital, ish kuchining erkin harakatlarini, bahamjihat kredit-hisob kitob, budget, solik, narh bojxonasi va valyuta siyosatini o'tkazishni qo'zda tutadi. Keyinchalik esa bu shartnomaga Qirg'iziston ham qo'shildi.

Shuningdek 1997-yil 2-iyuyeda ikki davlat o'rtafdida erkin sado munosabatlarini o'rnatish haqidagi kelishuv imzolandi. Bu bitim yuzasidan davlatlar o'rtafidagi solik, bojxona, davlatdan-davlatga

chiqish-kelish va boshqa bir qator munosabatlar qaytadan ko'rib chiqildi va bu borada bir qator qulayliklar joriy etildi.<sup>1</sup>

Eksport qilinadigan tovarlar asosini paxta xom ashyosi, avtomobil va avtomobil ehtiyyot qismlari, himiya sanoati mahsulotlari, rangli va rangsiz metall hamda undan tayyorlanayotgan mahsulotlar, oziq-ovqat mahsulotlari va bir qator hizmatlarni tashkil etsa, import asosini qora va rangli metall, neorganiq himiya sanoati tovarlari, mashina extiyot qismlari, un-don mahsulotlari, neft xom ashyosi va boshqa turdag'i tovarlar tashkil etadi. Shuningdek aksiz solig'iga ega bo'lgan tovarlar (tamaki va spirt mahsulotlari) ham eksport-import qilinadi.

Keyingi yillardagi natijalar shuni ko'rsatmoqdaki O'zbekiston va Qozog'iston o'rtafdagi iqtisodiy aloqalar yildan-yilga o'sib, mustahkamlanib bormoqda. Tovar ayriboshlash hajmi 2001-yildagi ga nisbatan 2008-yil boshlarida qariyb 65 foiz oshdi. Eksport hajmi esa 2,3 barobarga oshdi. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida Qozog'iston qapitali asosidagi 167 ta korxona, firma, va kompaniyalar faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 40 tasi 100 foiz qozoq qapitali asosida tashkil etilgan bo'lsa, 90 tasi sherikchilik asosidagi qo'shma korxonalaridir.

O'z navbatida, O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiya vazirligi tomonidan Qozog'iston hududida faoliyat yuritayotgan 94 ta tadbirkorlik subektlari ro'yxatdan o'tkazilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikalari o'rtafdagi munosabatlar o'zaro imzolangan 116 ta xalqaro huquqiy normativ hujjatlar orqali tartibga solindi.

**O'zbekiston-Ukraina aloqalari.** Ukraina davlati bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtafdida o'zaro keng aloqalar o'rnatilgan. Ikki davlat o'rtafdagi diplomatiq munosabatlar 1992-yil 25 avgustda o'rnatilgan bo'lib Ukrainianing O'zbekistondagi rasmiy vakolatxonasi Toshkent shahrida 1993-yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda. O'z navbatida Ukrainianing Kiyev shahrida O'zbekiston Respublikasi elchixonasi 1995-yildan o'z faoliyatini boshlagan. Iqqala davlat rahbarlarining 9-marta oly darajadagi o'zaro uchrashuvlari bo'lib o'tgan:

<sup>1</sup> WWW.GOV.UZ. Сотрудничество Ўзбекистана со страной СНГ.  
155

- 1992-yil 25 avgust 1994-yil 10-11-noyabr kunlari, 1998-yil 18-20-fevral kunlari, 1999-yil 8-9-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Ukrainaga rasmiy tashrifi.

- Ukraina Prezidenti Leonid Kuch'maning 1995-yil 20-21-oktyabr kunlari, 2000-yil 12-13-oktabr kunlari, 2002-yil 19-20-deqabr kunlari, 2003-yil 10-11-aprel kunlari bo'lib o'tgan Toshkent uchrashuvlari, hamda Ukraina Prezidenti V.Yushenkonning 2006-yil 28-noyabrdagi Minsk uchrashuvi.

Shuningdek 1991-yilda Ukraina Oliy kengashi raisi L.Kravchuk boshchiligidagi Ukraina delegetsiyasining Toshkentga tashrifi. Hukumatlaraaro komissiyaning navbatdagi yettinchi yig'ilishi doirasida O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri Sh.Mirziyoyevning Kiyevega tashrifi, hamda Ukraina Bosh Vaziri V.Yanukovichning 2007-yil 25-26-aprel kunlari Toshkentga tashrifi va shu o'tasidagi 16 avgust kuni Rossiyaning Sochi shahridagi ikki davlat o'tasidagi savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha O'zbekiston rasmiylari bilan uchrashuv ham davlatlar o'tasidagi o'zaro munosabtlar rivojida muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston va Ukraina o'tasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlар “1999-2008-yillarga mo'ljallangan loyihasi” asosida yo'lga qo'yilgan. Ikki davlat o'tasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar erkin tizim asosida shakllantirgan.<sup>1</sup>

Davlatlarning o'zaro savdo aloqalari hajmi 2007-yilda 2006-yilga nisbatan 446,4 mln dollardan oshib ketdi umumiy miqdorda 1059,7 mln AQSh dollarni tashkil etdi.

Eksport muhitini avtomobillar va ularning ehtiyyot qismlari, neftni qayta ishlash mahsulotlari, rangli va rangsiz metall, paxta xom ashyosi va turli to'rdagi tovarlar savdosи tashkil etadi. Import mahsulotlarini esa rangli va rangsiz metall va ulardan ishlangan ishlammalar, transport ehtiyyot qismlari, mexaniq va elektrotexnika vositalari hamda farmatsevtika mahsulotlari tashkil etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan Ukraina qapitali bilan faoliyat yuritayotgan 13 firma va korxonalar rasmiy ro'yxatga olingan. Bu

kompaniyalar asosan rangli va rangsiz metall mahsulotlar ishlammalari ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mashinasozligi, aviatsiya yuk tashish hizmati va boshqa bir qator sohalarda faoliyat yuritishadi. Ikki davlat o'tasidagi keng hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha 1997-yilda davlatlarning Bosh vazirlari boshehilik qiladigan Komissiya faoliyatini yo'lga qo'yilgan. Bugungi kungacha ushbu Komissiyaning 7-marta umumiy yig'ilishi bo'lib o'tgan (Ohirgisi 2007-yil 12-16-fevral kunlari Kiyev shahrida bo'lib o'tgan).

Hozirda Ukraina va O'zbekistoon o'tasidagi hamkorlik aloqlari o'zaro imzolangan 149 ta nomativ hujjatlar orqali yo'lga qo'yilgan.

**O'zbekiston-Turkmaniston hamkorligi.** O'zbekiston va Turkmaniston o'tasidagi diplomatiq munosabatlari 1993-yil 7-yanvardan e'tiboran o'rnatilgan bo'lib, bunday munosabatlari ikki davlat rahbarlarining o'zaro uchrashuvlari orqali yanada mustahkamlangan. 1991-2008-yillar davomida tomonlar rahbarlarining 6 marotaba oly darajadagi o'zaro tashriflari amalga oshirilgan (1996, 2000, 2007-yillarda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Turkmanistonga rasmiy tashrifi va 1996, 2004-yillarda Turkmaniston Prezidenti Saparmurod Niyozovning hamda 2008-yilda Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning O'zbekistonga rasmiy tashrifi). O'zbekiston va Turkmaniston o'tasida Tashqi siyosiy va mudofa masalalarida faol munosabatlari yo'lga qo'yilgan. Keyingi yillarda ikki davlat o'tasidagi aloqalar yanada mustahkamlanib bormoqda. Buning isboti sifatida shuni aytish mumkinki 2002-yildan keyin o'tgan muddat ichida 54-marta o'zaro tashriflari amalga oshirilgan. Shuningdek 2007-yil 9-yanvarda MDH davlatlari rahbarlarining Sankt-Peterburg shahridagi norasmiy yig'ilishi doirasida O'zbekiston va Turkmaniston presidentlarining ikki tomonlama uchrashuvi ham davlatlar o'tasidagi aloqalar caviyasini mustahkamlashga hissa qo'sha oldi. Uchrashuv davomida davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy muammolarni muhokama qilish barobarida ikki davlat o'tasidagi erkin munosabatlari rivoji xususida fikr muloxazalarini bildirdilar.

Bu uchrashuvuvning davomi sifatida 2007-yil 18-19-oktyabr kunlari Turkmanistonga tashrif buyurgan O'zbekiston rahbari

<sup>1</sup> WWW.GOV.UZ. Сотрудничество Ўзбекистана со стран СНГ.  
156

davlatlar o'rtasidagi bir qator manfaatli kelishuvlarini imzoladi. O'z navbatida bu uchrashuv ham tomonlar iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorligini yangi pog'ona ko'tara oldi. Shuningdek 2008-yil mart oyida Turkmaniston rahbarining Toshkentga tashrif ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda tomonlar hamkorligining yangi qirralarini ochish masalasi muhokama qilindi. Davlatlar fuqarolarining qo'shni davlat hududiga kirish-chiqish masalasi va davlatlar iqtisodiy hamkorligi borasida bir qator yangi kelishuvlar imzolandi. Chonchi davlatlar chegara hududi va unga yaqin hududlardagi istiqomat qiluvchi aholining qo'shni davlat hududiga erkin kirish-chiqish tizimi o'rnatildi.

1996-yilda ikki davlat o'rtasida uzoq davrga mo'ljallangan Savdo-iqtisodiy hamkorlik kelishivi o'rnatilgan. O'zaro iqtisodiy munosabatlar shu kelishuv doirasida amalga oshirilib, yildan-yilga kengayib bormoqda.

2007-yilda Turkmaniston va O'zbekistonning savdo aloqalari hajmi 88,3 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. O'zbekistondan Turkmanistonga eksport qilinadigan asosiy mahsulotlar turizm, kommunikatsion aloqa, taransport aloqasi hizmatlari, tamaki mahsulotlari, don va don mahsulotlari, mexaniqa vositalari, himiya sanoati, alqagol va alqagolsiz ichimliklar, transport vositalari, yog'moy sanoati mahsulotlari, rangli va rangsiz metall va ulardan ishlangan mahsulotlar, optiq apparaturalar, oynasiz buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlaridan savdosidan iboratdir.

O'z navbatida Turkmaniston O'zbekistonga plastmassa va plastmassadan ishlangan tayyor mahsulotlar, transport, kommunikatsion aloqa hizmatlari, mineral xom ashyolar, noorganiq himiya mahsulotlari poliz va turli oziq-ovqat mahsulotlari kabi tovarlar import qilinadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida 2 ta Turkmaniston qapitali asosida faoliyat yurituvchi korxonalar mavjud. Ular asosan qurilish mollari ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Turkmanistonda esa O'zbekiston investorlarining 4 ta korxonasi faoliyat yuritmoqda. O'zaro iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida 1996-yildan e'tiboran O'zbekiston va Turkmaniston Respublikalarining iqtisodijiy hamkorlik masalalari bo'yicha Hukumatlararo Komissiya faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mazkur Komissiyaning 3 marotaba

yuqori darajadagi umumiyligi yig'ilishi bo'lib o'tgan. Ohirgi kengash 2008-yil 31-yanvar-2-fevral kunlari Ashxabod shahrida bo'lib o'tgan. Aynan shu kunlari Ashxabodda O'zbekiston ishlab chiqaruvchi larning milliy ko'rgazmasi namoyish etildi. Unda 130 dan ortiq O'zbekistonning ishlab chiqaruvchi firma va korxonalari ishtirot etdi. Bu ko'rgazma o'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga katta hissa ko'sha oldi deb aytish mumkin. Ko'rgazma davomida ikki davlat o'rtasida 2008-2012-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik kelishivi imzolandi.

Ikki davlat o'rtasidagi Transport aloqalari ham muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda O'zbekiston Seraxs orqali o'z tovarlarini Eron va Old Osiyo mamlakatlariiga olib chiqadi. Bunda Turkmaniston hududidan o'tuvchi temir yo'l tarmoqlarining ahamiyati juda muhimdir.

O'zbekiston va Turkmaniston Respublikalari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro imzolangan 100 dan ortiq xalqaro normativ hujjat va kelishuvlar bilan tartibga solib turiladi.

**O'zbekiston va Tojikiston hamkorligi.** Tojikiston O'zbekiston bilan diplomatiq va siyosiy aloqalarni 1992-yil 20-oktyabrda o'rnatgan. 1998-yilda esa O'zbekiston, Tojikiston va Rossiya o'rtasidagi har tomonlama hamkorlik qilish bo'yicha uch tomonlarma Deklaratsiya imzolangan.

O'zbekiston Tojikiston munosabati, o'zaro aloqalar 2000-yil 15-iyun kuni Dushanbe shahrida imzolangan Abadiy do'stlik to'g'risidagi kelishivi asosida yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston rahbari birinchilardan bo'lib Tojikistondagi tashvishli xodisalarni xalqaro muammo sifatida ko'targan edi. 1992-yilning 7-sentyabr kuni Islom Karimov ayni shu masala bo'yicha BMT Bosh kitobi Butros G'oliv Janoblariga maktub yo'llab, masalani o'rganish va tinch yo'l bilan hal etish choralarini ko'rish kerakligini ta'kidlagan edi.

2000-yil oktabr oyida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov rasmiy tashrif bilan Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida bo'ldi. Bu uchrashuv mamlakatlar aloqalari saviyasini mustahkamladi. Shuningdek 2002 hamda 2004-yillarda "Markaziy Osiyo" Hamkorligi Tashkilotining Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan

kengashlari davomida ham Tojikiston hamda O'zbekiston rahbarlarining o'zaro uchrashuvlari bo'lib o'tdi.

O'z navbatida Tojikiston Prezidenti Imomali Raxmon 2001-yil 27-28 deqabrb kunlari O'zbekistonga rasmiy tashrifi davomida, shuningdek 2004-yil may oyida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining navbatdagi Toshkent uchrashuvi davomida O'zbekiston rahbari bilan ikki tomonlama muzokaralar bo'lib o'tdi. 2005-yil fevral oyida esa Tojikiston Bosh vaziri O.Oqilovning Toshkent shahrida rasmiy tashrifi amalga oshirilgan. Ikki davlat o'rtaсидаги savdo-iqtisodiy aloqalar 1996-yil Toshkentda hukumat rasmiylari tomonidan imzolangan erkin savdo munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi kelishuv orqali tartibga solinadi.

O'zbekiston asosan Tojikistonga gaz va nest mahsulotlari, savdo hizmatlari (transport, kommunikatsion, marketing), qurilish materiallari, rangli va rangsiz metall hamda ulardan ishlangan mahsulotlar, shuningdek turli hildagi oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilsa, o'z navbatida Tojikistondan O'zbekistonga elektroenergiya, savdo hizmatlari (transport, kommunikatsion), mexaniq vositalari va boshqa turdag'i tovarlar import qilinadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 19 ta tojikiston firma va korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 17 tasi ko'shma korxona hisoblansa 2 tasi 100 foiz Tojikiston investitsiyasi asosida yo'lga qo'yilgan. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan esa 7 ta tojiq firma va komponiyasi akkredetatsiya ro'yxatidan o'tkazilgan. Tomonlar munosabatlarini mustahkamlash maqsadida 1997-yil Hukumatlararo savdo-iqtisodiy munosabatlar bo'yicha Komissiya faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning vazifasi o'zaro aloqalar natijalari va kelajakdag'i munosabatlar muhitini ishlab chiqishdan iborat. Xuddi shu masala yuzasidan har yili Hukumat rasmiylarining uchrashuvi o'tqazib turiladi. Unda o'zaro fikr-mulohazalar muhofaza qilinadi.

Hozirgacha ikki davlat o'rtaсида 155 ta xalqaro huquqiy- normativ hujjatlar imzolangan bo'lib, yuqorida aytib o'tganimizdek ularning asosini 2000-yil 15-iyundan imzolangan Abadiy do'stlik xaqidagi shartnoma tashkil etadi.

O'zbekiston-Qirg'iziston aloqalari. O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikalari o'rtaсидаги diplomatiq aloqalar 1993-yil

16-fevraldan boshlab o'rnatilgan. Ikki davlat rahbarlarining 6-marta o'zaro oliy darajadagi uchrashuvlari bo'lib o'tgan (1994-yil yanvar va 2000-yil sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning Qirg'iziston poytaxti Bishkek shahriga rasmiy tashrifi hamda 1992-yil sentabr, 1996-yil deqabr, 1998-yil noyabr, 2006-yil oktabr oyida esa Q.Bekiyevlarning O'zbekistonga rasmiy tashrifi). Shuningdek 2005-yil oktabr oyidagi ikki davlat rahbarlarining Peterburg uchrashuvi, 2006-yil iyul oyidagi Moskva uchrashuvlari ham muhim ahamiyatga egadir. Davlat rahbarlarining bunday o'zaro uchrashuvlari ikki davlatning aloqalarini yanada boyitishga hizmat qiladi. Ayniqsa, 2006-yilning 3-4-oktabr kunlari Qirg'iziston Prezidenti Q.Bekiyevning O'zbekistonga tashrifi davomida tomonlarning mansaftalariga hizmat qiluvechi bir qator soydali kelishuvlar imzolangan edi. Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtaсидаги siyosiy aloqalar qalin do'stlik munosabatlari bilan mustahkamlangan. Birgina misol sifatida shuni aytish mumkinki Qirg'iziston tomoni ayrim g'arb davlatlarining ziddiyatiga qaramasdan Andijon voqealari yuzasidan O'zbekiston tomonining pozitsiyasini qo'llab-quvvatladi va bu masala yuzasidan O'zbekistonga bevosita yordamini ayamagan edi. Ikki davlat o'rtaсида bevosita chegaraning mavjudligini hisobga olgan holda uyushgan jinoyatchilik, narkobiznes, diniy eksteremizm va terrorizm kabi xavf hamda yovlarga qarshi birgalikda kurashish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Harbiy kuchlarning birgalikda o'quv mashg'ulotlari tez-tez o'tkazilib to'riladi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarning bunday o'sib borishi quvonarli bo'lsa, ikki davlat iqtisodiy salohiyati va potensialini hisobga oladigan bo'lsak bu ko'rsatkichlarning talab darajasiga javob bermasligini aytib o'tish zarur. Faqatgina 2007-yilga kelibgina iqtisodiy munosabtlarda o'sish ko'zatila boshladi.

1996-yildan boshlab Hukumatlararo Komissiya faoliyat yuritib kelmoqda. Bu Komissiyaning faoliyati davlatlari o'rtaсидаги munosabatlarni muvofiqlashtirib turadi, hamda aloqalarning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Komissiyaning 7-marta umumiy yig'ilishi bo'lib o'tgan. Bugungi kunda O'zbekiston-Qirg'iziston munosabatlari o'zaro o'rnatilgan 213 ta xalqaro huquqiy hujjat (shartnoma, kelishuv, bitim)lar orqali tartibga solib

turiladi. Ularning eng asosiysi 1996-yil 24 deqabrdagi imzolangan Abadiy do'stlik haqidagi kelishuvdir.

**O'zbekiston-Belorusiya aloqalari.** O'zbekiston Respublikasi va Belorusiya Respublikalari o'rtaсидаги diplomatiq munosabatlar 1993-yil 21-yanvarda o'matildi. Toshkentda 1994-yilden boshlab Belorusiya elchixonasi faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasidagi muxtor elchisi Belorusiya tomonidan o'rindosh asosida elchi sifatida akkredetatsiya qilingan. Tomonlar rasmiylarining 32 marotaba o'zaro tashrifsi doirasidagi yuqori darajadagi uchrashuvlari bo'lib o'tgan.

1994-yil 22 deqabrdagi O'zbekiston va Belorusiya o'rtaсида Madaniy Hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, 1995-yil 21-fevralda esa "O'zbekturizm" va Belorusiya "Beliturist" ochiq aksiyadorlik kompaniyalari o'rtaсида hamkorlik kelishuvlari imzolangan.

Eksport asosini ip-gazlama, to'qimachilik matosi (paxtadan tayyorlangan), quruq meva mahsulotlari, qayta ishlangan nest mahsulotlari, plastmassa va plastmassa mahsulotlari, hizmat ko'rsatish (transport, kommunikatsiya, turizm, meditsina), mexaniqa mollari, rangli va rangsiz metall hamda ularidan ishlangan mahsulotlar, yarimtayyor va tayyor triqotaj mahsulotlari va boshqa tashkil etsa, O'zbekistonga import asosini transport vositalari, farmatsevtika mahsulotlari, shaqar, yog'och-taxta, quachuk va rezina maxsulotlari, konditer mahsulotlari, q ora metall va undan yasalgan buyumlar, mexaniq anjomlar tashkil etadi.

Hozirda O'zbekiston hududida Belorusiya investorlari ishtirokidagi 7 ta korxona faoliyat yuritib kelmoqda, shulardan 4 tasi 100 foiz Belorusiya qapitali asosida ishlab turibdi. O'z navbatida Belorusiya ham O'zbekiston qapitali asosidagi 6 ta qo'shma korxona ish olib boradi.

O'zbekiston Tashqi iqtisodiy munosabatlar, savdo va investitsiya vazirligi tomonidan 1 ta Belorusiya firmasining vakolatxonasi akkreditatsiya qilingan.

Shuningdek davlatlari o'rtaсида Hukumatlaraaro Hamkorlik Komissiyasi ham mavjud bo'lib, 2 marotaba bu komissiyaning umumiyligi yig'ilishi bo'lib o'tgan (ohirgisi 2007-yil may oyida). Shuningdek 2003-yil may va 2007-yilning oktabr oylarida Toshkent shahridagi Belorusiya Respublikasining Milliy ko'rgazmalarini

namoyishi bo'lib o'tdi. Unda 100 dan ortiq Belorusiya firma va kompaniyalarining mahsulotlari namoyish etilib, natijada tadbirkorlarning qator ikki tomonlama foydali shartnomalari imzolandi.

**O'zbekiston-Ozarbayjon hamkorligi.** O'zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikalari o'rtaсида diplomatiq munosabatlar 1995-yil 2-oktyabrdan e'tiboran yo'lga qo'yilgan. 1996-yilden boshlab Toshkentda Ozarbayjon davlat elchixonasi faoliyat yurita boshladi. Boku shahridagi O'zbekiston elchixonasi esa 1998-yilden e'tiboran ish boshlagan. 1997-2009-yillar mobaynida ikki davlat rahbarlarining 3 marotaba o'zaro tashriflari doirasidagi oliy darajali uchrashuvlari bo'lib o'tgan: 1997-yil iyun oyida 2004-yilning 23-24-mart kunlari Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti I.Aliyevlarning O'zbekistonga tashrifsi hamda 1998-yil sentyabrda TRASYeQA tashkiloti konferensiysi doirasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning Ozarbayjonga rasmiy tashrifsi.

Bugungi kunga kelib ikki davlat o'rtaсида 64 ta ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma kelishuvlari imzolangan.

Bu ikki qardosh halq madaniy jihatidan ham bir-biriga yaqindir. Shuni hisobga olgan holda tomonlari o'rtaсиda yaqin do'stona munosabatlar o'rnatilgan.

2007-yil yakunlariga ko'ra davlatlarining tovar ayriboshlash hajmi 6,1% ga, O'zbekistonning eksport hajmi 6,5%, import 3,3% ga o'sdi. Eksport asosi avtomobil va avtomobil ehtiyyot qismlari, himiya sanoati mahsulotlari, energiya o'rnini bosuvchi va nest mahsulotlari, qora va rangli metall ishlanmalari, hizmat ko'rsatish vositalari orqali namoyon bo'ladi. Import tovarlari esa asosan himiya mahsulotlari mashina texnologiyalari, va hizmat ko'rsatish vositalari tashkil etildi. Hozirda O'zbekiston hududida 21 ta Ozarbayjon investorlari ishtirokidagi firma va korxonalar ishlab turibdi. Shulardan 10 tasi qo'shma korxona bo'lsa, 2 tasi 100% Ozarbayjon investitsiyasi bilan faoliyat yuritadi. O'z navbatida Ozarbayjonda O'zbekiston qapitali asosidagi 1 ta tadbirkorlik obekti ("O'zbekiston" savdo uyi) ish olib boradi. O'zbekiston tashqi savdo-iqtisodiy aloqlar va investitsiya vazirligi tomonidan 4 ta Ozarbayjon savdo kompanilarining vakolatxonalari ro'yxatdan o'tkazilgan.

1997-yil 18-iyundan e'tiboran O'zbekiston-Ozarbajjon hamkorlik aloqalari bo'yicha hukumatlararo komissiya faoliyati shakllantirilib, hozirgacha ushbu kengashning 7 ta umumiy yig'ilishi bo'lib o'tgan (ohrigisi 2004-yil 14-15-mart kunlari Toshkentda bo'lib o'tdi)

O'zbekiston doimiy MDH doirasidagi sammitlarda xalqaro maydonidagi jarayonlar xususidagi munozaralar davomida Ozarbajjon tomonining manfaatlarini qo'llab-quvvatlab keladi. Xususan, Rossiya Prezidenti V.Medvedovning Toshkentga tashrifsi davomida Kavkaz hududidagi sodir bo'layotgan jarayonlar haqida so'z borar ekan, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov hududdagi ahvolni tinch yo'l bilan hal etish tarafdori ekanligini bildiradi. O'z navbatida Ozarbajjon ham O'rta Osiyo va Afg'oniston masalasida O'zbekiston tomonining pozitsiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Hozirgi kunda O'zbekiston va Ozarbajjon o'rtaosida xalqaro miqyosidagi 97 ta hujjat imzolangan.

**O'zbekiston-Moldova hamkorligi.** Moldova Respublikasi O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida 1992-yil 15-oktyabrdan tan oldi. Ikki davlat o'rtaosidagi diplomatiq munosabatlari 1994-yil 23 avgustdan boshlab o'rnatilgan. 1994-yil noyabr oyidan boshlab esa O'zbekistonda Moldova Respublikasining elchixonasi faoliyat yuriib kelmoqda.

Eksport asosini avtomobil, traktorlar hamda ularning extiyot qismi, o'simlik yog'i va g'alla-don mahsulotlari tashkil etsa, import tovarlarini keramiq buyumlar, o'simlik yog'i, mexaniqa va texnika uskunalarini tashkil etadi.

1997-yilda ikki davlat o'rtaosidagi hamkorlikni mustahkamlash etildi. Hozirgacha ushbu kengashning 5 marotaba umumiy yig'ilishlari bo'lib o'tgan ohrigisi 2002-yil 9-11 deqabr kunlari Moldova Respublikasi bosh vazirining O'zbekistonga rasmiy tashrifsi davomida, Toshkent shahrida bo'lib o'tdi.

Ikki davlat o'rtaosida bir qator muhim hujjatlar imzolangan. Jumladan: 1995-yil 30-martda Do'stlik va o'zaro hamkorlik to'g'risidagi kelishuv, 1995-yil 30-martda Fan-texnologiyalari sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, 1995-yil 30-martda Madaniyat va san'at sohalari bo'yicha hamkorlik haqidagi kelishuv.

1995-yil 21-noyabrdada Turizm sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim. 1997-yil 24-mayda Ta'lim sohasidagi hamkorlik bo'yicha shartnomalar ularning eng asosiyalaridan sanaladi. Bugungi kunda O'zbekiston va Moldova Respublikalari o'rtaosidagi munosabatlari shunga o'xshash, o'zaro imzolangan 50ta xalqaro huquqiy-normativ hujjatlar orqali tartibga solinadi.

### **3.O'zbekistonning Markaziy Osiyoda ekologiq muammolar, diniy eksteremizm giyohvandlikni oldini olish borasida MDH doirasidagi faoliyati**

O'zbekiston MDHning teng huquqlari a'zosi sifatida MDH va Markaziy Osiyo doirasidagi jarayonlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Ushbu mamlakatlar bilan o'zaro mansaftli hamkorlikni keng yo'lga qo'ya oladi. Qolaversa O'zbekiston strategik va geopolitiq jihatdan qulay joylashgan davlat sifatida qo'shni davlatlar, yaqin qo'shni davlatlar va Hamdo'stlik davlatlari orasida alohida ahamiyatga ega davlat sifatida baholanadi.

1993-yilning 4-yanvar kuni Toshkentda I.Karimovning tashabbusi bilan ilk bor O'rta Osiyo davlatlari prezidentlarining umumiy yig'ilishi bo'lib o'tgan va ushbu uchrashuv davomida birinchi marta "Markaziy Osiyo davlatlari" deb nom olgan matbuot konferensiyasi tashkil etildi. Bu uchrashuv Markaziy Osiyo integratsiyasiga asos bo'la oladi deb bemalol aytishimiz mumkin.

2001-yil 28 deqabrdada Toshkent shahrida o'tkazilgan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston Respublikasi davlat rahbarlarining Toshkent Bayonotida "Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning shakl va mexanizmlarini takomillashtirish, yagona xavfsiz hududni shakllantirish maslalari bo'yicha o'zaro tushunishni chiqqurlashtirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash bo'yicha birlgilikdagi xatti-harakatlarni ishlab chiqish masalasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlarda ko'p rejali hamkorlikni jadallashtirish tarafdori ekanliklarini bildirdilar hamda Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (MOIH)ni "Markaziy Osiyo hamkorligi" Tashkiloti

(MOH) deb qayta tuzishga kelishib oldilar<sup>1</sup> Shuningdek Toshkent Sammiti muzokaralarida tomonlarning Afg'oniston voqecalariga munosabati bir hil ekanligi ta'kidlandi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki O'zbekiston Respublikamiz bilan chegaradosh mamlakatlardagi harbiy-siyosiy majorolarni tinch yo'l bilan hal qilishga va ularni oldini olishga qaratilgan har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo'llab-quvvatlab keladi va bundan keyin ham qo'llab-quvvatlayveradi. Bu yo'lida mamlakatimiz o'z davlat siyosati doirasida ham xalqaro tashkilotlar mexanizmlaridan foydalangan holda, mayjud imkoniyatlarni, aniq maqsadni ko'zlab ishga soladi. Bugungi kun milliy stretegiyamizning asosiy yo'nalishlaridan biri ana shunday mazmunga ega.

Bundan tashqari 2000-yil 19-oktyabrda Toshkentda "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, narkotiq moddalar, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashga yondoshish" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Anjumanda mashhur olimlar, ekspertlar nutq so'zladilar. Konferensiya qatnashchilari Toshkent Deklaratsiyasini qabul qildilar. Shuningdek 2000-yilning 1 deqabrida MDH davlatlari rahbarlari Kengashining Minskda bo'lib o'tgan O'zbekiston, Rossiya, Tojikiston Prezidentlari ishtirokida uch tomonlama muloqotda ham davlatimiz rahbari mintaqada tinchlikni saqlash borasida O'zbekistonning o'z qarash va yondashuvlarini bayon etdi.

O'zbekistonning mintaqasi osoyishtaligini ta'minlashdagi harakatlarida MDH mamlakatlari bilan bo'lgan o'zaro aloqalar ham muhim o'rinn tutadi. Bu borada Yurtboshimiz "Ne-ne bosqichlarni, qirg'lnarni ko'rgan bu tuproqni bobolarimiz yonma-yon turib himoya qilganlar. Binobarin, bizning tarhimiz ham, taqdirimiz ham birlashib ketgan Alloh Taolo bergen azaliy va abadiy nasibamizdir".<sup>1</sup> degan edi.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi yagona iqtisodiy makon tashkil etish xaqida imzolangan shartnomasi Markaziy Osiyo integratsiyasi yo'lida ilk qadam edi. 1998-yil bu shartnomaga

<sup>1</sup> Ya.X.G'afforov, A.Xolliev. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. T., 2003 yil. 131-bet.

<sup>1</sup> IA.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, maskura. Toshkent. "O'zbekiston", 1996 yil, 1-jild. 51-bet.

Tojikiston ham qo'shildi. Hozirda o'zaro hamkorlik to'g'risida 150 dan ortiq hujjalarni imzolandi. Bugungi kunda Davlatlararo Kengash ish olib bormoqda. Hamdo'stlik dasturlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etilgan. Mazkur integratsiya xalqlarimiz manfaatlariga to'la mos keladi. mintaqamizda barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi. 2000-yil 20-21-aprel kunlari O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari prezidentlarining Toshkentda siyosiy va diniy eksteremizmga qarshi, xalqaro uyushgan jinoyatchilikqa qarshi kurash yuzasidan birgalikdagi harakatlari to'g'risidagi shartnomasi bunga misol bo'la oladi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov Markaziy Osiyo integratsiyasi va mintaqasi xavfsizligi borasidagi bir qator mulohazalarini dunyo axli tomonidan yuksak baholanmoqda. Jumlahdan 2000-yil 22-yanvarda Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida so'zlagan nutqlari e'tiborga loyiqidir. Rahbarimiz unda quyidagi vazifani oldimizga qo'ygan edi: Markaziy Osiyo mintaqasida Iqtisodiy hamkorlik miqyoslarini har tomonlama kuchaytirib, iqtisodiy loyihalarini birinchi galda mintaqaning boy tabiiy zahiralaridan, energetika va suv manbalaridan foydalananish, transport kommunikatsiyalari, gaz va neft tarmoqlarini barpo etish, ekologiq muammolarni hal qilish kabi sohalarga tegishli aniq loyihalarini yaratish va amalga oshirish borasidagi kuch va imkoniyatlarni birlashtirish lozim.

Mustaqil O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'iston bilan do'stona, qardoshlik munosabatlarini chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish ilmiy va madaniy hamkorlikni kengaytirish O'zbekiston tashqi siyosatining g'oyat muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Hamkorlikka intilish mintaqasi mamlakatlariga tarixan xosdir. Buni umumiyligi chegaralarigina emas, balki avvalo milliy madaniyatlarning, til, urf-odat va an'analarning yaqinligi belgilab beradi. Mazkur Respublikalarning iqtisodiyoti chambarchas bog'langan va bir-biriga ta'sir o'tqazib turgan bo'lib, bab-baravar holdagi xo'jalik aloqalarini saqlab qolish va mustahkamlash zarurligi yaxlit energetika, transport, irrigatsiya tarmoqlaridan suv va gaz ta'minoti tizimidan birgalikda foydalananish shart sharoitlaridan

ham kelib chiqadi. Mineral xom ashyo resurslarini va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida tarkib topgan ichki mintaqaviy kooperatsiya ham shuni taqazo etadi.

Orol bo'yidagi ekologiq faloqati oqibatlarini bartaraf etish Orol dengizini qutqarish bo'yicha birqalikdagi chora-tadbirlarni amalga oshinish mintaqalararo hamkorlik doirasida alohida ahamiyatga ega. O'rta Osiyo va Qozog'iston mustaqil davlatlarining samarali hamkorligi chegaradosh mamlakatlari avvalambor musulmon sharqi mamlakatlari bilan qo'shma loyihalarini birmuncha muvoffaqiyatli ravishda ro'yobga chiqarish ham ko'maklashadi. O'zbekiston 1992-yil 8-fevralda MDH davlatlari rahbarlarining imzolangan bitimiga muvofiq tuzilgan MDH mamlakatlari Davlatlararo Ekoliya kengashining to'la huquqli a'zosidir. MDH mamlakatlарining ana shu Ekoliya Kengashi doirasidagi hamkorligi a'zo davlatlarning atrof-muhiti muhofaza qilish sohasida kelishib olingan, muvofiq-lashirilgan say-harakatlar qilish maqsadini ko'zladidi. 2006-yil Ostonada bo'lib o'tgan Markaziy davlatlari rahbarlarining uchrashevuda O'rta Osiyo suv zahiralaridan unumli foydalanish bo'yicha hukumatlararo Konsorsium faoliyatini shakkantirish yuzasidan taklif bildirilgan edi. Ayni masala bo'yicha fikr va muloxazalar barcha davlat rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Bugungi kunda Orolni qutqarish bo'yicha mintaqaviy hamkorlik faoliyati kekng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu masala nixoyat muhim hayotiy ahamiyatga egadir.

Orol muammosi ilk bor 1993-yilning 26-martida Qizil O'rda shahrida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo rahbarlarining umumiylig'i ilishi da muammo sifatida ko'tarilgan edi. O'zbekiston rahbari birinchilar bo'lib Orol fojeasini xalqaro muammo sifatida baxolagan edi.

#### 4.O'zbekiston-MDH: madaniy, ilmiy-texnikaviy va ta'lim sohasidagi hamkorliklar

Rossiya. Ikki davlat o'rta-sidagi gumanitar-madaniy aloqalar ham mustahkam yo'lga qo'yilgan. Ikki xalq azaldan bir-biri bilan bo'lgan madaniy aloqalarini bizga tarixan ma'lum. Bugungi kunda esa bundan tub aloqalar yanada kengayib ikki xalq do'stligini ramzi. yakdillik rishtalarini yanada mustahkamlashga hizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston-Rossiya madaniy hamkorligimizni biz Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan Rossiya xalqaro ilmiy madaniy hamkorligi markazi foaliyati asosida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek "O'zbekiston san'ati va madaniyati Forumi" Fondining ham ikki mamlakat madaniy aloqalariga qo'shayotgan hissasi muhim ahamiyatga egadir. 2004-yilda mazkur Fondning Moskva shahrida taqdimoti bo'lib o'tgan edi. Unda Rus xalqiga O'zbek madaniyati vaa san'atidan na'munalar namoyish etildi. Keyinchalik ham ushbu Fond tashabbusi bilan Rossiyada turli tadbirlar, festivallar, ko'rgazmalar, ijodiy kechalar o'tqazib kelinmoqda. 2006-yilda esa "O'zbekiston va Rossiyaning hamkorlik doirasidagi gumanitar-madaniy aloqalari" mavzusidagi ochiq davra suhbat bo'lib o'tdi. Unda hamkorlikning keyingi yo'nalishlari, uni yanada rivojlantirish yo'llari xususidagi taklif mulohazalar muhokama qilindi. 2006-yilning yanvar oyida esa Moskva shahrining markazida A.Navoiyning yirik bronzadan ishlangan hayqali qad ko'tardi.

Ikki davlatning o'zaro madaniy aloqalari doirasida ta'lim hamkorligi sohasi bo'yicha o'rnatilgan munosabatlar tahsinga sazovordir. Toshkent shahrida bugungi kunda Rosssiya bilan hamkorlikda M.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti (2006y), G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi (1996y) va I.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz Universiteti<sup>1</sup> filiallari ochilgan bo'lib, bu oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonlik yoshlarga tajribali professor-o'qituvchilar tomonidan muqammal bilim berishmoqda. Bunday jahondagi eng ilg'or va nomdor Universitetlarning O'zbekistonda ham ochilishi bejiz emas albatta. O'z navbatida Rossiya Oliy Ta'lim Muassasalari va ularning xodimlari tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, Qadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi yuksak baholandi. 2001-yil may oyida Rossiyaga qilingan tashrif davomida Moskva davlat Universitetida bo'lib, Rossiya ta'lim tizimi bilan tanishdi hamda Universitet talablariga ikki mamlakat aloqalari, uning xususiyatlari va ahamiyati hamda O'zbekistondagi yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi to'g'risida ma'ruza o'qidi. Ma'ruza davomida davlatlar

<sup>1</sup> 1993 yilning 13 yanvarida tashkil etilgan.

o'rtaidagi ta'lim hamkorligini mustahkamlash va uni yanada rivojlantirish maslasi ilgari surildi va bu fikr Rossiya Prezidenti va jamoatchiligi tomonidan maqullangan edi. Bu tashrif davlatlar o'rtaidagi ta'lim hamkorligini aniqrog'i madaniy aloqalar rivojini yuqori pog'onaga ko'taradi.

2006-yilda yurtimizga tashrif buyurgan Rossiya iqtisodiyot akademiyasi rektori V.Vidyapin O'zbekistondagi amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining yuqori saviyada ekanligini aytadi. "Ta'lim sifati har bir davlatning ertangi kelajagini belgilab beradi. Bu sohada O'zbekiston katta tajribaga ega, shu tufayli ham biz O'zbekiston bilan strategik hamkorlik qilish tarafdorimiz."<sup>1</sup>

Shuningdek Rossiya neft va gaz Universiteti aqademigi V.A.Sadovnichev ham yurtimizdag'i ta'lim tizimini juda yuksak baholar ekan jumladan shunday deydi: "Islom Karimov-bu O'zbekistonda muqammal bilim va ta'lim davridir."<sup>2</sup>

Ortda qolgan 10 yillik ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlik davomida 1000 dan ortiq O'zbekistonlik talabalar Rossiya oliv O'quv yurtlari stipendiyalari asosida Rossiya Oliy O'quv Yurtlarida o'qish sharafiga musharraf bo'ldilar. Birgina 2007-2008 o'quv yili uchun O'zbekistonlik yoshlarga Rossiya ta'lim muassasalarida bepul ta'lim olishga mo'ljalangan 180 ta grant o'rinnari taklif qilindi.

Shuningdek Rossiya Fanlar Akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnika Marmazi bilan hamkorlikda Suffa platosi radioastronomiq observatoriyaning ishga tushirish loyihasi bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Bu observatoriyaning faoliyati shundan iboratki, uning faoliyati hududidagi aloqa tizimi, asrnomiq kuzatuvlar markazi, shuningdek hududdagi geografiq hodisalarini oldindan kuzatish markazi vazifasini bajaradi. Rossiya ilm-fan xodimlari bilan olib borilayotgan hamkorlikdagi loyiha shundan iboratki Moskva Davlat Universiteti bilan hamkorlikda Qashqadaryo viloyatidagi Maydanak tepaligida joylashgan Maydanak observatoriyasini birqalikda o'zlashdirish bo'yicha loyiha ishlari amalga oshirilmoqda.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Г.Ахмеджанов. Россия и Центральная Азия. Взаимосвязь в историческом развитии. Москва-Ташкент 2008 год, 84 стр.

<sup>2</sup> O'sha joy

<sup>1</sup> WWW.GOV.UZ. Сотрудничество Узбекистана со страной СНГ  
170

2008-yil 10-noyabr kuni Toshkentda Aloqa sohasida mintaqaviy hamdo'stlikning elektr aloqa operatorlari kengashi hamda Elektr aloqa bo'yicha mintaqaviy hamdo'stlik komissiyasining qo'shma majlisi ish boshladidi. Unda O'zbekiston, Rossiya, Belarusiya, Moldova, Qирғизистон, Тоҷикистон aloqa ma'muriyatları vakillari ishtirok etdi. Forumda davlatlararo yo'nalishlarda tarmoqlarning ishonchlilagini oshirish, yangi elektr aloqa hizmatlarini ishlab chiqish va joriy qilish, bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadigan aloqa qanallarining axborot xavfsizligini yaxshilash masalalari ko'rib chiqilmoqda. Shuningdek majlisda telegraf tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ularni ma'lumotlar uzatish qanal va tarmoqlariga o'tkazish, ayrim mamlakatlarda raqamlashtirish rejali, universal telekommunikatsiya hizmatlari Fondini shakllantirishda aloqa operatorlarining birqalikda ishtirok etishi ham muhokama etildi. "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi Aloqa sohasida mintaqaviy hamdo'stlik bilan samarali hamkorlik qilmoqda, hamdo'stlikning operatorlari kengashi tarkibiga kiradi, uning yirik xalqaro loyihalari faol ishtirok etib kelmoqda, xorijiy operatorlar va telekommunikatsiya uskunalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalari bilan birqalikda harakat qilmoqda. Bundan tashqari, qo'shma majlis ishtirokchilari MDH mamlakatlarining bir-biri bilan o'zaro bog'lik telekommunikatsiya makonini bosqichma-bosqich tashkil etish jarayoni, yaqin kelajakda Aloqa sohasida mintaqaviy hamdo'stlik faoliyat dasturi muxokama etildi, jahon axborot hamjamiatiga integratsiyalashish zarurligini ta'kidlandi. Hozir butun dunyoda bo'lgani kabi MDH mamlakatlarida ham eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal suratda joriy qilinmoqda va bu jarayon Hamdo'stlik makonida eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

**Ukraina va O'zbekiston** o'rtaidagi madaniy aloqalar ham tahsinga loyiqidir. Davlatlarning o'zaro madaniy hamkorligining rivojlanishi ikki davlat o'rtaidagi keng munosablarni bir pog'ona yuqoriga ko'tarib, hamkorlikning yangi qirralariga zamin yaratmoqda.

2002-yilning deqabr oyida Ukraina Prezidenti Leonid Ko'chmanning O'zbekistonga rasmiy tashrifi davomida Toshkent shahrida ulug' ukrain shoiri Taras Shevchenko rasmiy hayqalining ochilishi bo'lib o'tdi. Ayni kunlarda Ukraina poytaxti Kiyev shahrida hukumatning tashhabbusi bilan buyuk bobokalonimiz, ulug' o'zbek

yozuvchisi, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy hayqali o'rnatilgan.

Ukrainada doimiy ravishda O'zbek rassomi, xunarmandlarining festival va ko'rgazmalari o'tkazilib turiladi. 2002-yilning yanvarida Ukrainada "Do'stlik" Kiyev-O'zbek madaniy-iqtisodiy jamiyati o'z faoliyatini boshladi. Shuningdek Kiyevda "O'zbekiston" o'zbek rassomchiligi jamiyati ham mavjud. Toshkent-Kiyev shaharlari. Harkov va Toshkent viloyati, Sum va Qashqadaryo viloyati. Qrim Avtom Respublikasi va Farg'onan viloyatlari o'rtasida doimiy do'stilik va hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yilgan.

Hozirda O'zbekistonda 100 minga yaqin etniq ukrainlar istiqomat qiladi. Shundan 40 mingga yaqini Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Ularning yurtimizda erkin yashashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Jumladan: Toshkentda "Slavo'tich" Respublika ukrain madaniy markazi va "Batkivshina" shahar Ukraina madaniy markazlari faoliyat yuritadi. Shuningdek Olmaliq va Yangiyo'l shaharlarida analogiq markazlari mavjud. Shuningdek O'zbekiston Fanlar Akademiyasi va Ukrainianing bir qator ilmiy-madaniy tashkilotlari bilan ham mustahkam aloqalar o'rnatilgan. Ayniqsa buni sog'likni saqlash tizimida yaqqol ko'rish mumkin. Har yili mingga yaqin yurtimiz sog'likni saqlash sohasi xodimlari Ukraina Kiyev, Harkov, Zaporoje shaharlarida bilim-ko'nikma hamda tajribalarini oshirib keladi.

**O'zbekiston hamda Tojikiston** o'rtasidagi madaniy aloqalar tizimi 1997-yil 10-yanvarda har ikki davlat tomonidan imzolangan Ta'lim sohosidagi hamkorlik, shuningdek 1998-yil 4-noyabrda imzolangan Madaniy hamkorlik to'g'risidagi kelishuvlar asosida olib boriladi.

Bizga ma'lumki har ikki davlat azaldan bir-biridan ajralmas hudud hisoblangan. Bu ikki xalq madaniyatini bir-biridan ayirish mumkin emas. O'tmisht an'analarini asosida bugungi kunda ham o'zai o'rnatilgan.

1998-yilning iyun-iyul oylarida O'zbekiston Tojikiston madaniyati kunlari o'tkazishi ham yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Unda tojiq ijodkorlarining turli ko'rgazma, festival, bayram tadbirlari xalqimizga yana bir bor namoyish etildi.

2002-yilda esa Tojikiston va O'zbekiston Televideniya tizimidagi hamkorlik to'g'risidagi kelishuv amalga oshirildi. Natijada, Tojikiston hududida ko'plab o'zbeklarning va o'z navbatida O'zbekiston hududida ham ko'plab tojiplarning istiqomat qilishini hisobga olgan holda endilikda bu aholining qo'shni zaminda o'z yurti teletarmoqlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari o'zbekiston teleradio qanali orqali tojiq tilidagi kundalik ko'rsatuvlar efirga uzatilsa, matbuot orqali qariyb 10 ga yaqin tojiq tilidagi nashrlar chop etilmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi va Qиргизистон Respublikalari** o'rtasidagi madaniy aloqa ham tahsinga loyiqidir. Bu borada davlatlarning Abadiy do'stlik haqidagi 1996-yil 24 deqabrdagi Toshkent shahrida imzolangan kelishuv asosiy hujjat hisoblanadi. Shuningdek davlatlararo madaniy, ilmiy, ta'lim va sport, sog'likni saqlash, turizm sohasidagi aloqlarni chuqurlashtirish haqidagi kelishuv (1994-yil 16-yanvar) Madaniy Hamkorlik haqidagi shartnomalar (1996-yil 24 deqabr) bu boradagi amalga oshirilayotgan ishlarni yuqori darajaga ko'tardi.

Hoh O'zbekistonda, hoh Qиргизистонда bo'lib o'tadigan mashhur, buyuk shaxslarning yubiley tadbirlarida ishtirot etish har iqqala davlat rasmiylari uchun odatga aylanib qolgan. Har iqqala xalqning mashhur shoir, olim va ijodkorlarining tadbir va bayram kechalarini uyushtirish ikki davlat munosabatlarini yanada yaqinlashtirdi. Jumladan 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yillik bayrami Qиргизистонда ham keng nishonlandi. Teatr, ko'rgazma va madaniyat uylarida Amir Temur tavalludi qizg'in kutib olindi. Shuningdek 1995-yilda "Manas" eposining 1000-yilligi O'zbekistonda ham keng kutib olindi. Har yili o'tqazib kelinayotgan "Sharq taronalari" festivalida doimiy ravishda Qиргизистонлик san'at ustalari ham faol ishtirot etib kelmoqda.

Madaniy aloqalar doirasini kengaytirish maqsadida 1995-yil Toshkent shahrida Qиргизистон milliy madaniy markazi ish boshladi. Respublikamizning 6 viloyatida markazning vakolatxonalari ishlab turibdi. Qozog'iston bilan bo'ladigan madanaiy aloqalarning asosi sifatida ikki davlat o'rtasidagi imzolangan Abadiy do'stlik to'g'risidagi kelishuv (1998-yil 31-oktyabr) shartnomasi baholandi. Bu sohadagi munosabatlarning yuksalishi jarayonida 2006-yilda ikki

davlat rahbarlarining o'zaro uchrashualari davomida ishlab chiqilgan 2006-2008-yillarda madaniy-gumanitar sohalaragi aloqalarni rivojlantirish haqidagi chora-tadbirlar Dasturi muhim bosqich bo'ldi.

O'zbekiston va Qozog'iston ijodkorlari orasida doimiy mustahkam aloqalar yo'lga qo'yilgan. O'zaro doimiy gastrol safarları, madaniy tadbirlar, ko'rgazma namoyishlari o'tkazilib turadi.

2006-yil Ostona shahrida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo teatr festivali davomida O'zbekiston Milliy Akademik teatri ham faol ishtirok etgan edi. Har yili o'tkazilib kelinayotgan "Sharq taronalari" musiqa festivalida Qozog'istonlik san'at ustalari doimiy ravishda ishtirok etib kelishadi.

1993-yilning 25-may kuni O'zbekiston rahbari Qozog'istonga tashrif buyurib ulug' qozoq adiblari Tulebiy, Qozibek biy, Aytcke biylarining xotirasiga bag'ishlangan tantanalarda ishtirok etdi. Shu yilning kuzida yana Ostonaga tashrif buyurgan prezidentimiz yana bir qozoq adibi Axan Serening 150 yillik yubeley tantanasi va Cho'qon Valibonovning uy mezeyining ochilish marosimida ishtirok etdilar.

2007-yilning mart oyida Qozog'istonning Chimkent shahrida o'tkazilgan xalqaro teatr festivalida jizzax musiqli drama teatri ijodkorlari, shu yilning aprel oyida yana ushbu Chimkent shahrida bo'lib o'tgan "Bo'ronbel" xalqaro raqs festivalida esa A.Navoiy nomidagi Davlat Akademik Balet Teatri vakillari ishtiroki yuqori baholangan edi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi doirasida 2007-yilning 29-aprel 4-may kunlari O'zbekiston bo'ylab M.Quvanshbayev nomidagi Qozog'iston musiqli drama teatrining gastrol safarları uyuşdırıldı. Shu yilning oktabr oyida esa Toshkent M.Avezov nomidagi Qozog'iston milliy drama teatrining madaniyat kunlari o'tkazildi.

2008-yil 15-aprelda Toshkent Davlat Akademik va balet teatrida Olmota hareografiya bilim yurti talabalarining ijodlari namoyish etildi. Bundan tashqari O'zbekistonlik Kinomotografiya ustalari doimiy ravishda o'z ijod namunalarini Qozog'iston shahrlarida namoyish etib, turli festival, konkurs namoyishlarida ishtirok etib keladilar.

1994-yil 10-yanvarda davlatlar o'ttasida fan-tehnika, sport, talim, sog'likni saqlash va madaniyat sohalarida hamkorlik o'rnatish to'g'risida 2006-yil 20-martda esa Fan va texnologiya aloqalarini mustahkamlash to'g'risidagi kelishuv shartnomalari imzolandi. Bu

sohadagi munosabatlarning yuksalishi jarayonida 2006-yilda ikki davlat rahbarlarining o'zaro uehrashuvı davomida ishlab chiqilgan 2006-2008-yillarda madaniy-gumanitar sohalaragi aloqalarni rivojlantirish haqidagi chora-tadbirlar Dasturi muhim bosqich bo'ldi.

Ta'lim sohasida davlatlar o'ttasida mustahkam munosabatlar o'matilgan. Bu borada qadrlar, o'qituvchi-pedagog va talabalar shuningdek o'quv-metodiq texnologiyalar almashinishi keng yo'lga qo'yilgan.

2006-yildan e'tiboran Ma'mun Akademiyasi va Qozog'iston Fan ta'lim vazirligi, Qozog'iston Sharqshunoslik instituti o'ttasida hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Xuddi shunday kelishuv 2007-yil may oyida Toshkent Davlat Arhitektura Qurilish Instituti hamda Qozog'iston Arhitekto'ra Qo'rilish Instituti va M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston Institutlari o'ttasida ham imzolangan edi.

**O'zbekiston va Ozarbayjon** xalqlari azaldan qardosh xalqlardir. Bugungi kunda O'zbekiston hududida 45000 dan ortiq Ozar millatiga mansub aholi vakillari istiqomat qiladi. Ularning katta qismi Toshkent shahri (10000), Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Ikki xalq va qolaversa davlatlar munosabatlarini yaqinlashtirish maqsadida O'zbekistonning bir qancha hududlarida 10 ga yaqin Ozarbayjon madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. 2003-yil esa Ozarbayjon madaniyat markazlari Assotsiatsiyasi tashkil etildi. 2007-yildan e'tiboran Respublika Ozarbayjon madaniyat markazi yanga zamonaviy binoda ish boshladi. Respublikadagi ilk madaniyat markazi 1989-yilda ("Gardashiq") ochilgan edi. 2004-yilda Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyevning O'zbekistonga tashrifsi davomida Toshkent shahri markazida buyuk ozar adibi Nizomiy Ganjaviy sharafiga bunyod etilgan hayqalning ochilishi bo'lib o'tdi. Shuningdek bu shaxsnинг nomi yirik ko'cha, mahalla, ta'lim muassalari ("Nizomiy" nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti) ga ham qo'yilgan. Tashrif davomida yana Ozarbayjon elchixonasining yangi binosi ham foydalanishga topshirildi. Yangi elchixona binosining hovlisida esa Ozarbayjonning sobiq Prezidenti X.Aliyevning byust xayqali qad ko'tardi. Bu esa o'zbek xalqining Ozar xalqiga nisbatan hurmat ramzi sifatida namoyon bo'ldi. O'z navbatida Ozarbayjon tomonining tashhabbusi bilan Boku shahrida ulug' mutaffakir A.Navoiy hayqali majmuasining qurilishi boshlandi. Boku shahri kuchalaridan

biriga esa Mirzo Ulug‘bek nomi berilgan. Bundan tashqari ikki davlat ijodkorlari, madaniyat arboblari, san‘atshunoslari o‘rtasida doimiy uchrashuvlar, tadbirlar uyuştirilib turadi.

XXI asr jamiyat shiddat bilan o‘sib bormoqda. O‘zbekiston ham ana shu hamjamiyatning bir qismi sifatida, unda munosib o‘rin egallashga intilib kelmoqda.

1991-yilda SSSR deya atalmish ittifoqning parchalanishi O‘zbekiston qatorida yana bir nechta xalqlarning mustaqilligiga olib keldi. Ota-bobolarisiz uzoq tarixiy davrlar mobaynida mamlakat mustaqilligi uchun harakat qilganlar kerak bo‘lsa qon kechganlar, uzoq kutilgan mustaqillikning erishilishi barcha xalqlar hayotida muhim voqeа bo‘ldi.

Biroq mustaqil bo‘lgan davlatlar endi yangicha to‘siqlarga duch keldilar. Ma’lumingizkim sotsializm deya atalmish tizim tarkibida bo‘lgan ushbu mamlakatlar faoliyati qandaydir real natijalarga ega bo‘lmagan kelajakni va’da berayotgan ittifoqning tarkibiga kirar edilar. Sotsializm yoki boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak komunizm tuzimi o‘z davridayoq bir qator tanqidlarga uchragan edi. Haqiqatan ham bunday tizimning iqtisodiy asosi juda ham mo‘rt g‘oyalarga asoslandi. Jamiyat tengligini va’da berayotgan g‘oyalarda zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga asos bo‘luchchi g‘oyalardan butunlay voz kechilgan edi. Iqtisodiy tizim butunligicha bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, asosiysi esa iqtisod bozor qonunlariga emas, balki hukumron mafkuraga bo‘ysunar edi. Iqtisodiy talablar aholi talablari asosida emas, davlat rejasida belgilangan talablar asosida belgilanar, narx-navo ham shunday usulda joriy etilardi.

Xo‘sh, bunday tizimning kelajagi haqida boshqa nima deyish mumkin?

Masalaning ikkinchi tomoni esa, yuqorida ta‘kidlab aytib o‘tganimiz, ya‘ni mustaqillikqa erishgan sobiq ittifoqdosh davlatlar o‘z iqtisodiyotini qay yo‘sinda tashkil etmoqlari lozimligi haqida. Iqtisodiyot butunligicha bir-biri bilan uzviy bog‘langan davlatlarning yangi iqtisodiy tizimga o‘tishlari uchun talaygina to‘siqlar mavjud edi.

1991-yilning 8 deqabrida Belorusiyaning Belovejovsk hukumat saroyida Rossiya, Belorusiya hamda Ukraina rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi deya atalmish tashkilotga asos soldilar. Oradan ko‘p o‘tmasdan 1991-yilning 21 deqabrida Sobiq Ittifoq tarkibida

bo‘lgan boshqa davlatlar O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Armaniston, Turkmaniston, Moldova va Ozarbayjon Respublikalari ham ushbu shartnomaga qo‘shiladilar.<sup>1</sup> Keyinchalik 1993-yilda Gruziya ham Hamdo‘stlik tarkibiga qo‘shiladi. Xo‘sh, bu tashkilotning tuzilishi, uning vazifalar va ahamiyati nimalardan iborat?

Buni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov quyidagicha e’tirof etadi:

1.Yangi mustaqil Respublikalar ilgari yagona davlatning tarkibiy qismlari edi. Ular ham hududiy, ham jahon miyosidagi siyosiy ham tashkiliy jihatdan butun edilar. Ko‘p yillar mobaynida ular o‘rtasida tarkib topgan munosabatlар va aloqalarning keskin uzilishi Respublikalarning o‘zidagina emas, shu bilan birga xalqaro maydonda ham vaziyatni chigallashtirishga olib kelgan bo‘lar edi.

2.Respublika iqtisodiyoti yagona transport va energetika tizimiga ega bo‘lgan sobiq umumittifoq iqtisodiy makoni doirasida shakllandi va rivojlandi. U boshqa mintaqalar xo‘jalik aloqalarining chambarchas tuguni orqali bog‘langan bo‘lib, ular yuzasidan o‘zaro hisob-kitoblar rubl makonida amalga oshirilmoqda. Bu munosabatlarni jahon xo‘jalik aloqalari bilan tegishlicha to‘ldirmay uzib qo‘yish (Bunday aloqalarni o‘rnatish uchun uzoq vaqt talab etiladi) ishlab chiqarish hajmlarining pasayib ketishiga, iqtisodiy ahvolning yomonlashishiga, ijtimoiy muammolarning keskinlashuviga olib kelishi mumkin.

3.Barcha mustaqil Respublikalarda xususan O‘zbekistonda ham Ittifoq ko‘lamidagi yaqin qarindosh urug‘chilik aloqalariga ega bo‘lgan ko‘p millatli aholi yashaydi. Hamdo‘stlik doirasida chegaralarning ochiqligini, aholining bir joydan ikkinchi joyga borishi va axborot uzatish erkinligini saqlab qolish Respublikada fuqarolar hamda millatlararo totuvlikni ta‘minlash sharti, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim omili bo‘lib hizmat qiladi.

4.Yosh mustaqil davlatlar tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy munosabatlarda hali yetarlicha obro‘-e‘tiborga ega emaslar. Ularning xalqaro maqomini mustahkamlash uchun vaqt zarur. MDH a‘zolik xorijiy davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnaga

<sup>1</sup> 1991 yil 21 deqabrida Olmota shahrida bo‘lib Sobiq ittifoq davlatlari rahbarining yig‘ilishida MDH ni tashkil etish to‘g‘risida bitim imzolandi. Bu bitim “Olmota Deklaratsiyasi” deb nom oldi.

tishni zarracha ham cheklamaydi, diplomatiya sohasidagi faoliyatga salmoqli hissa qo'shadi.<sup>1</sup>

Kuddi shunday asosda Hamdo'stlik davlatlari taraqqiyot sari yuz tutishdi deyish mumkin bo'lardi. Keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotgan MDH integratsiyasi o'zaro aloqalarning davomiyligi negizida yangi bosqichga ko'tarilmogda. Ya'ni MDH ni tashkil etuvchi davlatlar azaldan hududiy, madaniy, urf-odatlar jihatidan bir-biriga juda yaqindirlar. Ushbu davlatlarning o'zaro aloqalari tarixan rivojlanib kelmoqda. Yana o'sha yuqoridagi fikr MDH integratsiyasi ushbu tarihiy aloqalarning yangi bosqich bo'ldi.

O'zbekistonning Hamdo'stlikqa a'zoligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

- Birlashgan qurolli kuchlar orqali milliy mudofani muvofiqlashish, milliy hudud yaxlitligini va davlat chegarasini himoya qilish;

- Hamdo'stlikdagi boshqa davlatlarning Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan, yangiliklaridan, texnologiyalari, telekommunikatasiyalar kosmik aloqa vositalaridan bahramand bo'lish zarur xom jahon narxlaridan past narxlarda sotib olish uchun keng ko'lamdagi bozorning mavjud bo'lishi; -transport tarmog'idan foydalanish, dengiz portlariga chiqish, xorijiy mamlakatlarga mollarni tranzit yo'libilan yetqazib berish imkoniyatlarining kengligi;

- keskin ekologiya muammolarini xal etish chora-tadbirlarini birlgilikda amalga oshirish, tabiiy ofat faloqatlarining oqibatlarini tugatishda o'zaro yordam berish;

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi o'z vazifalari doirasida shu kabi mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni birlgilikda ijobjiy xal qilib kelmoqda. Bosib o'tilgan qisqa davr mobaynida O'zbekiston MDH tarkibida faol tashqi siyosat yuritib kelmoqda. Mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan davlatimiz faqatgina ishtirokchilik emas balki yetakchilik ahamiyatini ham bajamoqda. Ha, O'zbekiston Respublikasi MDH tarkibida o'zining xalqaro maydonidagi o'rnini belgilab oldi.

<sup>1</sup> I.A.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, "O'zbekiston", 1998 y.  
26-28betlar

Mintaqaviy xavfsizlik, ekologiq muammolarni bartaraf etish, diniy eksteremizm, giyohvandlik, terrorizm va yana boshqa shu kabi muammolarni xal etishda yetakechilik ko'rsatishi orqali O'zbekiston o'z manfaatlari ham mintaqaviy masalalarda bir qator yutuqlarga erisha oldi deb aytish mumkin. Qolaversa O'zbekiston strategik va geopolitiq jihatdan qulay joylashgan davlat sifatida qo'shni davlatlar, yaqin qo'shni davlatlar va Hamdo'stlik davlatlari orasida alohida ahamiyatga ega davlat sifatida baholanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning xalqaro maydonidagi yaqin sheriklari asosan MDH tarkibiga kiruvchi davlatlar hisoblangan. Chunki ushbu davlatlar O'zbekistonga bevosita va yaqin chegaraga ega, madaniy jihatdan qardosh, iqtisodiy jihatdan esa yagona iqtisodiy makonni tashkil etuvchi davlatlardir. Keyingi yillar davomida O'zbekistonning MDH davlatlari iqtisodiy aloqalari yildan-yilga o'sib bormoqda. Yo'lga qo'yilgan keng hamkorlik aloqalari orqali O'zbekiston o'zining xalqaro maydonidagi yuksak obro'e'tiborini qo'lga kiritish bilan bir qatorda, o'tish davri to'siqlarini ham ijobjiy hal qilib kelmoqda. O'tgan yillar mobaynida MDH mamlakatlari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o'zaro foydalish hamkorlik qilishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tasdiqladi. Bunday hamkorlikka Hamdo'stlik mamlakatlarining hududiya yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanligigina emas balki chuqur tarihiy ildizlar, madaniy va ma'naviy aloqalar, katta tarihiy davr mobaynida xalqimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'lmoxda. Mamlakatlarimiz xalqlarining yaqinlashuvni tabiiy kechayotgan jarayon. Bu xalq integratsiyasi bo'lib, sun'iy ravishda joriy etiladigan siyosiy integratsiyadan farqli o'laroq, haqiqiy integratsiyadir.

Xulosa o'rniда shuni aytish mumkinki O'zbekistonning MDH dagi ishtiroki mamlakatimizning tashqi siyosiy faoliyati doirasida muhim ahamiyat qasb etib kelmoqda. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan o'zaro aloqalar tizimidagi ishtiroki mintaqada va o'zaro barqarorlik hamda tinchlikning muhim qafolatlaridan biri sifatida baholandи. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotiga a'zo bo'lgan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish, xo'jalik munosabatlarni yangi

shaklda tashkil etish va avvalambor, bir-biriga do'stona munosabatlarni saqlash va mustahkamlash uchun astoydil harakat qilib kelmoqda. O'zbekiston rahbarining fikricha MDH mintaqadagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarni chuqurlashtirish, eskirgan xo'jalik tizimini yangilash asosiy "platforma" vazifasini bajarib kelmoqda. Shu asosda mintaqa davlatlarining jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish imkoniyatlari yaratib borilmoqda. Hamdo'stlik davlatlari orasida yangicha iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhit shakllandi. MDH tashkiloti xalqaro huquqning bir subekti sifatida Xalqaro maydonidagi ro'y berayotgan jarayonlarga faol munosabat faoliyati O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'z o'rnni belgilab olayotgan davlatimizning ulkan yutig'idir.

### **5.MDH faoliyatiga tahliliy nazar**

Ma'lumki, sobiq SSSR tizimi parchalanib ketgandan so'ng, mazkur "qizil imperiya" o'rniда o'z beshta mustaqil davlatlar vujudga keldi. Ushbu davlatlar o'z suverenitetini e'lon qilgach, milliy manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, sobiq ittifoq doirasida mavjud bo'lgan va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish maqsadida o'zaro suveren tenglikqa asoslarga birlashmaga asos soldilar. Shunday qilib har tomonlama manfaatlari va teng huquqli hamkorlik umumiyligi inqirozidan chiqish iqtisodiy integratsiyani takomillashtirish, barcha suveren davlatlari uchun MDH kerakli va zarur bo'lgan mexanizm, ega bo'ldi.

Mazkur siyosiy birlashma 1991-yil 8 deqabrdagi Belorussiya poytahti Minsk shahrida Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorussiya tomonidan tuzildi va uni MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) deb nomlashga kelishib olindi. Shuningdek uchchala davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Bitimda SSSR chuqur siyosiy inqirozga uchrab parchalanib ketganligi qayd etildi. Shu bilan birgalikda kelgusida uchchala davlat siyosiy, iqtisodiy

gumanitar, madaniy sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi.<sup>1</sup>

1991-yil 21 deqabrdagi Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikalari qo'shildilar ular Belorussiya, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsab va qoidalari to'g'risidagi Deklaratsiyaga Almati shahrida imzo chekdilar.

MDH tashkil etilgandan buyon o'tgan davr mobaynida unga a'zo davlatlar boliklarning 30 dan ortiq kengashi bo'lib o'tdi. MDX doirasida 1400 dan ortiq qaror va hujjatlar qabul qilindi. Almati uchrashuvida Rossiyaning Sobiq SSSR o'rniiga BMT va xalqaro tashkilotlarda a'zolikni davom ettirishi, Yadro quroli bo'yicha, Qurolli kuchlarga qo'mondonlik qilishni Ye.I.Shaposhnikovga topshirish bir qancha masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi. Mazkur uchrashuv MDH tashkilotining tashkiliy strukturaviy jahatidan shakllanishi belgiladi. Ko'p o'tmasdan Belorussiya uchrashuviga bo'lib o'tdi. Bunda MDH mamlakatlari davlat boshliqlarining kengashi to'g'risidagi, MDH mamlakatlari hukumat boshliqlarining kengashi to'g'risidagi, Qurolli kuchlari va chegara qo'shinlari to'g'risidagi, Kosmik fazoni tadqiq etish, undan birgalikda foydalanish xaqida, Sobiq SSSRning chet ellardagi mol-mulki to'g'risida bitimlar imzolandi. Bundan keyingi faoliyatda tashkilotning vorisi sifatida Rossiya Sobiq SSSRning chet mamlakatlardagi tashqi qarzlarini to'lashni, MDH ga a'zo mamlakatlarini xavfsizligini va barqarorligini ta'minlashda ularni chegaralar dahsizligini ta'minlashda ma'lum miqdorda qurolli kuchlarni tashkil etishda, barcha masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishda tashkilotga a'zo mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlari kengashi ishtirokini ta'minlashni o'z zimmasiga oldi. MDH doirasida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga doir talaygina ishlar amalga oshirildi. Masalan 1992-yil 15-mart Kiyevda MDH davlatlarining chegaralarini va hamdo'stligining dengiz iqtisodiy zonalarini qo'riqlash to'g'risidagi bitim imzolandi. Ayniqsa 1992-yil

<sup>1</sup> Q.N.Nazarov, S.A.Jorayev Davlatlar va xalqaro tashkilotlar. Akademika nashriyoti, Toshkent-2005 yil, 162 bet.

15-may Toshkentda bo'lib o'tgan konferensiyada Kollektiv xavfsizlik, tinchlikni saqlash, kollektiv kuchlarning maqomi to'g'risidagi bitimni imzolanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur bitim asosida Chegara qo'shinlarini pul bilan ta'minlash. Qurallli kuchlarini qisqartirish va ular sifatini oshirish masalalariga oydinlik kiritdi. 1993-yil yanvarda Minskda Afg'oniston-Tojikiston chegaralarini mustahkamlash uchun MDHning tinchlik o'rnatuvchi harbiy qismini yuborish to'g'risida bitim imzolandi. Imzolangan bu bitim MDH ning janubiy sarxadlaridagi vaziyatni barqarorlishtirish, tinchlikni ta'minlash, Tojikistonda davom etayotgan keskin mojarolarning oldini olishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bundan tashqari MDH ning kengashlari (1996-yil 28-aprel, 1996-yil 17-may Moskva, 1997-yil 23-oktabr Kishinyov) bo'lib o'tdi. Bu kengashlarda integratsiya jarayonlarini tezlashtirish konsepsiysi, uyushgan jinoyatchilikqa qarshi birgalikda kurash dasturi, MDH doirasida qabul qilingan hujjatlarning bajarilish ahvoli va samaradorligini oshirish MDH ning istiqbollari, MDH faoliyatini barcha a'zo davlatlar manfaati nuqtai-nazardan yaxshilash va takomillashtirish masalalari muxokama qilindi.<sup>1</sup>

Mazkur qonunlar mintaqadagi har tomonlama siyosiy axvolni yaxshilashga olib keldi. Bu siyosiy jarayonlarni kuzatib turgan hamda tashkilotning mamlakatdagi inqiroziy vaziyatni hal eta olishiga ishongan Gruziya 1993-yilda MDHga a'zo bo'lib kirdi. Gruziyani MDH ga a'zo bo'lib kirishi xalqaro siyosiy maydonda tashkilotga bo'lgan ishonchni ortishiga olib keldi.

1993-yil MDH Ustavi qabul qilindi. Agar bir MDH ning Ustavidan kelib chiqib maqsad va vazifalari haqida gapiradigan bo'lsaq davlatlarning inson huquqlarini va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosiy aloqalarini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini takomillashtirish aholi sog'lig'i va atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va migratsiya siyosatini erkinlashtirish, uyushgan jinoyatchilikqa qarshi kurash, mudofa siyosati, hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi.

<sup>1</sup> Yangi O'zbekistonning yetti zafarli yurishi. "Sharq" T. 1998 yil, 195-bet.  
182

MDH a'zolarining bargalikdagi faoliyat sohasidagi birgalikda amalga oshiriladigan quyidagi tadbirlar kiritildi.

– tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirish mudofa siyosati va tashqi chegarani muhofaza qilish;

– umumiqtisodiy muhitni shakllantirish va rivojlantirish, Umumyevropa va Yevroosiyo bozorini shakllantirish;

– iqtisodiy islohot o'tkazish;

– bojxona siyosatini birga olib borish;

– transport va aloqa shuningdek energetika tizimlarini rivojlantirish;

– uyushgan jinoyatchilikqa qarshi kurash;

Dastlabki davrlarda MDH ga a'zolarning (Gruziya va Moldaviya) ortishini va tashkilot faoliyatini ko'plab sohalar (ayniqsa mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash) da faollashganligini ko'rishimiz mumkin.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)- bir butun davlat, federatsiya yoki mamlakat emas, harbiy blok ham emas, davlatlar hamdo'stligining yangicha shakli, Unga kiruvchi har bir davlat xalqaro huquqning mustaqil va teng huquqli sub'etidir.<sup>1</sup>

MDH ning asosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun Hamdo'stlik davlatlari o'zaro munosabatlarda qo'yidagi qoidalarga rivoja qiladi;

– davlat suverenitetini o'zaro tan olish va hurmat qilish;

– teng huquqlilik va bir-birlarini ichki ishlariga aralashmaslik;

– iqtisodiy kuch va boshqa tayziq uslublarini qo'llashdan voz kechish;

– bahsli muammolarni kelishtiruvchi vositalar va xalqaro huquq normalari va tamoyillari asosida hal etish;

Yuqoridagi qoidalardan ko'rinish turibdiqi MDH faoliyati to'lik xalqaro jamiyat qabul qilgan bir biriga o'zaro hurmat tamoyili asosida amalga oshirilishni ko'zda tutadi.

MDH doirasida haqiqiy a'zolardan tashqari ayrim masalalarda qatnashuvli a'zolar ham bo'lishi mumkin. MDH o'z faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida turli organlarni tashkil etdi.

<sup>1</sup> A.Jalolov, Q.Xonazarov taxriri ostida "Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at" "Sharq"-T.: -2000 yil, 152bet.

Jumladan, Davlat boshliqlari kengashi. Hukumat boshliqlari kengashi. Tashqi ishlar vazirlari kengashi. Davlatlararo iqtisodiy qo'mita. Markaziy Sankt-Peterburgda bo'lgan Parlamentlararo bo'lgan assambleya va boshqalardir. MDHning doimiy ishchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvofiglashtiruvchi-maslahatchi qo'mita bo'lib, barcha organlar ishlarini muvofiglashtirib boradi. Bu qo'mitaning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi 1 yilda qamida ikki marta o'tkaziladi. MDX organlari faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi. 1992-yil 6-iyulida MDHning 9 ta davlat-Armaniston, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston, Ukraina, Moldaviya va Turkmaniston davlatlari Rossiyaning yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomada ishtirok etishni qo'llab-quvvatladilar. Rossiya yadro quroliga ega bo'la turib, qo'shilishga tayyorligini bildirdi. Bu shartnomadan faqat bir muddani ajratib ko'rsatish mumkin. Bu 7 modda bo'lib, unda shunday deyiladi: "ishirokchi davlat hududida KX tizimi obyektlarini o'rnatish maxsus kelishuvlar bilan amalga oshiriladi. Rossiya KXSh davlatlari bilan ikki tomonlama kelishuvlarni tuzishi bu ahvolni yengillashtirdi va sobiq ittifoq Respublikalarida Rossiya harbiy obyektlar maqomi tartibga solindi.(keyingi vaqtarda bunday obyektlar soni, keskin qisqardi.) Undan tashqari, MDH birlashgan tizimi tuzish uchun yuridiq asos sifatida KXSh muhim rol o'ynadi. Bu haqda kelishuv 1995-yil 10-fevralda imzolandi. Shu bilan birga MDH doirasida KX muammosiga zam'onaviy yondoshuvlar shakllantirilmadi va amalga oshirilmadi "Kollektiv xavfsizlik" atamasi 1990-yillar boshida urf bo'ldi.

Kollektiv xavfsizlik konferensiyasini ishlab chiqishdagi kechiqish hamkorlikni bir qator xalqaro-huquqiy aktlarini vujudga keltirdi. Masalan, MDH nizomini uchinchli bo'limi: "KX va harbiy-siyosiy hamkorlik" KX to'g'risida to'lik tasavvur bermaydi. Hatto KXSh ishtirokchi davlatlari KX konsepsiyasida (1995-yil 10-fevral) tashqi xavflarni kelib chiqishi manbalarini ko'rsatiladi. Lekin ishtirokchi davlatlar o'rtasida o'zaro ziddiyatlar xavfi to'g'risida so'zbormaydi.

Shunday qilib, MDH kolektiv xavfsizlik tizimi qurilishi KX to'g'risidagi shartnomaga orqali emas normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tinchlik masalalari bo'yicha hujjatlar imzolagan davlatlar, KXSh ishtirokchilari hamkorligidagi tinchlik

operatsiyalarida MDH davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi xavfsizlik va mudofa sohasidagi o'zaro munosabatlardan hamkorlikni boshqa yo'nalishlari bilan solishtirganda murakkab yo'lni bosib o'tdi. Avvaldanoq, KX to'g'risidagi shartnomasi hamkorlikdagi davlatlarning ko'pchiligini egalladi.

Xalqaro huquq nuqtai nazaridan, chet el tadqiqotchilari 3 ta qategoriya bo'linadi. Rossiya federatsiyasi fuqarolari o'z vatanini barcha davlatlarning fuqarolari ular boshqa barcha huquqlar foydalanishlari kerak. Niroyat, boltiq bo'yisi davlatlari fuqaroligi bo'lmagan guruh ko'p.

1990-yillar ohirida tashkilot faoliyatini qayta tashkil etishga bir necha o'rinishlar bo'ldi. Kishinyovdagi davlat boshqarish tizimini qayta ko'rib chiqish bo'yicha qaror qabul qilindi. Hamkorlikda rivojlantirish istiqbollari va strategiyasini belgilash, MDH davlatlari har birini rolini oshirishi masalalari dolzarb qilib qo'yildi. 1998-yil qaror qabul qilish uchun MDH faoliyatini muqammallashtirish masalalari bo'yicha davlatlararo forum chaqirildi.

Forum ishtorokchilari ta'kidladiqi hamkorlikda integratsion jarayonlarni rivojlantirish, hamkorlikda savdo-iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini ishlab chiqish va erkin savdo zonasini shakllantirish muhim elementi hisoblanadi. 1994-yil 15-aprelida erkin savdo zonasini tuzish to'g'risidagi kelishuvga o'zgartirish va qo'shimchalar qiritish to'g'risida bayonnomma tayyorlandi.

1999-yil 2-aprelida davlat boshliqlari kengashi MDH organlari tizimini qayta shakllantirish va takomillashtirish to'g'risidagi forumda qabul qilingan qaror tasdiqlandi. Bu hujjatlarga ko'ra, MDHning ijroiya qo'mitasi hamkorlikni doimiy ishlovchi yagona ma'muriy organiga aylandi. Shu bilan birga davlat budgetidan moliyalashtiriladigan 10 ga yaqin tarmoqni ishchi organlari tugatildi. Ularning vazifalari ijroiya qo'mitasiga o'tkazildi. Umumiy ishchilar soni 1190 kishidan 710 kishigacha, 40% ga qisqardi (ulardan 356 tasi ijroiya hokimiyat xodimlari, 354 tasi MDHning boshqa organlari xodimlari). Keyinchalik MDH davlatlari Antiterroristik markazi tashkil etilishi bilan ijroiya qo'mitasi 46 xodimga qisqardi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Забуров А. Органы СИГ и Интеграция Содружества и Национальные интересы-Москва.: 2005

Davlat boshliqlari kengashi va hukumat boshliqlari kengashi vakolatlari tasdiqlandi, tashqi ishlar vazirlari kengashi to'g'risida yangi qaror qabul qilindi. MDHni iqtisodiy kengashi tuzildi. Undan tashqari, hamkorlik organlarida rahbariyat muddatlari aniq belgilanadi. Iqtisodiy kengash qoshida iqtisodiy muammolar bo'yicha doimiy ish olib boruvchi komissiya faoliyati tashkil etildi. Natijada hamkorlikni huquqiy asosi 1000 hujjatga yetdi. 1997-1999-yillarda MDH doirasida olib borilgan islohatlar natija bermadi.

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishini oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma-boschiq xalqaro munosabatlар tizimiga kirib, mustaqilliklari, va suverenitetini mustahkamlashga ko'mak berdi. Biroq MDHga a'zo mamlakatlarning o'zaro imkoniyatlari har qanday sohada keng bo'lismiga qaramay ayrim qamchiliklarga yo'l qo'yildi. Bunga albatta, biz ijobjiy ma'noda qaraydigan bo'lsaq har bir MDH ga a'zo mamlakatlar o'tish davrida o'z ichki muammolariga ko'proq ahamiyat qaratishi. shu muammolar doirasida o'rashib qolishi natijasida MDH tashkilotining faoliyatiga nisbatan e'tibor pasayishi tabiiy hodisa edi. Agar biz MDH ning 2000-yildan keyingi faoliyatiga nazar solsaq ushu tashkilotga jahon hamjamiyatining qiziqishini ortishini, jahonda sodir bo'layotgan global miyisosidagi muammolarni hal etishda MDHning ahamiyatini ortishi undagi a'zo mamlakatlarning siyosiy-iqtisodiy markazlarga aylanayotganligi, xalqaro diplomatik munosablarda MDH mamlakatlarning asosiy subyekti sifatida e'tirof etilayotganligini, uning tarkibida turli hil mintaqaviy muammolarni hal etishga asoslangan ishchi organlarining tuzilayotganligini guvohi bo'layapmiz. Demak kelajakda MDH tashkilotining istiqboli mintaqadagi mamlakatlar uchun progressiv ahamiyat qasb etadi.

Mintaqaviy barqarorlik, mintqa ko'lamida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini hal qilishda ilgari sovet ittifoqi tarkibiga kirgan mamlakatlar o'rtasida vujudga kelayotgan munosabatlар alohida o'rın tutadi. 1991-yil deqabrida MDH mamlakatlari ikki tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik mavjudligini tasdiqladi. Bunday hamkorlikka hamdo'stlikqa a'zo mamlakatlarning hududiy yaqinligini va iqtisodiy jihatdan bog'langanligiga emas, balki chuqur tarixiy

ildizlar, madaniy va ma'naviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'limoqda. Biz uchun masalaning mohiyati mustaqillik yoki integratsiyani tanlash emas, balki bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirishdan iborat. Biz MDHni haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko'rishni istar ediq. Masalaga bunday yondashishning MDH mamlakatlarining chuqur integratsiyasi<sup>1</sup> deb atalgan ba'zi siyosiy g'oyalarga hech bir aloqasi yo'q. To'rtlar shartnomasi (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belarus) va ikkilar shartnomasi (Rossiya va Belarus) imzolanganidan beri ancha vaqt o'tdi. Bu Shartnomalarni imzolash va ularni amalga oshirish-bu davlatlarining ichki ishi.

Mustaqil O'zbekistonni tashvishga solayotgan asosiy strategik masala-eski imperiyani qayta tiqlashga yo'l qo'ymaslik masalasıdir. Afsuski, biz tashvishlanish uchun jiddiy asoslarga egamiz. Bu tashvish ana shunday yig'lnlarda qabul qilingan hujjatlarning qoidalari, ular ro'qach qilib keltirilayotgan dalillar va da'volar tufayli tug'ilmoqda. Ho'sh ular nimalardan iborat?

Birinchidan, MDH o'zining bugungi xolati bilan uni tashkil etish chog'ida nazarda tutilgan g'oyalarga mos kelmayotganligi bu mo'rt tizulma hech narsani amalda bajarmayotganligini aytmoq-dalar. Ha, bunday fikrlarda jon bor. Lekin, qabul qilingan qaror-larning MDH doirasida bajarilishini ta'minlaydigan mexanizmlarni chinakamiga, amalda izlash o'rniiga, davlatlar o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, ularni muayyan mazmun bilan boyitish o'rniiga, ko'proq eski davlatlarni qo'msash hissi paydo bo'limoqda. Davlatlardan yuqori turuvchi tuzilmalar-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, idoralar-Muvofiqlashtiruvchi yoki Yuqori Kengash, qo'plab amaldor ishlaydigan Ijroiya yoki Ma'muriy qo'mita, birlashgan harbiy-siyosiy tuzilmalar va shu kabilarni tashkil etishga harakat qilinmoqda. Sobiq ittifoqning ulkan makonidagi barcha masalalarini yagona markazdan turib hal qilish mumkin bo'lgan davrlardagi tartib odamlar ongiga nioxoyatda chuqur singib ketganligi sezilmoqda.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Q.N.Nazorov, S.A.Jo'raev Davlatlar va xalqaro tashkilotlar. Akademika nashriyoti, Toshkent-2005 yil. 162-bet.

Ma'lumki, davlatning mudosa qobiliyati uning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy va ma'naviy imkoniyatlaridan tarkib topadi. Bu sohada biz yuritayotgan siyosatning asoslari Oliy Majlis tomonidan jamiyatimizning hamma qatlamlarining keng va har tomonlama muhokamasidan so'ng qabul qilingan harbiy doktrinada mustahkamlab qo'yilgan. Xalqimiz uning mudosa xususiyatini hamda unga asos bo'lgan qoidalarni ma'qulladi. Bu eng avvalo, kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish, mudosaa qobiliyatini oqilona darajada saqlab turish, xalqaro huquq qoidalari va normalariga og'ishmay rioya etish majburiyatlarini qabul qilish, xalqaro bitimlar bo'yicha o'z zimmamizga olgan majburiyatlarni bajarish va shu kabilardir.

Bugun biz 2005-yil va keyingi yillar uchun mo'ljallangan tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda bu masalaga dunyoda va mintaqamizda vujudga kelayotgan murakkab va ziddiyatli vaziyatni inobatga olib, hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan milliy manfaatlarimiz va mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan yondoshmog'imiz kerak. Biz milliy manfaatlarimizga mos keladigan barcha mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilishga tayyormiz. Ayni paytda xalqaro hayotning muayyan prinsipial masalalari bo'yicha qarashlarimizda tafovut bo'lgan davlatlar bilan ham ochiq muloqot olib borishga hozir ekanligimizni bildiramiz. Biz xalqaro munosabatlarni mafkuralashtirishga bo'lgan har qanday urinishga qat'iyan qarshimiz.

Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, bu mintaqaning xavfsizlik hududiga aylantirishni tashqi siyosatimizning muhim ustuvor yo'nalishi etib belgilab olganimiz. Biz integratsiya jarayonlari va bozor islohotlarini rivojlantirishga, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiyo bozorini shakllantirishga alohida ahamiyat beramiz.

Mintaqamizdag'i hozirgi mavjud ahvolni real va xolis baxolar ekamiz, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va qayta tiqlash borasida davom etayotgan ijobjiy jarayonlar bilan bir qatorda, mintaqada strategik mavhumlik saqlanib qolayotganini ham tan olishga to'g'ri keladi. Bu yerda jahondagi yirik davlatlar va bizga qo'shni mamlakatlarning geostrategik manfaatlari mavjud bo'lib, ba'zida ular bir-biri bilan kelishmasligini ham kuzatish mumkin.

Xalqaro terrorizm, eksteremizm, narkoagressiya va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan boshqa taransmilliy tahdidlar hamon saqlanib qolmoqda. Bugungi Afg'onistonda giyoxvand moddalar ishlab chiqarish hajmining ortib borayotgani jahon hamjamiyati va mintaqadavlatlarining qattiq tashvishga solayotir.

Biroq, bu illatga qarshi faqat giyohvand moddalar ishlab chiqarilayotgan hudud atrosida "Xavfsizlik zona" sini tashkil etish, va jazolash va ma'muriy chora-tadbirlarni kuchaytirish bilangina kurashish kifoya qilmaydi. Bu muammoni birinchi navbatda Afg'oniston iqtisodiyotini chuqur tarkibiy o'zgartirish, aholini tinch va buniyodkor mehnati bilan band etish orqali hal qilish mumkin va lozim.

Bunday tahdidlarga qarshi samarali choralar ko'rish, mintaqada xavfsizlik va barqaror rivojlantirishini ta'minlash bilan bog'lik boshqa vazifalarni faqat shu zaminda joylashgan davlatlarning faol ishtiropi bilan hal etish mumkin.

Aynan shu bois bu yerda yashayotgan xalqlarning muhim hayotiy mansaftalariga daxldor bo'lgan iqtisodiy suv energetika, transport-kommunikatsiya, ekologiq harakterdagi umummintaqaviy masalalarni yechish uchun o'zaro hamjihatlik va amaliy harakatlar mexanizmini shakllantirish muhim ahamiyat qasb etadi. Bu borada xalqimiz asrlar davomida shakllangan "Qo'shning tinch-sen tinch" degan hayotiy naqlga doimo amal qilib kelmoqda. Biz bundan bauyon ham shu tamoyilga qat'iy rioya qilamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, Shanxay Hamkorlik tashkiloti, Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorligimiz mintaqada xavfsizlik, tinchlik va barqarorlik rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston tashqi siyosiy sohasidagi vazifalarini hal etishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. O'zbekiston bu nufuzli tashkilotning mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda hamda hozirgi zamonning boshqa dolzarb muammolarini xal etish borasidagi ishtiropi kengayishidan manfaatdordir. Shu bilan birga jahon maydonida xalqaro xavfsizlik masalasi bilan bog'lik mo'tloqa yangi tendensiya va vaziyatlar, shuningdek yangi tahdidlarning paydo bo'lishi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilmalarini, birinchi

navbatda, uning yetakchi organi-Xavfsizlik Kengashini islox qilish va tarkibini qayta qo'rib chiqish tezlashtirishni taqazo etmoqda.<sup>1</sup>

XXasr ilmiy texnika asri, inson Koinot sirlari qo'yniga kirib borayotgan asr, axborot va g'oyat ulkan texnikaviy imkoniyatlari asri bo'lib tarixga kirdi. Shu bilan bir davrda bu asrning ohirida diniy qadriyatlarning uyg'onish davri, vazmin, behuda o'rinishlardan xoli diniy ma'naviyatga o'ziga xos tarzda qaytish davri bo'ldi. Bunday jarayonlar MDH oldiga ma'lum bir vazifalarni yuklamoqda.

## **6.MDH doirasida davlatlarning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari hamda kollektiv xavfsizlik tizimini yaratish istiqbollari**

MDH doirasida kollektiv xavfsizlik tizimining shakllanishi SSSRning qulashi va MDH tashkil topishi bilan boshlandi. Masalan 1992-yil 14-fevralda mudofa vazirlari kengashi tuzishi to'g'risida va MDH qurolli kuchlari bosh qo'mondonligi tuzishi to'g'risida qarorlar qabul qilindi. Shu yil 20-martga o'tish davrida Hamkorlikning Birlashgan Qurolli Kuchlari (XBQK) to'g'risida kelishuv imzolandi. Shu bilan birga MDHning yangi davlatlari o'z qurolli kuchlarini shakllantira boshladi. Bu amalda yangi mustaqil davlatlar qurolli kuchlari bo'linishiga olib keldi. Keyinchalik Toshkentda Yevropa qurolli kuchlari to'g'risidagi shartnoma bo'yicha kvotalar to'g'risida shartnoma (DOVSYe) imzolandi.<sup>1</sup> Shuning uchun, 1992-yil mayiga kelib aniq bo'ldiqi, MDH ning markazlashgan armiyasini yagona nazorat ostida ushlab turish mumkin emas. Buning sababi markazlashgan kuchlarni kuchayishi, qo'shnilarini boshqarish tizimining inqirozi, sobiq SSSR Respublikalaridagi ziddiyatlar va boshqa bir qancha omillar. Shu bilan birga Respublikalarni ko'pchiligida shunday fikr o'sdidi. Harbiy siyosiy doiralardda integratsiya va mexanizm shakllari sifati oshib bordi. Aynan shu omillarni hisobga olib 1992-yil 15-mayda

<sup>1</sup> I.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangi mamlakatni modernizasiya va islox etishdir. Toshkent "O'zbekiston"-nashriyoti matba ijodiy uyi 2005 yil 56-62bet.

<sup>1</sup> Жакимов Б. Коллективная безопасность в СНГ//Международная жизнь 2001, №2 с17.

Toshkentda Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston vakillari kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Bu hududiy xavfsizlik tashkiloti BMT nizomining 52-moddasiga mos keladi. Keyinchalik unga Azarbajyon (1993-yil 24-sentyabr), Gruziya (1993-yil 9 deqabr), va Belorusiya (1994-yil 3-yanvar) qo'shildi. Bu hujjat barcha davlatlar tomonidan radifiqatsiya qilingandan keyin 1994-yil 20-aprelda kuchga kirdi.<sup>2</sup> Ta'kidlash kerakki bu shartnoma boshidanoq MDH ni harbiy birlashtirdi. Unga qo'shilgan barcha davlatlar Yevropa va Osiyodagi xavfsizlik tizimining asosini tashkil etdi.

Bir qator sabablariga ko'ra shartnomaga MDH dan boshqa davlatlar ham kirdi. Shunga ko'ra keyingi 10 yillikda MDH doirasida bo'lganidek KXSh doirasida ham harbiy integratsiya jarayoni kuchaydi. Hamkorlik-xavfsizlik tashkiloti sovet armiyasi asosida bo'lmay balki yangi koalitsion kuchlar tuzildi. 1993-yil sentyabrda MDH ning xavfsizlik tashkiloti bosh qo'mondonligi qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Keyinchalik harbiy sohadagi integratsiya doirasida bir qator kelishuvlar imzolandi.<sup>1</sup> Ular orasida 1995-yil 10-fevralda imzolangan PVO birlashgan tizimini tuzish to'g'risida kelishuvni alohida ko'rsatish mumkin. Undan tashqari boshliqlar shtabi qo'mitasi, harbiy texnik qo'mita shaxsiy tarkib bilan ishlovchi organ rahbarlari qo'mitasi va boshqa organlar tuzildi.

MDH doirasida geosiyosat tarqalishi shunga olib keldiki yagona xavfsizlik tizimining shakllanishi jarayonida turli darajadagi va turli tezlikdagi integratsiya payodo bo'ldi. Bu esa xavfsizlik tizimini yaratishda MDH harbiy siyosiy organlarining roli pasayishiga olib keldi. Harbiy integratsiya jarayoni 3 ta harakterga: MDH KXSh va ikki tomonlama aloqalar doirasida bordi.

Ta'kidlash kerakki, MDH ning antiterroristik markaz sifatidagi faoliyati 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan keyin kuchaydi. Harbiy hamkorlik natijasi sifatida MDH hududida kollektiv tinchlik

<sup>2</sup> Жакимов Б. Коллективная безопасность в СНГ//Международная жизнь 2001, №2 с17.

<sup>1</sup> Туманов Б. Аксельбант для государственников: об итогах июньского 2000 г. саммита СНГ, подписавши Договор о коллективной безопасности //Новое время.-2000г. 22 октября №4-с 8

operatsiyalari o'tkazildi. MDH ning bu tashkiloti sobiq sovet ittifoqi hududidagi qurolli to'qnashuvlarni bartaraf etishga qaratilgan tinchlik operatsiyalari faol ishtirok etdi. Moskva bu ziddiyatlarni muhim manfaatlarga va milliy manfaatlarga xavf sifatida qaradi. Rossiyanı Somali, Gaitidagi, Bosniyadagi 1200 harbiy hizmatchilari tinchlik operatsiyalarini olib bordi. MDHni turli hududlarida 1990-yillar ohiriga kelib tinchlik operatsiyalaridagi asqarlar soni 16000ni tashkil etdi. 1995-yil 10-fevral oliv siyosiy organ-KX kengashi qarori bilan kollektivq xavfsizlik konsepsiysi tasdiqlandi. Unda a'zo davlatlarning harbiy-siyosiy doiralardagi asosiy prinsiplari belgilandi. Shu yili noyabrga oyida KXTSh BMT kotibiyatida rasmiy ro'yhatga olindi. 1990-yillar ohiriga kelib KXSh ni ba'zi a'zolari shunday xulosaga keldiki, bu xavfsizlik sohasidagi barcha manfaatlarga mos kelavermaydi. U ayrim davlatlar o'rtaсидаги ziddiyatlar: Rossiya-Gruziya, Armaniston-Azrbayjon va O'zbekiston-Tojikiston o'rtaсидаги ziddiyatlarda ko'zga tashlandi. Gruziya, Azrbayjon vaa O'zbekistondagi 1999-yilgi voqealar KXSh ni noziqligini ko'rsatdi.<sup>1</sup>

Rossiyanı o'zi MDH hududida Xavfsizlik tizimini shakllantirish taraflori edi. Bu g'oya Rossiya xavfsizlik kengashi kotibi S.Ivanovning Myunxendagi xalqaro xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan 37-konferensiyasida (2001-yil fevral) ta'kidlandi. Uning so'zlariga ko'ra, Rossiya rahbariyati shunday xulosaga keldki, to'lik integratsion birlashishda hamkorlik transformatsiyasini tezlashtirish yaqin orada mumkin emas hududda hamkorlikni shakllantirishda yangi alternativ hududiy tashkilot-GUAMning o'rnini katta bo'ldi.

KXSh keyingi taqdirda Bishkek (2000-yil oktyabr), Yerevan (2001-yil may) va Moskva (2002-yil may) konferensiyalari muhim ahamiyatiga ega bo'ldi. Bishkek uchrashuvida nodavlat boshliqlari KXSh ichida xavfsizlikni 3 ta hududiy tizimlari (Yevropa, Kavkaz, vositalarini shakllantirish maqomi to'g'risidagi kelishuv imzolandi. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari uchun milliy xavfsizlikka asosiy

tahdid islam terrorizmi va etniq separatizm hisoblanadi. Belorusiya fikricha, bunday kompleks fikrlar NATOni Sharqqa kengayishi bilan bog'lik.

KXSh doirasida harbiy integratsiyasi rivojlanishida Yerevanda o'tgan KX kengashi yig'ilishi muhim bosqich bo'ldi. KXSh tarihida birinchi bo'lib, ko'p tomonlama kollektiv kuchlarni shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Undan tashqari Bishkekda KXSh shtabi to'g'risida, sharqiy Yevropa va Kavkaz yo'nalishida 2 tomonlama hududiy guruh shakllantirish to'g'risida shartnomalar o'tkazildi. Kavkaz yo'nalishdagi birlashgan guruh tarkibiga Rossiya Armaniston hududidagi harbiy bo'linmasi kirish kerak edi. Shunga o'xhash hududiy guruh Sharqiy Yevropa yo'nalishida Rossiya va Belorusiyani harbiy bo'linmalarini kiritiladigan bo'ldi.

2002-yil mayida Moskva KXK ning yubiley kengashi bo'ldi. Unda KXSh imzolanganligini 10 yilligi bo'ldi. Konferensiyyada KXShni KX to'g'risidagi shartnomasi tashkiloti (ODKB) ga aylan-tirish to'g'risida qaror qabul qilindi. 2002-yil 1-iyulga kelib mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlari o'rinnbosarlari darajasida ishchi guruhi shakllantirilgani sir emaski. hozirgi kunda Rossiyadan tashqari KXTSh tashkiloti a'zolaridan hech bir davlat o'z xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlarga mustaqil ravishda qarshi tura olmaydi. Bunday sharoitda KXShT davlatlari uchun o'z milliy xavfsizligini ta'minlash asosiy ahamiyatga ega edi. Bu masala Moskva tomonidan "yadro qafolati" deb nom oldi. 2000-yilda Rossiya Federatsiyasi muhim rol o'ynaydi.<sup>1</sup> Bu muhim hujatlarda ko'rsatishicha, Rossiya o'ziga yoki o'z ittifoqchilariga hujum bo'lgan sharoitda yadro qurolidan foydalanish huquqiga ega. KXShT davlatlarining harbiy- texnik va harbiy-siyosiy 2 tomonlama hamkorligi integratsiyaning muhim belgisi bo'ldi. Shartnomasi ishtirokchilari o'rtaaside quroli va harbiy texnikalarni imtiyozli narxlar bo'yicha joylashtirish to'g'risidagi qarorni qabul qilinishi bu sohada katta ahamiyatga ega bo'ldi. KXShT faolligi va uni imkoniyatlarini oshirishda muhim bir yo'nalish bu xavf-xatarlarga qarshi turish va ishtirokchi davlatlar harbiy tizimini yanada rivojlantirish zarurligiga chiqarish bo'ldi.

<sup>1</sup> Н.Масанов "Региональная стабильность в Центральной Азии," Центральная Азия и Кавказ 1999-№1(2) с8

<sup>1</sup> Шиников Ю. Период полураисиада СНГ закончился. Что впереди? Безопасности Евразии-2002-, №1(январь-март)  
193

Kollektiv mudofa konsepsiysi hududiy tizimni shakllantirish, hududdagi davlatlarini birgalikda tashqi agressiyaga qarshi kurashishini aks ettiradi. Uning asosiy elementlari: Dushman hujumi, inqirozi sharoitida harbiy tizim shakllantirish konsepsiyalaridir. NATO va sobiq Varshava shartnomasi tashkiloti buning yorqin misollaridir. MDH doirasida harbiy integratsiyani hozirga axvoli shuni ko'rsatadiqi, kollektiv mudofaa tizimini tuzish hamkorligidagi ba'zi davlatlarni faqat tashqi xavfdan birlashtira oladi.

Kollektiv xavfsizlik shartnomasi imzolanganligiga 10 yil to'lgan kuni harbiy-siyosiy integratsiyaning hozirgi holati va istiqbollarini harakterlash va ba'zi natijalarini aniqlash uchun asos bo'ldi. Kollektiv qurolli kuchlari shakllanganligidan boshlab har yili qo'shma shtab va dala o'quv amaliyotlari o'tqazib kelinadi. Bunda KXShT davlatlarining hammasi ishtirok etadi. Masalan, Armavir poligonida Rossiya va Armaniston qurolli kuchlari o'rtaida ikki tomonlama o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Hamkorlik doirasida tuzilishida boshqa tomonidan MDH davlatlari o'rtaсидagi kelishmov-chiliklar hatto ziddiyatlar ham kuchayib ketdi.

Kalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi ba'zi masalalari muhimdir. Dunyo siyosiy haritasidan sovet ittifoqi yo'qolganidan keyin yagona mudofaa tizimi ham quladi. Milliy qurolli kuchlarni shakllantirish asosiy vazifa bo'lib qoldi. Davlat suverenitetini ta'minlash va milliy xavfsizlikni ta'minlashni alternativ yo'llarini ishlash asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi.

Bu jarayonlar bilan parallel ravishda hududiy havfsizlikni mustahkamlash bo'yicha urinishlar bo'ldi. Masalan, 1994-yilda Markaziy Osiyo hamkorlik a'zorlari o'rtaida harbiy texnik hamkorlik to'g'risida kelishuv imzolandi. 1995-yilda Markaziy Osiyo hamkorligi oly-organi davlatlararo kengash mudofa vazirlari kengashi to'g'risida qaror tasdiqlandi. MVK maqomi hujjatiga mos ravishda davlatlararo kengash ishchi organ sifatida belgilandi. Uning sohasiga harbiy hamkorlik sohasidagi asosiy masalalar kiradi. MVK harbiy va operativ tayyorgarlik, xavo hujumidan mudofa, quroq va harbiy texnikani ta'minlash, harbiy sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi.

1995-yil deqabrida Qozog'iston, O'zbekiston va Qирғизистон prezidentlari Jambuldagi uehrashuvda BMT rahnamoligida Markaziy Osiyon 3 ta davlat tinchliksevar batalionini shakllantirish to'g'risida qaror qabul qildi. Kollektiv tinchliksevar batalionini shakllantirish va tuzish 3 ta davlat rahbarlari BMT bosh kotibi B.B.G'oliya murojat qilib, BMT mutaxasislari guruhini jo'natishni iltimos qildi. Ular tashqi ishlar vazirligi va mudofa vazirligi vakillari bilan maslahatlar olib boradi, hamda BMT qo'shimcha kuchlariga kirish to'g'risidagi kelishuvda zarur hujjatlarni birgalikda tayyorlaydi. 1997-yil fevralida Markaziy Osiyo ittifoqi davlatlari boshliqlari sammitida Almata deklaratasiyi qabul qilindi. Bu deklaratasiyada yadro kuroli tarqalmasligi to'g'risida shartnoma fikrlari, Markaziy Osiyo yadro qurolidan holi hudud deb elon qilish zaruriyati o'z aksini topgan. O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonaga aylantirishga qaratilgan xalqaro tashabbusi 1993-yil sentyabrida BMT Bosh Assambleyasi 48-sessiyasida birinchi marta-e'lon qilindi.

1997-yil deqabrida BMT Bosh Assambleyasi Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining Olmata deklaratasiyasiga asoslanib erkin yadro qurolidan xoli zona tuzish haqida maxsus rezolyutsiya "Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona qurish" qabul qilindi. Hududdagi davlatlar xalqaro terrorizmning milliy va hududiy xavfsizlikka tahdid ekanini anglab u bilan kurashish maqsadida hamkorlikda harakat boshlandi. Masalan, 2000-yil aprelida Toshkent, Qozog'iston, Qирғизистон, Tojikiston va O'zbekiston davlat boshliqlari "Terrorizm siyosiy va diniy eksteremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfsizlik, barqarorlikqa, tahdidlarga" <sup>1</sup> Bu shartnoma 2001-yil 4-yanvarda kuchga kirdi.

Ta'kidlash kerakki Markaziy davlatlar subyekti sifatida hududiy siyosat yotadi. Lekin bu hali xalqaro munosabatlarning global darajasiga ko'tarilmadi.

Hozirgi sharoitda xavfsizlik faqat kollektiv bo'lishi mumkin. Bunda davlatlar o'z imkoniyatlarini birlashtirib harakat qiladi. Shuning uchun O'zbekiston BMT, YeXHT rahbarligida olib

<sup>1</sup> Шишков Ю. Период полунасыда СНГ закончился. Что впереди? Безопасность Евразии-2002, №1 (январ)

boriladigan tinchliksevar operatsiyalarida ishtirok etishga tayyor. Shu sabab bilan O'zbekiston hududida KX sistemasini tuzish tashabbuskorlaridan biri edi. 1992-yil mayda Toshkentda MDH a'zo davlatlarning dastlabki shartnomalari imzolandi. Faqat O'zbekiston qo'shilmaslik harakati a'zosi bo'lib, harbiy siyosiy guruhlarda ishtirok etmasligini bildirdi.

1994-yil iyulda O'zbekiston NATO ning tinchlik uchun hamkorlik dasturiga qo'shildi. Bu dastur KX xavfsizlik va barqarorlik tizimini yaratishga qaratilgan. Masalan, Markaziy Osiyo hududida tinchlik uchun hamkorlik dasturi Shimoliy Amerika ittifoqi va sherik davlatlar o'rtaсидagi hamkorlik bo'yicha munosabatlarni rivojlantirishning asosiy omillaridir.

#### Tinchlik uchun hamkorlik bo'yicha hamkorlik:

- milliy mudofani rivojlantirish va harbiy budgetlarini shakllanishda transscheriklik yutuqlarini birlashtirish;
- qurolli kuchlar ustidan demokratiq nazoratni mustahkamlaydi;
- Ishtirokchi davlatlar tinchlik operatsiyalarida o'z hissalarini qo'shish uchun tayyorgarlik va o'z potensialini mustahkamlashga yordam beradi;
- sherik davlatlarga harbiy tayyorgarlik va mashg'ulotlarni o'tkazish uchun Shimoliy Atlantika bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlarni yaratadi;
- sherik davlatlar armiyalari bilan NATO davlatlari qurolli kuchlari o'rtaсиda o'zaro aloqalarni rivojlantirishga imkon beradi;
- Favqulodda holatlarda harakatlarni rivojlantirishda ilmiy va iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishda hamkorlikka yordam beradi;
- sherik davlatlarning o'rtaсидagi kelishmovchiliklarni muvosiqi lashtirishga yordam beradi.

Tinchlik sari hamkorlik TSHning ishchi hujjatida NATO tomonidan olib boriladigan konsultatsiya dasturlarida ishtirokini o'z zimmasiga oladi. TSH dasturida 27 ta davlat ishtirok etmoqda. Jumladan Markaziy Osiyo davlatlari 1997-yilda ta'sis etilgan Shimoliy Atlantika hamkorlik tashkiloti tuzilgandan keyin (SYeAP) TSHning barcha ishtirokchilarini SYeAPning ishtirokchilariga aylandi. Shu bilan birga hamkorlik dasturini chuqurlashtirishga qaror qilindi. U siyosiy muloqot o'tkazish organi hisoblanadi. SYeAP ishtirokchi

davlatlari NATO bilan siyosiy munosabatlarni rivojlantirib tinchlikni mustahkamlash dasturida muhim rol o'ynaydi.<sup>1</sup>

2001-yil 1-3 avgustdag'i MDH davlat boshliqlarini Sochidagi noraeimiy uchrashuvda tarnsmilliy xavflarni bartaraf etish sohasida sustqashlikka, shu yili yanvar oyida Minskda bo'lib o'tgan MDH davlit organlari qo'shma majlisda narkotiq moddalarni noqonuniy aylashiga qarshi chora tadbirlar konsepsiyasini ishlab chiqish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bugungi kunda tashqi siyosat sohaesini muofiqlashdirish to'g'risidagi masala ham dolzarb bo'lib turibdi. Ta'kidlash kerakqa, bu sohada hamdo'stlik davlatlari yagona fikriga ega emas. Bir tomondan esa, idoralararo ko'p darajali dastur amal qilmoqda. 2000-yil 21-iyunda Moskva MDH davlat boshliqlarini strategik barqarorlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi masala bo'yicha bayonet berildi. 2000-yil 18 avgustda Yaltada "Gastuksizlar" uchrashuvida Prezidentlar BMT mingyillik sammiti va Assambleyasi muammolariga yagona yo'nalish taklif etish fikri bilanchiqdilar.

Boshqa tomondan, bir qator davlatlar: Ukraina, Azarbayjon va Gruziya tashqi siyosatda hamkorlikdan manfaatdor emas. Bu esa tashqi ishlar vazirliklari o'ttasidagi o'zaro konsultatsiyalar o'tkazishga xalaqit bermaydi.<sup>1</sup> Bu muhokama etiladigan masalaning manfaatlilik darajasiga bog'lik yuqoridagi davlatlar xalqaro tashkilotlarda hamkorlik maqomini tan olishmaydi.

MDH doirasida iqtisodiy aloqalarni ko'rib chiqamiz. O'tgan 10 yil davomida hamdo'stlik davlatlarida YaMM 33% ga, sanoat ishlab chiqarish 40% ga, qishloq xo'jaligi 28% ga qisqardi, unga ehtiyoj qamayib ketdi. Ko'mir qazib olish 1990-yillardagi 703 mil. Tonradan 2000-yil 413 tonnaga qamaydi. MDH davlatlarida eksportning umumiyligi hajmi 80% ni tashkil etdi. Import ko'rsatgichi 55% ni tashkil etdi. Ekspertlar fikricha hozirgi davrda MDH ning

<sup>1</sup> Ёрдюже II. Организация Договор о Коллективной безопасности (О деятельности этой организации) Международная жизнь 2005 г., № 2, с 72-85.

iqtisodiy potensiali tovar va hizmatlar bo'yicha atigi 35-40% ni tashkil etadi. Keyingi davrda hamkorlikni barcha davlatlarida makroiqtisodiy ko'rsatkich dinamiqasi o'zgargan. YaMM ni o'sish suratlari 2001-yilda o'rtacha davlatlar bo'yicha 6% ni tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarish 7% ga, qishloq xo'jaligi 8% ga, investitsiyalar 10% ga, transportda yuk tashish 7% ga o'sdi. 2001-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo hajmi 39% ga o'sib, 204 mlrd dollarni tashkil etadi. O'zaro savdo aylanmasi 57 mlrd dollarni tashkil etadi (5% ga o'sdi). MDH doirasida iqtisodiy hamkorlik haqidagi gapirganda bu sohada o'zaro munosabatlarni obektiv sabablarini ko'rsatib bo'lmaydi. 2001-yil 30-noyabrda davlat boshliqlarini Moskvadagi yubiley sammitida keyingi 10 yildagi hamkorlik faoliyati natijalari va kelajakdag'i istiqbollari ko'rib chiqildi.

2002-yil 1-martda Almata sammitida yoqilg'i-energetiq sohasida ko'p tomonlama hamkorlik masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Ta'kidlandiqi, tranzit va resurs potensiallaridan foydalanish hamkorlik davlatlari o'ttasida energetiq xavfsizlikni ta'minlashga hizmat qiladi.

Umuman olganda, o'tgan davr mobaynida MDH faoliyatida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Masalan MDH doirasida mintaqada barqarorlikni ta'minlash maqsadida KXSh tuzildi va mazkur tashkilotlar tomonidan bir qancha harbiy-siyosiy dasturlar amalga oshirildi hamda aksilterror markazlari tishqil etildi. Hozirgi kunda MDH va uning doirasidagi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish va jahondagi yirik xalqaro tashkilotlar bilan integratsiyalashuv jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu MDH ni yanada rivojlanishiga asosiy rolni o'ynaydi. Xullas, MDH mintaqadagi davlatlarining globallashuviga, xavfsizlik va barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan hozirgi kunda dunyo xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat qasb etmoqda. XX asrda insoniyat havfsizligi va tinchligini saqlash qanday ahamiyat qasb etgan bo'lsa, mazkur masala XXI asrda ham eng dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda Jumladan, Sobiq Sovet Ittifoqidan keyin vujudga kelgan mustaqil davlatlar joylashgan mintaqada ham. Chunki, sovet davrida iqtisodiy – siyosiy qurilish ittifoqdosh davlatlarni bir-biriga shu darajada bog'langan tarzda joriy qilingan ediqi. mazkur Respublikalar mustaqil boshqaruvalarini tashkil etish juda murakkablik

qasb etardi. Aynan shu siyosat XX asming birinchi yarmida rus shovinistlari tomonidan ishlab chiqilgan uzoq vaqtga mo'ljallangan, mazkur halqlarning ustidan doim hukmronligini ta'minlashga hizmat qiladigan strategik boshqaruv konsepsiysi edi. Ammo, bu tizimni inqirozga uchrashini tarihiy sharoitni o'zi taqozo etdi. Sobiq Sovet Ittifoqi inqirozga uchragandan so'ng ushbu mintaqada joylashgan davlatlar rahbariyati bundan keyin ham o'zaro havfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy integratsiyani ta'minlash maqsadida MDH tashkilotining vujudga kelishini qo'llab quvvatladi. Bu borada MDH tashkiloti ham mintaqada yangi vujudga kelib, yana oyoqqa turayotgan davlatlar havfsizligi va barqarorligini ta'minlash masalasida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishini oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma-bosqich xalqaro munosabatlarni tizimiga kirib, mustaqilliklari, va suverenitetini mustahkamlashga qo'mak berdi. Biroq MDHga a'zo mamlakatlarning o'zaro imkoniyatlari har qanday sohada keng bo'lishiga qaramay ayrim qamchiliklarga yo'l qo'yildi. Bunga albatta, biz ijobjiy ma'noda qaraydigan bo'lsaq har bir MDH ga a'zo mamlakatlarni o'tish davrida o'z ichki muammolariga ko'proq ahamiyat qaratishi, shu muammolar doirasida o'ralashib qolishi natijasida MDH tashkilotining faoliyatiga nisbatan e'tibor pasayishi tabiiy hodisa edi. Agar biz MDH ning 2000-yildan keyingi faoliyatiga nazar solsaq ushbu tashkilotga jahon hamjamiyatini qiziqishini ortistikni, jahonda sodir bo'layotgan global mintaqaviy muammolarni hal etishda MDHning ahamiyatini oshib undagi a'zo mamlakatlarning siyosiy-iqtisodiy markazlarga aylanayotganligi, xalqaro diplomatiq munosabatlarda MDH mamlakatlarining asosiy subyekti sifatida etirof etilayotganligini, uning tarkibida turli hil mintaqaviy muammolarni hal etishga asoslangan ishchi organlarning tuzilayotganligini guvohi bo'lamiz. Hozirgi kunda biz yashayotgan dunyo murakkab hususiyatlarga ega bo'lib, so'nggi vaqtlarda jahonda yuz bergen, dunyoning jug'rofiy-siyosiy tuzilishi va haritasini tubdan yangilagan o'zgariishlar hozirgi zamon va kelajak uchun tarihiy ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ma'lumki XX asrning 90 yillardagi Yevrosiyo mintaqasidagi Sovet ittifoqi deb nomlanmish byurokratiya va shovinizm zaminida paydo bo'lgan Qizil imperiya inqirozga yuz tutishi bilan uning

o'rnda dunyo haritasida yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Ular, hozirgi til bilan aytganda, sotsialistik o'tmishtga ega bo'lgan, o'z siyosiy mustaqilligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritgan davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o'z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Mazkur davlatlar oldida zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan, odamlarni munosib hayot kechirishini ta'minlay oladigan inson huquq va erkinliklarini himoya qila oladigan chinaqam demoqratik jamiyat qurishdek vazifalarni hal etishga harakat qilmoqda. Biroq totalitarizm tuzumi yemirilib barham topgan bo'lsada, shu sababli dunyo barqaror yoki havfsiz bo'lib qolgani yo'q.

Mazkur jarayonlarni yuzaga kelishining asosiy sabablari sifatida:

- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari o'zaro keskin siyosiy kurashlar olib borayotgan bir mahalda demokratiya asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish;

- milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va etatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi;

- etniq va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi;

- qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari tahdidining kuchayib borayotganligi;

- dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib kolayotganligi; jarayonlarni aniq va to'g'ri tahlil qilishda tajriba va yagona to'xtamga kelishda o'zaro ishonch yetishmasligi kabi omillarni keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari mintaqadagi mamlakatlar, halqlar o'rtasida, bir mamlakatlar ichida esa ayrim ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi

- bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligi va ehtiyyotlik bilan munosabatda bo'lishni zamon va maqonni o'zi talab qilayotganligidan harak bermoqda.

MDH tashkiloti dastlabki davrlarda mintaqaga havfsizligi va barqarorligini ta'minlash borasida bir qancha ishlarni amalga oshirdi;

- MDH doirasida yagona havfsizlik va barqarorlikni ta'minlaydigan mehanizm Kollektiv havfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXSh) tuzildi;

- Kollektiv havfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXSh) "Sarhadlar", "Janub qalqoni", "Antiterror-2001" kabi harbiy o'quv dasturlarini amalga oshirib, mintaqadagi barqarorlikni ta'minlash masalasida katta ahamiyatga ega bo'ldi;

- MDH Markaziy Osiyoda yadrodan xoli zona yaratish masalasida O'zbekiston tashabbuslarini yuqori baholadi va uning faoliyatini qo'llab quvvatladi;

- MDH mintaqada savdo-iqtisodiy sohalarni rivojlantirish, o'zaro havfsizlikni ta'minlash borasida ShHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti) bilan keng aloqalarni o'matdi va faoliyat olib bormoqda.

Undan tashqari mintaqqa hanfsizligi va barqarorligi uchun ShHT faoliyatini ham ta'kidlab o'tshimiz kerak.

"Shanxay bsshligi" ya'ni ShHT hozir "Shanxay oltiligi" ga tarixda birinchi marta Rossiya va Xitoy Markaziy Osiyo davlatlari bilan birlashdi. Bu tashkilot ko'p tomonlama hududiy havfsizlik va iqtisodiy hamkorlikka asoslangan. 1996-yildan bu tizim Markaziy Osiyoda o'zaro ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi, o'zaro ziddiyatlar tarqalishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan, Afg'onistondagi fuqarolar urushi bir necha yil davomida Xitoy va uni hamkorlari ShHT doirasida baxsli hududiy muammolarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Kelajakda MDH, KXSh, ShHT, tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish hamda Yadro qurolidan xoli zonalarni barpo etish tashabbuslarini dunyo tinchligi va havfsizligi uchun qay darajada muhimligi hisobga olinib qo'yidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- MDH va ShHT tashkilotida o'zaro manfaatlar umummilliy ahamiyatga ega bo'lishi va hisobga olinishi;

- MDH na ShHT da global sharoit va vaziyatdan kelib chiqib, BMT singari aniq ishlaydigan ixtisoslashtirilgan konstruktiv tuzilmalarni tashkil etish;

- MDH na ShHT tashkilotlarining siyosiy harbiy masalalar amalga oshinish borasidagi konsepsiylar yaratishga yo'l qo'ymaslik;

- KXSh tashkilotida harbiy-siyosiy dasturlarni qisqartirib, a'zo davlatlar o'rtaida iqtisodiy-madaniy kommunikatsiya va turizm

sohalarini rivojlantirish va barqarorligini ta'minlash borasidagi dasturlarni ishlab chiqish va ularni integratsiyalashuvini kuchaytirish;

MDH na KXSh tashkilotlariga a'zo bo'limgan g'arb mamlakatlari va NATO bilan aloqalari kuchli bo'lgan (Kavkazorti va Boltiqbo'yи hududidagi ayrim davlatlar) mamlakatlarga nisbatan boshqacha pozitiv munosabatlarni

shakllantirish va ular manfaatlariga zid bo'lgan majburiyatlardan tashqari dasturlarga jalg etish;

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Markaziy Osiyo mintaqasi bilan aloqalarini konstruktiv va integratsiyalashuvini kuchaytirish uchun markaziy Osiyoda eng boy uglevodorod zahiralari va geosiyosiy ahamiyatga ega.

Turkmaniston Respublikasini (garchi Turkmaniston neytral hudud sisatida e'tirof etilsada) ham jalg etish;

MDH dagi juda katta yadro arsenaliga ega davlat hisoblangan Rossiya ham o'zining ommaviy qirg'in qurollarini keskin kisqartirish va yadro zaryadlarini tinchlik yo'lida energetika masalalarida foydalanish dasturlarini ishlab chiqish.

Sayyoramizda yadro qurolini tarqatilishi insoniyat yashashi uchun havf tug'diruvchi bosh omil bo'lib hisoblanadi. Yadro quroli asrlar davomida insoniyat tomonidan yerda yaratilgan hayotni yo'qotishga qodir. Shuning uchun mintaqadagi barcha davlatlar o'z hududlarini "Yadrosiz zonaga" aylantirishi va yadroviy qurolsizlantirish davrida kuch ishlatish va kuch ishlatish bilan tahdid solishni inkor etuvechi tamoyilga, har bir halqning ijtimoiy siyosiy va mafkuraviy huquqlarini hurmat qilishga, birini boshqalaridan ustun qo'yishni rad etuvchi siyosatga asoslangan yangi konsepsiyanı ishlab chiqarish zarur. Umuman olganda MDH uning doirasida tuzilgan va ShHT tashkilotlarining mavjud bo'lishi va rivojlanishi mintaqqa uchun muhim ahamiyatga egadir.

## 8.O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondag'i tinchlik va hamjihatlikka asosolangan tashqi siyosati

XXI asrning dastlabki o'n yilligida siyosiy, iqtisodiy, ilm – fan, madaniyat sohasida insoniyat tomonidan ulkan taraqqiyot natijalariga erishilgan bo'lsa – da, afsuski, global tinchlik va barqarorlikka tahdid solib turgan jiddiy havf – hatarlar ham saqlanib qolmoqda. Insoniyat

taraqqiyotining ko'p ming yillik tajribasiga qaramasdan, urush olovini yoqishga, undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib qolishga urinayotgan qora kuchlar sayyoramizning turli burchaklarida hanuzgacha o'zlarining kabih niyatlariga erishish yo'lida goh oshkora, goh pinhona faoliyat olib bormoqda. Xalqlar, millatlarning havfsizligi, tinchlik va faravon turmush kechirish borasidagi orzu – istaklariga rahna soladigan turli salbiy ofat manbalarining mavjud ekani butun bashariyatni xavotirga solmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlagaridek, "Bugungi dunyoda jadal o'zgarib borayotgan vaziyat va jarayonlar, mavjud mojarolarning keskinlashuvi va yangi qarama – qarstiliklarning paydo bo'lishi, ba'zi mintaqalarda etnik va konfesiyalararo tafovutlar negizida vujudga kelayotgan to'qnashuvlarning kuchayishi, hali – beri davom etayotgan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi hamda uning oqibatlari jiddiy tahdid va xatarlarni keltirib chiqarmoqda".

Darhaqiqat, dunyoda, Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ijtimoiy – siyosiy jarayonlar, ularning geosiyosiy manzarasi dunyoning iqtisodiy va ma'naviy imkoniyatlariga, jahon hamjamiyatining istiqboliga yangicha nazar tashlashga undamoqda.

#### Yadro reaktorlariga ega bo'lgan davlatlar

*1-jadval*

Davlatlar	Mavjud yadro reaktorlari soni
AQSh	104 ta
Fransiya	59 ta
Yaponiya	55 ta
Rossiya	31 ta
Angliya	23 ta
Janubiy Koreya	20 ta
Kanada	18 ta
Germaniya	17 ta
Ukraina	15

Bugungi kunda atom quroliga ega bo'lgan davlatlar soni (10ta) tobo'a oshib bormoqda. Bular qatoriga AQSh, Rossiya, Angliya, Fransiya, Xitoy, Pokiston, Hindiston, Shimoliy Koreya, Eron va

Isroilni (oxirgi ikkita davlat taxmin qilinadi) kiritish mumkin. Jahonda 500 ga yaqin yadroviy reaktor mavjud (*1-jadval*) va dunyo bo'yicha elektr energiyasi ishlab chiqarishda atom elektr stansiyalarini ulishi 16 foizni tashkil qiladi.

Shu boisdan ham hozirgi davr – dunyoda g'oyaviy qarama – qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Butun Yer yuzi odamzod uchun yagona makon bo'lib hisoblanadi. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son – sanoqsiz urushlar bo'lgan. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borgan. Mazkur urushlar to XX asrgacha, asosan, ko'proq bir yoki ikki davlat yoxud mintaqalarda bo'lgan. XX asrda ro'y bergan ikkita jahon urushida o'nlab davlatlar, bir necha qit'a mamlakatlari ishtirok etgan.

Xullas, urush qurollari takomillashib boraverdi. Bugungi kunda ularning qudrati boshqa hududni bosib olish u yodqa tursin, butun Yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlashga yetadi. Insoniyat XX asr oxiriga kelib, bir qator chegara bilmaydigan muammolariga duch keldi. Urush va tinchlik ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir.

Yurtboshimiz BMT minbaridan butun Afg'onistonda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash. Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli hududni tashkil etish tashabbusini ilgari surgandan so'ng bu haqda shartnoma 2006-yil sentabr oyida Semipalatinsk shahrida imzolandi. BMT Bosh Assambleyasining 61 va 63 – sessiyalarida ushbu tashkilotga a'zo davlatlarning ko'pchilik ovozi bilan "Markaziy Osiyoda yadro quroldan xoli hudud" rezolyutsiyasi qabul qilindi, 2009-yilning mart oyidan boshlab esa, bu haqdagi shartnoma kuchga kirdi.

Bugungi kunda yadrodan xoli hududlar butun Yer sharining 70 foizini tashkil etadi. Dunyoning ko'pgina davlatlari yadrodan xoli hududlar haqidagi 6 ta shartnomani qo'llab – quvvatlamoqda.

1. Antarktida shartnomasi 1959-yil 1-dekabrda qabul qilinib, 1961-yil 3-iyunda kuchga kirgan.

2. Lotin Amerikasi va Karib havzasida yadro qurolini ta'qilash haqidagi Tlatelolko shartnomasi 1967-yil 14-fevralda qabul qilinib, 1969-yil 25-aprelda kuchga kirgan.

3. Tinch okeanining janubiy qismini yadrodan xoli hududga aylantirish haqidagi Raroton shartnomasi 1985-yil 6 avgustda qabul qilinib, 1986-yil 11-dekabrda kuchga kirgan.

4. Janubi – Sharqiy Osiyoni yadro qurolidan xoli hududga aylantirish haqidagi Bangkok shartnomasi 1995-yil 15-dekabrda qabul qilingan.

5. Afrikani yadro qurolidan xoli hududga aylantirish haqidagi Peliñdab shartnomasi 1999-yil 11-aprelda qabul qilingan.

6. Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud tashkil etish to'g'risidagi Semipalatinsk (Qozog'iston) shartnomasi 2006-yil 8-sentyabrda qabul qilingan va Markaziy Osiyodagi beshta davlat rahbarlari tomonidan imzolangan.

Demak, dunyoning 110 mamlakati, ya'ni jahon hamjamiyatining yarmidan ko'pi yadro qurolidan butunlay voz kechish tarafidoridir.<sup>1</sup> Bundan ko'zlangan maqsad yadro quroli mavjud bo'lgan hududlarni cheklash, yadro urushi havfini kamaytirishdir.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadrosiz hudud barpo etish haqidagi tashabbusi BMT va jahon jamoatchiligi tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu taklif BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida muhokama qilindi va u bo'yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish faqat mintaqada emas, balki butun jahonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1997-yildayog "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik sharflari va taraqqiyot kafolotlari" nomli fundamental asarida xavfsizlikka tahdid soluvchi quyidagi milliy, mintaqaviy va umumlashari xatarlarni teran tahlil qilib bergen edi:

1. Mintaqaviy majorolar.

2. Diniy ekstremizm va fundamentalizm.

3. Buyuk davlatchilik shovinizmi va aggressiv millatchilik.

4. Etnik va millatlararo ziddiyatlar.

5. Korrupsiya va jinoyatchilik.

6. Mahalliychilik va urug' – aymoqchilik munosabatlari.

7. Ekologik muammolar.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtaida o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, hozirgi vaqtida bu jarayondan to'la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo'q. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamalkatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatini va siyosati qanday ekani bilan bog'lik.

XX asr so'ngida ro'y bergan ulkan ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning masifikasi manzarasini tubdan o'zgartirib yubordi.

XX asrda dunyoda g'oyaviy qarama – qarshiliklar keskin va murakkab tus olgan davr bo'ldi. XX asr so'ngida ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi natijasida jahondagi masifikasi manzaralar tubdan o'zgardi. "XX asr oxirida dunyoda jo'g'rosiy – siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. "Sovuq urush" davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyillar va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir – biriga bog'lik tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi – o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rinn yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtrok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'yemoqda".<sup>1</sup>

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib kommunistik va sotsiolistik partiya ta'siridagi sotsiolizm lager parchalandi. Dunyo mamalkatalari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lindi. Ana shu rivojlangan ba'zi mamlakatlar o'z milliy

<sup>1</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lid. T. 6. Jild.: "O'zbekiston", 1998. – 240 – 241 – betlar.

mustaqilligini qo'lga kiritgan, rivojlanayotgan mamlakatlarin, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinmoqda. Bular quyidagi holatlarda ko'rindi:

Dunyoni bo'lib olishga urinayotgan siyosiy markazlar:

1. Buyuk davlatchilik mafkurasi.
2. Diniy ekstremistik mafkuralar.
3. Pansovetizm mafkurasi.
4. Individualizm va egoizm g'oyalarini ifodalagan mafkuralar.
5. Turli diniy sektalarning g'oyalarini ifodalovchi mafkuralar.

Bu jarayonda turli mamlakatlarni mafkuraviy zabit etish g'oyat katta iqtisodiy mansaatlar bilan qo'shilib ketmoqda. G'oyaviy – mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o'zining g'oyaviy – mafkuraviy daxlsizligini ta'minlaydigan chora – tadbirlarni ko'rishi zarur bo'lmoqda.

Mamlakatlar o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik, tinchlik, biro'darlik tamoyillarini qaror toptirishni ko'zlaydigan davlatimiz tashqi siyosatining asosiy pritsiplari ishlab chiqildi va davlatimizning tashqi siyosat strategiyasida mazkur tamoyillar dasturulamal bo'lib xizmat qilib kelayotgani bois, bugungi kunga kelib yurtimizning xalqaro obro' – e'tibori tobora ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar uchun nihoyatda maqbul xalqaro shart – sharoitlar ham mustahkamlanib bormoqda. Ushbu natijalarning ulkan ahamiyatini yanada chuqurroq anglash uchun ta'kidlab o'tish joizki jahon tajribasi ham buni isbotlaganidek, biron – bir davlat xalqaro maydonda o'zining obro – e'tibori hamda xavfsizligini ta'mnlamasdan turib, mamlakat ichkarisida samarali ravishda islohotlarni amalga oshira olmaydi. Boz ustiga, bugungi davr fenomeni o'tgan asr hattoki, uning so'nggi o'n yilliklaridagi shart – sharoitlardan ham o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qilmoqda. Bir tomonidan, xalqaro globallashuv jarayonlari bugungi kunga kelib o'zimeng yangi xususiyatlarini namoyon qila boshlagan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, dunyo miqyosida mamlakatalar, xalqlar o'rtaсидаги муносабатларнинг мураккаблашувига сабаб bo'ladigan salbiy tendensiyalar ham, afsuski, kuchli darajada saqlanib turibti. Mara shunday qaltis vaziyatda mamlakatlarning ayniqsa, yosh mustaqil davlatlarning xavfsiz va barqaror taraqqiy etishi uchun

jahon miqyosida paydo bo'lgan yangi salbiy ta'sirlarni bartaraf qilish, ularga nisbatan mustahkam ichki immunitetni shakllantirib, mustahkamlab borish tobora xal qiluvechi ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi davrimizning turli ta'sirlariga munosib javob berish, o'zi tanlab olgan yo'ldan sobitqadamlik bilan borish, barqaror demokratik taraqqiyot havfsizligini ta'minlash uchun bugungi kunda jamiyatni izchillik bilan yangilash va modernizatsiya qilish, shu orqali demokratik islohotlarni yanada yuqori pog'onalarga ko'tarish yo'lidan borar ekan, bu o'rinda xalqaro miqyosda teng huquqli aloqalar o'rnatishni va mustaqil taraqqiyot havfsizligini ta'minlashning eng nufuzli vositasi bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan yaqindan hamkorlik qilish masalalriga katta e'tibor berib kelmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining BMT bilan 1992-yildan buyon davom etib kelayotgan hamkorligi o'zining izchilligi va keng qamrovligi bilan alohida ajralib turadi. Mamlakatimizning yer yuzining eng nufuzli xalqaro tashkiloti bilan hamkorlik aloqalari natijasida mintaqamiz va dunyo miqyosidagi o'tkir muammolarni hal qilish borasida yuksak natijalarga erishilmoqda. Ma'lumki, BMT ning 1993-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan 48 – sessiyasida bildirilgan xulosa va takliflarda mamlakatimizning mazkur tashkilot bilan hamkorligining istiqbollari belgilab berilgan edi. Ushbu sessiyada BMT faoliyatini, davr talablaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirish, uning kurrai zaminimizda vujudga kelgan murakkab ziddiyatlarni hal etish layoqati va imkoniyatlarini yanada kengaytirish borasidagi muhim takliflar ilgari surilgan edi.

Bular jumlasiga O'rta Osiyoda havfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha Toshkentda BMTning doimiy ishlovchi seminarini chaqirish; BMT Havfsizlik Kengashi huzurida yuzaga kelayotgan xalqaro mojarolarni tahlil qilish va istiqbolni belgilash bo'yicha maxsus guruh tashkil qilish; O'rta Osiyo mintaqasini yadrosiz zona deb e'lon qilish; O'rta Osiyo mintaqasida kimyoviy va bakteriologik qurolni tarqatmaslik ustidan xalqro nazorat o'rnatish; narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish; Orolni va Orolbo'yini ekologik halokatdan qutqarish masalalari kiradi.

Davlatimiz rahbari tomonidan BMT faoliyatini, uning institutsional mexanizmlarini zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirish

borasida bildirilgan fikrlar jahoning barcha nufuzli tashkilotlarda, ko'plab xorijiy mamlakatlarda katta qiziqish va e'tibor bilan e'tirof qilindi. O'zbekistonning jahondagi obro'si yanada ortdi. 2010-yilning 20-sentyabrida o'z ishini boshlagan BMT Bosh Assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan sammitida mamlakatimiz rahbarining BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning taklifiga binoan ishtirok etishi O'zbekiston va BMT hamkorligida sifat jihatdan yangi bosqich boshlanganini namoyon qilmoqda. Tashrif chog'ida davlatimiz rahbarining BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun bilan bevosita uchrashuv bo'lib o'tdi. Ana shu uchrashuvda nufuzli xalqaro tashkilot rahbari BMT O'zbekiston bilan hamkorlikni yuksak qadrlashini, mamlakatimiz bilan munosabatlarga va umuman, Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e'tibor qaratishini ta'kidladi. Mazkur uchrashuv jarayonida O'zbekiston va BMT o'rtaсидаги hamkorlik aloqalarini hozigi davr talablari asosida yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, asriy qardoshlik tuyg'ularini rivojlantirish, yaqin qo'shnichilik fazilatlarini kuchaytirish hozirgi kunning muhi vazifasidir. Ana shu maqsaddan kelib chiqib va hozirgi sharoitda mintaqamiz va xalqlarimiz hayotiga tahdil qilayotganlarga qarata Birinchi Prezident Islom Karimov bunday dedi: "Kelgusi avlod vakillari urush olovini yoqishga undagan sabab va bahomalar uchun zamondoshlarimizni kechirmasalar kerak. Tarix o'z hukmini chiqarar ekan, hamma vaqt sholini kurmakdan ajratadi va g'arazli, xudbin maqsadlarni ko'zlab, xalq mansaftalarini niqob qilib oluvchi shaxslarning o'zlarini oqlash uchun keltiradigan kibr – havodan iborat dalillarini qabul qilmaydi".<sup>1</sup>

O'zbekistonning geosiyosiy jihatdan Markaziy Osiyoning qoq o'rtaida joylashgani, uning juda katta yerosti va yerusti boyliklariga ega ekani, o'z xalqining yuksak intellektul salohiyati hamda ishlab chiqarish quvvati tufayli yurtimiz, aytish mumkinki, ushbu mintaqaning tayanch nuqtasi hisoblanadi. Ayni paytda Markaziy Osiyoga ko'z olaytirayotgan kuchlar uchun O'zbekiston alohida nishon hisoblanadi. Ana shunday vaziyatning o'zidan O'zbekiston

zimmasida butun mintaqaga taqdiri va uning istiqboli uchun kurashishdek og'ir mas'uliyat turganini sezish qiyin emas.

Birinchi Prezident Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining Mingyllik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisida so'zlagan nutqida sammit qatnashchilari e'tiborini Markaziy Osiyoda kechayotgan jarayonlar, ziddiyatli muammolar, umumiyl havfsizlikni ta'minlash bilan bog'lik eng dolzarb masalalarga qaratdi. Jumladan, BMTning bevosita rahnamoligida Afg'oniston muammosini hal etish. Qирғизистонда ўз берган қонли воqealarning asl sabablarini aniqlash va aybdorlarni jazolash, kuchayib borayotgan ekologik muammolarning oldini olish kabi masalalar yuzasidan g'oyat muhim konseptual xulosa va takliflarni ilgari surdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash eng muhim o'zak tamoyillaridan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, mintaqaviy tinchlikning umumiyl tamoyillari haqidagi prinsipial muhim g'oyani ilgari surildi: AYSYeF deb atalmish koalitsion qo'shinlarning 2014-yilgacha va undan keyin Afg'oniston hududidan olib chiqib ketilishi bilan bog'lik ravishda ushbu mamlakat va uning atrofidiagi vaziyatning yanada keskinlashib, terrorizm, ekstremizm va narkotrafikning kuchayishi xavfi borligi, qisqa qilib aytadigan bo'lsak, mamakkatada ahvol chegaradan chiqib ketishi mumkinligini qo'shni davlatlarda jiddiy havotir uyg'otmasdan qolmaydi, albatta.<sup>1</sup>

Haqiqtadan ham, Afg'onistonda 30 yildan ko'proq vaqtidan buyon davom etayotgan urushning oxiri, yakuni haligacha ko'rinnmayapti. Afg'onistonda shunday qonli urush davom etayotgan, turli kuchlar, guruhlar o'rtaсида yarashish, murosaga kelish masalasi mutlaqo ko'rilmayotgan ekan, bu O'zbekiston uchun, xalqimiz uchun, umuman, O'rta Osiyoda yashayotgan odamlar uchun juda katta tahdid, juda katta xavf – xatardir.

Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish masalasi bugungi kunning eng murakkab muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Afg'oniston mojarosi – faqat bu mamlakat yoki uning qo'shnilarining muammosi emas. Mojaro oqibatlari mintaqaviy va global havfsizlikka bevosita va g'oyat kuchli salbiy ta'sir

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk keljak sari. – T.: "O'zbekiston". 1998. – 430 – bet.

<sup>1</sup> "Xalq so'zi" gazetasi. 2012 yil 8 dekabr.

ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda Afg'oniston muammosini hal qilish yo'llarini topishda O'zbekiston alohida o'rin tutmoqda. So'nggi o'n yil davomida mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning Afg'oniston muammosini hal qilish borasidagi sa'y – harakatlarida yetakchi o'rinalidan birini egallab kelmoqda.

Afg'oniston muammosi nafaqat bevosita jo'g'rosiy yaqinlik nuqtai nazaridan, balki qator boshqa sabablar tufayli ham O'zbekistonda jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Bu mamlakatdagi keskin notinch vaziyat Markaziy va Janubiy Osiyoga doimiy ravighda tahdid solmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk davrlaridan boshlab O'zbekiston rahbari nufuzli xalqaro minbarlaridan bong urib, xalqaro hamjamiyatni Afg'oniston taqdiriga befarq qaramaslikka, bu zaminda tinchlik va barqarorlik o'rnatilishi uchun qo'lidan keladigan barcha choralarни ko'rishga qat'iy da'vat etib kelmoqda. BMTning N'yu – York shahrida, 1993, 1995, 2000-yillarda bo'lib o'tgan sammitlarida xalqaro xavfsizlikka Afg'onistonidan chiqayotgan tahdidlar haqida dunyo ahlini takror va takror ogohlantirdi. Afg'on urushi uzoq vaqt davomida faqat Afg'oniston hududi bilan cheklanib qolmasdan, har qanday paytda yoyilib ketishi, hatto uzoq dengiz va okeanlar ortidagi davlatlar uchun ham halokatlari oqibatlar keltirishi mumkinligi haqida ko'p bor ogohlantirdi.

Bugun koalitsiya kuchlari tomonidan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha tanlangan strategiya kutilgan natijalarini bermayotganini qayd etishga to'g'ri kelmoqda. Urush davom etayotgan har bir kun jafokash Afg'oniston xalqining ahvolini yanada og'irlashtirib, ushbu mamlakat muammolari yechimini boshi berk ko'chaga kiritib qo'ymoqda.

Afg'oniston muammosi bo'yicha o'nlab xalqaro konfrensiya va uchrashuvlar o'tkazilayapti, lekin ularning hammasi ham real amaliy samara berayotgani yo'q.

Afg'onistonada ro'y berayotgan qonli mojarolar, o'z ko'lami va havfuslik darajasiga ko'ra, XX asrning oxiriga kelib, xalqlar, millatlar uchun misli ko'rilmagan katta tahdidga aylandi. Afg'on muammosi va uni keltirib chiqargan tub sabablar hamda ularning oqibatlari to'g'risida Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari" (1997) nomli asarida chuqur konseptual xulosalarni

bayon qilgan edi. Ushbu xulosalar bugungi kunda ham afg'on muammosini hal etishning ilmiy va amaliy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Asarda ta'kidlanganidek, 18 yildan beri urush ketayotgan Afg'onistondagi tanglikning chuqurligi va keskinligini, uning mintaqaviy va dunyo miqyosidagi jo'g'rosiy – siyosiy jarayonlarga ta'sirini e'tiborga olib, bu fojeani ko'lami va havfi jihatidan horzirgi dunyoning eng katta mintaqaviy mojarolari jumlasiga kiritish mumkin.

Afg'oniston hududi bugungi kunda ham muammolar tuguni ichida qolgani holda, mintaqamiz va shuningdek, butun dunyo uchun xavf – xatar manbai bo'lib qolmoqda. Bu mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy, harbiy vaziyat o'ta murakkab holatda turibti. Vaziyatni o'nglash bo'yicha shu paytga qadar amalga oshirilgan chora va tadbirlar o'zining yetarli darajadagi ijobjiy samarasini bermayapti. Afg'oniston hududida tinchlik o'rnatish maqsadlarini ko'plab faoliyat olib borayotgan xalqaro koalitsiya kuchlarining faoliyati shu paytga qadar mazkur mamlakatda to'planib qolgan o'tkir va ziddiyatli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy muammolarning yechilishiga va afg'on jamiyatining barqaror taraqqiyot yo'liga o'tib olishiga sezilarli darajada yordam bera olmayapti.<sup>1</sup>

Darhaqiqat, Afg'oniston hududidan xalqaro koalitsion kuchlar olib chiqib ketila boshlanishi va havfsizlik bo'yicha mas'uliyatning Afg'oniston milliy qurolli kuchlari qo'liga topshirilishi jarayoni jafokash afg'on xalqiga uzoq va kutilgan tinchlik va osoyishta hayotning kafolatli tarzda tiklanishiga olib kelishidan umid qilingan edi. Lekin aslida bunday bo'lmayapti. Afg'onistonda ziddiyatli vaziyatning doimiy ravighda saqlanib turishidan manfaatdor bo'lgan ichki va tashqi kuchlar bunga zo'r berib qarshilik ko'rsatmoqda. Bunday kuchlar sirasiga, birinchi navbatda, turli toifadagi terrorchi va ekstremist guruqlar, narkotik moddalar bilan savdo qiluvchilar kiradi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Махмудов Р. Обеспечение безопасности и стабильности на пространстве ШОС (Правовая база и перспективные направления взаимодействия) // Материалы Шестого заседания Форума Шанхайской организации сотрудничества. Т.: ИСМИ при Президенте Республики Узбекистан. 2011. – С. 94-95.

<sup>1</sup> G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. – 97-b.

Afg'oniston hududida saqlanib, kuchayib borayotgan o'ta xavfli tahdidlardan biri – bu narkobiznesdir. "Bu mamlakatda giyohvand modda qadimdan yetishtirilgan va tayyorlangan. Biroq ko'knori va geroim hamda boshqa sintetik giyohvand moddalarini yetishtirib, tayyorlash xo'jaligi vayron qilingan bu mamlakatda XX asrning 90 – yillaridagina sanoat asosiga qo'yildi. Turli xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda jahonda ishlab chiqarilayotgan giyohvand moddalar umumiy hajmining 50 foizdan 75 foizgacha bo'lgan qismi Afg'oniston xissasiga to'g'ri keladi. Afg'oniston XX asr oxirida giyohvand moddalar tayyorlash bo'yicha jahonda yetakchi mamlakat bo'lib qoldi. Narkobiznesni o'z nazorati ostiga olishni istagan uyushgan jinoiy guruuhlar boylik orttirishning juda nozik yo'llaridan tobora ko'proq foydalana boshladi.

Tojikistondan Yevropaga yetib borgunicha geroinning narxi 63 barobar oshadi: Tojikiston Badaxshonida 1 kg heroin 4 mingdan 8 ming dollargacha, Dushanbeda 12 – 17 ming dollar, Moskvada 150 – 200 ming, Yevropada 250 – 300 ming dollar turadi. Giyohvand moddalar narxining yo'l bo'ylab bu qadar oshib borishi, ayniqsa, turmush darjasи past bo'lgan Markaziy Osiyo va boshqa davlatlarning ayrim fuqrolarining giyohvand moddani kontrabanda yo'li bilan tashib borishga undaydi. Bu bozorda hukmon bo'lish uchun uyushgan narkoguruuhlar o'rtasida, shu jumladan Markaziy Osiyodagi narkoguruuhlar o'rtasida ham shiddatli kurash ketmoqda".<sup>2</sup>

Hozirgi vaqtida Afg'onistonda yetishtirilayotgan narkotik moddalar va ularni xusiyona yo'llar bilan boshqa mamlakatlarga chiqarish hajmi shu qadar ortib ketdiki, endilikda bunday holat butun insoniyatga tahdid soluvchi xatoga aylandi. Aslida, Afg'onistonda harakat qilayotgan terrorchi guruuhlar bilan narkotik moddalarini yetishtiruvchi va sotuvchilar o'z faoliyatini birlashtirib oldi. Aynan og'ufurushlar xalqaro terrorizmning asosiy moliyalashtiruvchilariga aylandi. Narkotik moddalar savdosidan tushgun pul mablag'lari terrorchi guruuhlar tomonidan qurol – yarog' sotib olishga hamda boshqa yovuz ehtiyojlarni qondirishga, jumladan, terrorchi guruuhlar safiga yangi odamlarni yollashga sarf etilmoqda.

<sup>2</sup> G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. – 263-266 - b.

"Mutaxassis ekspertlar xulosa qilganlaridek, Markaziy Osiyo mintaqasining narkotik moddalarini G'arbga jo'natish yo'lidagi "qulay" geografik hududda joylashgani mazkur mintaqada terroristik kuchlarning faollashay otganining sabablaridan biri bo'lib turibti. Ishonechli ma'lumotlar isbotlab turganidek, xalqaro terrorchilar faoliyatining katta qismi Afg'onistondan Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston orqali o'tkazishga mo'ljallangan muntazam ishlovchi narkotrafik kanallarni shakllantirishga qaratilgandir".<sup>1</sup>

Taassuski, Afg'oniston hududida narkotik moddalar xom ashvosini yetishtirish, jumladan, ko'knori undirish uchun o'ta qulay tabiiy imkoniyatlar mavjud. "Keyingi yillarda ko'knori yetishtiriladigan plantatsiyalar hajmi o'n marta ko'paydi. Bugungi kunda Afg'onistonning 32 viloyatidan 24 tasida turli xil og'u beruvchi o'simliklar ekib yetishtirilmoqda. Yetishtiriladigan ko'knorining 90 foizi asosan 5 ta viloyatga to'g'ri keladi. Bular Xilmond (38 foiz), Nangarhor (30 foiz), Badaxshon (9 foiz), O'ruzgon (7 foiz), Qandahor (5 foiz)".<sup>2</sup>

Jumladan, bugungi kunda Afg'onistonning turli viloyatlarida, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaradosh hududlarida ekstremistik kuchlar ta'siri kuchayib borayotgani mazkur mamlakatlar uchun terroristik tahdid manbaiga aylanmoqda. Umuman, dunyo hamjamiyatining havfsizligi va barqaror taraqqiyoti afg'on muammosining ijobiyl ravishda hal qilinishiga ko'p jihatdan bog'lik, degan xulosani bildirsak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Shu munosabat bilan Afg'onistonda vujudga kelgan o'ta noxush va ziddiyatli vaziyatni hal qilishda xalqaro hamjamiyat, xalqaro tashkilotlarning sa'y – harakatlari hamda kuchlarini birlashtirish o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, hozirgi vaqtida dunyoda afg'on muammosi daxl qilmaydigan hududning o'zi qolgani yo'q.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki. O'zbekiston Respublikasi tomonidan afg'on muammosini hal qilishning yangi konstruktiv yo'llarining taklif etilishi va ularni BMT rahnamoligida amalaga oshirish chora va tadbirlarini ko'rishga yo'naltirilgan izchil tashqi siyosatning olib borilishi dunyoda tinchlik va havfsizlikni

<sup>1</sup> Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Т.: "Шарк", 2005. – С. 142.  
<sup>2</sup> Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. – Т.: "Шарк", 2005. – С. 143.

ta'minlashdek vazifalarning hal qilinishiga ulkan hissa bo'lib qo'shilmoqda.

"6+2" (1997-2001) va yangi "6+3" muloqot guruhi shakllantirish g'oyasi. "6+2" muloqot guruhi (1997 – 2001) BMT kotibiyati binosida 1997-yili O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil topdi. Bu guruh Afg'onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan edi. Mazkur guruhga Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lgan 6 ta davlat, ya'ni Eron Islom Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston hamda AQSh va Rossiya davlatlari kirgan edi. Uning birinchi uchrashuvi 1997-yil 16-oktyabrda N'yu – Yorkda bo'ldi.

Afg'onistondagi urushning o'z vaqtida tinch yo'l bilan hal etilmasligi mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1993 va 1995-yillardagi sessiyalarida, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammiti (1999) va boshqa qator muhim anjumanlarda xalqaro hamjamiyat diqqat – e'tiborini afg'on xalqini urush dahshatlaridan xalos etish, mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish masalalariga jalb etdi.

1997-yil 19-20-iyul kunlari "6+2" guruhining Toshkentda dastlabki uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda birinchi bor muxolisitomonlarning yuzma – yuz muzokara olib borishi uchun imkon yaratilganini anjuman yaqinida "Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan hal etishning aososiy prinsiplari" haqida deklaratsiyaning qabul qilinishini xalqaro jamoatchilik afg'on zaminida tinchlik o'rnatish borasida tashlangan jiddiy qadam sifatida baholadi. Toshkent deklaratsiyasida:

1) Afg'onistonda yagona hokimiyat tuzish (davlat qo'shini harakati bilan tolibon qo'shinini birlashtirish);

2) qochoqlarni vataniga qaytarish;

3) yagona armiyani barpo etish;

4) Afg'oniston davlatiga moddiy yordam fondini ochish va ko'maklashish;

5) narkotik moddalarning oldini olish kabi mintaqaviy dolzarbg'oyalari ko'tarilgan edi. Lekin 2001-yil 11-sentyabrda AQSh da sodir etilgan terroristik xurujdan so'ng NATO blokiga a'zo

davlatlarning harbiy kuchlari Afg'onistonga kiritilib, Hamid Karzay boschchiligidagi yangi hukumat tashkil etilgach, "6+2" guruh faoliyati to'htab qoldi.

"6+3" muloqot guruhi, 2005-yildan keyin Afg'onistonda terrorchilik harakatlari yana kuchaydi: odamlarni garovga olish, terroristik aktlar sodir etish boshlandi. O'zbekiston rahbari 2008-yil 3-aprelda Buxarestda NATO (Yevroatlantika hamkorlik kengashi) sammitida ishtirok etib, 30 yildan buyon hozirgacha davom etib kelayotgan Afg'oniston mojarosi yuzasidan quyidagi fikri ilgari surdi.<sup>1</sup> Jumladan, Afg'onistonda o'z yechimini kutib turgan quyidagi ijtimoiy – siyosiy masalalarni hal etish lozimligiga e'tiborni qaratdi:

- 1) oddiy xalqning ehtiyojlarini qondirish;
- 2) aholining ish bilan bandligini ta'minlash;
- 3) hokimiyatning vertakal boshqaruvi va nufuzini mustahkamlash;
- 4) afg'on xalqining xalqaro koalitsiya kuchlariga nisbatan ishonchini qozonish yo'llini ko'rish;
- 5) xalqaro hamjamiyat imkoniyatlari hisobidan yordam va ko'mak ajratish;
- 6) afg'on xalqining diniy, milliy, madaniy qadriyat va urf – odatlarini hurmat qilish;

7) "6+2" muloqot guruhini "6+3" muloqot guruhiga aylantish, ya'ni unda NATO vakolatxonasining ishtirokini ta'minlash lozim. "6+3" muloqot guruhining faoliyatini yo'lga qo'yish va jonlantirish Prezidentimiz tomonidan qator xalqaro anjumanlarda, sammit va yig'ilishlarda dolzARB masala sifatida qayta – qayta ilgari surildi. Jumladan:

- 2008-yil 3-aprelda Buxarestda NATO / SYeAP sammitida;
- 2008-yil avgustda ShHT sammitida;
- 2009-yil 15-16-iyunda Yekaterinburg (Rossiya) shahrida ShHT anjumanida;
- 2010-yil 27-yanvorda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va Senating qo'shma majlisida;

<sup>1</sup> "Islom diniga nisbatan mutlaqo asossiz xuruj va bo'htonlarga yo'l qo'ymaslik darkor" // Ma'refi, 2008 yil 5 aprel.

- 2010-yilning 20 sentyabrida BMT Mingillik taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar yig'ilişlariда.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "6+3" guruhি harakatlarining bosh maqsadi o'zaro kurash olib borayotgan kuchlar o'tasida murosaga erishish va koalitsion afg'on hukumatini shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak. Ana shu hukumat tarkibida Afg'onistonidagi asosiy milliy – etnik va diniy guruhlar o'z o'rnnini topgan bo'lar edi.

Ta'kidlash kerakki, bu yechimning boshq munosib muqobil varianti yo'q.<sup>1</sup>

"Shanxay hamkorligi tashkiloti" – tinchlik, havfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, o'zaro savdo – iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan davlatlararo xalqaro tashkilot. ShHTga oltita – Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston a'zodir.

Kuzatuvchi davlatlar: Mo'g'uliston, Pokiston, Eron, Hindiston.

Muzokaralar bo'yicha sherik davlatlar: Belorus, Shri-Lanka.

Davlat boshliqlari sammitlariga taklifnomalar: MDH, ASYeAN, BMT, YevrAzES, AQSh.

ShHTning shakllanishi 1992-yilda Xitoy bilan chegaradosh besh sobiq ittifoq respublikalarining o'zaro chegaralarni aniqlash bilan bog'lik muammolarni muhokama qilishidan boshlangan. Dastlab "Shanxay beshligi" deb nom olgan bu tashkilot 1996-yilda Shanxaya, 1998-yilda Olmaotada, 1999-yilda Bishkekda besh davlat rahbarlarining sammiti chegaralarni mustahkamlash, chegara hududlarida qurollik kuchlarni qisqartirish kabi masalalarni kelishib, xal etishga qaratildi. 2002-yil iyulda Sankt-Peterburgda olti davlat rahbarlari "Shanxay hamkorlik tashkiloti xartiyasi" ni qabul qildilar. 2003-yil may oyida Moskvada ShHTning tashkiliy organlari, ramzlar tasdiqlanib, O'zbekiston tashkilotning yangi raisi etib belgilandi. 2003-yil sentyabrida Pekinda "ShHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'hallangan savdo – iqtisodiy" hamkorlik dasturi qabul qilinib, mahsulot, kapital, xizmat va texnologiyalar erkin aylanishi shartlari belgilab olindi, ShHTning moliyaviy budjeti ko'rildi. 2004-yil iyundan boshlab tashkilot to'la ravishda ishga kirishdi. 2005-yilda Ostona sammitida va 2007-yil 15-16 avgustda Bishkek uchrashuv-

larida Eron, Pokiston va Hindiston, Mo'g'uliston kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi.

Hozirgi kunda ShHT doirasida 130 ga yaqin hamkorlik loyihalari amlaga oshirilmoqda.

ShHT biror bir davlat yoki tashkilotga qarshi qaratilmagani va ochiq faoliyat olib borishi bilan xalqaro munosabatlarning yangi shaklini yuzaga keltirdi. "Shanxay ruhi" tushunchasiga yo'l ochildi. Tashkilotning asosiy maqsadlari:

- a'zo davlatlar o'tasidagi o'zaro ishonch va yaqin qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash;

- mintaqada tinchlik, havfsizlik va barqarorlikni birlashtirishda ta'minlash va saqlab turish; siyosiy, savdo, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy, madaniy sohalardagi hamkorlikka keng yo'l ochib berish;

- energetika, transport, turizm, atrof – muhitni himoya qilish va boshqa sohalardagi hamkorlikni kuchaytirish.

ShHT rahbar organi – Davlatlar Rahbarlari Kengashi. Barcha davlatlarning soha vazirlari, Bosh prokurorlar, Chegara qo'mitalari rahbarlari muntazam uchrashib, ish olib boradilar. ShHTning doimiy faoliyat yurituvchi organlari ikkita: 2004-yil 17-yanvarda Pekinda ShHT Kotibiyati va Toshkentda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi ishga tushdi.

2007-yil 15-16 avgustda Qirg'iziston Respublikasi poytaxti Bishkekda ShHT davlat rahbarlari kengashining sammiti (majlisi) bo'lib o'tdi. Unda ShHT faoliyatini yanada takomillashtirish, siyosati hamjihatlikni mustahkamlash, savdo – iqtisodiy aloqalarni kengaytirish bilan bog'lik masalalar muhokama qilindi.

Sammitda Afg'onistonda yuzaga kelgan vaziyat, narkotik moddalar ishlab chiqarish va narkotrafikning nazorat qilib bo'lmas darajada kengayib borayotganini aytib o'tildi. 1) Afg'onistondagi vaziyatni bartaraf etish uchun harbiylashtirish va kuch ishlatish yo'li bilan emas, balki qurorsizlanish va jahon hamjamiyati yordamida ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish, keskin ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni hal etish, faol aholini qo'llab – quvvatlash lozim; 2) Markaziy Osiyo mintaqasida suv – energetika resurslaridan oqilona foydalanish g'oyasi ilgari surildi; 3) kommunikatsiya, yoqilg'i – energetika sohasida davlatlararo yirik loyihalarni amalga oshirish; 4) ShHT Bosh kotibi rolini yanada mustahkamlash uchun

unga a'zo davlat arboblari orasidan 5 yil muddatga tayinlash masalasini bildirdi.<sup>1</sup>

ShHTning eng muhim 3 ta vazifasi 2001-yil 15-iyunda "Terrorizmga, separatizmga hamda ekstremizimga qarshi kurash haqidagi Sharxay konvensiyasi" da qabul qilinib, belgilab berildi:

- 1) terrorizmga qarshi birgalikda kurashish;
- 2) separatizm (ayirmachilik)ga qarshi kurash;
- 3) ekstremizmga qarshi kurash;

ShHT tarkibida faoliyati yo'lga qo'yilgan tuzilmalar:

1. Terrorizmga qarshi birgalikda kurash markazi (2004-yil).
2. ShHTning Ishbilarmonlar kengashi (2005-yil).
3. ShHTning Banklararo assotsiatsiyasi (2006-yil).

4. Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda bitim asosidagi hamkorlik.

Bizga qo'shni bo'lgan asg'on xalqi boshiga tushgan musibatlarga ham befarq qarash mumkin emas. Buning o'ziga xos jiddiy asoslari bor. Jumladan:


birinchidan, asrlar mobaynida shakllangan qon – qardoshlik tuyg'usining, milliy va ma'naviy, tarixiy va ijtimoiy ikki tomonlama hamkorlikning mavjudligi;

ikkinchidan, Afg'onistondagi og'ir ma'naviy – ijtimoiy vaziyat, kelajakning mavhumligi;


uchinchidan, 30 yildan ortiq vaqt mobaynida davom etib kelayotgan va qachon tugashi noma'lum bo'lgan shafqatsiz urush;

to'rtinchidan, diniy aqidaparastlik, terrorizm va narkobiznes o'chq'iga aylanib qolgan makon sifatida bu mamlakatda o'ta xavfli va tahdidli vaziyatning mavjudligi;

beshinchidan, Shimoliy Afg'onistonda ikki million nafarga yaqin o'zbek yashaydi. Bu etnik yaqinlik, bir chegaraning ikki tomenida ikki xil ijtimoiy – siyosiy muhitda yashayotgan bir millatga mansub xaq taqdiriga befarq qarab bo'lmaydi. Chunki asrlar mobaynida bir makonda, bir tuzumda yashab kelganimiz.



1-rasm. Terrorizmni bartaraf qilishning umumi omillari



2 – rasm. Terrorizmga qarshi qaratilgan xalqaro uyushmalar

Mutaxassislariga ko'ra, hozirgi paytda dunyodagi mavjud narkotik moddalarning asosiy qismi Afg'onistonda yetishitirilyapti. Uning 75 foizi esa Yevropa mamlakatlariga tarqatilyapti. Bu millati va elatidan, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, insoniyatni halokatga olib boradigan, uni mayib – majruhlikka mubtalo etadigan, boshqacha aytganda, insoniyat taraqqiyotini tanazzulga duchor etadigan dahshatl balodir.

Bugungi kunda O'zbekistonni jahondagi 180dan ortiq davlat tan olgan, davlatimiz dunyodagi 130 ga yaqin mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan. Yurtimizda 88 ta chet davlat vakolatxonasi ro'yhatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot, 13 ta

nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda O'zbekiston elchixonalari va moliya tashkilotlari teng huquqli asosda faoliyat yuritmoqda. Hozirgi vaqtida chet ellarda mamlakatimizning 48 ta diplomatik vakolatxonasi bor. O'zbekistonda esa 86 ta elchixona va savdo vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. Jahonning 140 mamlakati bilan savdo – iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan. Mustaqil O'zbekiston diplomatiya sohasida o'z salohiyati va an'analari borasida aniq, asoslangan va uzoq muddatga mo'ljallangan siyosatni olib bormoqda. Diplomatiya kadrarini tayyorlash uchun Toshkentda 1993-yildan buyon Jahan iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston 1992-yil 2-martda BMTga qabul qilindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995-yili Toshkentda Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'tishlangan xalqaro seminar bo'lib o'tdi. 1993-yil fevral oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi.

BMT ustavida va xalqaro huquq prinsiplari bo'yicha deklarat-siyada quyidagi 7 ta asosiy prinsip qayt etilgan:

- 1) kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;
  - 2) ziddiyatlarni tinch yo'l bilan bartaraf etish;
  - 3) biron – bir davlatning ichki ishalriga aralashmaslik;
  - 4) xalqlarning teng huquqliligi va o'z huquqlarini o'zları belgishashi;
  - 5) hamkorlik;
  - 6) davlatlarning suveren tengligi;
  - 7) xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish.
- Bular YeXHTning 1975-yildagi yakuniy aktida ro'yhatga olinib.
- 3 ta prinsip bilan to'ldirildi:
- 1) chegaralarning dahlsizligi;
  - 2) hududiy yaxlitlik;
  - 3) inson huquqlarini hurmat qilish prinsiplari.

Birinchi Prezident Islom Karimov "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish v yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh eitshdir" nomli ma'rzasida (2005-yil 28-yanvar) tashqi siyosatimizning ustuvor yo'naliishlari haqida to'xtalib quyidagilarni belgilab berdi:

1) davlatimiz tashqi siyosatining ma'no – mazmuni va maqsadi bitta – u ham bo'lsa. O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaatidir;

2) Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash. Albatta, bunda mintaqada strategik mayhumlik saqlanib qolayotganini ham tan olish kerash;

3) "Qo'shning tinch – sen tinch" hayotiy naqliga rioxat etish;

4) BMT doirasida hamkorlikni rivojlantirish. Shuningdek, YeXHT, Yevropa ittifoqi, NATO kabi xalqaro tuzilmalar, AQSh, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar bilan demokratik tamoyillar asosida aloqalarni rivojlantirish;

5) xalqaro terrorizm va radikalizmga qarshi kurashda birdamlikni ta'minlash va h.k.


O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4 – bob, 17 – moddasida mamlakatimizning xalqaro munosabatlardagi tashqi siyosatining quyidagi 5 ta huquqiy prinsipi ishlab chiqildi va asoslab berildi:

- 1) davlatlarning suvereniteti, tengligi;
- 2) kuch ishlatmaslik yoki tahdid qilmaslik;
- 3) chegaralarning daxlsizligi;
- 4) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- 5) boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.

Bu prinsiplar O'zbekistonning o'z milliy manfaatlarini ko'zlab siyosat olib borish borasidagi tamoyillari bilan uyg'unlashtirildi. Islom Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishning 6 ta amaliy pritsipini asoslab berdi, ular:

- 1) milliy davlat mansaatlari ustun bo'lgan holda, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;
- 2) umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- 3) teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, tenglar orasida teng bo'lish;
- 4) mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar, barcha davlatlar bilan teng aloqalar o'rnatish;
- 5) ichki milliy qonunlardan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan olish;

6) ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish:



3 – rasm. Davlatning tashqi siyosatini belgilovchi omillar

1995-yil 30 avgustda “O’zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasi to’g’risida” Oliy Majlis qarori qabul qilindi.

1996-yil 26-dekabrda “O’zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to’g’risida” gi qonun qabul qilindi.

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O’zbekiston o’z mustaqilligining dastlabki yillardayoq quyidagi asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi va ularga amal qilib kelmoqda:

1) o’zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarning ustuvorligi;

2) teng huquqlilik va o’zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik;

3) mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

4) xalqaro huquq normalarining davlatning milliy huquq normalaridan ustuvorligi;

5) tashqi aloqalarni ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlanirish.

O’zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so’ng o’z tashqi siyosatimizni xalqaro hamjamiyatning to’laqonli subyekti sifatida amalga oshirish uchun real imkoniyatlarga ega bo’ldi. Endilikda tashqi siyosat mustaqil tarzda amalga oshirilmoqda.

Jamiyat va davlatlar tarixi shuni ko’rsatadi, biron – bir mamlakat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan taraqqiyotga erisha olmaydi. Sharq va G’arb mamlakatlarini bir – biriga

bog’lagan Buyuk ipak yo’lining markazida joylashgan O’zbekiston necha – necha asrlardan buyon dinlar, millatlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi bo’lib kelmoqda.

Ayniqsa Amir Temur va Temuriylar davrida dunyodagi yirik davlatlar Samarqand bilan o’z aloqalarini o’rnatgan. Amir Temurning Fransiya, Angliya, Ispaniya qirollari, o’nlab qo’shni davlatlarning hukmdorlari bilan yozishmalari o’sha davrdagi jo’shqin siyosiy, madaniy v svdo aloqalaridan guvohlik beradi.

Chor Rossiyasi bosqinidan so’ng 130 yildan ortiq davom etgan mustamlaka davri mamlakatimizning tashqi aloqalarini uzib qo’ydi. Xorij bilan barcha munosabatlar istilochilarining nazorati va ruhsati bilan amalga oshirilar edi. Bir paytlar dunyoga dong taratgan o’lkamiz chekka bir viloyat darajasiga tushirib qo’yildi. Sovetlar davrida esa chetga chiqarilgan bir – ikki diplomat hamda vazifasi oliy rutbali xorijliklarni mehmon qilishdan iborat bo’lgan Tashqi ishlar vzirligidan boshqa hech narsa yo’q edi.

Bugungi kunda O’zbekiston taraqqiyotining konstitutsiyaviy zamini yaratildi. Shunga mos ravishda inson huquq va manfaatlari to’la ta’minlanmoqda. Xalqimizning ma’naviy salohiyati, unga xizmat qiladigan tabiiy va texnikaviy zaxiralar, mustahkamlanayotgan xalqaro munosabatlar demokratik rivojlanish va inson huquqlariga rioya qilish uchun barcha sharoitlarning bosqichma – bosqich yaratilishiga kafolat beradi.

O’zbekiston Konstitutsiyasi “O’zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to’g’risidi”gi qonunda belgilangan konstitutsiyaviy an’analarni davom ettiradi. Mazkur an’analarga ko’ra, xalqaro huquq davlatimiz qurilishining muhim manbai bo’lib, O’zbekiston o’zining xalqaro huquq normalariga sodiqligini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab namoyish etmoqda. Bu esa yosh mustaqil davlatimizning eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga qabul qilinishi va ularning tarkibida munosib faoliyat ko’rsatishi uchun imkon berdi. O’zbekistonning mustaqil davlat sifatida boshqa davlatlar tomonidan diplomatik tan olinishiga, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishishiga yo’l ochdi.

BMT ustavi, Inson huquqlari to’g’risidagi umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari haqidagi boshqa xalqaro paqtlar, Xelsinki bitimlari, Parij va Madrid xartiyalari qoidalari Konstitutsiyamizdagи xalqaro huquq prinsiplari va normalariga asos bo’ldi. Bunday

konstitutsiyaviy yondashuv, ayniqsa, Konstitutsiyaning muqaddimäsında, 4 – bobida, ikkinchi bo‘limda 22, 23 va 26 – bobda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu boblarning tegishli ravishda “Tashqi siyosat”, “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari”, “O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyat”, “Saylov tizimi”, “Muñofaa va xavfsizlik” deb nomlanishi ham fikrimizning dalilidir.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligi ijtimoiy dunyoqarash va jahon hamjamiyatining jo‘g’rofik – siyosiy tuzilishida tub o‘zgarishlar davri bo‘lib tarixga kirdi. Juhon hamjamiyati yangi davrga qadam qo‘ydi. Bu davr o‘zining ikki jihat bilan ajralib turadi. Birinchidan, bu davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi yaqinlashuv jarayonlari va har tomonlama hamkorlikning kuchayishi, yaxlit bo‘lgan siyosiy iqtisodiy va huquqiy makonlarning vujudga kelishi, hozirgi zamon xalqaro huquq normalarining yaratilishidir. Ikkinchidan, “sotsialistik lager”ning yemirilishi, totalitar tuzumlarning tugatilishi, ularning o‘rnida mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishidir. Endilikda “sovnuq urush”ga barham berildi, “kapitalistik” va “sotsialistik” degan tushunchalar o‘rtasidagi farq amalda yo‘q bo‘lib boryapti. Mafkuraviy aqidalardan xoli bo‘lgan yangi, erkin tafakkurni shakllantirish zarurti paydo bo‘ldi.

Birinci Prezidentimiz Islom Karimov “O‘zbekistonning o‘z istiqból va taraqqiyot yo‘li” kitobida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konsepsiysi to‘g’risida, tashqi siyosiy yo‘l, bu yo‘lning huquqiy negizi va uni amalga oshirishi vositali haqida to‘xtolib o‘tgan. O‘zbekiston tashqi siyosatining strategik yo‘li, asosiy qoidalari va maqsadlari, uning ustuvor va mintaqaviy yo‘nalishlari, xususiyatlari negizida mamlakatimizning milliy manfaatlari joy o‘lgan. Har qanday siyosat aql – idrok bilan ish tutishni taqozo etadi Rivojlanayotgan, tez taraqqiy etish uchun kuchli ilmiy, sanoat kuch – quvvatiga ega bo‘lgan mamlakatning tashqi siyosati ehtiøslardan xoli bo‘lishi lozim. O‘zbekiston ana shunday davlatlar sirasiga kiradi. Yangi xalqaro iqtisodiy tartib uchun harakat qilish qoidalari O‘zbekiston uchun ham diqqatga molik masaladir. Bu – xom ashyo va sanoat mahsulotlari narx – navolarining adolatli bo‘lgan nisbati, rivojlanayotgan davlatlarning san va texnika yutuqlaridan bahramand bo‘lish imkoniyati va hokazolardir.

## Xalqaro huquqiy tartibga solish mexanizmining elementlari

Xalqaro  
huquq  
normalari

Xalqaro huquq  
normalarini qo‘llash  
hujjalari

Xalqaro  
huquq  
munosabatlар

### 4 – rasm. Xalqaro huquqiy tartibga solish mexanizmining elementlari

Manfaat – bu zaruriy ehtiyojdir. Ehtiyojlar esa birinchi galda O‘zbekiston uchun taraqqiyotning muayyan jo‘g’rofiy va tabiiy, iqlimiyl, demografik holatimiz, xalqimizning ko‘p millatli tarkibi, uning tarixiy va madaniy merosi, ma’naviyat omili, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi, xom ashyo va zamonaviy texnologiya bilan ta’minlanganlik, davlatning xalqaro munosabatlardagi o‘rni va hokazolardir. Bu omillar O‘zbekistonning ehtiyojlarini belgilaydi. Ehtiyojlar esa manfaatlarda o‘z ifodasini topadi. Davlat manfaatlari uning tashqi siyosiy faoliyati belgilaydi. Shu jihatdan, O‘zbekistonning tashqi siyosiy manfaatlari xalqaro aloqalarni rivojlantirayotgan, uning tuzilmalari va faoliyatini belgilab berayotgan eng muhim omillardan biridir.

Barcha davlat va xalqaro tashkilotlar bilan aloqa qilishda davlatimizning milliy manfaatlardan kelib chiqiladi. Tabiiyki, bunda sheriklarimiz manfaatlari, ularning tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar hisobga olinadi.

O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va davlatlararo uyushmalar faoliyatidagi ishtiroki mamlakatimiz tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu tashkilotlar jahon hamjamiyatiga kirish, xo‘jalik aloqalarini o‘rganish, ekologiya, tabiiy muammolarni hal etish, ilmiy – texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishda katta yordam bermoqda.

Bu borada Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosidagi kafolatlar, BMT Nizomi va Xelsinki kelishuvi qoidalari, hujum qilmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish, xalqaro huquq qoidalarining milliy qonun-

larda ustuvorligi va boshqa prinsiplarga O'zbekistonning qat'iy amal qilib kelayotgani muhim rol o'yamoqda. Chunki jahondagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar huddi shunday yondashuv tarafdiridir.

O'zbekiston butun dunyo ko'z o'ngida tashqi siyosiy va madaniy aloqalarining boy tarixiga ega bo'lgan, mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro huquq jihatidan O'zbekiston uchun asrlar osha buyuk bo'lib kelgan davlatlar ham, davlatchilik tarixi biznikiga o'xshash yosh mamlakatlar ham teng va barobardir.

XX asrning oxirida dunyoning siyosiy makoni sifat jihatidan o'zgardi. Sovet Ittifoqi xalqlari hamda sobiq "sotsialistik hamdo'stlik"dagi boshqa davlatlar bir partiyaviylik tizimi va markazdan turib rejalashtirib iqtisodiyotidan voz kechishdi. Shu tariqa dunyoda antagonistik ijtimoiy – siyosiy tuzumlarning global qarama qarshiligi barham topdi va jahon siyosatida demokratik jamiyatlar salohiyati anche oshdi. Yevroosiyo hududida, jumladan. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari, shuningdek, sobiq ittifoq hududidagi yangi mustaqil davlatlar ijtimoiy – siyosiy rivojlanishining demokratik yo'liga o'tdi.

O'zbekiston Respublikasining Harbiy (Mudofaa) doktrinasi, uning siyosiy va harbiy jihatlari. 1995-yil 30 avgustda "O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasi to'g'risida" Oliy Majlis qarori qabul qilindi. Mintaqadagi harbiy – siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, 2000-yil 3-fevralda O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi qabul qilindi. Mamlakatning davlat va milliy xavfsizligini mustahkamlash bilan bog'lik vazifalarni hal etishni ta'minlovchi mazkur Oliy Majlis qarori katta siyosiy va harbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Mudofaa doktrinasi davlatimizning tinchliksevar tashqi siyosiy yo'lini yana bir bor namoyon etdi. U O'zbekistonning xalqaro obro' – e'tibori va jahon maydonidagi mavqeini oshirdi. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi 3 qismdan iborat.

I. Umumiy qoidalar. Mudofaa doktrinasi O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosatining negizini tashkil etadi va milliy xavfsizlik konsepsiyaning tarkibiy qismi bo'lib, tashqi siyosat, davlatlararo munosabat masalalariga, urush va tinchlik muammolariga yangicha yondashuvlarga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat

va xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida o'z mudofa siyosatini barcha mamlakatlarning tinch – totuv yashashi, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik, ularning mustaqilligini, chegaralar buzilmasligi va o'zgarmasligini hurmat qilish prinsiplariga asoslanadi.

## II. Doktrinaning siyosiy jihatlari.

O'zbekiston Respublikasining urushga munosabati. Bunda tashqi siyosatning asosiy vazifasi: xalqaro va davlatlararo muammolarni urush yo'li bilan hal etishdan voz kechish, harbiy mojarolarni diplomatiya vositasida bartaraf qilish, ziddiyatli holatlarga barham berish, tinchlik yo'lida barcha imkoniyatlarni sarflash kabi tamoyillar muhim o'rinn tutadi.

Urushning va urush xavfini oldini olish – bosh strategik yo'naliш. Urushlar va harbiy mojarolarning oldini olish, harbiy bloklarga qo'shilmaslik. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini boshqa davlatga qarshi ishga solmaydi, hech kimga tahdid qilmaydi, yadro quroliga ega bo'lmaydi. Umumiy xavfsizlikni saqlashda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar rolini oshiradi. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta'minlaydi, bu borada samarali tizimni yaratadi. Faqat tinchlik uchun kurash olib boradi. Odam ruhiyatiga halokatli ta'sir etuvchi vositalarni ishlab chiqishni ta'qilaydi. Harbiy sohadagi aloqalarni kengaytiradi. Milliy va diniy murosasizlikka yo'l qo'ymaydi. Fundamentalizm, ekstremizm, terrorchilikning kuchayish tendensiyasiga yo'l qo'ymaydi. Tinchlikni saqlashdagi majburiyatlarga amal qiladi va h.k.

## III. Doktrinaning harbiy – tashkiliy jihatlari.

Markaziy Osiyo mintaqasining o'ziga xos xususiyatlari. Ushbu mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun qat'iy va izchil harakat qiladi. Xavfsizlikni ta'minlab boradi. Urushlarning oldini oladi.

Harbiy xavfning potensial manbalari. Jahonning turli mintaqalarida qurolli guruhlari yuqori darajada jamlangan va h.k.

Hozirgi zamon urushlarining xususiyati va oqibatlari. Yadro urushi – insoniyat uchun halokat manbai. Insoniyatni yo'q qiluvchi ommaviy qirg'in qurollarining ishlab chiqarilishiga qarshi bo'lib, tajovuzkorlik siyosatini qoralaydi va h.k.

Bosh harbiy – strategik vazifalar. Tinchlik davrida davlatning mudofaa qobiliyatini rivojlantiradi. Urush chiqqan taqdirda o'z kuchlari bilan tegishli shartnomalar orqali harakat qiladi.

Qurolli kuchlar qurilishi va ularni strategik qo'llash prinsiplari. Qurolli kuchlardan foydalanish shartlari.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini, hududini va aholisini mudosaaga tayyorlash harbiy doktrinaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan demokratik qadriyatlar, xalqaro huquq asosida o'z tashqi siyosatini yuritish, o'zaro munosabatlarda kuch ishlätmasdan, muzokaralar yordamida muammolarni hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligini hurmat qilish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston o'z diplomatiyasini yuqoridagi qadriyatlar asosida olib bormoqda.

O'zbekiston tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining birinchi yillardan boshlab amalga oshirilayotgan strategiyaning mintaqaviy davomi sifatida 2012-yil sentabr oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun mamlakatimiz tashqi siyosatida bosh qadriyat va tamoyil bo'lgan o'zining uzoq muddatli quyidagi milliy manfaat va prinsiplarini ko'zlaydi:

- turli harbiy siyosiy blok va al'yanslardan uzoq bo'lish;
- o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qat'iy pozitsiyaga ega bo'lish;
- o'z hududida xorijiy davlatlarni harbiy bazalari joylash-tirishiga yo'l qo'ymaslik;
- ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borish.

### Tayanch so'zlar

Iqtisodiy makon, hududiy yaxlitlik, kollektiv xavfsizlik, strategik hamkorlik, saldo, potensial, spiker, kompaniya, poligon, ayiraboshlash dinamikasi, kompressor stansiyasi, investorlar, konsorsium, resurs, aksiz solik, eksport muhiti, akkredatsiya, mintaqaviy kooperatsiya, grant o'rnlari, radioastronomik observatoriya, modernizatsiya, madaniy hamkorlik, gastrol, kosmik aloqalar, platforma, federatsiya, suveren davlatlar, xavfsizlik zona, kvotalar, radifikatsiya, hamkorlik transformatsiyasi, alternativ tashkilot, lider, markazchilar, konsepsiya, antiteroristik va antikriminalistik, deklaratsiya, radiolokatsion stansiya, siyaklar, mafkuraviy manzaralar, mahdudlik, pansovetizm mafkurasi.

koalitsion kuchlar, umumiyl tamoyillar, plantatsiya, moliyaviy budjet, xizmat va texnologiyalar, narkotrafik, tanazzul, suveren tenglik, umumbashariy qadriyatlar, real imkoniyatlar, huquqiy makon, erkin tafakkur, demografik holat, diplomatiya vositasi, doktrina, harbiy potensial, harbiy siyosiy blok va alyanslar.

### Savol va topshiriqlar

1.Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkiloti qanday tarixiy vaziyatda tuzilganligini bilasizmi?

2.O'zbekiston Qozog'iston, Rossiya va MDHning boshqa davlatlari o'rtaсидagi har tomonlama aloqalar asosini tushuntirib bera olasizmi?

3.O'zbekistonning Markaziy Osiyoda Ekologik muammolar diniy eksteremizm, giyohvandlikni oldini olish borasida MDH doirasidagi faoliyatini qanday baholay olasiz?

4.Madaniy, ilmiy-texnikaviy va ta'lim sohasidagi hamkorliklarda O'zbekistonning MDHdagи o'rni qanday?

5.Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarining hamkorligi qanday yo'lga qo'yilgan?

6.Sobiq Ittifoq (SSSR) parchalangandan keyin MDHning o'rni hamda keyingi bosqichlarda hamdo'stlikning rivojlanishida qanday muammolar ko'zga tashlanmoqda?

7.Bugungi dunyoda jadal o'zgarib borayotgan vaziyat, jarayonlar qanday tahdid va xatarlarni keltirib chiqarmoqda?

8.Mintaqamiz xavfsizligi, barqarorligi va izchil rivojlanishiga qanday mojarolar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?

9.O'zbekiston Respublikasi qachondan boshlab BMT rahbarligida Afg'onistonga o'z yechimini kutib turgan ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etish bo'yicha muloqot guruhini shakllantirish g'oyasini ilgari surib kelmoqda?

10."6+3" muloqot guruhi va koalitsion afg'on hukumatini shakllantirishdan ko'zlangan maqsad nimalardan iborat?

11."O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun (2012-yil sentabr) qanday prinsip va strategik ustuvor yo'nalishlarni belgilab bergen?

12.O'zbekiston tashqi siyosatida qanday bosh qadriyat va tamoyillar o'zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko'zlaydi?

## Xulosa

Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorligining asosini iqtisodiy sohada xususan, tabiiy resurslardan foydalanishda xalqlarning umumiy sa'y-harakatlarini birlashtirish, ularning ilmiy-texnich, ishlab chiqarish, texnologik salohiyatini yaqinlashtirish va shu orqali, har bir mamlakatning izchil rivojlanishiga, barcha xalqlarning moddiy farovonligi va madaniy darajasini oshirishga erishish kabi maqsadlar tashkil etadi. Ushbu vazifalarни hal etishning muhim sharti esa Markaziy Osiyo mintaqasida va boshqa Osiyo mamlakatlarida tinchlik va osoyishtalik, barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Tinchlik va osoyishtalikni ta'minlamay turib, barqarorlikka erishmay turib, hech qanday islohatni amalga oshirib bo'lmayda. Ana shu ma'noda Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Markaziy Osiyonи yadro qurolidan xoli zona deb e'lon qilish to'g'risidagi tashabbusi Osiyo mamlakatlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'zining tashqi siyosiy hamkorliklari davomida Orol muammosini hal etish uchun mamlakatlar sa'y-harakatlarini umumlashtirishni ustivor yo'nalish deb hisoblaydi. Bu muammo bugungi kunda nafaqat Markaziy Osiyo uchun, balki butun insoniyat boshiga ham jiddiy xavf solib turibdi.

Birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari Markaziy Osiyoda tinchlik va kollektiv xavfsizlikni, saqlash shu mintaqadagi mamlakatlar salohiyatini birlashtirish, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi xarakatlari jahonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish uchun o'ta muhimdir.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlarining Markaziy Osiyodagi tinchliksevar tashqi siyosatining konstitutsion tamoyillari tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiq; shu hududdagi davlatlarning suveren tinchligi va chegaralar daxlsizligini xurmat qilish boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini xurmatlashdan iboratdir.

Uchinchidan, Markaziy Osiyoning geosiyosiy holati undagi davlatlarning bir-biriga qarama-qarshi tashqi siyosati yuritilishidan zarar ko'radi. Buning oldini olish uchun mintaqalarda davlatlari xalqaro muammolarga bo'lga yagona tizimli yechimlarni ishlab chiqishlari va bu yechimlar tashqi siyosiy izchillik va ustivorlik tamoyili asosida qo'llab-quvvatlanishi zarur.

To'rtinchidan, Xalqaro munosabatlardagi, xususan Markaziy Osiyoga tegishli masalalarda tashkilotning a'zo davlatlari ShHHTning mintaqaviy barqarorlik va rivojlanishga qo'shadigan xissasini yuqori baholaydilar.

Beshinchidan, KNShT ning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratishdagи ahamiyatini, hamda mintaqalarda davlatlari o'rtasida o'zaro uyg'un tashqi-siyosiy hamda harbiy-siyosiy munosabatlarning shakllanishi va barqaror kafolatlarning yaratilishi amaliy jihatidan samarali xavfsizlik tizimini barpo etishda xal qiluvechi rol o'ynashi shubhasizdir. Shuningdek Markaziy Osiyo davlatlarining salohiyatini uyg'unlashtirish va mustahkamlash borasidagi harakatlari, jahonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish uchun o'ta muhimdir.

Umuman Xalqaro tashkilotlar bilan mamlakatlararo siyosiy hamkorlik, ular o'rtasidagi obyektiv va ongli ravishda o'rnatiladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi aloqalardan iborat bo'lib, u mamlakatlarni dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashtiradi.

Bunday hamkorliklar:

- umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tan olish, inson va tinchlikka, insoniyat sivilizatsiyasiga eng oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish;

- mojaroli masalalarni tinch yo'l bilan bartaraf etish, muammolarni siyosiy muzokaralar chog'ida hal etish;

- barcha mamlakatlar bilan Hamkorlik qilish;

- Har bir mamlakatda xalqaro mexnat taqsimotida, mintaqaviy va global xavfsizlik tizimlarini yaratishda o'zining munosib o'rnini ta'minlash kabi tamoyillarga asoslanadi.

Xullas, o'tkaziladigan har bir xalqaro siyosiy anjumanlar o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, u dunyo mamlakatlarining har tomonlama hamkorligini belgilashda ham katta tarixiy ahamiyat kasb etadi.

## **Adabiyotlar**

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston", 2016-yil.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T."O'zbekiston", 2016.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T."O'zbekiston", 2016.
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson mansaattlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T."O'zbekiston", 2017.
- 5.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'ishi kerak. –T."O'zbekiston", 2017.
- 6.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T."O'zbekiston" NMIU, 2018, 1-jild.
- 7.Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi bahodir. –T."O'zbekiston" NMIU, 2019, 2-jild.
- 8.Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T."O'zbekiston" NMIU, 2019, 3-jild.
- 9.I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T. "O'zbekiston", 1996-yil, 1-jild.
- 10.I.A.Karimov.Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. "O'zbekiston" 1996-yil, 2-jild
- 11.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. "O'zbekiston", 1997-yil.
- 12.I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. "O'zbekiston", 1998-yil.
- 13.I.A.Karimov Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. "O'zbekiston", 2002-yil, 10-jild.
- 14.I.A.Karimov.Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'nifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. "O'zbekiston", 2003-yil, 11-jild.

15. I.A.Karimov. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. "O'zbekiston", 2005-yil, 13-jild.
- 16.I.A.Karimov. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohatlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir.T. "O'zbekiston", 2007-yil, 15-jild.
- 17.I.A.Karimov. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. "O'zbekiston", 2008-yil, 16-jild.
18. Алимов А. Внешнеэкономическая деятельность Республики Узбекистан: Взгляд в будущее. Т. "Ўзбекистон", 1992 г.
- 19.Azizho'jayev A. Mustaqillik: kurashlar, izziroblar, quvonechlar. T. "Akademiya", 2010-yil.
- 20.Anvar A.M. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta'minlashda Tojikiston omili. T. "Akademiya", 2007-yil.
21. Абдуллаева Л., Игиталиев Ш. Расширение Европейского Союза и его влияние на страны Центральной Азии. Журнал «Центральная Азия и Кавказ» 2004 г, №4, С 35-41.
- 22.Arziyev F. Markaziy Osiyo: Integratsiya yanada mustahkamlanmoqda. "Xalq so'zi", 1997-yil, 25-iyun.
23. Арзиев Ф. Сотрудничества на пути прогресса: Узбекистон, Казахстан, Киргизстан. «Народное слово», 1998 йил, 25 марта.
- 24.Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. Т. "Шарқ", 2005 йил, с 464.
- 25.Арунова М. Россия и государства Центральной Азии: сотрудничество и сфере безопасности. Журнал. "Россия и мусульманский мир", 2001 г, №9, С 116-118.
- 26.Астанов К. Формирование единого экономического пространства стран СНГ. Журн. "Мировая экономика и международные отношения", 2005 г, №1, С 95-99.
- 27.Ахмеджанов Г. Россия и Центральная Азия, Взаимосвязь в историческом развитии. Москва-Ташкент. 2008г.
- 28.Bobo耶в А. Azaliy xalqlar doimo til topishadi. "O'zbekiston ovozi", 2001-yil, 21-noyabr.

29. Boboyev A. Markaziy Osiyo: Xavfsizlik va hamkorlik "Xalq so'zi" gaz. 2000-yil, 22-aprel.
30. Boboyev A. Integratsiyani mustahkamlash yo'lida. "Xalq so'zi", 2004-yil, 29-may.
31. Boboyev A. Mushtarak maqsadlar yo'lidagi muhim qadam. "XXI ASR" gazetasi, 2006-yil, 26-yanvar.
32. Boboyev A. "Shanxay ruhi taraqqiyotga xizmat qilmoqda". "Xalq so'zi", 2007-yil, 26-oktabr
33. Бабак В. Центральная Азия: проблемы постсоветской интеграции. Журн. «Центральная Азия», 1997 йил, №3, с 10-24.
34. Баймуратов Х. Средняя Азия и Казахстан вступают в рынок. Журн. «Проблемы теории и практики управления», 1993 йил, №4, с 30-34.
35. Бахавадинов А., Додихудоев Х. Геополитические ориентиры Таджикистана. Журн. «Россия и мусульманский мир», 2005г. №6, 138-146.
36. Байбосунов К. Геополитические ориентиры Киргизстана. Журн. «Центральная Азия и Кавказ», 2004г, №4, с 176-185.
37. Бирюков С. Политика России в отношении Узбекистана. Журн. «Россия и мусульманский мир», 2001г. №6, с 78-91.
38. Васильев А. Россия и Центральная Азия: Экономические и политические связи с Узбекистаном. Журн. «Азия и Африка сегодня», 1999 г, №4, с 2-5.
39. Грозин А. Влияние мировых центров силы на Казахстан и новые геополитические тенденции в государствах Центральной Азии. Журн. «Центральная Азия и Кавказ», 2006 г. №3, с44-57.
40. Гуан Пан. Шанхайская организация сотрудничества в контексте международной антитеррористической компании. Журн. «Центральная Азия и Кавказ», 2003г. №3, с 55-62.
41. Jamolov G. Qadimiy aloqalarni tiklab. "Xalq so'zi" gazetasi. 1999-yil, 11-noyabr.
42. Казахстан, Киргизстан, Узбекистан в социально экономических структурах современного мира. «Мировая экономика и международное отношение» 1997 г, №1, с 54-56.
43. Jo'rayev S, Axmedov O, Rahimova M. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2008-yil.
44. Жўраев С.А., Касимова Н.А. Актуальные вопросы современных международных отношений. Т. «Академия» 2008г.
45. Jaloliddin Safo. Milliy mansaatlар masalasiga yangicha yondashuvlar. "Tafakkur" jurn. 2011-yil, №3, 13-14 betlar.
46. Жуков Р. Резникова О. Россия-центральная Азия: новая модель взаимодействия "Россия и юг: возможности и пределы взаимодействия". Москва: Финстатинфром, 1996г, С 203-206.
47. Jo'rayev N. Agar ogoh sen. T. "Sharq", 1998-yil.
48. Забуров А. Органы СНГ и Интеграция Содружества и национальные интересы. М, 2005г.
49. Зевин Л. Экономическое пространства СНГ: возможные пути организации. Журн. «Вопросы экономики»-1994г, №3, с79-89.
50. Зиядуллаев Н. СНГ в глобальной экономике: стратегия развития и национальная безопасность. «Мировая экономика и международные отношения»-2005 г, №4, с 29-34.
51. "Islom diniga nisbatan mutlaqo asossiz xuruj va bo'htonlarga yo'l qo'ymaslik darkor" "Ma'trifat" gazetasi, 2008-yil, 5-aprel.
52. Иванов А. "Большая-азиатская четвёрка". "Международная жизнь"-1998, №9, с 52-59.
53. Yo'ldoshev M. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta'minlashda asosiy tashabbuskor. "Fiiokor" gazetasi. 2004-yil, 26-sevral.
54. Касымов А.. Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистана. Т. "Узбекистан", 1994.
55. Касымов А., Неклесса Г. Международно-правовые аспекты создания зон, свободных от ядерного оружия. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", Ташкент, 1999.
56. Ko'charov Ch. Markaziy Osiyoning mintaqaviy integratsion jarayoni muammolari. T. Fan. 2008-yil.
57. Karimbekov K. Xavfsizlik va taraqqiyot yo'lida hamkorlik. "XXI ASR", gazetasi. 2004-yiml, 10-iyul.
58. Karimbekova G. Markaziy Osiyo xavfsizlikni ta'minlashda ShHTning o'mi (xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari). Т., 2006-yil.
59. Lafasov M. O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari. Т. 1995-yil.

- 60.Mustaqil O'zbekiston tarihi. T. "Sharq". 2000-yil, 3-jild.
- 61.Морозов Ю. Перестройка политической карты. "Азия и Африка сегодня"-2002, №7, с 9-14.
- 62.Muzaffarov Z. "Mintaqaviy integratsiya rasmana iqtisodiy sa'yisharakatlarni taqazo etadi", "Xalq so'zi", 2003-yil, 27-sentabr.
- 63.Muhammadjonov O. Umumbashariy muammolar. T. "O'zbekiston", 2000-yil.
- 64.Murodov X., Muhammadiyev N., Jamolov G. O'zbekiston Jahon hamjamiyati safida. T. G.G'ulomov nomidagi Adabiyot va san'at nashriyot. T. 2000-yil.
- 65.Muhamedov A.ShXT nima degani? "Huquq" gazetasi, 2004-yil, 16-iyun.
- 66.Markaziy Osiyo: kecha bugun, ertaga. "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2001-yil, 29 deqabr.
- 67.Международное сотрудничество Узбекистана в области конкурентной политики. "Экономический вестник Узбекистана"-2003, №5, С 30-31.
- 68.Markaziy Osiyo: xavfsizlik va hamkorlik "Xalq so'zi", 2000-yil, 22-aprel.
- 69.Nizomova R. "Uchinchi sektor" va "Beshinchi hokimiyat". "Tafakkur" jurn. 2011-yil №2.
- 70.Narzullayeva O., Xo'jayev A. Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashda ShXTning o'rni. "Ijtimoiy fikr-inson huquqlari" jurnal, 2005-yil, №1.
- 71.Norov V.I. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustivor jahatlari. "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar"jurn. 1996-yil. №11,12, 3-9 betlar.
- 72.Нуриддинов Э.З. Вклад Республики Узбекистана в обеспечение региональной безопасности. "Общественные науки в Узбекистане", 1997г. №5, 7-11 стр.
- 73.Nazarov K., Jo'rayev S. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar. "Akademiya nashr". T., 2005-yil, 162bet.
- 74.Никонов В. СНГ ешё поживет журн. "Россия и мусульманский мир"-2005, №9, С 789-180.
- 75.Nabiyev E.G. O'zbekiston va ShHT (Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari) T. 2007-yil,
- 76.Овчинников В. Евразийский мост-аналог Великого шелкового пути. Журн. "Азия и Африка сегодня"-1999, №10 с56-57.
- 77.Омаров О. На пути к Глобальной безопасности: Центральная Азия после 11 сентября 2001 года. -Бишкек 2002г.
- 78.Настухов Б. СНГ пересекающееся множества: политическая интеграция. Журн. "Международная жизнь"-2004, №1.
- 79.По пути углубления интеграции: О заседании Совета Министров Иностранных дел Республики Казахстан, Kyrgyzskoy Respublikini Respublikasi Uzbekistan. «Правда востока», 1995, 12 ноября.
- 80.Rajabov A. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi. T.Fan, 1998-yil.
- 81.Rajabova M. Diniy Eksteremizm va terrorizm T. "Sharq", 2000-yil.
- 82.Rasulov O. Mintaqaviy mojarolarning salbiy oqibatlari. T. "O'zbekiston", 2001-yil.
- 83.Safayev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., JIDU, 2005yil.
- 84.Sobirov Sh. Yadro quroldan xoli zona "Ma'rifat" gazetasi, 2006-yil, 12-iyun.
- 85.Saidov A. Xalqaro huquq. T. "Adolat", 2001-yil.
- 86.Saidov A. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. T. "O'zbekiston", 1994-yil.
- 87.Страны мира и международные организаций: Справочник М: УНИИНТЕХ. 2004г, с131.
- 88.Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida. O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi. T. "O'zbekiston", 1993-yil.
- 89.Tursunov E. Afg'oniston va Tojikistondagi xunrezliklar T. "O'qituvchi", 1999-yil.
- 90.Tolipov F. Mafkuraviy kurash va milliy, mintaqaviy xavfsizlik. "Ijtimoiy fikr", 2000-yil, № 1, 29-39 betlar.
- 91.Толипов Ф. Сравнительный анализ интеграции в СНГ и Центральное Азии Журн. «Центральная Азия и Кавказ»1999г. № 5, с 143-145.
- 92.To'rayev B., Ubaydullayev U. O'zbekiston mintaqada tinchlik himoyasida. T. "O'zbekiston", 2001-yil.

93.Тоганян В. Шанхайский гамбит (Совещание глав государств стран-членов ШОС. Астана.) “Евразия”-2005, №8 с 39.

94.Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. T. “Moliya”, 2003-yil.

95.Федулова К. Соотрудничества независимых государств 15 лет спустя. Журн. “Мировая экономика и международная отношения”. 2006 г, №12.

96.Xlopojkix Ye., Azimov A., ShHT: tinchlik va barqarorlikka kafolat. “Mohiyat” gazetasi, 2004-yil, 18-iyun

97.Хакимов Б. Коллективная безопасность в СНГ. журн. “Международная жизнь”, 2001г, №7, с15-20.

98.Хидоятов Г.А. Гуломов Х.Г. Всемирная история. Новейший период. Европа и США после второй мировой войны (1945-1995гг.) Т., 1999.

99.Ходжаев А. Шанхайская организация сотрудничества и Узбекистан: перспективы развития отношений. “Право”-2004, №4, С 14-16.

100.Шаниязов К. Отношение Республики Узбекистан к разрешению региональных и мировых конфликтов. Журн. “Хозяйство и право”,-2004, № 11, с 90-94.

101. “Шанхайская пятерка” плюс Узбекистан ШОС. Журн. “Эхо планеты”, 2001, №26, с14.

102.Шишков Ю. Период полураспада СНГ закончился. Что впереди? Журн. “Безопасности Евразии”-2002, №1, (Январь-март.)

103.Yusupov I. Qo’shning tinch-sen tinch. T. “O‘zbekiston”, 1999-yil.

104. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. T. “Adolat”, 1995-yil.

105. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning buniyod bo‘lishi. T. “O‘zbekiston”, 1992-yil.

106. O‘zbekiston: mustaqillik odimlari. T. “O‘zbekiston”, 1995-yil.

107.O‘zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarda. T. “O‘qituvchi”, 1996-yil.

108. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari. T. “O‘zbekiston”, 2007-yil.

109.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiqlopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T. 1995-yil, 5-jild.

110.Qirg‘izboyev A. O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi. T. Fan. 2004-yil.

111.Qudratxo‘jayev Sh. Taraqqiyot sari dadil qadam. “Xalq so‘zi” gazetasi, 23-iyun.

112.Qosimov N. Mustaqillik kurashlar davri. T. “O‘zbekiston”, 1997-yil.

113.Qardosh xalqning qo’shaloq bayrami. “Xalq so‘zi” gazetasi, 1997-yil, 16 deqabr.

114.G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai. T. “O‘zbekiston”, NMNU, 2009-yil, 97 bet.

115.G‘afurov S. Xavfsizlik srtategiyasi: Markaziy Osiyo Respublikalari va fors ko‘rfazi davlatlari amaliyoti. T. A. Navoiy nomidagi milliy kutubxona. Nashriyoti, 2007-yil.

116.G‘afforov Ya., Xolliyev A. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati. T. “Universitet”, 2003-yil.

117.G‘afforov Ya.X. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti-xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida. “Ijtimoiy fikr-inson huquqlari”, jurn, 2005-yil, №4, 37-42 betlar.

118.G‘afforov Ya.X. Mintaqaviy barqarorlik va integratsion jarayonlar. O‘zMU xabarları, 2011-yil, maxsus son.

119.Hakimov R. O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti. T. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 2001-yil.

120.Hamkorlik va o‘zaro anglashuv- umumiy muammolar yechimining yagona yo‘li. “O‘zbekiston ovozi” gaz. 2002-yil, 8oktabr.

- 707 -


G'AFFOROV YARASH

# XALQARO TASHKILOTLAR HAMKORLIGI

(O'quv qo'llanma)

II-Qism

Muharrir: — I.T. Nishanbayeva  
Musahhih: — M.X. Mustafayeva  
Rassom: — J.R. Azimov  
Kompyuterda  
sahifalovchi: — J.R. Azimov



Noshirlik faoliyatini boshlagani haqida vakolatlari  
davlat organini xabardor qilgani to'g'risida

**TASDIQNOMA № 3991**

2021 yil 3 mayda bosishga ruxsat etildi  
Bichimi 60x84, 1/16. Times New Roman garniturasi.  
Offset bosma. Shartli bosma tobog'i 16,5.  
Adadi 100 nusxada. 25-sonli buyurtma

"Shafoat nur fayz" nashriyoti. Toshkent shahar,  
Uchtepa tumani, Maxorat-71